

ISSN:3030-3869

BADIIY

TALIM VA

PEDAGOGIKA

1

2025

BADIIY TA'LIM VA PEDAGOGIKA

O'zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta'lim yo'nalishlarida
pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning
malakasini oshirish markazi ilmiy jurnali

BOSH MUHARRIR:

Davronbek SHUKUROV

TAHRIR HAY'ATI

Kamola AKILOVA

*san'atshunoslik fanlari doktori,
professor*

Sobir RAHMETOV

professor

Komiljon GULYAMOV

pedagogika fanlari doktori (DSc)

Rustam XUDOYBERGANOV

professor

Dilafuz QODIROVA

san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Muhayyo JUMANIYOZOVA

*san'atshunoslik fanlari falsafa doktori
(PhD), dotsent*

Munisa MUHAMEDOVA

*tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
professor*

Dilzoda ALIMKULOVA

*san'atshunoslik fanlari falsafa doktori
(PhD), dotsent*

Nigora KULTASHEVA

san'atshunoslik fanlari falsafa doktori (PhD)

Gulira'no ORIFJONOVA

san'atshunoslik fanlari falsafa doktori (PhD)

Surayo ALIYEVA

san'atshunoslik fanlari doktori (DSc)

Muzaffarjon JO'RAYEV

pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

Xolmuhammad AMONOV

pedagogika fanlari doktori (DSc)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2024-yil 27-martda
246479-raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:

Toshkent - Uchtepa tumani, Shirin ko'chasi 1-a uy

Tel: (77) 3633836

www.uzbamarkaz.uz

e-mail: uzbahuzuridagimarkaz@gmail.com

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Nodira XASANOVA

JAMOATCHILIK KENGASHI

Akmal NURIDINOV

professor

Rustam XUDOYBERGANOV

professor

Feruza ABIDJANOVA

falsafa fanlari nomzodi

Gulabza QARSHIYEVA

filologiya fanlari nomzodi

Binafsha NODIR

san'atshunoslik fanlari falsafa doktori (PhD)

Dilnoza JAMOLITDINOVA

filologiya fanlari doktori, professor

Botir SANGIROV

*san'atshunoslik fanlari falsafa
doktori (PhD)*

Jang Tae Mook

(Janubiy Koreya) professor

Kavita Daryani Rao

(Hindiston) professor

Natik Aliyev

(Ozarbayjon) professor

SAHIFALOVCHI:

Sardor MAMALATIFOV

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba nashr
etiladi**

OAK Rayosatining 2024-yil 7-iyuldagi 355/5-son
qarori bilan san'atshunoslik hamda pedagogika
fanlari bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.



MUNDARIJA

Alimkulova Dilzoda	
Oganes Tatevosyan ijodidagi uslubiy rang baranglik	4
Xayitboboyeva Xurshida	
An'anaviy amaliy san'at buyumlarining maishiy hayotdagi o'rni.....	10
Matluba Isokova	
Teatr salohiyat maydoni.....	18
Malikova Dilfuza	
Ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida o'quvchilarning estetik dunyoqarashini shakllantrishning dolzarbligi.....	23
Kabilov Xabibullo	
Muqimiy teatrining zamonaviy izlanishlarida an'analarga yondashuv.....	28
Kasimova Shaxnoza	
Jahon muzeyshunosligi amaliyotida badiiy muzeylar va maktablar o'rtasidagi hamkorlik integratsiyasi.....	33
Мадаминов Баходир	
Туркменская сабля в коллекции государственного музея искусств в Ташкенте (первая половина XVIIIв.– началоXIXв.).....	40
Muxamedova Munisa	
Toshkentda madaniy turizmning rivojlanish jarayonlari (XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari).....	48
Aytimova Dilbar	
Ilmiy kitابخana: tariyxí, qáliplesiwi hám rawajlaníw basqíshlarí.....	54
Muhamedova E'zoza	
Street art va reklama: shahar ko'chalarida badiiy yondashuv.....	60
Qobilova Shaxnoza	
Film g'oyasini ochishda musiqaning o'rni va ahamiyati.....	66
Rustamov Shaxzodbek	
Afg'on rubobini modernizatsiya qilish.....	70
Shukurov Alisher	
O'zbek milliy kino san'ati kecha va bugun ("Mahallada duv-duv gap" filmi misolida).....	76
Jomonqulov Husnullo	
Mustaqillik davri o'zbek kinosida badiiy (tasviriy) yechim unsurlarini qo'llash masalalari.....	83
Qurbanazarov Polat	
Klarnet saz asbabiniń payda boliwi tariyxí hám búgingi kúndegi atqariwshilari.....	88
Fazilat Turgunova	
Guliston shahar suratlar galereyasi faoliyati.....	92
Ziyayeva Rano	
Museum practice on the historical and typological development of architectural styles.....	97
Матевосян Гаянэ	
Молодёжное увлечение аниме и мангой и их значение для возрождения анимации в Узбекистане.....	105

Sharipov Azamat	
O‘zbek musiqa san’ati etnografiyasi.....	113
Kobilova Feruza	
Zamonaviy qo‘g‘irchoq teatrlarida rejissura, dramaturgiya va ssenografiya masalalari.....	119
Maxkamova Gulnora	
Samarqand kashtachiligi an’analarini davom ettirishdagi omillar.....	124
Хомидова Нигора	
Народные игры — сокровищница нашего.....	133
Arzibayeva Zuxra	
Milliy ohanglar va yoshlar tarbiyasi.....	139
Gulmanov Ibadulla	
Studentniń dáp saz ásbabında dóretiwshilik qábiletin rawajlandiriwda baslanǵısh shiniǵıwlar hám notalastiriw sisteması.....	144
Ibragimova Xonzoda	
Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida musiqiy-ritmik kompetensiya tushunchasini rivojlantirish.....	149
Aminova Munira	
O‘zbekistonda organ musiqasi rivojlanishining tarixiy va ijrochilik jihatlari.....	158
Zuxurov Maxmud	
Qaraqalpaqstanda dirijyorliq kórkem óneriniń qáliplesiwi.....	170
Aslanova Nargiza	
O‘quvchilarda kreativ yondashuv vositasida estetik dunyoqarashni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari.....	175
Sharifzoda Sardorbek	
Ta’lim-tarbiya jarayonida gender yondashuvining dolzarb muammolari.....	182
Ережепов Артықбай	
Жасларды Ўатансүйиўшилик руўхында тәрбиялаўда миллий саз эсбапларының қаҳарманлық дәстанларда сәўлелениўиниң әҳмийети.....	191
Allamov Shavkat	
Integratsiyalashgan ta’lim orqali muammolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirish.....	197
Sobirova Aziza	
Ijodiy topshiriqlar va tadqiqot asosida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.....	203
Косимов Дилшод	
Роль педагогического наследия Узбекистана на принятие управленческих решений..	211
Ro‘zmatova Sharofatxon	
Maktablarda tasviriy san’at va biologiyaning fanlararo aloqadorligi.....	215
Saidnazarov Ulug‘bek	
Talabalarni mustaqil ta’limga tayyorlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlar.....	220
Amonov Xolmuxammad	
Kreativ kompetentlik tushunchasi va uni pedagogik tadqiqotlarda o‘rganilishi.....	227

**OGANES TATEVOSYAN IJODIDAGI USLUBIY RANG BARANGLIK
СТИЛИСТИЧЕСКОЕ РАЗНООБРАЗИЕ В ТВОРЧЕСТВЕ ОГАНЕСА
ТАТЕВОСЯНА**

STYLISTIC DIVERSITY IN THE WORKS OF OGANES TATEVOSYAN

Alimkulova Dilzoda

Kamoliddin Behzod nomidagi

**Milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti,
san'atshunoslik fanlari falsafa doktori (PhD)**

Annotatsiya: Mazkur maqolada rassom Oganess Tatevosyaning XX asr boshlarida O'zbekistonga kelgandan keyingi ijodi tahlil etiladi. Rassom Samarqandda ijod etgan bo'lib, o'sha davr uchun yangicha bo'lgan shartli dekorativ-ikki o'lchamli uslubda asarlar yaratgan. Shu bilan birga, impressionizmga xos maneralarda va realistik an'analarga asoslangan asarlari bilan O'zbekiston uchun yangi bo'lgan rangtasvir san'atiga mahalliy badiiy an'analarga tayangan milliy shakl berishi bilan ijodi ahamiyatlidir.

Аннотация: В данной статье анализируется творчество художника Оганеса Татевосяна после его приезда в Узбекистан в начале 20 века. В Самарканде художник создавал произведения в новом для того времени условно-декоративном стиле. В то же время его работы значительны тем, что придают новому для Узбекистана искусству живописи национальную форму, основанную на местных художественных традициях, основанными на манерах импрессионизма и реалистических традициях.

Annotation: This article analyzes the work of the artist Hovhannes Tatevosyan after his arrival in Uzbekistan at the beginning of the 20th century. In Samarkand, the artist created works in a conventionally decorative style that was new for that time. At the same time, his works are significant in that they give the new art of painting in Uzbekistan a national form based on local artistic traditions based on the manners of impressionism and realistic traditions.

Kalit so'zlar: Samarqand, 1920–1930-yillar, muzey, rangtasvir, rassom, milliy, avangard, impressionizm, realizm.

Ключевые слова: Самарканд, 1920-1930-е годы, музей, живопись, художник, национальный, авангард, импрессионизм, реализм..

Key words: Samarkand, 1920s-1930s, museum, painting, artist, national, avant-garde, impressionism, realism.

XX asrning ikkinchi o'n yilligi O'zbekiston tasviriy san'ati uchun katta o'zgarishlarga boy bo'ldi. Bu paytda grafika, dastgohli rangtasvir, mahobatli

rangtasvir rivojlandi. Bu yillarda jahon xalqlari san'ati g'oyaviy-plastik san'ati rivoji, XIX asr so'ngi XX asr boshlarida rus san'atidagi g'oyaviy-plastik masalalar

borasida izlanishlar ko'pgina san'atkorlarining qiziqishiga sabab bo'lgan. Abstrakt san'at, uning ko'rinishlari ham O'zbekistonda o'zining davomchilarini topdi. Suprematizm, kubofuturizm, primitivizm kabi yangi san'at uslublarida asarlar paydo bo'ldi. Bu yillarda XIX asr so'ngida yuzaga kelgan yangi san'at uslublari o'zining mantiqiy rivojini oldi, jumladan impressionizm, postimpressionizm yutuqlari o'zbekistonlik rassomlar ijodida o'zining yangi qirralarini namoyon etdi.

Sharqdagi ekzotika ko'plab rassomlarni o'ziga tortar edi. Shulardan biri Samarqandga ilk bor 1915 yilda kelgan Oganess Tatevosyandır. U Markaziy Osiyoga birinchi bor kelganda yigirma olti yoshda edi. Rassom dastlabki ijodiy bilimlarini Yerevandagi Tifliss badiiy bilim yurtida oladi. O. Tatevosyan u yerda A.M. Vasnetsov, N.A. Kasatkin va K.A. Korovinlar qo'lida tahsil oladi. K.A. Korovinning hamma narsani plastik uyg'unlikda ko'ra olish iqtidori uning ijodiy shakllanishiga alohida ta'sir ko'rsatadi. K.A. Korovin unga nur va havo, rang va quyosh orqali uyg'unlikdan tarkib topgan dunyoni his qila olishni o'rgatadi.



Mevalarni yig'ish 1928

1915 yilda O. Tatevosyan Samarqandga bag'ishlangan turkum

asarlarini yaratishni boshlaydi va bu asarlar turkumi rassomni butun mashaqqatli ijodiy yo'li mobaynida davom etadi. Ular besh yuzdan ortiqroqdir.

1918–1929-yillarda yaratilgan, rassom uchun yangicha bo'lgan shartli dekorativ-ikki o'lchamli uslubda ishlangan ishlar o'z vaqtida katta baxslarga sabab bo'lgan. Rassomning O'zbekistonda yaratgan ilk portret asarlari bu rassom "Varsham Yeremyan portreti" (1918-1919), "Qizil gvardiyachi Babayev" portretlaridir. Uning barcha ishlariga xos narsa dekorativ-yuzali yechimdir. Kolxoz hayoti to'g'risidagi tematik asarlar va shu bilan bog'liq bo'lgan tipajlar ustida ish olib borish jarayoni rassomda portret janriga nisbatan ishtiyoq uyg'otadi. 1933–1934-yillar orasida kolxozchilar portretining katta galereyasini yaratadi. Ushbu obrazlarning ishonchliligi, modellarning kuchli ifodaviy xarakterini berish orqali erishiladi. Shunga qaramay, portret O. Tatevosyan ijodining kuchli tomoniga aylanmadi. Asosan, maishiy xarakterdagi asarlardan "Zont tagida" (1917), "Tut qoqish", "Jin quvish" (1919), "Yerevan", "Samarqand manzarasi" turkumi, "Lyubat" (1928) kabi asarlar ishlagan.



Tut terish 1921

1920-yillar oxiri va 1930-yillarning birinchi yarmidagi qaynoq ijodiy jarayon 1930-yillar ikkinchi yarmiga kelib so'na boshladi, yagona g'oya va bir yo'singa



tushish oqibatida asta-sekin bir xillik, formalistik platforma shakllana boradi. Iqtidorli rassomlar va ularning asarlariga qarshi kurash, o'zaro munosabatdagi nomuvofiqliklar qo'shilib, nosog'lom muhit paydo bo'ldi. Formalizm va sotsialistik realizm bayrog'i ostidagi guruhlararo kurashlar keskinlashdi. Ko'pgina erkin ijod namoyandalari, sof ruhiy olamga ega bo'lgan ijodkorlar bo'g'ilib, sun'iy yo'nalishga burib yuboriladi.

Izlanilayotgan davr san'ati tarixiga nazar tashlasak, ko'plab olimlar rassomlar "sotsrealizm"ga 1920-yillar oxiri yoki 1930-yillar boshlarida o'tishgan deb ta'kidlashadi. Rassomlarning "sotsrealizm"ga o'tish jarayoni turlicha bo'lgan, ya'ni bir guruh rassomlar zamonaviy uslublardan voz kechgan holda davr tuzumiga mos ravishda "sotsrealistik" asarlar yaratgan. Lekin shunga qaramay, "sotsrealizm" bilan bir qatorda o'sha rassomlar ijodida zamonaviy avangard uslubida yaratilgan asarlarni ham kuzatish mumkin. Ko'plab rassomlar bir paytning o'zida ham "sotsrealistik", ham "avangard" uslubdagi asarlarni bajarganlar. Ularning 1930-yillar boshlaridagi asarlarini kuzatar ekanmiz, bunga amin bo'lamiz. Rassomlarning yaratilgan asarlari vaqtini kuzatar ekanmiz ham "sotsrealistik", ham "avangard" yo'nalishdagi asarlarni bir paytning o'zida ishlaganliklarini kuzatish mumkin.

1920–1930-yillar hududimizda endi shakllanayotgan rangtasvir san'atida rangtasvirning o'rni, uning xususiyatlari, ayniqsa, mahalliy xalqqa qaratilgan nigohi noyob tarzda namoyon bo'lgan. Rassomlar sovet hukumati qaror toptirgan mavzularda ijod etmay, ko'hna O'zbekiston romantikasiga mahliyo edilar va ularning aksariyat qismi realizmda yetakchilik qilmaganlar". Ma'lumki,

1920-yillarning boshida jamiyat dunyoqarashini qayta qurish maqsadida, avvalo, madaniy va diniy qarashlardagi an'analar zo'rvonlik bilan qadrsizlantirildi. Bu esa, o'sha davrdagi rangtasvir asarlarida, ayniqsa, portretlarda muhrlanib qoldi. Ikkinchi tomondan, bu davrda yaratilgan portretlarda o'rta osiyoliklarning o'ziga xos, betakror qiyofasi, Sharq kishisiga nisbatan yevropaliklar nigohi aks etadi. Chunki bu davr ijodkorlarining mashhur va mohir namoyandalari rus badiiy maktabi an'analari ta'sirida kamol topgan, O'zbekiston dastgohli rangtasvir san'atiga katta hissa qo'shgan rossiyalik rassomlar edi. Uchinchidan, 1920-yillar boshi rangtasvirida samarali bag'rikenglik kuzatiladi, realistik va impressionistik an'analar bilan bir qatorda san'atda o'ziga xos umumjahon modernizm harakatining uslubiy tarmoqlanishi sifatida o'zbek avangardi shakllanadi va rivojlanadi.



Ko'cha sartaoshi 1929

Asarlardagi milliy o'ziga xoslik masalalarini asar majmui va shakli asosida ko'rib chiqqanda, tadqiqotchilar badiiy shaklning tashqi sifatlarigagina e'tibor qaratadilar: omadli topilgan va yorqin ifodalangan milliy tipaj, libos, atrof-muhit, milliy an'anaviy badiiy vositalar, bu kabi tadqiqot usuli bir tomonlama bo'lib u faqatgina tarixiy,

madaniy, ijtimoiy, etnografik, psixologik kabi faktorlarni ochib bera oladi. Asarlarning badiiy shaklida milliy o'ziga xoslik masalalari eng murakkab va sirli muammolardan biridir.

O.Tatevosyan ijodida mamlakatda bo'layotgan o'zgarishlarga hissa qo'shishga bog'liqlik kuzatiladi. Shu sababdan bu davr rassom ijodida hayotiy va badiiy jihatdan katta burilish yasadi. 1932 yilda rassom Toshkentga keladi va O'zbekiston davlat san'at muzeyi muhofizi lavozimida faoliyat yurita boshlaydi. Ammo, u bu ishda ko'p ishlamaydi va ijodga qaytadi. Ijodida manzara janridagi asarlardan voz kecha boshlab, e'tiborini syujetli-tematik asarlarni yaratishga qaratadi. Bu ko'pgina rassomlarda kuzatilgan bo'lib, ularning barchasiga plastik jihatdan ijodiy muhitni ifodalashga qarshilik kuzatildi va bu jarayon 1932-1935 yillarga to'g'ri keladi.

O.Tatevosyan asarlari davr talablaridan chetga chiqa olmadi. Uning 1933-1934 yillarda yaratilgan asarlari asosan qishloq hayoti, kolxozchilar qiyofasini aks ettirishga qaratildi. Shu maqsadda rassom ustaxonasidan tashqariga chiqdi. O'z ijodiy mezonlariga amal qilgan holda naturadan ishlash uchun Farg'onaga ketadi. Ko'pgina asarlar qahramonlari rassomning bevosita rassom uchrashgan, suhbatida bo'lgan odamlar bo'lganligi uchun asarlarida kuchli hayotiy jihatlar aniq gavalantiriladi. San'atshunos olim L.Shostko rassomning ushbu davrda yaratilgan asarlari haqida fikr yuritar ekan, "uning asarlarida sxematizm va shartlilik yetakchilik qilgan bo'lsa ham ular janrli kartinalari rivojlanishiga katta xizmat qilganligini" qayd etadi [1]. Rassomning ushbu mavzudagi asarlariga misol qilib "Kolxoz to'yi" (1935) asarini keltirish mumkin. Asar rassomning Farg'ona vodiysidagi ijodiy safari davrida

chizilgan. Dehqonlarning bayrami, katta sayl manzarasi aks etgan asar o'zining badiiy yuksak saviyada bajarilganligi bilan o'z davri rassomlari e'tirofiga sazovor bo'ladi.

Rassom Toshkentga qaytgach manzara janrida va tematik janrli kartinalarni yaratish yo'lidan bormaydi. Bu haqida u esdaliklarida Toshkent manzarasi va tabiati uni Farg'onachilik o'ziga rom etmagani va etolmasligi, shu sababdan targ'ibot mavzusidagi turli mahobatli kartinalar yaratishga kirishganligini qayd etadi. Darhaqiqat rassomning namunalari uning nafaqat mavzu jihatidan, balki uslubi ham o'zgarganligiga guvoh bo'lamiz. Esdaliklarida "imressionizm o'z uslubiga ko'ra zamonaviy tasvir vositasi bo'la olmasligi, naturalizm talqin qilishning passiv uslubi" sifatida rassomning qoniqtirmaganligini keltiradi.

O.Tatevosyan asarlarida me'moriy obidalar, xalq hayotidan namunalar aks ettiriladi hamda davr xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbekiston Davlat san'at muzey fondida saqlanayotgan "Samarqand o'tmishi", "Fellax bozorida", "Tut terish", "Eski odatlar" asarlarida bunga guvoh bo'lamiz. Ushbu asarlarda A.Nikolayev, M.Kurzin ijodida uchratgan xususiyatlarni qayta ko'rish mumkin bo'lsada, asarlarida sharq miniatyura san'atidan ta'sirlanish, o'zbek xalqi milliy madaniyati, hayot falsafasini tushunishga intilish xususiyatlari kuzatiladi.

Rassomning "Tut terish" asari aylana chizilgan bo'lib, unda minityuraga xos uslub seziladi. Tutning oppoq mevalari osilib turgan shohlaridan tutni qoqayotgan ayollar tasviri yaxlit holda ifoda etilgan. Oddiy paxsa devor bilan o'ralgan o'zbek hovlisida o'sgan yakka tut daraxti g'arq pishgan. Yigit tut daraxti ustiga chiqib, daraxtni silkitib tutni qoqmoqda. Uch ayol va yigit to'rt



tomonidan ushlagan matoda yerga tushayotgan tutlarni tutib olmoqda. Asarning old planida katta patnisda terilgan tutlarni tozalayotgan yana bir ayol tasviri tushirilgan. Rassom oddiy tut terish jarayonini o'ziga xos ranglar uyg'unligida lirik holatda tasvirlaydi. Asarda ifodasini topgan tutning mayin daraxti va oppoq mevalari, asardagi obrazlar figuralarning miniatyuraga xos uslubdagi tasviri asarga sokinlik bag'ishlagan.

O.Tatevosyan "Eski odatlar" asari ham aylana doira shakliga ishlangan. Asar miniatyura uslubida ishlangan bo'lib, unda eski shahar aholisiining kundalik hayoti aks ettirilgan. Unda shahar chekkasidan oqib o'tayotgan ariqda cho'milayotgan bolalar, ularni kuzatib turgan yoshi katta onaxonlar. Shaharga kirish darvozasi oldida paxta titayotgan, urchuq bilan ip yigirayotgan, bolasini emizayotgan, tik turgan holatdagi homilador ayol va uning chamasi to'rt yoshlardagi kiyimsiz o'g'li tasviri ishlangan. Asarning orqa planida yakka daraxt tagida o'tirgan bir to'da erkaklar tasvirlangan. Asar eski odatlar talqiniga qaratilgan bo'lsada, unda xalqning etnik an'analarini ifodalaydigan biror muhim xolat aks etmagan. Rassom asarda eski shahar aholisining kundalik yumushlarining ayrim lahzalarini tasvirlaydi. O.Tatevosyan asarda milliy urf-odat va an'analarni to'liq tasvirlamagan. Shunday bo'lsada, asarda tanlangan ranglar, ayollar kiyimlari, eski shaharning qiyofasi tomoshabinda ko'hna qadriyatlarni ulug'lash, ular bilan yashagan insonlar hayotini aniq ifodalaydi. Shu ma'noda asar ortiqcha detallardan holi, o'ziga xos talqinga ega. Asar "Eski odatlar" nomi bilan atalsada,

undagi tasvirlar eski shahar hayotining miniatyura talqinida o'ziga xos yechim topgan. Cho'milayotgan bolalar, ip yigirayotgan ayollar, kundalik tashvishlar bilan yurgan mungli insonlar qiyofasi o'ziga xos tarzda talqin etilgan.

Urushning dastlabki yillaridan rassom boshqalar qatori tashkiliy ishlar bilan shug'ullana boshladi. O'zbekiston rassomlar uyushmasi a'zosi, 1944 yildan Sobiq ittifoq rassomlar uyushmasining O'zbek bo'limi rahbari sifatida faoliyat olib bordi. Urush yillari rassomlarni Toshkent va Samarqand ko'chirish, ularni ish bilan ta'minlash yo'nalishida faoliyat olib bordi. Shu yillari rassom ijodida harbiy mavzu ustunlik qildi. Rassom ijodida urush mavzusi 1948 yilgacha davom etadi.

1930-1940 yillar Oganess Tatevosyan ijodi turli mavzu va uslublarda yaratilgan asarlari bilan o'zbek rangtasvir san'ati tarixida o'ziga xos o'rin egalladi. Uning har bir yaratgan asarida rassomning tinimsiz izlanishlari, qaysi yo'nalishda ijod qilmasin har birida katta ijodiy yutuqlarga erishganini kuzatish mumkin. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Davlat san'at muzeyi to'plamidan o'rin olgan rangtasvir asarlarining 500 dan ortiq rangtasvir asarlarini shaxsan O.Tatevosyaning vasiyatiga binoan muzeyga qoldirilgan. Har bir asar rassomning ijodiy yo'lini to'liq ochib berishga xizmat qiladi va alohida tadqiq etishga loyiq.

O'sha davr rassomlarning qizg'in faoliyati tufayli respublikada ijodiy hayot sezilarli darajada jonlandi. Ularning asarlari badiiy qiymati bilangina emas, balki o'lkada yuz berayotgan o'zgarishlarni ifoda etganligi bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Шостко Л.В. Оганес Татевосян. – М.: Искусство, 1969. – 107 с.
2. Веймарн Б.В. О.Татевосян. – М.: Искусство, 1967. – 110 с.
3. Зингер Л.С. Советская портретная живопись 1917–начала 1930-х годов. – М.: Изоб. искусство, 1978. – 136 с.
4. Искусство Советского Узбекистана. 1917-1972. – М.: СХ, 1976. – 608 с.



AN'ANAVIY AMALIY SAN'AT BUYUMLARINING MAISHIY HAYOTDAGI
O'RNI

РОЛЬ ТРАДИЦИОННОГО ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА В
ПОВСЕДНЕВНОЙ ЖИЗНИ

THE ROLE OF TRADITIONAL APPLIED ARTS IN EVERYDAY LIFE

Xayitboboyeva Xurshida
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
"San'at tarixi va nazariyasi"
kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada an'anaviy amaliy san'at buyumlarining maishiy hayotdagi o'rni, ularning turlari va tasnifi qisqacha bayon etilgan. Amaliy san'at maishiy hayotda o'z ahamiyatini yo'qotsada, xalq qadriyati, urf-odatlar va turmush tarzini ifodalovchi san'at turi sifatida san'atshunos, madaniyatshunoslarning doimiy diqqat markazida. Xususan, kashtachilik, kulolchilik, kandakorlik kabi amaliy san'at turlarining ahamiyati an'ana va zamonaviylik kesimida tahlil etilgan.

Аннотация: : В данной статье кратко описывается роль традиционных прикладных искусств в повседневной жизни, их виды и классификация. Хотя практическое искусство теряет свое значение в повседневной жизни, оно находится в постоянном центре внимания искусствоведов и культурологов как вид искусства, выражающий ценности, традиции и образ жизни народа. В частности, анализируется значение таких прикладных искусств, как вышивка, гончарное дело, резьба с точки зрения традиций и современности.

Annotation: This article briefly describes the role of traditional applied arts in everyday life, their types and classification. Although practical art loses its importance in everyday life, it is the constant focus of art historians and cultural scientists as an art form that expresses people's values, traditions and lifestyle. In particular, the importance of applied arts such as embroidery, pottery, carving is analyzed in terms of tradition and modernity.

Kalit so'zlar: O'zbek xalq amaliy san'ati, kashtachilik, kulolchilik, kandakorlik, maishiy buyumlar, sovg'abob buyumlar, naqsh, kompozitsiya

Ключевые слова: узбекское народное искусство, вышивка, гончарное дело, резьба, предметы быта, подарочные изделия, узор, композиция.

Key words: Uzbek folk art, embroidery, pottery, carving, household items, gift items, pattern, composition.

An'anaviy amaliy san'at buyumlari tur va shakli jihatidan o'ta murakkab hamda o'ziga xosdir. Dizayn industriyasi sababli bugungi kunda amaliy san'at buyumlarining maishiy hayotdagi o'rni oldingi davrlarga nisbatan sezilarli

darajada o'z ahamiyatini yo'qotgan. Hunarmand ustalar yaratib kelayotgan buyumlarda asosan sovg'abob va bozor uchun yoki turli buyurtmalar asosida yaratilayotgan hunarmandchilik namunalarini uchratamiz. Ushbu namunalar bezaklarida an'anaviy naqsh kompozitsiyasi bilan birga zamonaviy ko'rinishdagi naqsh unsurlariga guvoh bo'lamiz.

Amaliy san'at maishiy hayotda o'z ahamiyatini yo'qotsada, xalq qadriyati, urf-odatlar va turmush tarzini ifodalovchi san'at turi sifatida san'atshunos, madaniyatshunoslarning doimiy diqqat markazida. Zamonaviy badiiy jarayonda kuratorlarning faolligi professional va konseptual baza sifatida ahamiyatlidir. Mamlakatning zamonaviy badiiy jarayoni shakllanishida kuratorlarning ta'siri tobora katta o'rin egallamoqda. Jumladan, B.Nodirning "So'zaning tug'ilishi", "Oy yog'dusida aytilgan alla" va shu kabi qator ilmiy tadqiqotlariga asoslangan kuratorlik loyihalarida amaliy san'atni an'ana va innovatsiya kesimida taqdim etish yondashuvini ko'rish mumkin. Aslida bu kabi yondoshuv, 1990 yillarning o'rtalaridan boshlangan edi. Toshkent shahrida muntazam o'tkazila boshlangan amaliy san'at yarmarkalarida asosan xorijiy xaridorlarga O'zbekiston amaliy san'ati namunalarini namoyish etishga qaratilgan tadbirlar soni ko'paydi. Bu esa hunarmandchilik mahsulotlarining ishlab chiqarish salohiyati ko'payayotganligidan dalolat beradi. "Sheraton" mehmonxonalarida – hozirgi "Markaziy", "Dedeman", "Interkontinental", "Radison" va boshqalar, so'ngra 2000 yillarning o'rtalarida "Fond Forum" jamg'armasi tashabbusi bilan Milliy san'at markazida o'tkazilgan "Bazar-Art" yarmarkalarida zamonaviy qo'lda tikilgan kashtado'zlikning innovatsiya

ko'rinishidagi modellari namoyish etila boshlandi. Bu kabi amaliy tadbirlarning barchasida maishiy hayotda oldindan qo'llanilib kelinayotgan buyum turlarining sifati hamda umumiy xususiyatlari yangicha nigohda talqin etilishi nazarda tutilgan.

Bilamizki, kashtachilikning rivojida ko'chmanchi va o'troq aholi vakillarining o'rni ahamiyatli sanaladi. Ayniqsa, ko'chmanchi aholi vakillari (ayollari) asosan kashtachilikning deyarli barcha turlari bo'yicha mahsulotlar yaratishgan. So'zana, bo'g'joma, oyna xalta, tuz xalta, xo'rjin va boshqa shu kabi buyum turlarining barchasi kundalik hayotda doimiy ishlatilib, foydalanilib kelingan. Bugungi kunda esa ushbu mahsulotlarning vazifalarini bevosita turli ko'rinishdagi mebel jihozlari bajaradi. Shu bois ham, amaliy san'at buyumlariga bo'lgan talab oldingi yillardagiga nisbatan keskin pasayib ketgan.

Kulolchilikda ham bu kabi muammolar yanada yaqqolroq seziladi. Qadimda tandir va xumlar shakliga qarab kundalik turmushda o'z vazifasiga ega bo'lgan. Masalan, yirik hajmdagi xumlarda asosan suv saqlangan, kichikroqlarida esa, bug'doy, gurunch va shu kabi iste'mol mahsulotlari turli hashoratlardan himoyalangan. Ushbu buyumlar oziq-ovqat mahsulotlarining yaxshi saqlanishiga xizmat qilgan. Bugungi kunda esa, sanoat tizimining rivojlanishi va zamonaviy buyumlarning ishlab chiqarilishi jadallashgan, va bu jihat an'anaviy turdagi amaliy san'at buyumlarining maishiy hayotdagi ahamiyatini yo'qolishiga olib keldi.

XIX asr o'zbek kashtachiligining yuksak badiiy saviyasi, bir qator bezak naqshlari va uslublarining arxaizmi bu hunarmandchilikning avvalgi tarixiy taraqqiyot davri va an'analarning boyligidan dalolat beradi. Kashta tikilgan



materialning (ipak, paxta, jun) mo'rtligi tufayli hozirgi kungacha faqat namunalari saqlanib qolgan, ularning xronologik doirasi asosan XIX-XX asrlar bilan cheklangan. O'zbekistonning an'anaviy kashtachiligi Sharq madaniyati davlat muzeyi va Moskvadagi Davlat muzeyi, Sankt-Peterburgdagi Etnografiya va Ermitaj muzeyi, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston davlat san'at muzeyida keng namoyish etilgan [1] O'zbek kashtachiligining noyob mahsulotlari Yevropa davlatlari (Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Portugaliya, Ispaniya, Turkiya va boshqalar) hamda arab mamlakatlarida, shuningdek, AQSH, Yaponiya muzey va galereyalarida keng namoyish etilmoqda. Ammo o'zbek kashtachiligining muzey kolleksiyalari bu hunarmandchilikning respublika bo'ylab tarqalish geografiasini to'liq aks ettirmaydi. Muzeylarda asosan respublikamizning yirik shahar va qishloqlarida, o'troq dehqonchilik madaniyatiga ega aholi orasida to'plangan kashtachilik buyumlari saqlanadi. Respublikamizning janubiy, qishloq tumanlarida kashta tikish nisbatan kamaygan. Qoraqalpoq kashtachiligi esa bundan mustasno, uning boy kolleksiyasi I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyida saqlanadi. Muzey to'plamlari, xususiyl kolleksiyalar va aholi qo'lida saqlab qolingan noyob kashta nusxalari hali ham yetarlicha o'rganilmagan.

O'zbek ayollari orasida xalq amaliy sanatining eng keng tarqalgan turi kashtachilik bo'lgan. Faqatgina, Xorazmda ayol, qizlar deyarli kashta tikishmagan. Kashta tikish uchun mahalliy ishlab chiqarilgan, tabiiy bo'yoqlar bilan bo'yalgan ipak iplar ishlatilgan. XIX asr kashtachiligining go'zalligi (80-90 yillarga qadar) asosan fonda nisbatan kam maydonning qolishi

bilan ahamiyatlidir. Bir tomonlama sirtni mahkamlash va zanjirli tikuv bilan tikish qo'llanilishi ham bezakning motivlarini to'liq to'ldiradi. Silliqlik sirt ikki xil: bosma va kanda-hayol tikish usullarining birida tikiladi [2]. Ip naqsh uzunligi bo'ylab bir chetidandan ikkinchisiga tortiladi va keyin o'zaro to'g'ri choklar bilan ushlanadi. Keyingi ip avvalgisiga yaqin bo'lgan joydan mahkamlangan holatda yana tikiladi. Bosma chokda choklar kichik va deyarli perpendikulyar ravishda, cho'zilgan uzun ipga nisbatan yengil nishab bilan joylashtiriladi. Bosma chok qatorlari orasidagi farqning katta va kichikligi o'lchamga mos hamda nozik va aniq bo'lishi kerak. Kanda-hayol texnikasi bilan tikilgan kashtachilik namunasida ip xuddi bosma chokdagi kabi naqsh uzunligi bo'ylab tikiladi unga birlashtirilgan qo'shimcha ip esa nisbatan bo'shroq qilib birlashtiriladi.

O'zbekistonning ayrim viloyatlarida so'zana va kashta tikishda "yurma" va "tambur" deb nomlangan zanjir choki qo'llaniladi. Tambur - qadimgi chok turlaridan biri sanaladi. Tambur chokli kashtalar halqada va igna yoki to'qilgan holda qilingan. Bitta mahsulotda ko'pincha ma'lum bir ritmda joylashgan turli xil kashta tikish usullari qo'llaniladi. Masalan, gul naqshining o'zida bosma chok va tambur yoki kanda-hayol choki bilan bezatilgan gulbarglarni kuzatishimiz mumkin. Ko'pincha o'simlik poyasi yoki chegarani markaziy maydondan ajratib turadigan chiziq bir tomonlama yoki ikki tomonlama ilmak tugmasi bilan tikilgan.

Turli kashtachilik markaz va maktablarida chok tikish texnikasining boshqa-boshqa turlaridan foydalaniladi. Bosma chokdan Nurotadagi, Samarqanddagi hamda Toshkentdagi kashtado'z hunarmandlar keng foydalanishadi. Buxoroda tambur

kashtachiligi texnikasidan, kandahayol chokidan esa Shahrisabz ustalari o'z mahsulotlarini yaratishda ishlatib keladilar. Shahrisabz va Kitobda yirik dekorativ kashtalarni tikish uchun asosan – “iroqi” - yarim xochli uzluksiz chokni afzal ko'rishadi.

Bugungi kunda O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida an'anaviy kashtachilik saqlanib qolgan yoki qayta tiklangan. Shu bilan birga, zamonaviy kashtachilikda ko'p jihatdan san'at maktablarining avvalgi mahalliy xususiyatlari bilan emas, balki sof bozor omillari va talablari bilan bog'liq bo'lgan yangi o'ziga xos yo'nalish shakllanib bormoqda. Kashtachilikning ikki yo'nalishi yonma-yon rivojlanib, biz ularni yuqorida tilga olganimizdek, birini shartli ravishda “innovatsion”, ya'ni eksportga yo'naltirilgan, iste'molchilar talabiga qaratilgan, muallif tashabbuslari kuchli bo'lgan yo'nalish, ikkinchisi esa mahalliy, kichik hudud (qishloq, tuman) bilan chegaralangan, mahalliy an'analar bilan qorishgan asl kashtachilik tabiati unsurlari saqlanib qolgan an'anaviy yo'nalishdir. Kashtachilikda uning eng yaxshi an'alarini qayta tiklashga asoslangan innovatsiya modelini yaratish bo'yicha dastlabki qadamlar 1990 yillarning o'rtalarida Toshkentda qo'yildi. Mahalliy olimlar, san'atshunoslar, menejerlar, ekspertlarning fikricha ustalarning an'anaviy so'zana tayyorlash namunalari va texnologiyasiga qaytishi, xorijiy mamlakatlarda ularga bo'lgan talab, yuqori narxlarning taklifi deb hisoblashmoqda va keltirilgan bu jihat asosiy omillardan biridir. Shu bilan birga, 1950 yillardan keyin yaratilgan mahsulotlarda hunarmandlarning sifat jihatidan past, ba'zan qo'pol ko'rinishdagi, sun'iy mato va bo'yoqlardan foydalanishi tufayli, ulardan

andoza olish bozor talablariga mos emasligi hisobga olindi.

Innovatsion kashta tikishda material sifatida ana'naviy qo'lda to'qilgan bo'z yoki adras kabi sifatli oq matodan foydalaniladi. Kashtaga naqshlarni tushurish uchun ustalar asosan ipak va mahalliy ishlab chiqarilgan iplardan foydalana boshladilar, bu borada tabiiy bo'yoqlar bilan bo'yalgan, ba'zan Turkiyada qayta ishlangan mahalliy ipak iplar ishlatilgan. Ushbu yo'nalish tashabbuskorlari tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulotlar yaratish va respublikaning boshqa shaharlaridan buyurtmalar olishni maqsad qilgan edi. Shu bois, M.Qosimboyeva, I.Davlatov, L.Sadriddinov kabi ustalar mahsulotlarida o'zbek kashtachiligining turli maktablarida bezak va texnikasini uyg'unlashtirish tendensiyalari ustunlik qildi. Ushbu mahsulotlarning dizayn yechimlarida qo'shni markazlarning naqshlariga murojaat qilish va XIX-XX asr boshlariga oid texnologiyalarning tiklanishini sezish mumkin. Bu kabi kashtachilik namunalari mahalliy xususiyatlar ma'lum darajada e'tirof etiladi.

Toshkentlik ustalar ijodida yirik hudud kashtachiligining avvalgi an'alarini talqin qilish yoki qayta tiklash o'rniga Nurota, Buxoro, Shahrisabz kashtachilik maktablarining ma'lum bir texnika va bezaklari konglomerati ko'rsatilgan. Shu bilan birga, bugungi kunda ularning funksional maqsadlari doirasi kengayib bormoqda. Maishiy bezak buyumlari bilan bir qatorda, ular orasida 1,5x2 m o'lchamdagi o'rta hajmdagi so'zanalari, kiyim-kechak, poyabzal, sumka, hamyon va boshqalarni uchratishimiz mumkin. Innovatsion kashtachilikda faoliyat yuritayotgan ustahunarmandlar umummilliy qadriyatlarni inobatga olib ishlaydilar. Bugungi kunda



zamonaviy yoʻnalishda faoliyat yuritayotgan ustalarni Oʻzbekistonning Toshkent, Buxoro, Shofirkon, Gʻijduvon, Nurota, Urgut, Gʻus qishlogʻi, Shahrisabz, Namangan va Andijon kabi hududlarida uchramiz.

Oʻzbekiston milliy kashtachiligining ikkinchi guruhini respublika viloyatlaridagi anʻanaviy kashtachilik markazlari tashkil etadi, ularda mahsulotlarning avvalgi maishiy maqsadi saqlanib qolgan. Bular Surxondaryo viloyatining deyarli barcha tumanlari, Shahrisabz hamda Kitob tumanlaridan tashqari, Qashqadaryo viloyatining aksariyat tumanlari hamda Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining ayrim hududlaridir. Ikkinchi guruhga Fargʻona vodiysining bir qator viloyatlari kiradi, ularda mahalliy kashtachilik saqlanib qolgan. Bu ikki guruh kashtachilik mahsulotlarining farqi ishlov berish sifati va ularning bozor iqtisodiyotidagi haridorgirlik xususiyatidadir.

Hozirgi vaqtda kashtachilik sanoat ishlab chiqarish tizimi va kasanachilik shaklida xonadonlarda davom etib kelmoqda. Zamonaviy kashta, xonadonlarda tayyorlanadigan shaklda bir oz oʻzgarishlarga duchor boʻldi. Devoriy yirik shakldagi kashtalar (soʻzanalar) yaratish quyidagi shaharlarda va togʻ oldi hudud maskanlarida jamlandi: Urgut, Nurota, Kattaqoʻrgʻon, Boysun, Denov, Sherobod, SHoʻrchi, Sariosiyo, Kitob, Shahrisabz, Koson, Qamashi, Gʻuzor, Namangan, Andijon, Gʻallaorol, Baxmal, Shofirkon. Ular ichida kashtachilikning eng yirik markaziga Urgut shahri va atrof qishloqlari (Gʻus, Ispanza, Suflon, Payshanba) aylandi. Ularning kashta tikish usulida XIX asr oxiri Samarqand kashtachiligi anʻanalari davom etmoqda.

Kashtachilikning yirik markazlari Chust, Margʻilon, Andijon, Shahrisabz, Kitob, Boysunda faoliyat yuritmoqda.

Kiyim-kechaklar, mayda maishiy buyumlarning ayrim qismlari uchun bajariladigan kashtalar barcha yerda mavjud. Qadimdagi kabi uyda kashta tikishda xalq chizmakashlari yaratgan tasvir naqshlar ishlatiladi. Soʻzana, joynamoz, yostiq va toʻshak jildi qoplamasi, belbogʻ, doʻppi kabi buyumlarda kashta bezaklari koʻp qoʻllaniladi [3]. Kashtachilik sanʼatida anʻanalarni tiklash va shu bilan birga yangiliklarni qoʻllash jarayonlarini M.Qosimboyeva, I.Davlatov, L.Sadriddinov kabi yetakchi ustalar ijodida koʻrish mumkin.

Amaliy sanʼat buyumlarining maishiy hayotdagi oʻrnini belgilashda kashtachilik bilan bir qatorda kulolchilik buyumlaridagi muhim jihatlarni ham eʼtirof etish zarur. Qadimdan mashhur boʻlgan kulolchilikdagi koʻplab buyum turlari bugungi kunda maishiy hayotda va bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashayotgani sir emas. Kulolchilik markazlarida buyumlarni yasash tamoyili deyarli bir xil uslubda amalga oshirilib kelinmoqda.

Barcha kulolchilik markazlarida sirlash tamoyillari taxminan bir xil – masalan, M.Abduvahobovning yuqorida bayon qilingan kulolchilik namunalarini sirlash jarayonida ham boshqa maktablardagi kabi xususiyatlar mavjudligiga guvoh boʻlamiz. Hunarmand tomonidan kulolchilik buyumlarini yasash tartibi esa oʻta dadillik bilan amalga oshiriladi. Kulolning aytishiga qaraganda, ekin maydonlaridan loy olib, uni ekskavator yordamida 10 tonnalik mashinaga yuklaydi, bu loyni maxsus bentonit qorishmasi bilan aralashtirib, unga qamish paxmoq qoʻshadi. Idishning shakliga qarab, loy turli retseptlar boʻyicha tayyorlanadi. Agar shakl vertikal boʻlsa, unda birdan toʻrttagacha - yaʼni

uch porsiya loy va bir qism bentonit (pishirilgan yoki gilmoya - uzb), yassi idishlar bo'lsa, birdan yettitagacha loy qo'shilishi mumkin.

XIX asrda shakllangan amaliy san'at turlarining barchasida rivojlanish, buyum turlarining xilma xilligi beqiyosdir. Yuqorida kashtachilik, kulolchilik kabi amaliy san'at turlaridagi o'ziga xosliklar, ularning maishiy hayotdagi o'rni haqida gapirib o'tdik. Bundan tashqari, yana shuni ham alohida qayd etish kerakki, badiiy hunarmandchilikning kandakorlik turidagi buyumlarda ham o'ziga xosliklar kuzatiladi. Zamon talabi, davr ruhi, san'atlar qorishuvi ushbu turga ham ijobiy va salbiy hislatlarni olib kirgan.

1990-yillarda kandakorlik Buxoroda faol rivojlandi, Marg'ilon, Xiva, Toshkentda qayta tiklandi. Zamonaviy ustalarning buyumlari asosan ko'rgazma yoki yodgorlik buyumlari xarakteriga ega [3]. Ustalar kandakorlikda asosan jez, bronza, ba'zan mis, allyuminiy, melxior materiallarini qo'llashadi. Bezak sifatida kumush, mis, sadaf, jez, feruza kabi toshlardan inkrustatsiya (qadama usuli) yoki emallash texnikasidan foydalaniladi. XX asrning so'nggi o'n yilligidan buyon Qo'qon kandakorlik an'analarini usta M.Madaliyevlar oilasi shakliga ko'ra xushbichim va bezaklari nozik buyumlar yaratish bilan davom ettirib rivojlantirmoqda. Usta murakkab kompozitsiyalarda turli maktab naqsh elementlarini qo'llaydi, lekin doimiy qaytarilish va uslubiy eklektiklikdan o'z buyumlarini himoya qiladi.

Hozirda O'zbekistonda kandakorlik buyumlarining har xil turlari ishlab chiqariladi: choydosh, oftoba, obdasta va qumg'on, choynaklar, ko'zalar, dastshuylar, sharbatkosalar, miskosalar va b. Shuningdek, an'anaviy

kandakorlikka oid bo'lmagan shakllardagi buyumlar ham paydo bo'ldi – baland ko'za va piyolalardan iborat servizlar, bezakdor pannolar va b. Yangiliklarga qaramay, har bir maktab bezak kompozitsiyasida naqshning asliy qonuniyatlarini saqlab qoladilar. Buxoroda ustalar buyum bezagida sodda shakllar, yirik ornament va murakkab islamiy naqshlarni rivojlantirib, xattotlik uslubini keng qo'llashadi. Xalimov, Qosimov, Hamroyevlar hunarmand sulolalari, U.Aliyev, R.Fatullayev, M.Ahmedov, G.Tosheva, M.G'ulomov, S.Muhsinov, Q.Sodiqov, B.Zoirov kabi zamonaviy badiiy jarayonda mahalliy kandakorlik an'analarini saqlab qolgan holda miniatyura, qoraytirish va yangi shakliy tajribalar qo'llashmoqda. Har bir avlod o'z uslubi bilan Buxoro kandakorlik markazi an'analarini boyitib, o'zining o'tkir salohiyati, zukkoligi, ishlov berish texnologiyasining yuksakligi bilan keyingi avlodga o'z ishlanmalarini meros qilib qoldirmoqda [5].

Gilam to'qish san'ati hozirgi vaqtda Xorazm, Samarqand, Urgut, Nurota, Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo, Surxandaryo viloyatlarida mavjud va rivojlanmoqda. Xalq ustalari yangi gilam buyumlari yarata turib texnik usullarning chuqur an'analarini o'zlashtirmoqdalar va gilam buyumlar naqshlarining badiiy prinsiplarini qayta tiklamoqdalar. An'anaviy gilamlarga asosan o'zbek urug'laridan qo'ng'iroq, qattag'on, mang'it va boshqalarda talab kuchli. Ular asosan O'zbekistonning janubiy va janubi-g'arbiy hududlarda yashaydilar. Farg'ona vodiysi o'zbeklari orasida qo'shni qirg'iz ustalari mahsulotlariga talab ko'proq.

An'anaviy amaliy san'at buyumlarining maishiy hayotdagi o'rni, ularning turlari va tasnifini belgilashda albatta, XIX asr an'anaviy amaliy san'ati



turlari bilan Mustaqillik davridagi badiiy hunarmandchilikdagi naqshlar tizimini, semantikasini, mavzular kesimini qiyosiy solishtiruv muhim ahamiyatga egadir. Sababi, aynan ushbu jihat shu ikki davr buyumlaridagi farqni baholash imkoniyatini beradi. Kulolchilikda qadimdan bugungi kunga qadar saqlanib kelinayotgan an'analarga sodiqlik yaratilayotgan har bir buyumning sifatini oshiradi. Biroq, an'anaviy usulda yasalayotgan va sirlanayotgan buyumlarning asosiy qismi bozor iqtisodiyoti uchun sarf etilmoqda. Ma'lum qismi ko'rgazma zallarini bezamoqda. Maishiy hayotda juda kam

xollarda foydalanilmoqda. Shu jihatdan aytish mumkinki, bu tavsif hunarmandchilikning kashtachilik, gilamdo'zlik, badiiy kandakorlik va shu kabi boshqa turlarida ham afsuski yorqin namoyon bo'ladi. Bugungi kun usta hunarmandlarning oldida jiddiy, majburiy talablar qo'yilmagan albatta, ba'zi hollarda ularning buyumlarni bozor sharoitiga moslash maqsadida san'at turlarini qorishtirish jarayonlari tanqidiy fikrlarni uyg'otsa, aksariyat ustalarning an'ana doirasidan chetga chiqib ketmayotganliklari bugungi kun san'atshunoslarini xursand qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Хакимов А. Файзиева В. Ўзбекистон давлат санъат музейи ноёб хазинасидан. Ўзбекистон амалий санъати. -Тошкент; 2014.Б 236.
2. Хакимов А.А. Прикладное искусство Узбекистана: традиции и инновации. -Ташкент.: 2013. - С. 207
3. Хакимов А.А. Ўзбекистон санъати тарихи. Тошкент 2021.246 б.
4. Khayitboboeva K. P. A Study Of The Problems Of Tradition And Innovation In Modern Uzbek Folk Art //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 11. – С. 14-20.
5. Мухсинова З. Бухоро кандакорлигининг технологик ва бадиий хусусиятлари / маг. акад. даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент.: 2020. С. 59-61 . 106с.



TEATR SALOHİYAT MAYDONI
THEATER AREA OF AUTHORITY
ТЕАТРАЛЬНАЯ ОБЛАСТЬ ВЛАСТИ

Isokova Matluba

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti dotsenti, s.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyati musiqali drama teatri zamonaviy va tarixiy asarlarni sahnalashtirishda rejissuraning o‘rni aktyorlik ijro masalalari, haqida so‘z boradi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы актерского исполнения, роль режиссуры в постановке современных и исторических произведений Хорезмского областного музыкально-драматического театра.

Annotation: This article discusses the issues of acting, the role of directing in the production of modern and historical works of the Khorezm regional Musical and Drama Theater.

Kalit so‘zlar: teatr, dramaturg, asar, aktyor, san’at, musiqa, qo‘shiq.

Ключевые слова: театр, драматург, пьеса, актер, искусство, музыка, песня.

Key words: theater, playwright, play, actor, art, music, song.

Teatr – mo‘tabar va ulug‘ dargohdir. Uzoq yillik tarixga ega bo‘lgan bu dargohda ne-ne zabardast san’at arboblari, xalq artistlari ko‘plab rollari orqali muxlislar orttirib, ijod qilib o‘tdilar. O‘zbekiston xalq artisti Gulora Rahimova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Komiljon Tojiboyev, Xojixon Ortiqovlar, Jumaboy Nurullayev, Jumanazar Shomurodov, O‘zbekiston xalq artistlari Nazira Yusupoova, Reyma Otajanova, San’at Devonov, Shirin Ramazanova, Madrim Bobojonov, Odamboy Bobojonov, Otamurod Bekchanov, Bikajon Rahimova, Jumanazar Matkarimov kabi zabardast aktyorlar munosib hissa qo‘shdilar. Ularning say-harakati bilan xorazm teatrida dastlab bir pardali sodda, davrning o‘z qahramonini yaratish, sahnada zamonaviy qahramon qiyofasini to‘laqonli gavdalantirish barcha

ijodkorlarning burchidir. Birinchi navbatda yaxshi asarlar, g‘oyaviy-badiiy yetuk pyesalar zarur.

Xorazm viloyati musiqali drama teatrlining repertuarida ham turli mavzulardagi tarixiy, zamon ruhiga mos voqealar aks ettirilgan, milliy urf-odatlarimiz, vatanparvarlik, mehr-muhabbat, insoniy tuyg‘ular singdirilgan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlarni sahnalashtirilishi teatr faoliyatini yanada yuksalishiga sabab bo‘ladi. E.Vohidning “Ikkinchi tumor”, Q.Matrizayevning “Mahtumquli”, Y.Yunusovning “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, E.Samandarovning “Jaloliddin Manguberdi”, “Arab Muhammadxon”, X.Rasulning “Tili asalim”, “Dilbar yuraklar”, “Bugunning shum bolasi”, “Oltin topgan qullar” komediyalari, K.Avazning “Avesto mehr farzandi”, “Shoh bo‘ldi ishq ichinda”,

“So‘ngan umidlar”, “Feruz”, ”Dilbandi Xiva” tarixiy dramalari, J.Mahmudning “Tamg‘a”, “Eshmat tajang uylanarmish”, E.Xushvaqtoevning “Chimildiq”, N.Salayevning “Yurakdagi jarohat”, “To‘maris” kabi spektakllar sahnalashtirildi.

Teatr ijodiy jamoasi keyingi yillarda yosh aktyorlarning kengayishi sabab repertuarda yangi asarlarning talqiniga ham keng ahamiyat qaratildi. Bu esa o‘z navbatida teatrga bugungi zamonaviy ijodiy salohiyatga ega bastakor va dramaturglarni jalb etishni talab qiladi. Shu bilan birga teatrdagi poytaxt va mahalliy dramaturglar bilan hamkorlikda ijodiy izlanishlar olib borilishi quvonarli albatta.

Mazkur ijodiy izlanishlar tez orada milliy dramaturgiyaning vujudga kelishiga turtki berdi.

Ana shu izlanishlar mahsuli sifatida teatrdagi Y.Yunusovning “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, E.Usmonovning “Orzumdagi kelin”, N.Xoshimovning “Razolat qurbonlari”, S.Xamroyevning “Gumroh”, zamon qahramoni mavzusidagi asarlardan R.Muhammadjonovning “Oydin”, G.Qurbonovning “Oshiqlar”, “Bog‘bon”, E.Samandarovning “Sulton Jaloliddin”, Abdulla Qodiriyning “Toshpo‘lat tajang nima deydi” xajviy xikoyalari asosida M.Muhammadaminova insseniroykasi “Anvoyi tashvish”, Qurbon Muhammadrizoning “Mahtumquli” tarixiy asari kabi shoh asarlarning sahnalashtirilishi teatr jamoasining ijodiy imkoniyatlari yetarlicha ekanidan darak berib, repertuar salmog‘ini oshirdi, mavzu va janrlar xilma-xilligini ta‘minladi. Mazkur asarlar A.Yuldashev, X.Artiqov, O.Abdullayev, A.Otajonov, J.Sotiboldiyev, Q.Yaqubov kabi rejissyorlar tomonidan sahnaga olib

chiqilib, teatr tarixida chuqur iz qoldirdi. Shuningdek, spektakllarda aktyorlar rang-barang xarakterga ega betakror obrazlarni yaratishdi.

Xorazm musiqali drama teatrining dastlabki ijod yo‘li bir teksda kechmagan. Professional kadrlarning yetishmasligi, tashkiliy va moliyaviy masalalar, repertuarni shakllantirish qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Lekin teatrning mehnatsevar ijodiy jamoasi bu yo‘lda sabot bilan harakat qilib, mazmunli spektakllar yaratishga intildi.

Keyingi yillarda aktyorlar tarkibi G‘.Mardonov, Y.Jumaniyozova, X.Matyoqubov, L.Masharipova, SH. Quronboyeva, O.Yaqubov kabi yoshlar hisobiga kengaydi. E‘tiborlisi, milliy rejissuraning jonlanishi sezila boshlandi.

Xorazm teatri mustaqillik davrida qator e‘tiborga molik ishlarni amalga oshirdi, mutaxassislar tadqiqotiga arziqli, janr, mavzu va mazmun jihatidan yangilik hisoblangan asarlar tomoshabinga havola etildi. Xususan, Milliy xalq dostoni asosida yaratilgan Yunus Yusupovning (Ayyomiy) “Oshiq G‘arib va Shohsanam” musiqali dramasida qadimiy Xorazm vohasining urf-odatlarini, qadriyatlarini namoyish etiladi.

Sahnalashtiruvchi rejissyor Alisher Yo‘ldoshev, Abdusharif Otajonov musiqasi asosida ijodiy hamkorlikda asar sahna yuzini ko‘radi. Sahnadagi voqealar tomoshabin uchun ma‘naviy tarbiya vositasi bo‘lib kerakli xulosa va ibrat olishi, ularni kayfiyatini ko‘tarib, shodlik baxsh etish – bu teatr jamoasining asosiy burchi va oliy maqsadidir.

Asarda bosh qahramonlar G‘arib va Shohsanamning pok, beg‘ubor, ishqi-ilohiy tuyg‘ulari, go‘zal muhabbati tarannum etilgan. Spektaklda ikki yoshning muhabbatiga qizning otasi Shoh Abbos, amaldor va ulamolar tomonidan qat‘iy qarshiliklar bo‘ladi. Shohsanamni



shoh Valadga xotinlikka berishga qaror qilinadi. Xalq amaldorlarning zulmi va adolatsizliklariga qarshi bosh ko‘tarib kurashadi. Xalqning jipsligi natijasida adolat qaror topadi, G‘arib va Shohsanamning muhabbati g‘alaba qiladi. Asarda mansabparastlik, Vatanga sotqinlik, xiyonatkorlik, baxillik kabi yomon illatlar qoralangan bo‘lsa, sof sevgi, yorga sadoqat, insoniy qadriyatlar, tug‘ilib o‘sgan ona zaminga bo‘lgan mehr-oqibat, xalq uchun fidoyilik, do‘stubirolarlik, birdamlik tuyg‘ulari ulug‘lanadi.

Bosh rollarda Shohsanam Y.Jumaniyozova, G‘arib X.Matyoqubov, Shoh Abbas O‘zbekiston respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist K.Tojiboyev, Sulton begim Z.Otayeva, Oylar begim O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti G.Rahimovalar yaratgan rollari bilan tomoshabin qalbiga iliq kayfiyat olib kirgani, shubhasiz.

Shohsanam va G‘arib juftlik obrazlarining ichki olami his qilishgan. Yosh bo‘lishiga qaramay, aktyorlar (Y.Jumaniyozova va X.Matyoqubov) nozik rollari tomoshabinlar tomonidan aktyorlar yutug‘ini qo‘llab-quvvatlashga arziydi.

“Oshiq G‘arib va Shohsanam” spektaklida rejissyor asar qahramonlari xarakterini shunday yorqin ranglarda, goho quvonch, goho g‘am bilan tasvirlaydi. Ariyalar ijro etilganda Shohsanam ariyasida Shohsanamning armoni va g‘amlarini, G‘aribning ariyasida uning mardligi va muhabbatini his qiladi. Ona obrazida esa G‘aribning onasi g‘amlarini shu qadar tabiiy va dardli ijro etadiki, tomosha qilayotgan muxlisning ko‘zlaridan yosh oqqanini bilmay qolamiz. Spektal paytida tomoshabin aktyorlarning potensial kuchini, sahnaviy imkoniyatlarini to‘g‘ri

baholab, mahorat masalalariga alohida ahamiyat qaratiladi.

Spektakl voqealarida o‘sha davr madaniyati sahna dekoratsiyalari va asar voqeasining sahna ko‘rinishlarida aks ettirilgan. Ayniqsa, barcha obrazlarni tomoshabin fikrlashiga undashi, zavqshavq bag‘ishlaydigan, rejissyorlik topilmalariga boy spektakl vujudga kelgini yutuq albatta.



Bugungi kunga kelib Xorazm teatrida turli mavzudagi tarixiy asarlar qatorida komediya, drama janrdagi ko‘plab asarlar repertuardan o‘rin olib sahna yuzini ko‘rmoqda.

Gulnora Qurbonova ssenariysi asosida sahnalashtirilgan “Nomus va burch” dramasi hozirgi kunda dunyo bo‘yicha global muammo bo‘lib kelayotgan asr vabosi giyohvandlikga, giyohvandlik savdosi va jinoyatchilikga qarshi kurash mavzulari keng yoritilgan. Asarning tarbiyaviy ahamiyati, jamiyatimizdagi jinoyat va giyohvandlik illatlarini yo‘qotishga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Spektakl rejissyori Azimboy Otajonov voqealar ta‘sir kuchini ko‘rsatishda qahramonlar hatti-harakatlari, dialoglari hamda voqeadan-voqealarga o‘tishda musiqadan unumli fudalanadi. Dramada norkotiklar savdosi bilan shug‘ullangan Qozim, Sherzod va Og‘ufurushlarga nisbatan tomoshabinda nafrat tuyg‘usi uyg‘onadi. Adashgan Karim obrazi orqali yoshlarni ogohlikka chorlaydi. Shu bilan birga jinoyatchilar tomonidan tahqirlangan Gulnoza va Dildora obrazlari orqali jamiyatdagi ayollarni ehtiyotkorlikka da‘vat qilsa, do‘st atrofdagi yaqin insonlarga nisbatan o‘ylab ish qilish kabilarni uqtiradi. Davron va Cho‘pon ota obrazlari orqali erkaklarni Vatan, oila oldidagi burchini bajarishga, oila sha‘ni, or-nomusini asrashga, giyohvandlik va jinoyatchilikka qarshi

kurashishga da‘vat etib, yurtga sadoqat tuyg‘usi ulug‘lanadi.

Spektaklda ariyalar aktyor ijrosidagi qahramonni ichki iztirob va tug‘yonlarini yoritishga xizmat qiladi. Dramaturg bu boradi tomoshabin uchun voqeani yanada yoritib berishga xizmat qiluvchi so‘zlardan foydalangani ko‘rinadi.

Giyohvandlik to‘riga, tushsang chiq olmassan,

Shayton yo‘liga kirib, ortga qayta qolmassan.

Og‘ufurush tamg‘asi, bosiladi sha‘ningga,

Oilang yuz o‘girib, og‘u kirar qoningga.

Spektakldagi yorqin obrazlardan Davron, Dildora hamda Gulnozalar o‘rtasidagi voqealar ta‘sir kuchi tomoshabinga o‘zgacha kayfiyat ulasha olgan. Ayniqsa, Sherzod (M.Qo‘chqorov) komik obrazga to‘la mos tushgan. U sahnaga chiqishi bilan tomoshabin yuziga tabassum yuguradi.

Teatr sahnasida tomoshabin qaysi mavzuda spektakl tomosha qilmasin, davr ko‘rinishi, uzoq o‘tmish tarixi, insonlar hissiyoti xotiraga muhrlanadi. Bu esa tomoshabinda rejissyor va aktyorlarda ijro bilan bog‘liq turli uslub va yo‘nalishlar shakllanganiga guvoh bo‘lamiz. O‘ylaymizki, teatr spektakllar har bir davr ko‘zgusi, teatrning yaxshi namunasi bo‘lib qoladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qodirov M. Tomosha san’atlari o‘tmishda va bugun. – T.: Mumtoz so‘z, 2001. – 24 b.
2. Qilichev T. Xorazm xalq teatri. – T.: Adabiyot va san’at, 1988. – B. 61.
3. Tojiboyeva O. Epos va teatr. Birinchi kitob. – T.: “San`at” jurnali nashriyoti, 2015. – 50 - 83 b.
4. Tursunov T. O‘zbek teatr tarixi. –T: ART PRESS, 2010. B-485.



**IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNING
ESTETIK DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI
ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО МИРОВОЗРЕНИЯ
ОБУЧАЮЩИХСЯ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ
ШКОЛ**

**THE RELEVANCE OF FORMING STUDENTS' AESTHETIC WORLDVIEW IN
SPECIALIZED ART SCHOOLS**

**Malikova Dilfuza
Yangi asr universiteti
nodavlat oliy ta'lim
muassasasi magistranti**

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada badiiy san'atga ixtisoslashtirilgan maktablarda tahsil olayotgan bo'lajak rassom va dizaynerlarga yo'naltirilgan estetik tarbiya berish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarga e'tibor qaratilgan. Maqsadli yo'naltirilgan, (aniq reja asosida) estetik tarbiyani o'quvchilar ongiga singdirish, zamonavuy san'at talablariga javob bera oladigan, shu bilan birga tarixiy-badiiy an'analar va milliy qadriyatlarga tayanadigan san'at namoyondalarini yetishib chiqishiga qaratilgan masalalar o'rta qo'yilgan.*

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются особенности процесса эстетического воспитания будущих художников и дизайнеров, обучающихся в художественных школах. Раскрыты проблемы, направленные на внедрение в сознание студентов целенаправленного, (на основе четкого плана) эстетического воспитания, развития художественных проявлений, способных отвечать требованиям современного искусства и в то же время опираться на историко-художественные традиции и национальные ценности.*

***Annotation:** This article focuses on the specific features of the processes of aesthetic education for future artists and designers studying in specialized schools for fine arts. The issues of instilling purposeful, (based on a clear plan) aesthetic education in the minds of students, the formation of artists who can meet the requirements of modern art, while at the same time relying on historical and artistic traditions and national values are raised.*

***Kalit so'zlar:** san'at, tasviriy san'at, madaniyat, estetika, estetik tarbiya, ixtisoslashtirilgan maktablar, ommaviy madaniyat, pedtexnologiya, rassom, dizayn*

***Ключевые слова:** искусство, изобразительное искусство, культура, эстетика, эстетическое воспитание, профильные школы, массовая культура, педагогические технологии, художник, дизайн*

***Key words:** art, fine arts, culture, aesthetics, aesthetic education, specialized schools, mass culture, pedagogical technology, artist, design*

KIRISH. Maktablarning oliy maqsadlaridan biri ta'lim berish bilan bir qatorda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama rivojlangan shaxs bo'lib shakllantirish sanaladi. Bu jarayonda ta'lim beruvchilar o'quvchilarga zaruriy fundamental bilimlarni berish mobaynida tarbiyaning keng qamrovli jihatlari, jumladan axloq tarbiyasi, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi va boshqa bir qancha tarbiya usullaridan foydalanadilar. Bunday muhim tarbiya jihatlardan biri estetik tarbiya bo'lib, tarbiyaning bu jihati o'quvchilarning alohida shaxs sifatida aqliy va emotsional holatlarini shakllantirishda, jamiyatda o'zini tutishida hamda atrof muhitga bo'lgan munosabatlarni shakllantirishda xizmat qiladi. Bugungi kun o'quvchilarining shaxs madaniyatini shakllantirish murakkab jarayon ekanligi ma'lum, bu jarayonni, aniq tizimlashtirilgan bo'lishi va bosqichma bosqich amalga oshirilishi juda muhim.

Ma'lumki, insonning tabiiy-genetik tuzilmalaridan tashqari, u yashayotgan muhitda, avloddan avlodga o'tib, saqlanib kelayotgan ijtimoiy-tarixiy tajribani, an'ana va qadriyatlarni to'plash va uni yoshlarga uzatishda muhim bo'lgan fenomen, bu shubhasiz madaniyat hisoblanadi. Insonning kundalik turmush tarzidagi ma'naviy va amaliy faoliyati ko'zgusi deya talqin qilinadigan madaniyat borasida estetik tarbiya katta ahamiyatga ega. Bunda o'quvchi nafaqat ajdodlarning boy madaniy merosini o'rganadi, balki uni o'qitayotgan o'qituvchida asrlar davomida to'plangan qadriyatlarga nisbatan shakllangan o'ziga xos munosabatini ko'radi, shu bilan birga ushbu qadriyatlarga o'z shaxsiy munosabatlarini, o'z shaxsiy qadriyatlarini shakllantiradi. Va bunga estetik madaniyatni targ'ib qilish orqali erishiladi. Shubhasiz, o'quvchilar ongida

estetik hislarning shakllanishida asosiy omil o'qituvchi hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilarda atrof-dagi go'zallikni ko'ra olish, eshitish va his qilishni, asrab avaylashni singdira olishi kerak. Bunda e'tibor nafaqat moddiy go'zallikka qaratiladi, balki go'zal ahloq, mehribonlik, yaxshilik va hamdardlik, birdamlik bir so'z bilan aytganda oliyjanob his tuyg'ular ham rivojlantirilishi lozim. Shu kabi maqsadlarga erishish uchun, o'qituvchi o'quvchilarni masalan, tabiat qo'yniga olib chiqishi va ularning atrof-muhitni estetik xususiyatlariga bo'lgan munosabatlarini, ularning mulohazalari va his tuyg'ulariga o'z ta'sir imkoniyatlarini tahlil qilishi, mos keluvchi kognitiv faoliyatlarini o'ylab chiqishi kerak. Shu tariqa o'qituvchi o'quvchilarning eshitish, idrok etish qobiliyatlarini shakllantirib, o'z taassurotlari va baholarini umumlashtira olish va xulosalar qilishga undaydi. Va nihoyat o'qituvchi o'z bilimlariga tayangan holda o'quvchilarga dunyoning estetik manzarasini ochib beradi va ularning har birida atrof munitga bo'lgan ahloqiy-estetik munosabatlarni shakllantiradi

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Estetik tarbiya muammolari borasida ko'plab pedagog olimlar tadqiqot olib borganlar. Oxirgi yillarda O'zbekistonda professional ta'limning turli jabhalarida estetikaga oid ko'plab darslik va o'quv qo'llanmalar chop etildi. Lekin, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, aynan badiiy san'atga ixtisoslashtirilgan maktablarda tahsil olayotgan bolajak rassom va dizaynerlarga qaratilgan estetik tarbiya borasida amaliy ishlar olib borilmagan.

Har bir fanning inson va jamiyat hayotida o'ziga xos amaliy ahamiyati bor: estetika ham bundan mustasno emas. Avvalo, u kundalik hayotimizda nafasat

tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish borasida katta ahamiyatga ega. Erkin, demokratik jamiyatimizning har bir a'zosi go'zallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan nafis did egalari bolishlari lozim. Haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlay bilishlari, "ommaviychilik san'ati"ni rad qila olishlari lozim. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, estetika jamiyatning barcha a'zolari uchun muhim ahamiyatga ega, bu esa o'quvchilar ongida yoshligidanoq estetik dunyoqarashni shakllantirish masalalari naqadar dolzarbligini anglatadi. [1. - C. 11-12.].

Biroq, estetik tarbiyaning samaradorligiga bir necha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillar ta'sir qilmay qolmaydi. Dunyoda ro'y berayotgan keskin ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotida ham o'z aksini qoldirmoqda, ya'ni bir qancha salbiy oqibatlar- ma'naviy qadriyatlarning yo'qolib borishi, moddiyatning ustunligi, san'atni tijorat manbaiga aylantirilishi, o'sib kelayotgan yosh avlodni estetik didini deformatsiyalashishi va h.k.larga sabab bo'lmoqda. [2. - C-95.]. Bunday sharoitlarda ayniqsa, badiiy san'atga ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarini estetik jihatdan tarbiyalash kabi vazifalarga keskin e'tibor qaratmoq lozim. Ixtisoslashtirilgan san'at maktablari o'quvchilarining estetik dunyoqarashlarini shakllantirish bu – yuksak san'at go'zalliklarini idrok eta olish, tushunish qobiliyatlarini shakllantirish, estetik bilim va o'ziga xos estetik didni rivojlantirish, san'at sohalariga moyillikni rag'batlantirib, shu bilan birga, kundalik turmushdagi, tabiatdagi, va nihoyat san'atdagi go'zalliklarni his qilish, idrok etish va baholay olish kabi xislatlarni rivojlantirish, dunyoni go'zallik

qonuniyatlariga ko'ra mukammallashtirish jarayoni demakdir. [3. – C-5.].

Bir so'z bilan aytganda, ixtisoslashtirilgan san'at maktablari o'quvchilarining estetik dunyoqarashini shakllantirishning maqsadi - jamiyatning bo'lajak madaniyat vakillarini mukammal shaxs sifatida shakllantirishdir.

Buning uchun, mazkur tadqiqot borasida, bir qator vazifalar belgilab olindi, jumladan;

- ixtisoslashtirilgan san'at maktablari o'quvchilarining estetik dunyoqarashi, tasviriy-badiiy fikrlarini ifodalay olishi hamda egallayotgan bilimlarini namoyon qila olishi jihatlarini tahlil qilish;

-ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarda tasviriy san'at darslarida shakllangan tasviriy-badiiy, estetik bilim va ko'nikmalarining psixologik va pedagogik jihatlarini yoritib berish va takomillashtirish;

-ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarining estetik dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli yondashuv modelini texnologik usullarini ishlab chiqish. (maxsus fanlarni o'qitish jarayonunda, yakka tartib mashg'ulotlarida, ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida);

-ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida o'quvchilarning bilim olishlari bilan birga badiiy-estetik dunyoqarashlarini shakllantirish, shu bilan birga o'sib kelayotgan yosh avlodni zamonaviy ruhda mukammal shaxs sifatida tarbiyalashda muhim pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni yuzaga chiqarish hamda imkoniyatlar yaratish;

-Tadqiqotda taklif qilinayotgan metodlarni samarali jihatlarini aniqlash maqsadida ixtisoslashtirilgan san'at



maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilar orasida qiyosiy experimental tadqiqotlar olib borish. [4. – C-41.].

Badiiy ta'lim pedagogikasiga oid turli talqinda k'oplab tadqiqotlar olib borilganligi barchaga ma'lum. Bu boradagi tadqiqotlar tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi, ushbu mashg'ulotlarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kabi ko'plab masalalarga murojaat qilingan.

Mazkur tadqiqot ishida asosiy e'tibor aynan ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilar ongida ularning kelajakdagi ijodiy faoliyati uchun zarur bo'lgan badiiy-estetik didni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, unda taklif qilinayotgan uslublar yosh ijodkor avlodni jadal rivojlanayotgan dunyoda o'z nuqtai nazariga ega bo'lgan shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradi. Buning uchun tadqiqot ishida o'quvchilarining estetik dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan, har tomonlama rivojlantiruvchi yaxlit model sifatida tizimli yondashuv modelini texnologik usullari taklif etiladi. Bunday yondashuv, fikrimizcha, badiiy ta'lim tizimida avvalo

- turg'un shakldagi an'anaviy akademik talablarga qaratilib, bunda grafik savodxonlikning negizi bo'lgan tasviriy san'at realizm maktablari namoyondalarining to'plagan tajribalarini singdirilib;

- keyingi bosqichlarda jahon badiiy madaniyati namoyondalarining boy merosi (ibtidoiy davr san'ati, antik davr, uyg'onish davri va h.k) bilan tanishtirilib, tahlil qilish, baholash, o'z munosabatini shakllantirish kabi ko'nikmalar hosil qilinib;

- va nihoyat, o'quvchilarning intensiv ravishda badiiy-ijodiy o'sishi,

o'ziga muvofiq bo'lgan madaniy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirgan holda badiiy tasavvurini rivojlantirishi, fikrlash hamda o'ziga xos badiiy obrazlar yarata olish orqali shaxs sifatida o'z o'zini anglash xususiyatlarini o'rganish va b.lar o'quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashini shakllanishiga xizmat qiladi. [5. – C. 96-97.].

METODLAR. Mazkur tadqiqot ishlari Toshkent sh. Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktabi o'quvchilari orasida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Bu jarayonda o'quvchilarni badiiy estetik didini rivojlantirishga qaratilgan bir qator sinov ishlarini boshlashdan avval tadqiqotchi tomonidan maxsus ishlangan so'rovnomalarni to'ldirish so'raladi. Shundan so'ng amaliy ishlarga o'tiladi. Jumladan, o'quvchilarga tasviriy san'at darslarida ustozlar tomonidan "mahorat darslari" o'tkaziladi. Yurtimizdagi bir qator san'at muzeylari hamda bugungi kunda rassom va dizaynerlar tomonidan tashkil qilinayotgan ko'rgazmalarga tashriflar uyushtiriladi. O'quvchilar orasida tasviriy san'atga doir musobaqalar o'tkaziladi. Nihoyat o'quvchilardan maxsus so'rovnomalarni qaytadan to'ldirish so'raladi. Natijalar hisoblab chiqiladi.

XULOSA qilib aytganda, ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida o'quvchilarning estetik dunyoqarashini shakllanishi – butun bir tizimning rivojlanishining garovidir. Zero, tadqiqot natijasi jadal rivojlanib borayotgan jahonda o'zini anglagan holda, ajdodlardan o'tib kelayotgan an'analarni qadrlab, o'z hayotini ham go'zallashtira oladigan, o'z so'zini ayta oladigan barkamol rivojlangan shaxs bolishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Estetika: uslubiy qo‘llanma/ A.Sher, B.Husanov; Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti. -2-nashri. _T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.

3. Новлянская З.Н. Эстетическое отношение как один из индикаторов художественных способностей //Сб. «Художественное творчество. Вопросы комплексного изучения. АПН СССР, Ленинградское отделение, 1983. – С. - 5

4. Самиева Ш.Х., Маджидова М.Х. Эстетическое мировоззрение как один из компонентов образования и воспитания // УО «ВГТУ», Материалы докладов 53-й Международной научно технической конференции преподавателей и студентов. Том 1, 2020. – С. – 41.

5. Буров А.И. Проблемы эстетического развития личности школьника. – М.: Педагогика, 2016. – С. - 100.

2. Ткачева, Д. М. Эстетическое воспитание подростка средствами художественного творчества / Д. М. Ткачева, Л. М. Миляева. Педагогическое мастерство : материалы III Междунар. науч. конф. (г. Москва, июнь 2013 г.).



MUQIMIY TEATRINING ZAMONAVIY IZLANISHLARIDA AN'ANALARGA
YONDASHUV
ПОДХОД К ТРАДИЦИЯМ В СОВРЕМЕННЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ ТЕАТРА
«МУКИМИЙ»
APPROACH TO TRADITIONS IN THE MODERN RESEARCH OF
"MUQIMIY" THEATER

Kabilov Xabibullo
O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat
instituti dotsenti, mustaqil tadqiqotchi

***Annotatsiya:** Maqola, o'zbek dramaturgiyasi va teatrlarida tarixiy mavzudagi asarlar sahnalashtirilishi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, Qobilov Nasrulloning "Na malakman na farishta" dramatik asari misolida ko'rib chiqilgan. Maqolada tarixiy mavzulardagi asarlar qiyinchilik bilan paydo bo'lishi, tarixiy manbaalar badiiy to'qimalar bilan boyitilgan holda asar bosh g'oyasini tomoshabinga chuqurroq tushunishida xizmat qilishi borasidagi fikrlar bayon etilgan. Badiiy qiymatga ega bo'lgan har qanday asarning umri boqiydir. Maqolada, yaratilayotgan darama asarlar badiiy taraflama yuksak bo'lishi lozimligi va mazkur asarlarni kengroq tadbiq etish masalarini qamrab olgan.*

***Аннотация:** Статья посвящена вопросам постановки произведений на историческую тематику в узбекской драматургии и театрах. В статье произведения на историческую тематику появляются с трудом, исторические источники обогащаются художественными фактурами и служат зрителю для более глубокого понимания основной идеи произведения. Любое произведение, имеющее художественную ценность, имеет вечную жизнь. В статье создаваемые произведения искусства должны обладать высоким художественным качеством и освещаются вопросы более широкого применения этих произведений.*

***Annotation:** The article is devoted to the issues of staging works on historical themes in Uzbek dramaturgy and theaters. In the article, the works on historical themes appear with difficulty, the historical sources are enriched with artistic textures and serve the viewer to understand the main idea of the work in a deeper way. Any work of artistic value has an eternal life. In the article, the created works of art should be of high artistic quality and the issues of wider application of these works are covered.*

***Kalit so'zlar:** katarsis, Mashrab, postanovka, dekoratsiya, badiiy mushohada, voqealar tizimini dinamik rivoji.*

***Ключевые слова:** катарсис, Маураб, постановка, украшение, художественное наблюдение, динамическое развитие системы событий.*

***Key words:** catharsis, Mashrab, postanovka, decoration, artistic observation, dynamic development of the system of events.*

O'zbek dramaturgiyasi va teatrlarida tarixiy mavzudagi asarlar alohida o'rin egallaydi. Bunday sahna asarlari tomoshabinlarga chuqur kechinmalar (katarsis) baxshida etish bilan birga, ajdodlarimiz to'g'risida, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati to'g'risida ma'lumot beradi. Xalq o'zining buyuk ajdodlari to'g'risida yangi bilimlarga ega bo'lishadi. Ularning buyuk ishlari, ma'rifat yo'lida qo'shgan ulkan hissalar, xizmatlari to'g'risida tasavvurlari yanada boyiydi. Tarixiy mavzularda asar yaratish uchun chuqur ilmiy va ayni vaqtda yuksak badiiy dramaturgik mahorat darkordir. Dramaturg tarixiy shaxs to'g'risida asar yaratar ekan, qahramonning faoliyati, fe'l-atvori, vaqt, zamon, makon xususiyatlarini hisobga olib, dramatik kurashga boy syujetlar yaratadi.

XX asrning oxiri XXI asr boshida yashab ijod qilgan dramaturg, "Shuhrat" ordeni sohibi, Nasrullo Qobilov qalamiga mansub "Na malakman na farishta" badiiy mushohada asari mana shunday tarixiy mavzuga bag'ishlangan pyesadir. Dramaturg Qobilov Nasrullo Qo'chqorovich 1955-yil O'zbekiston Respublikasi, Samarqand viloyatining Galaqassob qishlog'ida dunyoga keldi. Dramaturg hayoti davomida musiqali teatrga mo'ljallangan ko'plab asarlar yozdi. "Na malakman na farishta" (Mashrab) asari obraz tiplarining mukammalligi, voqealar rivoji asar g'oyasini to'laligicha ochib berishi bilan mukammal tarixiy badiiy asardir.

Asar XVII asr ikkinchi yarmi XVIII asr boshida yashab o'tgan shoir, faylasuf, so'fizm tariqatchisi, qalandariya namoyondasi Boboraxim Mashrab hayotiga bag'ishlangan bo'lib, o'sha davrning qaltis vaziyati, shoir umrining so'nggi kunlari haqida hikoya qiladi. Asar yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan.

Dramaturg badiiyot mezonlariga to'laligicha amal qilgan holda, tarixiy shaxslarning yashash tarzini, axloqiy prinsiplarini, ruhiy holatlarini va o'sha mudxish fojeaning sabablarini obrazlarga ustalik bilan singdiradi. Asar obrazlarning hayotiy va jonliyligi, diologlarning pishiqligi, voqealar tizimining dinamik rivoji, berilgan shart sharoitda to'qnashuvlarning keskinligi, tomoshaviyligi, yetakchi hatti-harakat izchilligi asarning tabiiyligini, xalqchilligini ta'minladi. Dramaturg o'ta nozik bo'lgan yo'ldan, tarixiy asarni badiiy to'qima yordamida ochishga erishgan. Asarda voqea, XVIII asr boshida Afg'onistonning Balh shahrida yuz beradi. Asarda tanlagan yo'li, o'tmishi va jigarlari o'rtasida yonayotgan shoirning mardonavor, ammo o'ta ayanchli holati jonlanadi. Tanlangan mavzu borasidagi manbalarni topish, tarixiy hujjatlarni, materiallarni yig'ish, tartibga keltirish, o'qib o'rganishni taqazo etadi, dramaturg N.Qobilov mazkur jarayonga mas'uliyat bilan yondashgan holda tarixiy shaxs Boboraxim Mashrabning aniq obraz tipini yaratish maqsadida aniq manbaalarga tayangani sababli obraz fe'l-atvori, psixologik holati o'ta aniqlikda topilganini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Dramaturg asarida, Boboraxim Mashrabning eng qora kunlarini, umrining so'nggi kunlarida e'tiqodining sinoviga ro'baro bo'lishi tasvirlanadi. Asar tuguni taqdiridan behabar shaharga kelgan Mashrab ulamolar uni o'limga hukm qilgani sababli shahar markazida dor tayyorlayotgan jallod bilan suhbatdan boshlanadi. O'ziga atab yasalgan sirtmoqni ko'rib Mashrab o'limini bo'yniga oladi, taqdir azalga qarshi chiqmasdan vaqt soati yetganiga rozi bo'ladi. Asar Ofoqoy obrazining tuyg'ulari ochilganda yanada jonlanadi.



Sababi Mashrab yoshlikdagi muhabbati Ofoqoy Balh malikasiga aylanganidan bexabar mazkur shaharga kelgandi. O'tmish alamlaridan kecholmagan, muhabbati rad etilgan uchun yillar davomida qalbida qasos o'ti yongan malika Mashrabning kelganidan xabar topib u bilan ko'rishish va suhbatlashish chorasini qidiradi. Ofoqoyning turmush o'rtog'i Balh shahri shohi Mahmudxon Mashrabni avliyoligini tan olgan va uni qatl etish fikridan yiroq edi. Keyingi voqealar rivoji asar so'ngida Mashrabning o'limi bilan tugashiga sabab bo'ladi.

Asar dastlab 2003-yilda Muqimiy nomidagi musiqali teatrda ilk marotaba sahna yuzini ko'rdi. Rejissyor Axad Farmonov, kompozitor Farhod Olimov, rassom Baxtiyor To'rayev ijodiy guruhi murakkab sahna asariga qo'l urishdi. 2022-yilda mazkur spektakl rejissyor Bahodir Nazarov tomonidan qayta sahnalashtirildi. Kompozitor Farhod Olimov, rassom Jaloliddin Raximov hamkorligida asarga yangicha yondashuv qo'llanganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Asarga rejissyor tomonidan amalga oshirilgan o'ziga xos tahlil, topilmalar bilan original spektakl yaralishiga sabab bo'ldi. Rejissyor pyesaga faol, ijodiy munosabatda yondashib, janr, badiiy ifoda shaklini kuchaytirish maqsadida qo'shimcha vositalar izlab, tarixiy janrni badiiy mushohada tarzda talqin etishni maqsad qilib olgan va fikrini prolog, final, shuningdek, postanovkaning umumiy ruhini to'la ifodalashga erishgan. Spektaklda, pyesadagi tragik yakun va chuqur dramatik psixologik voqealar poetik yechimlar bilan almashtirilgan.

Rejissyor voqea rivojiga alohida e'tibor beradi. Spektakl sahna yuzini ko'rguncha ijodkorlardan sermashaqqat mehnat talab qilgan. Rejissyor spektakl yaralishi davomida har bir elementni, har

bir topilma va fikrni qadrlab, asar mavzusi va g'oyasini ochishda izchil foydalanadi. B.Nazarov va J.Raximov bilan spektakl dekoratsiyasiga alohida yondashuv qo'llaganini ko'rishimiz mumkin. Spektaklning umumiy tasviriy yechimi va janrini belgilashda postonovkachi rassomning izlanish samaralarini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Rassom sahnada shoirning g'azallari bitilgan oq matolar effektini raqqoslar performansi bilan boyitadi. Sahna orqa planida qo'llanilgan to'lin oy Mashrabning qalbi, ruxining ramziy ifodasi tarzida qo'llanilgan.

Spektaklga kuy bastalagan kompozitor Farhod Olimov Mashrabning g'azallariga murojaat etadi. Asardagi voqealar, ijobiy va salbiy obrazlarning fe'l atvori, xatti harakatlari va his kechinmalarini musiqiy sadolar bilan boyitish bilan malikaning dardini, falsafasini, qalbidagi pok muhabbatini tarannum etadi. Shoir g'azallariga musiqali portitura quradi. F.Olimov portitura yaratishda bor e'tiborini, tarixiy shaxslar hayotidagi real fojeasiga qaratadi. Portituralar asardagi voqea rivojiga xizmat qilib, g'azal mohiyati to'la qonli yoritiladi. Bu Mashrab obrazini ochishda katta yordam berdi. Bundan tashqari spektaklda xor ijrosi katta ommaviy sahnalar o'rnini bosdi. Ariya, duetlar, xor spektaklni yanada boyitdi. Spektaklda Mashrab obraziga asosiy urg'u uning faylasuf, darvesh sifatiga qaratiladi. Bu rejissyor B.Nazarov va ijodiy guruhning uzoq yillik izlanishlari, mehnatlari mahsulidir.

Xulosa qilib aytganda, "Na malakman na farishta" spektaklining muvaffaqiyati nafaqat o'zbek musiqali teatri sahnasining, balki o'zbek dramaturgiyasining yutug'i bo'ldi. Tarixiy-badiiy mushohada asarlar qiyinchilik bilan paydo bo'lib, badiiy qiymati balandligi sababli umri boqiydir.



“Na malakman na farishta” asaridagi badiyot yuksakligi tahsinga sazovordir. Bugungi kundagi dramaturgik sayyoz asarlar muammosi mavjud bo‘lib turgan bir paytda, bunday badiiy ahamiyati yuksak asarlarni sahnalarimizga qaytishi ayni muddaodir. Tomoshabinlar uchun buyuk tarixiy ajdodlari hayoti bilan yanada yaqinroqdan tanishish qanchalar foydali bo‘lsa, ijodkorlar uchun asarning badiyligi, obrazlarning jonliyligi ibratlidir. Biz dramaturglarimiz tomonidan yaratilgan asarlarning barchasiga bir nazar bilan qarashimiz, badiiy yuksak asarlarni hayotga qaytadan

tadbiq etishimiz maqsadga muvofiqdir. Teatr san’atimizning hozirgi kundagi dolzarb masalalaridan biri bu dramaturgik sayyoz asarlar ko‘pligidir. Shuni nazarda tutgan holda, ibrat bo‘ladigan asarlarni sahnalarga olib chiqilishi, yosh dramaturglar uchun badiiy mahorat to‘g‘risida, asar tabiiy va xalqchil, tomoshabop, voqealar tizimining dinamik rivojiga boy, yetakchi xatti-harakat izchilligi, berilgan shart-sharoitda to‘qnashuvning keskin kechishi to‘g‘risida jonli misol bo‘ladigan spektakllarni targ‘ib etishimiz zarur.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Қодиров М. Муқимий номидаги ўзбек давлат музикали театри 50 ёшда. // Тошкент, Союзтеатр уюшмасининг Ўзбекистон болими, 1940.
2. Қодиров М. “Сехр ва меҳр” Музикали драмаҳақида театршунос ойлари, //Тошкент, Фафур Гулом номидаги адабиёт ва Санъат нашриёти, 1980.
3. Т.Турсунов, Саҳна ва Замон. Тошкент., “Янги аср авлоди” нашриёти, 2007й.
4. Qobilov N. Dadamirzaev O. Aktyorlik mahorati /darslik/. – Т.: “Navro’z”, 2020, 220 bet
5. Хамидова М.А. “Муқимий номидаги Ўзбек давлат мусикали театри: замонавий жараён”, Санъатшунослик масалалари илмий мақолалар топлами II-том, Тошкент, 2005.
6. Туляходжаева М.Т. Режиссура Узбекского драматического театра (тенденции развития и современные проблемы). //Диссертация на соискания ученой степени доктор искусствоведческих наук. – Ташкент, 1996. – 205с
7. Ташпулатова Н.Ш. “Основные тенденции развития сцениграфии Узбекистана (1980-2003)”, //Диссертация на соискания ученой степени кандидата искусствоведческих наук. – Тошкент, 2007. – 147с.

**JAHON MUZEYSHUNOSLIGI AMALIYOTIDA BADIY MUZEYLAR VA
MAKTABLAR O‘RTASIDAGI HAMKORLIK INTEGRATSIYASI
INTEGRATION OF COOPERATION BETWEEN ART MUSEUMS AND
SCHOOLS IN THE PRACTICE OF WORLD MUSEUM STUDY
ИНТЕГРАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА ХУДОЖЕСТВЕННЫХ МУЗЕЕВ И
ШКОЛ В МИРОВОЙ МУЗЕЕВЕДЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ**

**Kasimova Shaxnoza
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
Muzeyshunoslik kafedrasida dotsenti**

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida ta’lim sohasidagi islohotlar, maktab o‘quvchilari uchun muzey ta’lim dasturlari, maktab o‘quvchilarining muzeylarga qiziqishini oshirish maqsadida amalga oshirilgan muzey loyihalari, bolalarning muzeyga tashrifini malakali tarzda tayyorlash, muzeyda olgan bilimlarni mustahkamlash borasida fikr yuritiladi.*

***Аннотация:** Данная статья посвящена реформам в области образования в США, Великобритании, Франции, Германии и других европейских странах, музейным образовательным программам для школьников, музейным проектам, реализуемым с целью повышения интереса школьников к музеям, грамотной подготовки детских посещений музея, укрепления знаний, полученных в музее.*

***Annotation:** This article is devoted to educational reforms in the United States, Great Britain, France, Germany and other European countries, museum educational programs for schoolchildren, museum projects implemented to increase the interest of schoolchildren in museums, to properly prepare children's visits to the museum, and to strengthen the knowledge gained in the museum.*

***Kalit so‘zlar:** Muzey-ta’lim islohotlari, muzey ta’lim resurslari, muzey o‘quv dasturlari, virtual muzey, elektron pochta, onlayn forumlar, ICOM, internet-dasturlar.*

***Ключевые слова:** Музейно-образовательные реформы, музейные образовательные ресурсы, музейные образовательные программы, виртуальный музей, электронная почта, онлайн форумы, ICOM, интернет-программы.*

***Key words:** Museum and educational reforms, museum educational resources, museum educational programs, virtual museum, e-mail, online forums, ICOM, internet programs.*

Ta’lim sohasidagi islohotlar AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan

biriga aylanmoqda. Ularni yagona davlat ta’lim standartlarini yaratish, demokratlashtirish va barcha ijtimoiy qatlamlardagi bolalar uchun ta’lim olish

imkoniyatlarini kengaytirishga bo'lgan intilishlari birlashtirdi. Axir, 1990-yillarda AQShda yagona davlat o'quv dasturlari va darsliklar mavjud emas edi, har bir shtat, har bir o'quv okrugi o'qitish vaqti, o'quv dasturlari va maktabni moliyalashtirish bo'yicha o'z tavsiyalarini ishlab chiqqan. An'anaviy federalizm Germaniya ta'lim tizimiga ham xosdir: o'n oltita federal joylarda maktab o'quv dasturlaridagi farqlar hanuzgacha saqlanib kelmoqda, bu esa bir xil yoshdagi o'quvchilar o'rtasida ularning bilim darajasidagi farqlarning mavjudligiga ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emas. Germaniyada ta'lim islohoti kelib chiqishi turli ijtimoiy qatlamlarga mansub bo'lgan kishilar (insonlar) uchun ta'limning boshlang'ich sharoitlari o'rtasidagi jadal suratda oshib borayotgan farqni yengib o'tishga qaratilgan[1, 72-b].

O'rta sinfning qisqarishi, boylar va kambag'allar o'rtasidagi tafovutning kuchayishi va ulkan migratsiya oqimlari faqat boshlang'ich maktabgagina umumiy bo'lib qolganligi holatiga olib keldi.

Yevropa va Amerika ta'lim islohotchilari 1980-90-yillarda kurash olib borgan muammo sovet maktabi tomonidan muvaffaqiyatli hal qilingan, bu maktab esa u yoki bu darajada barcha qobiliyatli bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratib berdi, haqiqiy ijtimoiy liftlar uchun yordam berdi. Aynan shu narsa bugungi kunda Finlyandiya maktabini birinchi o'ringa ko'tardi, uning bitiruvchilari xalqaro musobaqalarda ishonch bilan yetakchilik qilishni davom ettirmoqdalar.


Ta'lim islohotlarini amalga oshirgan holda har bir davlat o'z muammolarini hal qilishga harakat qiladi, bu muammolardan kelib chiqqan holda o'zining milliy ustivorliklarini shakllantiradi.

Lekin shu bilan birga umumiy narsalar ham mavjud. Har bir bolaning qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirish bo'yicha maqsadni qo'ygan holda ko'pgina mamlakatlarning islohotchilari o'z diqqat-e'tiborini muzeylarga qaratmoqdalar.

Turli mamlakatlarning ta'lim va muzey tuzilmalari o'rtasidagi o'zaro ta'sir modellari va mexanizmlari o'ziga xos xususiyatlarga ega va shakllangan an'analarga tayanadi. Buyuk Britaniyada 1997-yil may oyida Leyboristlar hukumati hokimiyat tepasiga kelishi bilan Bosh vazir Toni Bler uchta asosiy milliy ustivorlikni e'lon qildi – «ta'lim, ta'lim, ta'lim». Va uning ta'lim sohasidagi davlat siyosatining markaziy maqsadlaridan biri – bu yangi zahiralarni jalb qilishdan iborat bo'lgan.

Muzey ta'lim dasturlari nafaqat maktablarning o'quv rejalari, balki kattalar uchun uzluksiz ta'lim dasturlari bilan ham albatta muvofiqlashtiriladi. Sinf bilan muzeyga mustaqil tashrif buyurishni rejalashtirish uchun Britaniya o'qituvchisi faqat muzey mutaxassislarini xabardor qilishi kerakligi yetarli. Muzeylar unga ekspozitsiyalarda mustaqil ishlash uchun materiallar to'plamini, zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan interfaol ko'rgazma maydonchalarini, shuningdek, maktab o'quv dasturining turli mavzulari bo'yicha tanlab olingan va darslarda foydalanishi mumkin bo'lgan «muzey chamadonlari»ni taqdim etadi. O'qituvchi bolalar bilan darslarni nafaqat muzeylarning ko'rgazma zallarida, balki fondlarda, muzey kutubxonasida, shuningdek onlayn tarzda o'tkazishi mumkin.

Muzeylar tomonidan maktablar uchun virtual ta'lim dasturlarini faol ravishda yaratish – so'nggi paytlarning o'ziga xos yorqin xususiyatidir. Muzey



saytlarining maxsus bo'limlari o'qituvchilarga mo'ljallangan bo'lib, ularda muzeyda darslarni o'tkazish bo'yicha keng miqyosli takliflarni topish, o'quvchilar uchun maktab o'quv dasturini namoyon qilmaydigan, ammo o'qitishning «mavzu uslubi»dan foydalanadigan turli uslubiy tavsiyalarini, faollik varaqalarini yuklab olish mumkin.

Muzey saytlarida va norasmiy ta'lim uchun, shu jumladan, maktab o'quvchilariga ham ko'pgina takliflar mavjud.

Muzeylarning ta'lim resurslaridan islohotlarning bir qismi sifatida foydalanishning Britaniya modeli kuchli davlat va jamiyatning (ko'p sonli fondlar tomonidan beriladigan grantlar tizimi orqali) moliyaviy jihatdan yordamiga tayangan.

Xuddi shunday tizim AQShda ham mavjud bo'lib, u yerda «Muzey va ta'lim» milliy dasturi ko'p yillar davomida faoliyat yuritib kelmoqda. Muzeylarning ta'lim bo'limlari xodimlarining asosiy vazifasi ekskursiyalarni o'tkazish emas, balki o'qituvchilar uchun o'quv-uslubiy qo'llanmalarni tayyorlash, ixtisoslashtirilgan yo'lko'rsatkichlar, «ishchi daftarlar», illyustrativ (ko'zgazmali) materiallar to'plamlari, video va Internet-dasturlarini o'qituvchilar muzeydagi darslarni malakali ravishda tayyorlash va o'tkazish imkoniyatini yaratishdan iborat. O'qituvchilarni hamkorlar deb bilgan Amerika muzeylari ular uchun maxsus ma'ruza zallari, o'qituvchi ustaxonalari, sinov topshirish kurslari, tadqiqot dasturlari va muzeyda stajirovka o'tash dasturlarini tashkil qilgan tarzda alohida ular uchun ishlaydi. O'qituvchilar nafaqat muzey kolleksiyalari (to'plamlari) haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'lishadi, balki o'quv ishlarida ulardan foydalanish uslubiyatini o'rganadilar,

maktab darsliklarini muzey eksponatlari orqali namoyish qilish emas, balki ular yordamida bolalarga bilim olishning yangi usulini egallashga ko'maklashadigan o'z fanini ochib berishga o'rganadilar [2, 98-b].

Muzey o'quv dasturlarida ishtirok etadigan maktab o'qituvchilari yuqori malakaviy razryadga va natijada qo'shimcha ish haqiga ega bo'ladilar.

Yetakchi o'qituvchilarni tayyorlashga maxsus yo'naltirilgan dasturlar mavjud, ular keyinchalik o'z o'qituvchilar jamoasida muzey ta'limi g'oyalarining targ'ibotchilariga aylanadilar.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, moliyalashtirish bilan bog'liq muammolar va vaqt yetishmasligi tufayli amerikalik o'qituvchilar 1990-yillar oxiridan boshlab muzeylarga amalga oshiriladigan tashriflari sonini kamaytirgan. Biroq, shu bilan birga, ta'lim sohasining o'zgarib borayotgan ehtiyojlariga yo'naltirilgan virtual muzey ta'lim dasturlarining ommaviyligi ortib bormoqda. Web 2.0 vositalaridan foydalangan holda, amerikalik o'qituvchilar, shuningdek o'qituvchilar va dunyoning boshqa burchaklaridagi o'qituvchilar turli xil muzey ta'lim resurslariga ulanishlari mumkin. Muzeylar bazasida malaka oshirish kurslaridan o'tgan o'qituvchilar butun o'quv yili davomida ularga bepul obuna bo'lish huquqiga ega bo'ladi.

Virtual muzey o'quv dasturlari tomoshabinlari ularni jonli ravishda yoki yozib olingan vositalar yordamida tomosha qilishlari, subtitrlar yoki audio-ovoz berish bilan yuqori aniqlikda ijro etiladigan muzeyning video arxividan foydalanishlari mumkin. Elektron pochta, onlayn forumlar, telefon aloqalari yordamida o'qituvchi muzey mutaxassislari bilan doimiy aloqada

bo'lishi mumkin. Muzeylarning ta'lim veb-resurslarini ishlab chiquvchilari yangi texnologiyalar va ta'lim standartlarini doimiy monitoringini amalga oshiradilar va ta'lim xizmatlari bozoridagi tezkor o'zgarishlarni hisobga oladilar [3, 55-b].

Hatto Daniya kabi kichik mamlakatda ham, davlat darajasida 2007 yildan buyon muzeylarni ta'lim tizimiga kiritish milliy dasturi qabul qilingan.

Dastur, xususan, muzeylar va o'qituvchilarga barcha darajadagi maktablar uchun majburiy tarzda onlayn-resurslardan foydalangan holda qo'shma fanlararo, ilmiy-tadqiqot, amaliyotga yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqishni tavsiya etadi. Ularni tayyorlash uchun har yili 10 million yevrogacha mablag' ajratiladi (shu jumladan o'qituvchilar uchun seminarlar tashkil etish va dasturlarning samaradorligi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish uchun). Shu bilan bir vaqtda (18 yoshgacha) bolalar va yoshlarning muzeylarga bepul kirishi to'g'risida qaror qabul qilindi, bu qarorga ko'ra ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, interfaol texnikani rivojlantirish va yangi media-texnologiyalardan foydalanish uchun mablag' ajratildi.

«Meros» Milliy Agentligi, Ta'lim vazirligi va muzeylar jamoatchiligi bilan birgalikda (Daniyada 117 ta davlat muzeyi faoliyat yuritadi) mavjud muzey-ta'lim dasturlari monitoringi o'tkazildi va Muzeylar ta'limi milliy tarmog'i yaratildi. Maktablar uchun mo'ljallangan muzey dasturlari Internetdagi www.e-museum.dk saytida nashr qilinadi, unga barcha maktab o'qituvchilari kirishlari mumkin. Uning platformasini yangilanishi Daniya Ta'lim vazirligi tomonidan moliyalashtiriladi [4, www.e-museum.dk].

Germaniyada, yuqorida tavsiflangan tajribadan farqli o'laroq,

muzeylarga tashrif buyurish majburiy maktab o'quv rejalariga kiritilmagan. Biroq, o'qituvchi o'z xohishiga ko'ra turli muzey dasturlaridan, jumladan muzeyda o'tkaziladigan darslaridan, loyiha kunlaridan yoki hatto loyiha haftalaridan foydalanishi mumkin. Turli xil ijtimoiy qatlamlarga mansub bolalarning turli xil boshlang'ich tajribalari, ota-onalarning keskin farq qiladigan ta'lim va madaniy darajasi o'qituvchidan bir sinf doirasida o'quvchilar darajasini «tenglashtirish» bo'yicha juda katta ishlarni amalga oshirishini talab qiladi va odatda, bolalarning katta qiziqishini uyg'otadigan muzey dasturlari bunda unga katta ko'mak beradi.

O'tgan yillar davomida ushbu muzey va pedagogik markazlar tomonidan maktablar uchun ko'plab o'quv dasturlari yaratildi, turli xil uslubiy qo'llanmalar nashr qilindi: o'quvchilarning ko'rgazmalarda mustaqil ishi uchun «ishchi daftarlar»i, o'qituvchilar uchun tayyorlash va maktab o'quvchilari tomonidan muzeyda olingan bilimlarni mustahkamlash bo'yicha risolalar, ko'rgazmali illyustratsiya materiallari to'plami, qog'ozda konstruktsiyalar ishlab chiqish uchun papkalar va boshqalar. Muzey va pedagogik markazlarning faolligi va ularning ta'lim bo'yicha takliflarining mashhurligi 90-yillarda deyarli barcha nemis muzeylarining shtatlar jadvalida muzey o'qituvchisi lavozimining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

2000-yillarning boshlari Germaniya muzeylarini uzluksiz ta'lim tizimiga qo'shishga qaratilgan markazlashgan davlat harakatlarining yangi bosqichini boshlab berdi.

2004 yildan 2011 yilgacha bo'lgan davr ichida – ushbu loyiha maqsadli qo'llab-quvvatlandi (Germaniya hukumati tomonidan federal shtatlarning



Madaniyat fondi va Federal siyosiy ta'lim markazi, shuningdek, Pricewater house Coopers, Robert Bosh i Merkator xususiy fondlari), turli xil bilim sohalari mutaxassislari esa muzeylar va maktablar o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlikning innovatsion modellarini yaratish va ushbu hamkorlik sifati mezonlarini ishlab chiqish ustida ish olib bordilar. Migratsiya jarayonlarining rivojlanishi sharoitida madaniyatlararo aloqa, migrantlar muhitidan bo'lgan yoshlarning ijtimoiy va madaniy integratsiyasi mavzusiga alohida e'tibor berildi.

Birinchi bosqich barcha federal shtatlar va maktab dasturlariga kiritilgan barcha fanlar bo'yicha barcha pog'onadagi maktab o'quvchilari uchun muzeylar tomonidan ta'lim berish bo'yicha takliflarining markazlashtirilgan ma'lumotlar bazalarini yaratish bo'yicha ish olib borishdan iborat bo'ldi, maktab o'qituvchilari ulardan onlayn tartibda www.kinderzumolymp.de; www.museummacht-stark.de; www.museumbildet.de saytlarida foydalanishlari mumkin va ular doimiy ravishda yangilanadi.

Buning ortidan maktab o'quvchilarining muzeylarga qiziqishini oshirishni maqsad qilib qo'ygan bir nechta yirik loyihalar amalga oshirildi. Unda turli joylardan kelgan 1800 nafar maktab o'quvchilari ishtirok etdilar, ular o'zlari tanlagan bitta muzey ob'ektiga tayanib, maktab dasturining turli mavzularida muzeylarda o'quv mashg'uloti uchun mustaqil ravishda mavzularni taklif qildilar. Ushbu loyiha doirasida veb-sayt yaratildi, unda bolalar tomonidan nashr etilgan Vatan siymosi bilan bog'liq bo'lgan muzey ashyolari joylashtirilgan. O'quvchilar har bir tasvirni hikoyalar, qo'shiqlar, she'rlar, video va audio yozuvlar, ijodiy ishlar ko'rinishidagi shaxsiy sharhlar bilan

to'ldirdilar. 2007-2009 yillarda yana 135 ta maktab va gimnaziya va 180 ta muzey o'rtasida barqaror hamkorlik tandemlari jalb qilingan «Maktab@Muzey» loyihasi start oldi. Ushbu onlayn-loyihalar muayyan maktablar va muzeylar o'rtasida uzoq muddatli hamkorlikning yuzaga kelishiga yordam berdi.

2009-2011 yillarda muzeylar va maktablar o'rtasida hamkorlik loyihalari tanlovi o'tkazilib, ulardan 15 tasi mablag' bilan ta'minlandi. Tanlovda g'olib bo'lishning zaruriy sharti boshqa institutsiyalar – universitetlar, teatrlar, OAV va boshqalarni jalb qilishdan iborat edi.

Masalan, «Men sen ko'rmayotgan narsani ko'ryapman» loyihasi (Grayfsva'lddagi Montessori maktabi va Pommern yer muzeyi) 6-7 sinf o'quvchilarining stsenariylar yaratish va o'quv videofil'mlarini suratga olishda ishtirok etish tajribasiga aylandi. Ular muzey xodimlarining muzey kolleksiyasining tarixi bo'yicha bir qator ma'ruzalarini tinglab mustaqil ravishda ishladilar, taklif qilingan rejissyor bilan birgalikda syujetlarni rivojlantirish bo'yicha ijodiy g'oyalarni izladilar, mahalliy gazetalardagi maqolalarga ular haqida sharxlar yozdilar, suratga olish jarayonida aktyor sifatida qatnashdilar.

Bad Dyurkxaym shahridagi Karl Orff nomidagi maktab o'qituvchilari va 60 nafar katta sinf o'quvchilari (9-10 sinflar) Pfal'ts yeridagi Tabiiy ilmiy muzeyi va mahalliy Vatanshunoslik muzeyidagi loyiha haftalari davomida zamonaviy ekologik muammolar darajasiga chiqishni maqsad qilib, «Arktikani o'rganish» mavzusida o'z tengdoshlari uchun bir necha tillarda tarixiy ekskursiyalar va audio-gidlar siklini ishlab chiqdilar.

Barcha loyihalar 2011 yilda Germaniya muzeylar ittifoqining

risolasida nashr etilgan bo‘lib, unda 8 yil yakunlari sarhisob qilingan, shuningdek, muzeylar va maktablarning o‘zaro aloqalarini tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar berilgan. 2012 yilda IKOM ta‘lim qo‘mitasi tavsiflangan loyihani «Best-Practice-Award» nominatsiyasi bo‘yicha mukofot bilan taqdirladi.

Chet el muzeylarining ta‘lim resurslari maktab o‘quv jarayoniga muhim qo‘shimcha bo‘lganligiga ishonch hosil qildik. Bugungi kunda ta‘lim islohotlari jarayonida hal qilinayotgan vazifalarni bajarishda muzeylar uchun ahamiyatli rol ajratilgan. Ular o‘qituvchilar va maktab o‘quvchilarining madaniy merosga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradigan, o‘qituvchining o‘zi uchun yangi madaniy-ma‘rifiy muhitga kirishini osonlashtiradigan, bolalarning muzeyga tashrifini malakali tarzda tayyorlashga, muzeyda olgan bilimlarni mustahkamlashga va hattoki, istasalar, mustaqil ravishda muzey mashg‘ulotlarini o‘tkazishga imkon beradigan materiallarni ishlab chiqish bilan faol shug‘ullanmoqdalar.

Chet el muzeylarining maktablar bilan o‘zaro ta‘siri turli moliyaviy mexanizmlarga asoslanganligini ko‘rdik. Davlat izchil madaniy siyosat yuritgan holda, muzeylarni uzluksiz ta‘lim tizimiga qo‘shish g‘oyasini qo‘llab-quvvatlaydi, maqsadli subsidiyalar, tanlovlar orqali muzeylar ta‘lim dasturlarini moliyalashtiradi va xususiy fondlardan mablag‘larni jalb qiladi. Ajratilgan mablag‘lar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa tuzilmalar bilan, shu jumladan

ta‘lim tuzilmalari bilan o‘zaro aloqalari orqali muzeylarga kelib tushadi.

Maktab o‘quv jarayonida muzeylarning ta‘lim salohiyatidan o‘zaro hamkorliksiz, o‘quv soatlari rejasiga muzey darslarini kiritishgacha birgalikda rejalashtirishsiz, muzey va maktab o‘qituvchilarining yaqin hamkorligisiz, va albatta, o‘quvchilarning qiziqishlariga e‘tibor bermasdan samarali foydalanish imkonsizdir deb ta‘kidlash mumkin.

Biz tavsiflagan xorijiy ta‘lim islohotlari tajribasi tobora murakkablashib borayotgan global ijtimoiy muammolarni hal qilishga qodir, deb da‘vo qilishdan yiroqmiz. Ular 1980-90 yillarda boshlangan va bugun 20 yil o‘tib ham, ular tugallanmagan. Xususan, ta‘lim standartlarini joriy etish maktab o‘quv dasturining faqat bir nechta (3-4) asosiy fanlarigagina ta‘sir qildi. Haligacha bitta davlat ichidagi maktab o‘quv dasturlaridagi farqlar saqlanib qolmoqda, maktablarning differentsialanishi oshib bormoqda, nafaqat demokratlashtirish vazifalari hal qilinmagan, balki migratsiya oqimining oshishi va ijtimoiy tabaqalanishning chuqurlashishi bilan bog‘liq ravishda erishilgan yutuqlardan chetga chiqishlar ham kuzatilmoqda. Bularning barchasi bizga bugungi kunda mamlakatimizda ta‘lim sohasida sodir bo‘layotgan voqealar to‘g‘risida yanada kengroq tasavvur beradi, kuchli va kuchsiz tomonlarimizni, shuningdek, o‘z muammolarimizni hal qilish imkoniyatlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Столяров Б.А. Музейная педагогика. История, теория, практика. Учебное пособие. – М. : Высш. шк., 2004. – 216 с. Альмеев Р. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. – Ташкент: Издательско-полиграфический дом имени Гафура Гуляма. 2007.
2. Макаров Н.Г. Детские музеи Америки. История и современность. – Москва: 1997.
3. Бабенко В.С. Виртуальная реальность в музейном деле // Музей в современной культуре СПб., 1995.
4. www.e-museum.dk
5. Заирова М.Г. Школьный музей. – Алма-Ата: Мектеп, 1982.
6. Kasimova Sh. Muzey pedagogikasi. O’quv qo’llanma. “Matrix” – Toshkent 2022.-256 b.
7. Коваль М.Ю. Дети в музее: размышления психолога // Музееведение. Воспитание подрастающего поколения в музее: теория, методология и практика. М., 1989.
- 8 Макаров Н.Г. Детские музеи Америки. История и современность. – Москва: 1997.
9. Ismailova J. “Zamonaviy jahon muzeyshunosligi”. /J.Ismailova, M.Muxamedova. “PREMIER PRIENT”. MCHJ. Toshkent. 2013. – 312 b.

ТУРКМЕНСКАЯ САБЛЯ В КОЛЛЕКЦИИ
ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ ИСКУССТВ В ТАШКЕНТЕ
(первая половина XVIIIв.– началоXIXв.)
TURKMEN SABRE IN THE COLLECTION OF THE STATE MUSEUM OF
ARTS IN TASHKENT
(first half of the 18th century – beginning of the 19th century)

Мадаминов Баходир
Независимый исследователь
кафедры музееведения
института Художеств и
дизайна имени Камолиддина Бехзада

***Annotation:** The article examines the history of street art and advertising in cities and their interrelationship. The author analyzes the importance of using street art and advertising to enhance the city aesthetically and promote ecology and culture. This process significantly contributes to the cultural development of Tashkent.*

***Kalit so'zlar:** Ko'cha san'ati, street art, reklama, badiiy ifoda, ekologiya, madaniyat, shahar rivojlanishi, estetika, murallar, ijtimoiy mas'uliyat, san'at va reklama, madaniy yangilanish, vizual kommunikatsiya.*

***Ключевые слова:** Уличное искусство, стрит-арт, реклама, художественное выражение, экология, культура, развитие города, эстетика, муралы, социальная ответственность, искусство и реклама, культурное обновление, визуальная коммуникация.*

***Key words:** Street art, advertising, artistic expression, ecology, culture, urban development, aesthetics, murals, social responsibility, art and advertising, cultural renewal, visual communication.*

Zamonaviy shahar - yashash uchun jozibali makon bo'lib, shaxsiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shahar maydoni zamonaviy turmush tarzi va dunyoqarashining timsoliga aylanadi.

Unda fuqarolarning kasbiy va shaxsiy hayoti kechadi.[1] "Odamlar uchun shahar" zamonaviy kontsepsiyasi shahar muhiti nafaqat qulay va xavfsiz, balki

odamlar uchun qiziqarli va estetik jihatdan jozibali ekanligini nazarda tutadi.

Ko'cha san'ati katta shahar madaniyatining uzviy qismidir. Shahar madaniyati turli xil uyg'unlik va to'qnashuvdagi barcha turdagi ijtimoiy faoliyat turlarining yig'indisidir. Ko'cha va xiyobonlarda shahar jamoasining ma'naviy intilishlarini aks ettiruvchi badiiy hodisalar tobora ko'payib bormoqda.

Ko'cha san'atining paydo bo'lishi ko'cha makonini badiiy muhit bilan to'ldiradi. Uning rivojlanishi va o'zgarishi shahar jamoat maydonidan ajralmasdir. Ko'cha san'ati asosan ommaviy san'at rolini o'ynaydi. Bu shahar muhitini yaxshilaydi va shaharning yangi qiyofasini yaratadi. Ko'cha san'ati joyning madaniy muhitini yaxshilash va ta'kidlash uchun turli fazoviy xususiyatlarni birlashtiradi.

Ko'cha san'ati o'zini namoyon qilishning dinamik shakli bo'lib, uning ahamiyati fikr-mulohazalar va tomoshabinlar bilan o'zaro aloqadadir. Ko'cha san'ati san'atkorlari tomoshabin bilan tezda hissiy aloqa o'rnatadilar, shu bilan birga odamlarning shahar ijtimoiy hayotida ishtirok etishlarini osonlashtiradi. [2] Ko'cha san'atining turli shakllari shahar ko'chalari va jamoat joylari landshaftini boyitadi.

Agar ko'cha san'ati tarixini iloji boricha kengroq ko'rib chiqsak, u qadimgi davrlarga borib taqaladi, ibtidoiy odamlar atrofdagi dunyoning tasvirlarini olishga harakat qilib, qoyatosh rasmlarini yaratgan. Aytishimiz mumkinki, sayyoramizning turli joylarida saqlanib qolgan qadimgi insoniyatning petrogliflari, ular uchun "birinchi graffiti". [3]

Biroq, baribir, ko'cha san'atining zamonaviy ko'rinishida paydo bo'lish davrini san'at turi sifatida ko'cha

plakatlarining tug'ilish davri deb hisoblash kerak. 1860-yillarda bosma mahsulotlarning rangli reproduksiyasi bir nechta bosma plitalar va "uch toshli litografiya" dan foydalanish bilan yaxshilandi. Ushbu texnologiya plakatlarni ishlab chiqarish uchun boy va ifodali ranglardan foydalanishga imkon berdi. Fransuz rassomi Anri de Tuluz-Lotrek tomonidan tijorat tasvirlarini ommaviy ravishda ko'paytirish o'z davri uchun eng zamonaviy san'at turiga aylandi, chunki u tez rivojlanayotgan rangli chop etish texnikasidan foydalangan. Tuluz-Lotrek afishalarida kompozitsiya va mavzuga yangi yondashuvlardan foydalangan va ularni asosan turli mashhur savdo muassasalari uchun yaratgan. Tuluz-Lotrekning asarlari ommaviy iste'mol uchun muntazam ravishda namoyish etiladigan birinchi badiiy mahsulotlar bo'ldi. Tuluz-Lotrekning 1890-yillardagi afishalarida topilgan badiiy tamoyillar va amaliyotlarning har biri bugungi kunda ham zamonaviy san'atga ta'sir qilishda davom etmoqda. [4]

Zamonaviy ko'rinishdagi ko'cha san'ati - bu megapolislar va yirik shaharlarga xos bo'lgan o'ziga xos shahar ijodkorligi.

Ko'cha san'ati paydo bo'ladigan joy - bu shahar ko'chalari va maydonlari kabi shahar jamoat joylari. Shahar maydoni - bu odamlar dam olish, faoliyat yuritish, savdo va muloqot qilish uchun yig'iladigan jamoat joyi. Shaharning jamoat maydoni hammaga tegishli. Bu makonda odamlar uchrashadi va muloqot qiladi va butun makon o'zaro muloqot va qisqa muddatli umumiy maqsad orqali faoldir.

Ko'cha rassomlari shaharning yangi diqqatga sazovor insonlariga aylandi va ularning ba'zilar o'zining noyob graffitisi bilan mashhur Benksi



kabi dunyoga mashhur bo'lishdi. Benksi o'z asarlarini ingliz, nemis, Amerika shaharlaridagi uylarning devorlariga, vayron qilingan Ukraina shaharlari xarobalariga chizgan va uning rasmlari doimo jahon durdonalariga aylangan. [5]

Odamlarning jamoat maydoni haqidagi tushunchalarida juda ko'p o'zgarishlar yuz berdi. Shahardagi jamoat maydoni endi an'anaviy ma'noda "shahar" degan ma'noni anglatmaydi. Odamlar o'zlarining atrof-muhit sharoitlari va turmush tarziga qarab o'zaro ta'sir qilish uchun turli xil umumiy makonlarni yaratishga tobora ko'proq muhtoj bo'lib bormoqda.

Bundan tashqari, zamonaviy jamoat maydoni asosan ommaviy axborot vositalari, masalan, elektron tarmoqlar, televideniye, gazetalar va boshqalar bilan ifodalanadi. Jamoat makonining shakli materialsiz yoki aniqlanmagan bo'lishi mumkin. Street art - bu joylashuv, aloqa va badiiy-estetik faoliyatni bog'lashning yangi, zamonaviy usuli va shu ma'noda u an'anaviy jamoat maydonini yangilashi va to'ldirishi mumkin. [6]

Ular badiiy madaniyat obyektlari bo'lishdan tashqari, badiiy madaniyatni tarqatishning muhim usuli hamdir. Ko'cha san'ati ham doimiy ravishda yangilanish va ijodkorlikni targ'ib qiladi. Rassomlar tomoshabinlardan bevosita fikr-mulohazalarni oladilar. Ko'cha san'ati shahar jamoat joylarini yaratishda ijobiy rol o'ynadi va ko'cha rassomlari va fuqarolar uyg'unlikka erishmoqda. Ko'cha san'ati madaniyati shahar madaniyatini tarqatish va namoyish etishga yordam beradi. Street art nafaqat shaharning o'ziga xos madaniy belgisiga aylanishi, balki madaniy ifodani rivojlantirishi mumkin.

So'nggi yillarda ommaviy san'at va jamoat obodonlashtirish amaliy

otining rivojlanishi bilan ko'plab mamlakatlar va mintaqalar jamoat muhitini o'zgartirish uchun badiiy usullarni qo'llashni boshladilar. Shahar jamoat maydonini qayta shakllantirish va loyihalash jarayonida u ko'cha san'ati va tomosha odatlarining xususiyatlariga ko'ra dizayn ma'lumotnomasi sifatida ishlatilishi mumkin. Ko'plab rivojlangan davlatlar ko'cha rassomlari bilan hamkorlik qilishni boshladilar va bu hamkorlik natijalarini juda qiziqarli va istiqbolli deb atash mumkin.

Bu amaliyot sekinlik bilan Toshkent ko'chalarida ham paydo bo'lmoqda. So'nggi yillarda Toshkent shahrining ko'chalari reklama bannerlari bilan to'lib ketgan, ammo bugungi kunda bu an'anaviy formatning o'rnini san'at bilan bezatilgan murallar egallamoqda. Rassomlar tomonidan yaratilgan badiiy yondashuvlar, faqatgina tijorat maqsadlarida ishlatiladigan reklama tasvirlarini san'at asariga aylantirib, shahar manzarasini yangilamoqda. Bu yangi trend nafaqat tashqi ko'rinishni o'zgartirmoqda, balki aholi va sayyohlar uchun vizual estetikani taqdim etadi.

San'at va reklama o'rtasidagi bu uyg'unlik, Toshkentning o'ziga xosligini yanada ravshanlashtiradi. Har bir mural, shaharni yanada jonli, rang-barang va ilg'or qilishda muhim rol o'ynaydi. Murallar nafaqat odamlarning e'tiborini jalb etadi, balki ular ko'chalar va jamoat joylarini yoritib, har bir hududni o'ziga xos san'at asariga aylantiradi. Shuningdek, bu badiiy yondashuv odamlarni tasavvur qilishga, estetik qiymatlarni qadrlashga va shahar bilan chuqurroq aloqaga kirishga undaydi.

Masalan, Fidokor ko'chasida, Abbos Sharifzoda g'oyasi asosida Renarobrush tomonidan yaratilgan "Mirinda" ichimligi reklamasi shahar madaniyati va ko'cha san'atining

birlashgan namunasi hisoblanadi. Bunday reklamada an'anaviy bannerlar o'rniga, san'atkorlar badiiy yondashuv orqali brendni taqdim etadi. Murallarda rang-baranglik va energetik tasvirlar Mirinda ichimligining jonli va energiyaga to'la obrazini aks ettiradi. Reklama, shaharning markaziy hududida joylashgani sababli, keng auditoriyani qamrab olib, shahar ko'chalari orqali madaniy va estetik taassurotlar yaratadi. Bu loyiha, reklama va san'atning uyg'unligini namoyish etib, shaharni rang-baranglashtiradi va ko'cha san'atini ommalashtiradi.

Toshkent shahridagi ko'p qavatli uy devorida "Oq Mobile*" aloqa ilovasi hamkorligida yaratilgan mural ham Renarobrush va Abbos Sharifzoda tomonidan ishlab chiqilgan. Muralda ekologiya mavzusi o'z aksini topgan bo'lib, tabiatni asrash va atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatni ta'kidlaydi. Rang-barang tasvirlar orqali insonlarni yashil hududlarni saqlashga va ekologik ongini oshirishga chaqiradi. Bu loyiha, ko'cha san'ati va ijtimoiy mas'uliyatni birlashtirgan holda, shaharni faqat estetik jihatdan emas, balki ma'naviy jihatdan ham boyitadi.

Toshkent ko'chalari endi reklama sohasida badiiy ijod va innovatsiyalarni birlashtirgan joyga aylangan. Bu esa nafaqat reklama, balki san'atni ommalashtirishning yangi shakli sifatida ahamiyatga ega. Rassomlar tomonidan yaratilgan murallar, shaharni rang-barang va ijodiy muhitga aylantirib, uning madaniy qiyofasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shaharni ko'rish va tushunish orqali, bu murallar Toshkentni san'atning jonli qalbiga aylantirishda muhim o'rin tutmoqda.

Shahar markazida har kuni jamoat tirbandligi ko'p bo'lganligi sababli, u ko'cha san'atini namoyish qilish uchun ideal joylardan biri

hisoblanadi, chunki u yuqori darajadagi jamoatchilikni jalb qiladi.

Bu misollarning barchasi shuni ko'rsatadiki, shahar jamoat maydoniga ko'cha san'ati aralashuvi makon funksiyalarini optimallashtirishga yordam beradi va asl tartibdagi kamchiliklarni to'ldiradi.

Shahar badiiy madaniyati - bu san'at asarlarini yaratish va san'at asarlari bilan aloqa qilish bilan bog'liq bo'lgan shahar madaniyatining bir qismi. Ko'cha san'ati shahar jamoat maydonidan kelib chiqadi, unda o'sadi va unga ta'sir qiladi, unga yaqinlashadi, fuqarolar hayotiga ta'sir qiladi va ularga foyda keltiradi. Ko'cha san'ati san'atning oldingi yuqori yoki yorqin taassurotlaridan voz kechadi va buning o'rniga katta shahardagi odamlar o'rtasida aloqa o'rnatishga intiladi. Bu nafaqat zamonaviy shaharning ijtimoiy hayoti ehtiyojlarini qondirishi, odamlarni band hayotini to'xtatishga va muloqot qilishni to'xtatishga undashi, balki shaharning badiiy madaniyatini aks ettirishi, odamlarning shahar haqidagi taassurotlarini chuqurlashtirishi mumkin. Shahar jamoat maydoniga ko'cha san'atining aralashuvi makon funksiyasini yaxshilashi, makonning hayotiyligini rag'batlantirishi va makonni yangilash roliga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, ko'cha san'ati faoliyatini tashkil etish, boshqarish, xavfsizlik va boshqalar nuqtai nazaridan takomillashtirishni davom ettirish kerak. Shahar jamoat makonini yangilash, funksional almashtirish va iqtisodiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratish uchun uning ijobiy rolidan foydalanadi. Jamoat joylari zamonaviy odamlarning kundalik ehtiyojlarini qondirishi, shuningdek, shaharni qayta tiklash va rivojlantirishga hissa qo'shishi uchun shaharsozlik va landshaft dizayni



bo'yicha turli xil variantlar va tavsiyalar mavjud. Ushbu badiiy aralashuv orqali muloqot tajribasi boyitiladi va jamoat joylarining atmosferasi yaxshilanadi. Shunday qilib, ko'cha san'ati jamoat joylarining shahar muhitini yangilash va

hayotiyligini oshirishda ijobiy rol o'ynaydi va u fuqarolarning hayot sifatini oshirishi mumkin. Moslashuvchan, qulay va rang-barang ko'cha san'ati shahar jamoat joylarini shahar aholisi uchun yanada ijobiy, insoniy va do'stona qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. СОЦИАЛЬНАЯ ЭКОЛОГИЯ ГОРОДСКОГО ПРОСТРАНСТВА -О.В. Понкалина -
2. Что такое стрит-арт?
3. Искусство на стенах. Краткая история граффити.
4. Отец плаката — Анри де Тулуз-Лотрек
5. BANKSY. Wall and Piece
6. Классификация публичных пространств в современной городской культуре-
7. Желнина А.А. Креативность в городе: реинтерпретация публичного пространства. Журнал социологии и социальной антропологии. 2020. №3(12). С. 114-118.
8. Ситникова А.А. Городская художественная культура: современные концептуальные основания и методологические подходы к изучению. Журнал Сибирского федерального университета. Гуманитарные науки. 2023. № 16 (11). С. 1999-2005.
9. Швиндт У.С. Стрит-арт и его фундаментальные коммуникативные особенности. Вестник Томского государственного университета. Философия. Социология. Политология. 2021. № 61. С. 20-25 DOI: 10.17223/1998863X/61/20
10. Современное городское пространство - основные элементы, тренды, композиция

FILM G‘OYASINI OCHISHDA MUSIQANING O‘RNI VA AHAMIYATI
THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF MUSIC IN OPENING THE IDEA OF
THE FILM

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКИ В РАСКРЫТИИ ИДЕИ ФИЛЬМА

Qobilova Shaxnoza
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
“San’at tarixi va nazariyasi” kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya: Musiqa kinoning ajralmas bir bo‘lagidir. Film uchun ishlangan har qanday musiqa tomoshabinni hayratga solishi bilan bir qatorda, ekrandagi voqealar rivoji bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tomoshabinning emotsional ta’sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi. U filmni to‘ldiradi va boyitadi. Yaqin o‘tmishda ro‘y bergan voqealar asosida suratga olingan “Qo‘qon shamoli” va “Ilhaq” filmlari ham o‘zining musiqalari bilan boshqa kinokartinalarimizdan ajralib turadi.

Аннотация: Музыка – неотъемлемая часть кино. Любая музыка, созданная для фильма, не только поразит публику, но и будет тесно связана с ходом событий и послужит усилению эмоционального воздействия на публику. Он дополняет и обогащает фильм. Фильмы “Кокандский ветер” и “Ильхак”, основанные на недавних событиях, также отличаются от других фильмов своей музыкой.

Annotation: Musical is an integral part of cinema. Any music created for the film will amaze the audience as well as be inextricably linked to the events on the emotional impact of the audience. It complements and enriches the film. The films “Qo‘qon shamoli” and “Ilhaq” based on the recent events also differ from our other cinemas with their music.

Kalit so‘zlar: San’at, film, musiqa, kinomusiqa, shovqin, ekran, rejissyor, aktyor, tomoshabin, dekoratsiya, rassom, libos, grim, kompozitor.

Ключевые слова: Искусство, фильм, музыка, киномузыка, шум, экран, режиссер, актёр, аудитория, декорация, художник, костюм, грим, композитор.

Key words: Art, film, music, film music, noise, screen, director, actor, the audience, decoration, painter, costume, grim, composer.

Kino san’atida musiqaning o‘rnini chuqur tahlil qilish, mustaqillik davri kino san’ati tamoyillari va rivojlanish yo‘llarini aniqlash, shuningdek, mavjud yutuq va kamchiliklarni tizimli baholash nafaqat milliy kino san’atini o‘rganishda, balki yosh olimlar va ijodkorlar uchun nazariy hamda amaliy manba yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har

bir kinofilmga asarning mazmun - mohiyatidan, oliy g‘oyasidan kelib chiqib kompozitor tomonidan mahsus musiqa yoziladi va ba’zi hollarda mavjud musiqa, qo‘shiq, xalq kuylaridan ham foydalanish mumkin bo‘ladi. Kinoda musiqani o‘rinli qo‘llanilishi tomoshabinga ta’sir o‘tkazish, hayajonga solishi bilan bir qatorda, ekrandagi voqealar rivoji bilan

chambarchas bog‘liq bo‘lib, asarning tomoshaviyligini oshirish uchun xizmat qiladi. Tarixiy mavzulardagi filmlarda badiiy to‘qimalar qo‘llanishi sodir bo‘layotgan voqealar tizimini yanada ta’sirli qilib tomoshabinga yetkazish maqsadida qo‘llaniladi. Shuning uchun suratga olinayotgan tarixiy janrdagi asarlariga rejissyor tomonidan bir muncha o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Rejissyor Dilmurod Masaidov suratga olgan, “Qo‘qon shamoli” tarixiy shaxs Qo‘qon xoni Umarxon hayotini aks ettiruvchi film Markaziy Osiyo tarixining murakkab davrlaridan biri bo‘lgan xonliklar davri xaqida hikoya qiladi. Rejissyor D.Masaidov mazkur filmda, tarixda ma’rifatparvar hukmdor sifatida nom qoldirgan Amir Umarxonning Qo‘qon xonligi taxtiga chiqish jarayonidagi ziddiyatli voqealarni tasvirlagan. Filmida asosiy urg‘u Umarxon obraziga qaratilgani uchun qahramonning shaxsi to‘laqonli ochib berilgan. Mohlaroyim (Nodirabegim) obrazi bo‘lsa juda ham zaif ayol timsolida talqin qilingan. Tarixdan bizga ma’lumki, Mohlaroyim irodali, adolatli inson bo‘lish bilan bir qatorda siyosat ishlarini juda yaxshi tushungan.

Suratga olishda kuchli ijodiy jamoasi yig‘ilgan bo‘lib “Qo‘qon shamoli” filmi aktyorlari, ssenografiyasi, libos, grim va kompozitor ishlari bo‘yicha juda katta ishlar olib borilgan. Film musiqasi voqealarni rivojini, obrazlarni ichki dunyosini keng ochib berishda katta xizmat qilgan. Kinomusiqqa kadr ichida va kadr ortida unumli qo‘llanilgani, tovush va shovqinlardan o‘z o‘rnida foydalanilganligi bois film badiiyligini to‘liq ochib berishda katta xizmat qilgan.

“Musiq va kino o‘rtasidagi munosabatlar muammosi zamonaviy san’at tarixidagi eng dolzarb masalalardan biridir. Kinomusiqqa ikkita asosiy vazifani

bajaradi: Illyustrativ (kadr ortida) va umumlashtiruvchi yoki voqeani badiiy mohiyatini ochib berish uchun xizmat qiladi (ko‘pincha – sahna ortida). Birinchi maqsad – vizual obrazning musiqiy-sinxron ekvivalentini yaratish bo‘lsa, ikkinchi maqsad – tasvirdagi voqea g‘oyasini ochib berishdan iborat. Kinomusiqaning ikkala turini nisbati til vositalarining murakkabligi darajasi va ma’lum bir kino turining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.”[1]

Musiq va tovushlardan unumli foydalanilgan yana bir muvaffaqiyatli film Ikkinchi Jahon urushi talofatlari, front va front orti qahramonlari yorqin xotirasiga bag‘ishlangan, tarixiy faktlarga va hayotning achchiq haqiqatlariga yo‘g‘rilgan “Ilhaq” filmidir.

Umrining so‘ngiga qadar farzandlarini ilhaq kutgan ona timsoli uchun filmga “Ilhaq” deb nom berilishi kinokartinani yutuqlaridan biridir. G‘alabaning 75 yilligiga bag‘ishlanib suratga olingan “Ilhaq” filmi rejissyori Jahongir Ahmedov o‘zining maishiy filmlari bilan yoshlar orasida tanilgan. Rejissyorning ijodidagi eng katta projekt bo‘lgan “Ilhaq” filmi ko‘pgina mutaxassislarning va tomoshabinlarning e’tirofiga sazovor bo‘ldi.

Filmida birgina oila taqdiri emas balki, butun xalqning og‘ir hayoti aks etgan. Oila boshi bo‘lib qolgan, zimmasiga butun ro‘zg‘or tashvishlarini olgan va yolg‘iz boshi bilan farzandlarini oyoqqa turg‘azib, uyli-joyli qilgan ona endi farzandlar rohatini ko‘rish umidida ekan, hayot Zulfiya aya boshiga kutilmagan zarbalarni hozirlab qo‘yadi. Farzandlari birin-ketin frontga urushga ketishadi. Hayot sinovlarida toblangan Zulfiya aya ichidan qanchalik azoblanmasin, qanchalik farzandlarini bag‘rida olib qolishni istamasin, sabri va matonati ila bu og‘ir sinovga bo‘yin egadi.



Bu holatni aktrisa Dilorom Karimova Zulfiya ayaning ichki kechinmalariyu, dardini yuksak darajada tomoshabinga yetkazib bergan.

Filmda Zulfiya aya obrazi orqali butun o'zbek ayollarining sabri, matonati, vafodorligi, mehnatkashligi va irodasi ko'rsatilgan. U shu qadar kuchli, bardoshli ayolki, ko'zining oqu-qorasi, jigardiydasi bo'lgan farzandlaridan "qora xat" kelsa ham dod-faryod solmay, og'irlik bilan kelinlariga o'rnak bo'lib, bor kuchini to'plab, hali hayot bo'lgan farzandlarini qaytishiga umid qilishi tomoshabinni larzaga soladi. Inson taqdir oldida ojizdir, Zulfiya aya ham bu ojizlikni qabul qilgan onadir. Tong sahar hamma shirin uyquda ekanida, daryo bo'yiga borib hammadan yashirincha yig'lash sahnasi tomoshabinni juda ta'sirlantiradi. Mazkur epizodlar uchun tanlangan musiqalar asar drammatizmini yanada kuchaytirishda xizmat qilgan. Sinovlarda sinmaydigan, g'am alamlarga bo'yin egmaydigan bo'lib ko'rinishga harakat qilayotgan onaning, mehribon yuragi naqadar farzand dog'ida kuyganini his qilish qiyin emas. Filmni tomosha qilayotgan tomoshabin aktrisa Dilorom Karimovani emas, balki, haqiqiy Zulfiya ayani ko'rib turgandek bo'ladi.

Filmning yana bir katta yutug'i, kinokartina uchun bir gektar yerga qurilgan maxsus dekoratsiyalar bo'ldi. XX asrning birinchi yarmiga hos uylar ko'rinishida qurilgan, malakali

ssenografik ishlar filmda o'sha davr muhitini yaratishda, aktyorlarni va albatta tomoshabinlarni voqea sodir bo'layotgan yillarni chuqurroq his etishiga yordam bergan.

Grim va liboslar ustida ham ancha ish olib borilgani ko'rinib turipti. Liboslar davrga mos ravishda tikilgan. Kompozitor tomonidan maxsus yozilgan musiqa film g'oyasini tomoshabinga yetkazib berishga katta hissa qo'shgan. Doniyor Agzamov har bir qahramon uchun alohida musiqa bastalagan. Kompozitor o'z intervyusida shunday degandi: "Boshqa filmlarda g'oyani bu qadar to'liq his qilolmasdim, kinokartina uchun mos musiqa yarata olarmikanman? degan fikr bo'lar edi. Bu filmda esa musiqalar o'zi quyilib kelaverdi". Bu film uchun yaratilgan musiqalar o'z jozibasi bilan qahramonlar ichki dunyosini, his-tuyg'ularini ochib berishda xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida milliy tarixiy xotirani tiklash va xalqimizning o'tgan asrlardagi murakkab davrlarini aks ettirishga qaratilgan qator filmlar yaratilgan. Bu davrda o'zbek kinematografiyasi an'anaviy tarixiy janrni zamonaviy badiiy vositalar bilan uyg'unlashtirishga erishdi. Bu orqali tariximizning eng murakkab davrlari kino orqali avlodlarga yetkazildi. Yuqorida fikr yuritilgan filmlarda ramziy obrazlar va milliy qadriyatlarimizning aks ettirilishi orqali kino san'atida milliy o'zligimizni anglash va saqlashga intilish seziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Маҳмудова З. “Тезыси докладов v искусствоведческой научно-теоретической конференции молодых ученых”, г. Ташкент, 1983 г.
2. old.uza.uz, O`zA., И.Аҳатова, “Хонликлар даврини фожеали, изтиробли, шонли ва зафарли воқеалари билан кўрсатиш пайти келди”,
3. Nasrullayvna, K. F. (2023). TRANSFORMATION IN SCENOGRAPHY OF PUPPET THEATER. European Journal of Arts, (2), 34-37.
4. Nasrullaevna, K. F. (2023, November). HISTORY OF TRADITIONAL PERFORMANCE AND PUPPET THEATER OF UZBEKISTAN. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 167-171).
5. KULTASHEVA, N. (2022). BAYAT MUKHTAROV AND HIS PLASTIC INNOVATIONS. Art and Design: Social Science, 2(01), 6-8.



**AFG‘ON RUBOBINI MODERNIZATSIYA QILISH
МОДЕРНИЗАЦИЯ АФГАНИСТАНСКОГО РУБОБА
MODERNIZATION OF THE AFGHAN RUBAB**

**Rustamov Shaxzodbek
Namangan davlat universiteti
Jahon tillari fakulteti Yoshlar bilan
ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari**

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugungi kunda o‘zbek musiqa san‘atida keng qo‘llanilayotgan afg‘on rubobining texnik imkoniyatlarini oshirish, xususan, modernizatsiya qilish orqali cholg‘u asbobini elektronlashtirish jarayoni, elektronlashtirish uchun zarur ehtiyot qismlar va ularni tizimlashtirish atroflicha tahlil etilgan.*

***Аннотация:** В данной статье дается подробный анализ процесса повышения технических возможностей афганского рубаб, который сегодня широко используется в узбекской музыке, в частности, процесс электронизации инструмента путем модернизации, необходимые запасные части для электронизации и их систематизация.*

***Annotation:** This article analyzes in detail the process of increasing the technical capabilities of the Afghan rubab, which is widely used in Uzbek music today, in particular, the process of electronicization of the instrument through modernization, the necessary spare parts for electronicization and their systematization.*

***Kalit so‘zlar:** afg‘on rubobi, modernizatsiya, uch qatorli ekvalayzer, chastota, led display, ovozni boshqarish, mikrofon*

***Ключевые слова:** афганский рубаб, модернизация, трехполосный эквалайзер, частота, светодиодный дисплей, регулировка громкости, микрофон*

***Key words:** Afghan rubab, modernization, three-band equalizer, frequency, led display, volume control, microphone*

Kirish (Introduction) O‘zbek musiqa madaniyati qadimiy va rangorang, ayni paytda yangi zamon an‘analarini o‘zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Bunda avvalo benazir xalq musiqasi, mumtoz musiqiy meros, milliy bastakorlik hozirgi zamon bastakorligi, shuningdek xalq havaskorligi hamda jo‘shqin ommabop estrada ijodiyoti kabi shaklan va usluban nihoyatda serjilo jabhalar namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli qarorini [1.] qabul qilinishi bu jarayonni yanada tezlashtirdi. Mazkur qarorga asosan, cholg‘u oqitish tizimi takomillashtirildi, xususan, umumta‘lim maktablari bitiruvchilarining muayyan cholg‘uni o‘zlashtirish zarurligi ta‘lim tizimiga joriy qilindi, Chunki, har bir suveren davlat o‘zining betakror tarixi va

madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi haqli ravishda shu mamlakat xalqi xisoblanadi.[2. -B. 4.]

Istiqlol sharofati bilan milliy ma'naviy qadriyatlarimizga bo'lgan diqqat-e'tibor, unutilayozgan an'analarimizni tarixan qisqa muddat ichida qayta tiklanishi, muttasil taraqqiy ettirish maqsadidagi yangilanish, isloh etish jarayonlarida ustuvorlik kasb etdi. Shuningdek qo'shni va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-musiqiy aloqalarni o'zaro boyitish yo'lida rivojlantirish sa'y-harakatlari ham dolzarb ahamiyatga ega bo'ldi. Bu jarayonda milliy cholg'u sozlarimiz ham takomillashib, mumtoz musiqa madaniyatini kelgusi avlodga yetkazishda muhim vosita bo'lmoqda.

Musiqa jamiyat ma'naviy taraqqiyotida san'atning boshqa turlariga nisbatan global ta'sir etish xususiyatiga ega. Buni O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: "Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi... Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda", degan fikrni bildirgan edilar.[3.-B. 140.]


Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Har qanday jarayon kabi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish ham o'z bosqichlariga ega. Dastlabki uch bosqich barcha mavjud ma'lumotlar va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish bilan bevosita bog'liq. Modernizatsiya qilish to'g'risidagi qaror buning uchun barcha zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lganda qabul qilinadi, masalan:

- Mahsuldorlikni oshirish zarurati;
- Favqulodda va ta'mirlanmaydigan uskunalarning katta foizi;
- Samaradorlikning yetarli emasligi;
- Eskirgan uskunalarning katta foizi;
- Ishlab chiqarishni rejalashtirilgan kengaytirish.

Cholg'ularni zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirishning ilk tajribalari XX asrning 20-yillari va 30-yillarining boshlariga to'g'ri keladi. Bu g'oyani birinchi bo'lib toshkentlik mashhur san'atkor, hofiz Sh. Shoumarov, xorazmlik ustoz sozanda M. Xarratov, toshkentlik mashhur musiqiy cholg'ular ustasi usta U. Zufarovlar amalga oshirganlar. Ularning vazifalari musiqiy sozlarning ovoz jarangdorligini oshirish va xas pardalar yordamida cholg'u diapazonini (eng past tovushdan eng yuqori tovushgacha bo'lgan oraliq) kengaytirishdan iborat edi. U. Zufarov birinchilardan bo'lib past registrlilik cholg'ularni yaratishga asos solgan.

30-yillarning o'rtalarida A. Petrosyans rahbarligi ostida musiqa ustalari guruhi (V. Romanchenko, A. Kevxoyans, S. Didenko) V. Andreyev ish tajribasiga tayangan holda cholg'ularni o'n ikki bosqichli teng temperatsiyalangan prinsip asosida zamonaviy talab darajasiga moslashtirishga kirishdilar. Shu paytning o'zida A. Petrosyansda cholg'ular oilasini yaratish fikri paydo bo'ldi.

40-yillarning boshlarida laboratoriyaning musiqiy ustaxonasida usta-konstruktorlar A. Petrosyans va S. Didenko, musiqa ustalari V. Romanchenko va A. Kevxoyanslar ishlar edilar. 40-yillarning oxiri va 50-yillarning boshlarida ularning tarkibiga X. Muhiddinov, A. Abdug'ofurov, A. Tarasov, V. Shitikov, N. Ryuxin, M. Turdiyev va F. Bortniklar kelib qo'shildilar.



XX asrning 60-yillarning ikkinchi yarmi va 70-yillarda laboratoriyada sozandalardan ustalar tayyorlash jarayoni boshlandi. Ularni ustaxonaga jalb etish va malakali ustalar rahbarligi ostida sozgarlik san'atining sir-asrorlarini o'rgatish natijasida sozandalar musiqa cholg'ularini yasash va ta'mirlash bo'yicha ustachilik kasbini egallashga erishdilar. Shu davrning asosiy vazifalaridan biri yangi avlod ustalarini tayyorlashdan iborat edi. 80-va 90-yillarda musiqiy cholg'ular yasash ustaxonasiga S. Qodirov, O. Melixojayev, B. Inoyatov, A. Nurxojayev kabi yosh ustalar kelib qo'shildilar.

O'zbek musiqiy cholg'ulari imkoniyati shu qadar kengki unda nafaqat milliy kuylar balki dunyo kompozitorlarining virtuoz asarlarini ham ijro etish mumkin. Odamzot bir buyum yoki jixoz yaratayotganda uni qanday vazifa bajarishiga qarab, barcha qulayliklari va imkoniyatlariga e'tibor beradi. Afg'on rubobi yaralishida esa milliy kuylarimizni ijro ko'lami, qulayligi, tovushini o'ziga xosligi va ko'plab omillariga e'tibor berilgan hamda yillar davomida takomillashib boravergan. Afg'on rubobi asosan milliy kuylarimizdan kelib chiqib, ularga moslashtirilgan. Bu degani milliy kuylarimiz ijro etilgan cholg'ularda yevropa va butun jahon musiqalarini maromiga yezkazib ijro etish mumkin.

1920-yil Buxoroda Sharq musiqa maktabi ochiladi. Bu maktabni o'zbek xalq cholg'u sozlari bo'limining ochilishida va uni boshqarishda mashxur sozanda va xofiz Buxoro shashmaqomining bilimdoni ustoz Ota Jalolni xizmatlari katta bo'lgan. Afg'on rubobi yoki Buxoro rubobidan G'ulomgarmon va N. Nasriddinovlar dars berishgan. O'sha davrda nota yozuvisiz,

kuylarni yodda saqlab, barmoqlarni cholg'u dastasida bosilishini ko'z bilan ko'rib quloq bilan eshitib kuylar o'rganishgan. Munojot, Eshvoy, Giryoniqozoq, Mirza-davlat kuylari ko'proq chalingan. Ular shu bilan bir qatorda Buxoro shashmaqomini "Mushkilot" ya'ni musiqa qismini ijro etishgan. Afg'on rubobi Buxorodan Toshkentga 1935-1937 yillari yetib kelgan va O'zbekiston Davlat filarmoniyasi ansambllarida ijro etila boshlagan.[4.-B.248] Bugungi kunda afg'on rubobidan musiqa san'atida keng foydalanilmoqda.

Afg'on rubobini modernizatsiya qilish degani cholg'uni tubdan o'zgartirib yuborish degani emas. Afg'on rubobini yanada takomillashtirib zamonaviy ko'rinishga va zamonaviy ovoz tembriga erishish uchun harakat qilib ko'rish kerak.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tarixiylik, qiyosiy-tahlil, obyektivlik, tizimli yondashuv, umumlashtirish kabi metodlardan foydalanildi. Afg'on rubobini rivojlantirish va o'ziga xosligini saqlagan holda modernizatsiya qilish haqida mulohazalar bildirilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Afg'on rubobini modernizatsiya qilish uchun birinchi qilinadigan ish ovoz tembrini ko'tarish va konsertlarda, katta sahnalarda zamonaviy texnologiyalar yordamida ovozini kuchaytirish bo'ladi. Afg'on rubobi o'ziga xos ovoz tembri bilan ajralib turadi va bizga sir emaski katta sahnalarda jonli ijro paytida ekelektronik cholg'ular bilan birga ijro qilinganda ovoz tembri yetarlicha eshitilmay qoladi. Chunki bu cholg'u jonli ya'ni butun tanasi tirik cholg'u hisoblanadi. Afg'on rubobini ham elektonik cholg'uga aylantirishga harakat qilib ko'ramiz, zero iloji boricha ovozi va ko'rinishini saqlagan holda. Buning


uchun asosan ovoz chiqaruvchi moslamasi kerak bo'ladi. Bu Fishman Blend 301 afg'on rubobi (mikrofon+pyeza) ga o'rnatish uchun faol ovoz chiqaruvchi (preamp) va buning ichida tyuner ham mavjud. Moslashuvchan "pyezozvukosnimatel Sonicore" ham klassik, ham zamonaviy cholg'ular uchun mos keladi. Bu modelda oldindan o'rnatilgan mikrofon mavjud bo'lib, uning ulushi alohida buragichlar bilan tartibga solinadi. Uch qatorli ekvalayzer (notch regulyatori) barcha bog'lamlarni o'z ichiga oladi. O'rnatish uchun zarur bo'lgan teshik hajmi 67x51 mm, "endpin-Jek" uchun teshik diametri 12 mm. "Pyezoelement" simining uzunligi 31.5 sm. Qo'shimcha ovoz hosil qilish uchun "Brilliance" nazorati. "Blend" aralashtirish darajasi boshqaruvi bilan o'rnatilgan mikrofon. Quvvat manbai: 9 V batareya. Batareya muddati 88 soat. "Presys"ning samolyot "preamp"lari kichik nazorat formatida maksimal nazorat, ishlash va sifatni ta'minlash uchun mo'ljallangan va yaratilgan. "Presys" tizimi ovozni boshqarish moslamalari, past, o'rta va yuqori chastotalar, faza kaliti va led displeyli ichki tyuner ya'ni cholg'udagi simlarni soz holatga keltirish tizimi. Fishman Sonicore ovoz chiqaruvchi, past batareya ko'rsatkichi, past profilli boshqaruv moslamalari bilan jihozlangan. Noyob burilishli dizayni batareya bo'linmasiga oson kirish imkonini beradi. Uning ixcham o'lchami juda ko'p cholg'ular uchun javob beradi. Ovozni boshqarish, yuqori, o'rta va past chastotali boshqaruv, displey bilan o'rnatilgan tyuner, past batareya ko'rsatkichi, o'zgarishlar tugmasi, bularning hammasi bitta ovoz ko'taruvchida jamlangan va bu o'z navbatida cholg'u ijrochisi uchun judayam qulay va komfort hisoblanadi.

Ana endi odatdagi ya'ni o'quv yurtlarida, ansambl va orkestrlarda ishlatib ijro qilib kelinayotgan takomillashtirilgan afg'on rubobi kerak bo'ladi. Masalan, ikkita afg'on rubobi bo'ladigan bo'lsa, shulardan eskirgan, ovozi pastroq, terisi charchaganini tanlab olish mumkin, chunki baribir terisini olib tashlashga to'g'ri keladi. Iloji boricha o'zi bus-butun hech qayeri sinmagan bo'lsa bo'ldi, terisi cho'kkan afg'on rubobi bo'lsa ham bo'laveradi va buning ahamiyati yo'q. Hamma narsa tayyor bo'lgandan keyin afg'on rubobini terisini olib tashlaymiz va qolgan tanasining ko'chgan yerlariga ishlov berib chiqamiz.

Qolgan joyiga tegilmayda va navbat ovoz ko'taruvchi moslamaga keldi. Ovoz ko'taruvchining 3 ta qismi mavjud bo'lib, afg'on rubobiga mustahkam o'rnatib olish kerak bo'ladi. Buning uchun afg'on rubobining qulay joyini tanlab olgach, birinchi asosiy birinchi qismini o'rnatish uchun ovoz ko'taruvchining o'lchamida teshik ochib olinadi.

Bu ishni juda ham ehtiyotkorlik bilan qilish lozim, chunki afg'on rubobining qolgan joylariga zarar yetkazib qo'yish mumkin. Ovoz ko'taruvchini bir qismini o'rnatib olgach uning qolgan qismlariga navbat keladi. Shuni unutmaslik kerakki ovoz ko'taruvchining har bir o'rnatilayotgan qismlari noto'g'ri joylashuvida afg'on rubobining ba'zi bir joylari o'zgarilishiga olib keladi, buning oqibatida ijrochiga noqulaylik tug'dirishi mumkin va undan foydalanish imkoniyatlari cheklanib qolishi mumkin. Shuning uchun ovoz ko'taruvchini qismlarini o'rnatishdan avval yaxshilab hisob-kitob qilib, ijrochi uchun halaqit bermaydigan joyiga o'rnatish tavsiya etiladi.

Ovoz ko'taruvchining keyingi ikkinchi qismi ovoz kuchaytirgichlarga



ulash uchun ishlatiladi. Buni ham afg'on rubobining qulay joyidan teshik ochib, halaqit bermaydigan qilib o'rnatib olishimiz kerak.

So'nggi uchinchi qismi afg'on rubobidan chiqayotgan tovushni sezish orqali ushlab qoluvchi, tovush sezish (pyezo) moslamasi hisoblanadi. Buni o'rnatishdan avval afg'on rubobidagi terisini o'rniga yupqa taxtadan qopqoq yasab olingan bo'lish kerak, huddi dutorlarnikidek. Terisini olib, qopqoq qo'yishdan maqsad afg'on rubobining ichidagi ovozni yaxlit tortib olish va keraksiz shovqinli ovozlardan saqlanishdir.

Qopqoqni o'rnatib olgach, ovoz ko'taruvchining uchinchi qismi bo'lgan tovush sezuvchini harrak va qopqoq orasiga o'rnatib olish kerak. Qopqoqdan tovush sezuvchiga mos kichkina teshik ochib, harrakning tagiga ya'ni qopqoq bilan harrakning orasiga joylashtiriladi.

Simga har bir urilayotgan zarblardan chiqan tovushlar harrak orqali

tovush sezuvchi (pyezo) moslamasiga va shu yo'sinda qopqoqda tebranayotgan har bir tovushlar ham yaxlit, "Blend" aralashtirish darajasi boshqaruvi moslamasiga yetib boradi. Oxirgi bosqichda afg'on rubobining torlarini taqib soz holatga keltirgach, tayyor bo'lgan "elektro afg'on rubobi"ni ovoz kuchaytirgichlarga ulab tekshirib olish mumkin.

*Xulosa va takliflar
(Conclusion/Recommendations).*

Endilikda bir so'z bilan aytganda zamonaviy "elektro afg'on rubobi"ni yaratildi va kelajakda bundada yaxshi, bundanda zamonaviy va yanada takomillashtirilgan cholg'ular yaratiladi. Afg'on rubobini modernizatsiya qilish orqali "elektro afg'on rubobi"ni o'quvchi yoshlar o'rtasida ommalashtirish va milliy musiqa merosida vorisiylikni ta'minlashda afg'on rubobini rolini takomillashtirish mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli qarori. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022-y., 07/22/112/0099-son; 04.12.2024-y., 07/24/399/1000-son

2. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга курамиз.-Тошкент: Ўзбекистон, 2017.-Б. 4.

3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. -140 б

4. Ergashev G‘. Afg‘on rubobi darsligi. – Toshkent: Bilim, 2004. –B.248.



O‘ZBEK MILLIY KINO SAN’ATI KECHA VA BUGUN
(“Mahallada duv-duv gap” filmi misolida)
НАЦИОНАЛЬНОЕ КИНО УЗБЕКИСТАНА ВЧЕРА И СЕГОДНЯ
(На примере фильма “Mahallada duv-duv gap”
UZBEKISTAN NATIONAL CINEMA YESTERDAY AND TODAY
(On the example of the film "Mahallada duv-duv gap")

Shukurov Alisher
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy tadqiqot insituti kichik ilmiy xodimi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbek milliy kino san’ati rivojlanish jarayonlari tarixi haqida qisman fikr yuritilib XX va XXI asrda suratga olingan “Mahallada duv-duv gap” filmlarining syujeti, mazmun-mohiyati tahlil qilinishi bilan birga bugungi undagi O‘zbek miliy kino san’atidagi kamchilik va muammolarga yechim sifatida taklif va tavsiyalar berilgan.*

***Аннотация:** В данной статье частично отражена история развития узбекского национального кино, проанализированы сюжет и содержание фильмов «Махаллада дув-дув гапа», снятых в XX и XXI веках, а также даны предложения и рекомендации по решению недостатков и проблем сегодняшнего узбекского национального кино.*

***Annotation:** This article partially reflects on the history of the development of Uzbek national cinema, analyzes the plot and content of the films “Mahallada duv-duv gap” filmed in the 20th and 21st centuries, and provides suggestions and recommendations as solutions to the shortcomings and problems of today's Uzbek national cinema.*

***Kalit so‘zlar:** Kino san’ati, aktyor, rejisyor, film, badiiy madaniyat, metod, Mahallada duv-duv gap, televideniya, tomoshabin, suratga olish.*

***Ключевые слова:** Кино, актер, режиссер, фильм, художественная культура, метод, «Соседские разговоры», телевидение, зрители, съемка.*

***Key words:** Cinema, actor, director, film, artistic culture, method, Mahalla duv-duv gap, television, viewer, filming.*

O‘zbek milliy kino san’ati rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish jarayonida uning O‘zbekistonga kirib kelishi, hamda asoschilari suratga olgan filmlar mohiyati haqida fikr yuritilib, jumladan, XX asrning 60-yillaridan keyin suratga olingan “Mahallada duv-duv gap” filmini misol qilsih mumkin. Ushbu filmning 2016-yilda qayta suratga

olinishi, mazmun-mohiyati, zamonaviy ko‘rinishda talqin qilinishi avvalgi mafkurada mahallalarning o‘rni quyi pog‘onaga qo‘yilganligi, qayta suratga olingan filmda esa mahalla insitutining yuqori pog‘onaga ko‘tarilganligi filmda asoslab berilgan. Shu bilan birgalikda bugungi kundagi o‘zbek milliy kino san’atidagi muammo va kamchiliklar

haqida bayon qilib, uning yechimi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Maqolani yozish jarayonida teatr, kino va musiqa san'ati darsligi, O'zbek tili izohli lug'ati, internet ma'lumotlaridan keng foydalanildi. Bugungi kundagi o'zbek kino san'ati to'g'risida soha mutaxasislari Sabohat A'zamovna, rejissor Jahongir Mamatqosimov fikr-mulohazalari o'rganildi.

Metodologiyasi, tahlil va natijalar: Pedagogik yondashuv asosida ko'rish, yozish hamda tahlil qilish metodlari qo'llanilib, "Mahallada duv-duv gap" filmining dastlab 1960-1961 yilsuratga olinishi syujeti hamda 2016-yilda qayta suratga olinishi syujeti qiyosiy tahlil qilindi. Soha mutaxasislari tomonidan taqriz yozildi. O'zbekiston davlat San'at va madaniyat insituti, "Xalq ijodiyoti" fakulteti 3-kurs talabalariga "Senarivislik va madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish mahorati" fanida film namoyishi bo'lib o'tdi.

Madaniyat va san'atning turli ijtimoiy sohalardan farqli jihati shundan iboratki, u barcha sohada mavjud bo'lib, faoliyat jarayonida tizimli tarzda qo'llanilib kelinmoqda. Jumladan, iqtisodiyot borasida iqtisodiy madaniyat, siyosatda siyosiy madaniyat, huquqshunoslikda huquqiy madaniyat, pedagogikada madaniyat pedagogikasi bundan tashqari jamiyatning barcha tarmoqlarida shakllantirilgan holda insoniyatning hayot kechirish normalarini, xulq-atvor, muomala madaniyati, nutqi umuman olganda ijtimoiylashuv jarayonini jadallashtirishning asosiy omili hisoblanadi. Yuqoridagi barcha fikr-mulohazalardan quyidagicha xulosaga kelish mumkin: madaniyat har bir shaxsni faqatgina nasihat qilishda bayonchilikdan

cheklanib, amaliy tarzda shaxsni ma'naviy yuksaltirishga doir qirralarini faollashtirishda muhim vositadir. Bizga ma'lumki ta'lim jarayonida o'quvchilarga ma'ruzani yetkazayotgan o'qituvchi turli metodlardan foydalanish orqali o'zining pedagogik texnologiyalarini qo'llaydi va ko'zlangan natijaga erishadi. Ko'rgazmali hamda ko'rsatmali metodlarning dars jarayonida to'g'ri qo'llanilishi asosiy omillardan hisoblanadi. O'z-o'zidan ma'lumki ijtimoiy hayotda insonlarni xulq-atvorini normal holatga tushirish, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi orqali boshqalarga manfaat keltirishiga undash faqatgina suhbat, tushuntirish orqaligina emas balki, ko'z o'ngida amaliy tarzda namoyish etish uning ongiga ijobiy ta'sir qilishi shubhasiz. Bu o'rinda badiiy madaniyatning roli beqiyosdir. Xo'sh, badiiy madaniyatning o'zi nima?

Badiiy madaniyat – bu insoniyatning estetik va ijodiy qadriyatlarini, san'at va go'zallikka oid faoliyatlarining jamlanmasidir. Bu atama asosan san'at, musiqa, adabiyot, teatr, kino, rassomlik, arxitektura va boshqa ijodiy sohalarda insonlarning yaratgan asarlari va ularga bo'lgan munosabatlar bilan bog'liqdir.[1,135-b.] Darhaqiqat, badiiy madaniyat insonning ichki salohiyati va ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda jamoatchilikka namoyish etishda asosiy vositalardan hisoblanadi. Badiiy madaniyatning muhim qirralaridan biri bu kino san'atidir. U insoniyatning jamiyat bilan ijtimoiylashuvida asosiy omillardan biri, real hayotda bo'layotgan voqea va hodisalarni badiiylashtirilgan holda insonlarning o'zidan olib ekranda aks ettirilishi barcha soha egalarini befarq oldirmasligi tabiiy holdir. Bunda har bir davlatning o'zligini anglatuvchi qadriyatlarini qadrlashga o'rgatuvchi



tarixiy va milliy asarlarning senariy asosida ekaranga olib chiqilishi fikrimizga dalil bo'la oladi. Bunda har bir shaxs o'z hayoti va faoliyatida bajarayotgan ishlarining kamchilik va xatolarini taroziga qo'yib, tahlil qilishga imkon bo'ladi.

O'zbek milliy kino san'ati XX asrning 20-yillarida vujudga keldi. Birinchi o'zbek kinooperatori Xudoybergan Devonovning ilk hujjatli – xronikal filmlarida o'zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlar, Xorazm viloyatining manzaralari aks ettirilgan edi. O'zbek kino san'ati rivojini boshlanishi 1924-yil rus Buxoro shirkati "Buxkino" hamda, 1925-yil Toshkentda "Sharq yulduzi" (1936-yildan O'zbekfilm) kinofabrikasining tashkil qilinishi bilan bog'liq. Hukmron mafkuraning noto'g'ri siyosati bois o'zbek ijtimoiy hayoti uchun begona bo'lgan ssenariylari bilan kirib kelgan rus mutaxassislarining filmlari milliy proza va dramaturgiyadan yiroq bo'lib, milliylikdan bosh tortilgani oqibatida, o'zbek milliy kino san'ati tanazulga uchradi. Natijada uzoq yillar davomida milliy kino o'z shakl-shamoyiliga ega bo'lmay, o'zbek milliy kinosi oqsab qoldi. Asta-sekin turli mavzularni qamrab olgan kinohikoyalar yuzaga kela boshladi. Bu davrda, asosan, ma'lum bir tarixni, voqeani hikoya qiluvchi filmlar ko'paya boshlaydi. Urushdan keyingi yillarga kelib, dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan ilg'or kinematografchilari ishlagan filmlar, xususan, Italiya kino san'atidagi neorealizm uslubidagi filmlari kirib keladi. Kino va telvideniyaning o'zaro ta'siri 1950-yillarning oxirlarida yuzaga keladi. Kino san'ati endilikda bir necha soat davom etadigan filmlar ishlashni yo'lga qo'ygan edi. Ayni bir vaqtda kino san'ati bilan bog'liq teleekran ijodi paydo

bo'ldi. Kino san'atining 4 asosiy turi mavjud:

- badiiy film: Badiiy film kino san'atining asosiy turlaridan biri bo'lib, aynan, badiiy film uchun yozilgan maxsus ssenariy yoki instsinerovka qilingan badiiy adabiyot namunalari (hujjatli va badiiy proza, yoki teatr dramaturgiyasi) asosida ijroviy vositalari yordamida real yoki to'qima voqealarning bayon etilishi tushuniladi.

- ilmiy-ommaviy kino: Ilmiy-ommabop kino tomoshabinlarni tabiat va jamiyat hayoti, ilmiy kashfiyot va ixtirolar bilan tanishtiradi.

- hujjatli kino: bo'lgan voqea va harakatlarni tasmaga tushiradi.

- Multiplikatsion kino: Eng keng tarqalgan shakllari rasmlari va qo'g'irchoqli filmlardir. Rassom chizgan rasmlar yoki maketlar, shuningdek, qo'g'irchoqlar harakatlantirilib kinotasmaga tushiriladi va namoyish etiladi.

Kino san'atining janrlari:

- komediya
- tarixiy
- dramatik
- sarguzasht filmlar

Kinoning har bir turida janrlar o'z hususiyatlariga egadir. Kino san'ati poetikasi esa janrlar hususiyatini, ulardan foydalanish yo'llarini belgilab beradi. Misol uchun rangtasvirdagi va hujjatli kinodagi portret janrini taqqoslab ko'raylik. Har ikkala san'atda bu janrda bir inson haqida hikoya qilinadi. Unisida ham, bunisida ham mualliflar ushbu insonning o'ziga xosligini, betakrorligini ko'rsatib berishga intiladilar. Lekin bunda rassom ham, kinematografchi ham turli ifoda vositalaridan foydalanadilar. Rassom o'z asari uchun kompozitsiyasidan, koloritdan foydalanadi, e'tiborni qahramonning kiyimiga, uning detallariga qaratadi va ayniqsa qahramonning chehrasini

sinchiklab tasvirleydi, bundan maqsad uning shaxsini yorqin ochib berishdan iboratdir. Kinoda bularning hammasiga qahramonning plastikasi va albatta, nutqi qo'shib, obrazning ichki dunyosini alohida kuch bilan ochib berishi mumkin. Zero makon va vaqtdagi harakat kino uchun xos bo'lib, portret janrida muhim ahamiyatga egadir. O'zbek kinosining nodir namunasi bo'lgan "Nasriddin Buxoroda" (1943-y. rejissiyor Ya.Protazanov) filmi xalq mavzusining haqiqiy imkoniyatlarini ochib berdi. Asar ikkinchi jahon urushi davrida – tahlakali yillarda olingan bo'lsa-da, film spetsifikasi o'zbek milliy kino san'atiga yo'l ochdi. Ushbu film tasviriy vositalar qatorini professional va ifodali tuzish mumkinligini ko'rsatdi, aktyorlar uchun yuqori darajadagi ijro uslubini o'rgatdi. "Tohir va Zuhra" (1945-y. rejissiyor N.G'aniyev) filmi xalq ertaklari asosida yaratiladigan filmlar chegarasini buzib o'tgan holda tarixiy filmlarning yaratilishiga asos soldi. XX asr ikkinchi yarmidagi badiiy filmlarda quyidagi janrlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Tragediya-L. Fayzievning "Ulug'bek yulduzi", G. Kozinsevning "Qirol Lir", D. Kameronning "Titanik" filmlari;


Drama- (Sh. Abbosovning "Sen yetim emassan", E. Eshmuhammedovning "Alvido, g'o'r yoshligim...", B. Flemingning "Shamollarda uchgan hislarim");

Komediya- (Ya. Protazanovning "Nasriddin Buxoroda", N.G'aniyevning "Nasriddinning sarguzashtlari", M. Abzalovning "Kelinlar qo'zg'aloni", "Chimildiq" filmlari);

Melodrama- (Hindistondagi Bombay maktabi filmlari);
Shuningdek, Detektiv, sarguzashtlar, fantastik janrlarga filmlar.

Kino san'atning har qanday turiga oid filmlar ssenariy asosida yaratiladi. Ssenariy-alohida shakldagi adabiy asar bo'lib, u shu asosida film yaratishga muljallangandir. Ssenariyning bu mavqey kinoning butun tarixi va dramaturgiyasining rivoji natijasida vujudga kelgan. Ssenariy hususidagi katta-katta munozaralar, jahon kinoamaliyotida bu sohada olib borilgan ijodiy tajribalar kinodramaturgiyaning shakllanishiga imkon yaratdi. Bugungi tarixi ancha murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Kino tarixining dastlabki bosqichidagi badiiy filmlar umuman ssenariy talab qilmasdi, chunki u filmlar bor-yo'g'i 5-7-10 daqiqa davom etardilar. Ularni syujetlarini yozib olish sxema yoki planni eslatardi. Ko'pincha rejissyorning fikri, niyati syujet vazifasini o'tab, bevosita film syomkasi vaqtida namoyon bo'lardi.[2, 85-90-b.]

Ijrimoiy hayotni o'z ichiga qamrab olgan hayoti voqea va hodisalarni real tarzda ishlangan filmlar uzoq vaqt mobaynida tomoshabin qalbida muxrlanib qolgan. Shunday filmlardan biri rejissiyor Yuriy Stepchuk va prodyuser Shuhrat Abbosovlar tomonidan ishlangan "Mahalada duv-duv gap" filmidir. Ushbu film 1960-yil yaratilgan oq-qora kinotasmaga olingan o'zbek kinokomediyasi hisoblanadi. Film ssenariysi dastlab rus tilida yozilgan bo'lib, uni Shuhrat Abbosov tashabbusi bilan mashhur obek yozuvchisi Abdulla Qahhor o'zbek tiliga o'g'irgan va film so'ngida tarjimon sifatida uning ismi qayd etilgan.[3] Kino boshlanganida avtor nomidan tekst o'qiladi: "Toshkent go'zal va bu shahardagi chang bosgan mahallalar paxsa devorlarga qo'shib yo'q bo'ldi. Mahalla bilan birga mahdudlik, biqlik kabi eskilik sarqitlari ham yo'q bo'ldi", deyiladi. Film mahalla yomon, beton dom yaxshi, degan g'oya ustiga qurilgan edi.



Filmning ilk ishchi nomi “Syurpriz” bo‘lgan. Shu ma’noda, bu kino o‘sha paytdagi kino rahbarlari uchun ham syurpriz bo‘ldi. Ular kino finaliga e’tiroz bildirishdi. Bilsangiz, kino finalida ona rolini o‘ynagan Lutfixonim Sarimsoqova ko‘ziga yosh olib yig‘laydi. Mulozimlar nega bu xotin yangi uy olsa ham yig‘laydi, nega u xushnud emas, deyishdi. O‘shanda rejissyor Shuhrat Abbosov o‘zbeklar sevinchini yig‘i bilan ifodalashini tushuntirgan.[4] Film syujetida Toshkent shahrining eski qismidagi mahallalardan biridagi zamonaviy turar-joy binolari qanday qurilayotgani haqida hikoya qilinadi. Film qahramonlari quruvchilarning oilalari: qizi Sayyora bilan ishlayotgan g‘isht teruvchi, o‘g‘li Azimjon Moskvada o‘qishini tugatayotgan Mehrixon aya hamda omborxonasi mudiri Arslon va uning kranchi o‘g‘li Umarjon haqida hikoya qiladi. O‘qishni tamomlagan Sayyora yaqinlaridan yashirincha zavodga ishga kiradi. Sayyorani qo‘shnilar Mehrixon o‘z o‘g‘li Azimjonga, Oyposhsha esa o‘z o‘g‘li Umarjonga olib bermoqchi bo‘ladi. Azimjon allaqachon Moskvada uylangani, Arslonning o‘g‘li Umar esa u bilan qurilishda birga ishlaydigan Umidani sevib qolgani ma’lum bo‘ladi. Yoshlar Umarga ota-onasining qarshiligini yengib, Umida bilan turmush qurishiga yordam beradi. Baxtli oilalar mahalladan yangi qurilgan uyga ko‘chib o‘tadilar.[3] Real ijtimoiy hayotni o‘z ichiga qamrab olgan filmning uzoq vaqt davomida teleekranlarda namoyish etib kelinayotganligining boisi shundan iboratki milliylikni aks ettirib, o‘zbekona ruh bilan hamohanglikda yaratilganligi, hamda filmda rol o‘ynagan aktyorlar jamoasida o‘z sohasining yetuk mutaxassislarini tanlanganligini e’tirof etish lozim. Ular quyidagilardan iborat: Xolida

Isxakova konserva zavodi ishchisi va konservatoriya talabasi Sayyora rovida, Roza Rizamuhamedova konserva zavodi ishchisi Umida rovida, Raisa Madrahimova arxitektor Aziza rovida, Hamza Umarov qurilish kranchisi Umarjon, To‘lqin Tojiyev qurilish ustasi Mahmud, Azim Aliyev injener Azimjon, Lutfi Sarimsoqova Sayyoraning onasi Mehriniso, Maryam Yoqubova Umarning onasi Oyposhsha, Ikroma Boltayeva Umidaning onasi Xalima, Razzoq Hamroyev Umidaning otasi usta Sharif, Rahim Pirmuhamedov Umarning otasi Arslon, Sa’dixon Tabibullayev folbin rollarini ijro etishgan.[3] Bundan tashqari film davomida voqea va hodisalarning izchillik bilan yangicha mazmun kashf etishi unda ifodalangan urf-odat va qadriyatlarining sodda va ravon tilda bayon etilishi tomoshabinni o‘ziga jalb etadi. Tabiiy holda inkor etib bo‘lmaydigan film kulminatsiyasidagi muammoli holatning ijobiy yechim topishi bilan asoslanadi. Film yaratilganiga 56 yil bo‘lganidan so‘ng rejissyor Shuhrat Abbosov shu mavzudagi ikkinchi filmga buyurtma oldi va uni suratga olish jarayonida quyidagi fikrlarni aytib o‘tdi: “Mahallada duv-duv gap” filmi sovet mafkurasi buyurtmasi bo‘lgani bilan bu mafkura quyushqondan chiqqan edi. Biroq, O‘zbekiston mustaqil bo‘lganidan keyin mahalla instituti odamlarni nazoratda ushlab turishning muhim instrumenti ekanini darhol tushunildi. Yangi mafkura endi mahallaning yaxshi ekani haqidagi kinoga ijtimoiy buyurtma berdi.[4]

Biz XX asrning 60-yillaridan keyin ekran yuzini ko‘rgan film bilan 2016-yilda yangicha yondashuv asosida suratga olingan film syujetlarini taqqoslash orqali bugungi kundagi ahamiyatini ilmiy tahlil qilib o‘tamiz. Mazkur film syujetida eri qayta qurilish davrida mardikorlikka

ketgan ayolning yolg'iz o'zi uch o'g'ilni katta qilishi va o'zi mahallaga rais bo'lishi bilan bog'liq voqealar tasvirlangan. O'sha davridagi moddiy qashshoqlik va mustaqillik davridagi farovonlikni taqqoslab ko'rsatilgan. Bu farovonlik bois qaxramonning o'g'li millioner bo'ladi va mahallaga stadion qurib beradi. Film bu uchta o'g'ilni uylantirib to'y-u tomosha qilish tadbirlari asnosida baxtli yakun bilan tugaydi.

Yuqoridagi har ikkala film ham birbiridan mazmunan farq qilsada, lekin shaklan bir xildir. Har ikkalasi ham buyurtma asosida ishlangan. Ikkala filmning final qismi ham to'y sahnasi bilan yakunlanadi.

Xulosa qilib aytganda, "Mahallada duv-duv gap" filmidagi o'ziga xos ko'rinishlarning namoyish etilishi voqea va tomoshabin o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqot yuzaga keladi. O'rtagadi vosita yo'qolib tomoshabin qalbida kuvhli taasurot uyg'otadi.

Yangicha yondashilgan filmda bugungi kunda olib borilayotgan islohotlarning mohiyati bilan uyg'unlikda mahallalarning aholi ijtimoiylashuvidagi rolini yorqin ifodalab berilgan. Insonlar o'rtasidagi: hasadgo'ylik, manmanlik, yolg'onchilik, poraxo'rlik kabi salbiy xulq-atvorlar keskin qoralangan.

"Mahallada duv-duv gap" filmining dastlabki syujetida samimiy insonlarning hayot tarzi ifodalanib musiqa bilan uzviy uyg'unlashtirilganligi filmning saviyasi va umrboqiyiligini ta'minlagan. Bunda saralab olingan aktyorlar ansamblining mahorati yaqqol ko'rinib turibdi.

Biz yuqorida "Mahallada duv-duv gap" filmining ikki xil tarixiy jarayonda suratga olinganligi, uning mazmun mohiyati ayrim farqli jihatlari haqida zamon va davr bilan uyg'unlashganligi haqida fikr yuritdik. Biroq u kabi filmlar bugungi kunda barmoq bilan sanarli holga kelganligini ta'kidlash joiz. Bugungi kunda yaratilayotgan ayrim filmlarda ijtimoiy tabaqalanish hollari ham ko'zga tashlanmoqda. Bir xil mavzudagi filmlarni ko'rish tomoshabinni televideniya uzoqlashtirib qo'yimoqda. Suratga olinadigan filmlarda real voqelikni aks ettirish maqsadida tanlanadigan obyektlar bir xilligi faqat maishiy mazvularga asoslangan filmlar soni ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu singari kamchiliklarni bartaraf etish omili sifatida quyidagi takliflarimizni keltirib o'tamiz:

1. Buyuk siymolarimiz hayoti, ilmiy ijodi va faoliyati to'g'risida badiiy va hujjatli filmlarni suratga olish;

2. Tarixiy filmlar va seriallarni ko'paytirish;

3. Zamon qaxramonlarini tirikligida film olish ularning hayotiy faoliyatini ibrat sifatida ko'rsatish;

4. faqatgina o'ziga to'q oilalarni emas, balki ijtimoiy himoyaga muhtaj oilalar hayotini yoritish;

5. Jismoniy zaiif bo'lishiga qaramasdan o'z oilasini hamda boshqalarni ish bilan taminlayotgan tadbirkorlar haqida filmlar ishlash yuqoridagi muammolarga ma'lum darajada yechim bo'la olishiga ishonamiz.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek tilinig izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. O‘zR FA Til va adabiyot in-ti. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 206. – 680 b.
2. Teatr, kino va musiqa san’ati. Darslik/N.B.Sayfullayev. – Toshkent, Lesson press 2021.-208 b.
3. Mahallada duv-duv gap – Vikipediya
4. Mahalla tanqid qilingan kino muallifi Shuhrat Abbosov endi mahalla ulug‘langan filmni suratga oldi

**MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK KINOSIDA BADIY (TASVIRIY) YECHIM
UNSURLARINI QO‘LLASH MASALALARI
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ РЕШЕНИЙ В
УЗБЕКСКОМ КИНО В ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ
ISSUES OF APPLICATION OF ARTISTIC SOLUTIONS IN UZBEK CINEMA
IN THE INDEPENDENCE PERIOD**

Jomonqulov Husnullo
O‘zbekiston davlat san’at va
madaniyat instituti o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada mustaqillik davrida suratga olingan o‘zbek badiiy filmlarida badiiy (tasviriy) yechim masalalaridan qay darajada foydalana olishayotgani, “kino tili”da qay darajada so‘zlasha olishayotganlari, shu bilan birga badiiy yechim, obrazli ifoda vositalari bugungi kun kinosidagi o‘rni qay darajada ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, bu borada erishayotgan yutuqlarimiz va kelgusida amalga oshirish zarur bulgan muammolar xususida to‘xtalib o‘tiladi.*

***Аннотация:** В данной научной статье рассматривается использование художественных решений в узбекских художественных фильмах, снятых в период независимости, степень их владения «языком кино», а также роль художественных решений, образных средств выражения в современном кино. В нем также обсуждается достигнутый нами прогресс и проблемы, с которыми мы столкнемся в будущем.*

***Annotation:** This scientific article discusses the use of artistic solutions in Uzbek feature films made during the independence period, the extent to which they can speak in the "language of cinema", as well as the role of artistic solutions, figurative means of expression in today's cinema. to what extent. It also discusses the progress we have made and the challenges we face in the future.*


***Kalit so‘zlar:** Kino, kinorejissura, obraz, majoz, tasviriy ifoda, badiiy yechim.*

***Ключевые слова:** кино, режиссура, образ, метафора, образное выражение, художественное решение.*

***Key words:** Cinema, film directing, image, metaphor, figurative expression, artistic solution.*

Kino san’ati paydo bo‘lishi bilan boshqa san’at turlari singari o‘zining rivojlanish jarayonlarini boshdan o‘tkazib bordi. XIX asr oxirlarida, 1895–yilda fransuz ijodkorlari Ogyust va Lui Lyumerlar tomonidan yaratilgan bu san’at turi o‘zining dastlabki ko‘rinishini

birmuncha boyitib, bugungi kunimizga qadar o‘z ichiga boshqa bir qancha san’at turlarini ham qamrab oldi. Ammo, shu bilan birga, film avvalo, tasvirdan tashkil topganligini inobatga oladigan bo‘lsak, kino san’atida keyinchalik ham tasviriy ifoda vositalaridan keng foydalana



borildi. Muallif fikrini kadrlarda ko'rsata olish mahorati dunyo kinosida sekin-astalik bilan obrazlar orqali so'zlash darajasigacha olib chiqildi. Bunda avvalo tasvir birinchi planga chiqib keldi. Endi kino ijodkorlar inson psixologiyasining eng tub-tubiga qadar kirib borishga intila boshlashdi. Bunda muallif fikrini tasvirga ko'chirish, fikrni obyektga ko'chirib tasviriy ifoda orqali tamoshabin e'tiborini jalb qilish yechim bo'la boshladi

Mustaqillik davri o'zbek kinemotografiyasida xam obrazli fikrlash, filmning umumiy mohiyatiga yetib borish uchun badiiy-tasviriy ifoda vositalardan mohirlik bilan foydalana olish maktabi paydo bo'la boshladi. Bu borada O'zbekiston kinemotografiya agentligi buyurtmasiga binoan suratga olingan ko'pgina mualliflik filmlari yetakchilikni o'z zimmasiga oldi. Muallif fikrini tasvir orqali tushuntirishga urinishlar soha rivoji uchun xizmat qiladigan bir qator filmlar yaratilishiga turtki bo'ldi.

Bu borada Yolqin To'ychiyev, Ayub Shahobiddinov, Umid Hamdanov, Jahongir Ahmedov, Sarvar Karimov, Mansur Abduxoliqov va shu kabi bir qancha kinorejissorlar o'zlarining mualliflik filmari orqali yetakchilikni qo'lga oldi.

Jumladan, mustaqillikdan so'ng suratga olingan Ayub Shahobiddinovning "O'tov", "Parizod", "Rangsiz tushlar" kabi filimlarini oladigan bo'lsak, mazkur uch filmida ham inson taqdiri, uning ichki kechinmalari obyektida – belgilangan shart sharoitda o'z ifodasini topgan. Yuqorida sanab o'tganimiz "O'tov" filmida o'ziga tegishli bo'lmagan urushga safarbar etilgan odamlar orasidan o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan bir insonni ajratib olinishi, ya'ni olomonga aralashib ketmagan bir "shaxs"ni ajratib olinishini yolg'iz o'tov obrazi orqali ko'rsatib berilgan. Xo'sh, nima uchun o'tov

odamlar turmush tarzidan bir muncha uzoqda joylashgan? Bunda bosh qahramon ichki olamini, uning xarakterini o'tov timsolida tasvirga ko'chirgan, deyish mumkin. Chunki uning o'z turmush tarzi, hayotga va borliqqa bo'lgan o'zining shaxsiy munosabati — qarashlari mavjud edi. Bunday shakl bizga san'atdagi dastlabki oqimlar — Italiyada paydo bo'lgan "neorealizm" oqimi tajribasidan tanish. Filmida o'tov obrazi filmning badiiy g'oyaviyligini ochib berilishini ta'minlagan. Bunday tasviriy ifoda vositalari orqali badiiy yechimga qarab intilish so'ngi yillarda ko'plab badiiy filmlarda ko'zga tashlanadi.

Bunday filmlarga — Umid Hamdamovning "Issiq non" filmini ham misol qilib olish mumkin. Film bosh qahramoni balog'at yoshidagi Zulfiyaning buvisi va kelinoyisi singari katta hayotga tayyor bo'lish jarayonlarini issiq non uchun zuvalasi pishirilayotgan hamirga qiyos qilinishi uch avlod ayol tipiga mansub personajlarning bir laganda xamir qorishi kadrida moxironalik bilan tasvirlangan. Zuvala pishib yetiladigan tandirning buzulishi kadrida Zulfiyaning tarbiyasi pishib yetiladigan oilasining buzulishiga ishora qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday tasviriy ifoda vositalari, obrazli til, badiiy yechim unsurlarini rejissor va dramaturg Yolqin To'ychiyevning filmlarida samarali qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin. Rejissorning so'nggi yillarda suratga olingan: "Chashma", "Ilova", "Hayotda", "Ma'suma", "Faridaning ikki ming qo'shig'i" kabi filmlarida badiiy yechim uslublari yetakchilik qiladi. Bu filmlar dunyo kinosi talablari darajasida uslub va fikrga ega ekanligini inobatga olib, bu filmlarni jahon keng ommasiga havola etish muammosi ham bugungi davrning dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda.

Biroq bugungi kunga kelib bunday filmlar soni sarf etilayotgan mablag' o'zini oqlay olmayotganligi vajidan bir muncha oqsayotgandek, go'yo. Kino avvalo insonga ma'naviy ozuqa berish, hisyotlaridagi bo'shliqni to'ldirish funksiyalarini bajarishini inobatga oladigan bo'lsak bu vaj o'zini oqlamayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Kino inson bilimni orttirishda muhim rol o'ynaydi, uning boy mazmuni esa aholining bilimdonlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bilan birga, mazkur sohadagi ishlarning haqiqiy holati milliy kino sanoatining jadal rivojlanishiga, jahon kino bozorida raqobatbardoshlikni oshirishga, uni chet elda targ'ib qilishga to'sqinlik qiladigan bir qator hal etilmagan muammolar mavjudligidan dalolat bermoqda.

Bundan tashqari, mustaqillikkacha bo'lgan davr va undan keyin suratga olingan filmlar, hamda, kinematografiya sanoatida mahalliy kinolentalarni jahonga mashhur xalqaro kinofestivallarga taqdim etish, shu jumladan, ularda ishtirok etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmayapti, madaniy o'zaro almashinuv darajasining pastligi esa milliy kinematografiyani chet elda faol targ'ib qilinishiga va uning jahon kino maydoniga qo'shilishiga imkon bermayapti.

Shu nuqtai nazardan, Davlat dasturida 2020-yil «O'zbekkino» Milliy agentligi, Madaniyat, Adliya, Moliya va Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirliklari zimmasiga «Kinematografiya to'g'risida»gi qonun loyihasini tayyorlash yuklatilgan. Mazkur qonun loyihasida: milliy kinematografiya sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash;

- sohani rivojlantirish yo'nalishlari, bosqichlari va istiqbollarini nazarda tutish;

- davlat tomonidan milliy kino mahsulotlarini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash;

- milliy kinematografiyani rivojlantirish jamg'armasini moliyalashtirish manbalarini belgilash nazarda tutilgan.

Kino, birinchi navbatda, san'at, uni sanoat sifatida baholash ijodiy faoliyatda g'oyaviy cheklovlarni yuzaga keltirishi mumkinligi aniq haqiqat. Sanoat darajasida rivojlantirish uchun sohani puxta o'rganish, har kimga birdek yoqadigan, ham mavzu, ham g'oyaviy jihatdan to'q kinolar suratga olish kerak.

Asl san'at yaratilsa, uni qadrlaydiganlar sanoat darajasiga ko'taradi. Jahon bozoriga «zamonaviylik» niqobi ostida yaratilgan bir-birini takrorlaydigan kartinalar bilan emas, boy tariximizni aks ettirgan, o'zida kinoning barcha ifoda vositalaridan to'liq foydalana olgan. Shu jumladan ko'r-ko'rona hikoya qilish uslubidan bir muncha chekinib dunyo tan olgan standartlar, badiiy tasviriy ifoda vositalaridan to'laqonli foydalana oladigan filmlar bilangina dunyo ommasining e'tiborini milliy kinomatografiyamizga jalb etishimiz mumkin. Bu chet ellik investorlarning kino san'atimizga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Kino sanoati sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasi, ishlab chiqilayotgan kino mahsulotlarining o'zini oqlashi va daromad keltirishiga qaratilgan zamonaviy marketing tadqiqotlari va aniq maqsadli kino ishlab chiqarish dasturlarining mavjud emasligi milliy kinematografiyaning yuqori zarar bilan ishlashiga olib kelmoqda.

Bunda O'zbekiston Respublikasi «kinomatografiya agentligi» xuzurida tashkil etilgan badiy kengash jamoasi ham



o‘zlarining jonbozliklarini ko‘rsatish talab etiladi. Shuningdek, badiiy kengash tarkibini ham bugungi kun dunyo kinosi

erishayotgan yutuq va talablardan xabardor bo‘lgan mutaxassislar bilan yangilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev SH.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. 2017. 4-avgust // Xalq so‘zi
2. Aliyev M. Kino asoslari.–T.: “O‘qituvchi”, 1993. – 29-bet.
3. Abulqosimova X. Kinoteledramaturgiya asoslari. – T.: O‘zDSMI, 2009;
4. Annotirovanni katalog xudojestvennogo kino Uzbekistana (1925 – 208) – T.: 2009 S.Xaytmatova.
5. Bleyman M. Arxaistiili novatori? // Iskusstvo kino. 1970. № 7.
6. Vlasov M. Vidi i janri kinoiskusstva. - M.: Znaniye, 1976. 107 s.



KLARNET SAZ ASBABINIŃ PAYDA BOLIWI TARIYXI HÁM BÚGINGI
KÚNDEGI ATQARIWSHILARI
ИСТОРИЯ ПОЯВЛЕНИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО ИНСТРУМЕНТА КЛАРNET
И ЕГО ИСПОЛНИТЕЛИ СЕГОДНЯ
THE HISTORY OF THE APPEARANCE OF THE CLARINET MUSICAL
INSTRUMENT AND ITS PERFORMERS TODAY

Qurbanazarov Polat
Ózbekstan mámleketlik
konservatoriyasın Nókis Filialınıń dotsenti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada klarnet cholg‘u asbobining paydo bo‘lishi tarixi va bugungi kundagi ijrochilari haqida so‘z bo‘lib, orkestr jamoalarining tarkibida tutgan o‘rni haqida so‘z bo‘ladi. Damli cholg‘u asboblari qatorida o‘ziga xos ohanga ega klarnet cholg‘u asbobining yurtimizga kirib kelishi tarixi, tuzilishi va ushlash texnikalari ochib beriladi. Klarnet cholg‘u asbobining O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filialida qanchalik ahamiyat kasb etganligi yoritilgan.*

***Аннотация:** В этой статье пойдет речь об истории кларнета и его исполнителях сегодня, а также о его роли в оркестровых ансамблях. История, строение и техника игры кларнета, обладающего уникальным тембром, пришли в нашу страну в числе музыкальных инструментов. Было подчеркнуто значение музыкального инструмента кларнет в Нукусском филиале государственной консерватории Узбекистан.*

***Annotation:** This article will talk about the history of the clarinet and its performers today, as well as its role in orchestral ensembles. The history, structure, and playing techniques of the clarinet, which has a unique tone, came to our country among the musical instruments. The significance of the clarinet musical instrument at the Nukus branch of the Uzbekistan State Conservatory was highlighted.*

***Gilt sózler:** Dirijyor, nota, largo, vals, temp, klarnet, orkestr, sazlar, muzika.*

***Ключевые слова:** Дирижер, партитура, ларго, вальс, темп, кларнет, оркестр, инструмент, музыка.*

***Key words:** Conductor, score, largo, waltz, tempo, clarinet, orchestra, instrument, music.*

XX ásirniń ekinshi yarımınan baslap Rossiya menen Túrktan xalıqları arasında úlken tariyxiy-mádeniy áhmiyetke iy bolğan qarım-qatnasıqlar jolğa qoyılıp, sawda-satıq jumısları alıp barıldı. Sol dáwirde payda bolğan sawda ónimlerin qatarında organun, skripka,

klarnet hám garmon sıyaqlı bir qansha muzıka asbapları bar edi. Bul saz asbaplarınıń kirip keliw tariyqı qısqa dáwir ishinde ózbek xalqı mádeniyatına sezilerli tásir kórsetti hám olar xalıq sazendeleri arasında keńnen en jaya basladı.

Ózbekstanda klarnetshiler XX ásirniń baslarına kelip ǵana payda boldı. 1950-jıllardan baslap U.Rizoqulov, B.Minin, keyinirek K.Azimov, B.Solihov hám B.Murtazoyevlar tanıldı.

Klarnet sazı Qaraqalpaqstanǵa XX ásirniń 60 jıllarınıń basında kirip keldi, dáslepki atqarıwshısı Losevskiy Aleksandr bolıp, onnan keyin onıń shákirti Qurbanazarov Polatbay, onıń shákirti Ramberdiev Quwatbay hám Zaretdinov Azamatlar bolıp, búgingi kúnde Berdaq atındaǵı qaraqalpaq mámleketlik akademiyalıq muzikalı teatrında simfoniyalıq orkestr jámáátinde iskerlik kórsetip kelmekte.

Al, usı klarnetshiler ishinde búgingi kúnde shın mánidegi pedagogikalıq joldı tańlaw P.Qurbanazarovtıń shegine tústi. Ol Húrmetli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevtıń Qaraqalpaqstanǵa ámeliy saparı dawamında Ózbekstan mámleketlik konservatoriyasını Nókis Filialın shólkemlestiriw haqqındaǵı tapsırmasına tiykar, Ministrler Kabinetiniń 2021-jıl 5-apreldegi 186-sanlı qararına muwapıq Ózbekstan mámleketlik konservatoriyasınıń Nókis Filialında waqtınsha wazıypasın atqarıwshı professor lawazımında iskerlik kórsetip kelmekte hám búgingi kúnde Filialda demli sazlar bóliminde Klarnet saz ásbabınan sabaq berip, shákirtler jetistirip shıǵarmaqta .

Búgingi kúnde Prezidentimizdiń jaslar siyasatına qaratıp atırǵan kóplegen múmkinshilikleri qatarında usı Filialda tá'lim alıp atırǵan student jaslar da paydalanıp atırıptı desek asıra aytqan bolmaymız.

Filialımızda 5 qánigelik, 9 baǵdar boyınsha studentlerimiz bilim alıp atır, saz atqarıwshılıǵı kafedrasınıń demli sazlar bóliminde fleyta, goboy, klarnet, fogot, truba, voltorna hám tuba sazları boyınsha

tereńlestirilgen bilim hám kónlikpeler berip kelinbekte.

Jaslarımız ózlerine berilgen imkaniyatlardan tolıq paydalanıp, búgingi kúnde bir qansha xalıq aralıq hám respublikalıq tańlawlarda, ilajlarda ózlerin hár tárepleme kórsetip kelmekte.

Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bassılıǵında ótken jıllar dawamında jaslarımızdı hár tárepleme qollap-quwatlaw, olardıń bos waqtın mazmunlı shólkemlestiriw boyısha bir qansha qarar hám parmanlardı tastıyıqladı. Solay etip, búgingi jas áwladqa muzikalıq tálim-tárbiya berip, olardıń keleshekte mámleketimizge xızmet kórsetkenдей kórkem óner pidayıların jetistirip shıǵarıwday ullı wazıypalar jolındamız.

Klarnet sazı haqqında aytatuǵın bolsaq, klarnet saz ásbabı demli sazlar bólimine kirip, demlinińde tilli hám tilsiz toparlarına ajralıwında tilli sazlar toparına kiredi. Tilli sazlar toparına: sırnay, qosnay, balaman, shaxnay, klarnet, goboy h.t.b. al tilsiz sazlar qatarına: naylar, fleytalar kiredi.

Kompozitorlar shıǵıstıń ájayıp kórinislerin súwretlewde usı sazǵa kóbirek itibar beretuǵını sır emes. Eń ájayıp hám basqa sazlardan ajralıp turıwshı saz bul – klarnet sazı esaplanadı. Ol taza hám jaǵımlı seske iye bolıp, onıń múmkinshilikleri júda bay sanaladı. Hár túrli xarakterlerdi ashıp bere aladı. Klarnet shańaraǵına kırıwshı sazlar – bas klarnet, A klarnet, B klarnet, C klarnet, S klarnet hám kishi klarnetler esaplanadı.

Klarnettiń ózine tán ráńba-reń dawısını esitpekshi bolǵanıńızda P.I.Chaykovskiy ájayıp shıǵarması – “Francesca da Rimini” fantaziyasını esitseńiz boladı, bul shıǵarmada muzıka ásbabınıń tásirsheń sestı qızdıń ayawsız qısmeti haqqında qayǵılı muń bere alǵan. Onnan basqa da ertek shıǵarmaların



dóretiw protsesinde saz asbapların janlikler dawısına uqsatıwlar qılǵan, máselen, fleyta – qustıń dawısı, goboy – ǵazdıń dawısı, klarnet – iyttiń dawıslarına teńep, bir qansha jetiskenliklerge erisken. Bul saz ásbabınıń diapason keńisligi, oǵan kóplegen múmkinshilikler beredi. Teatr saxnalarında da, bul saz arqalı kóplegen etyudlar hám tákirarlanbas shıǵarmalar saxnalastırılıp kelinbekte.

Áne solar qatarında jáne bir ájayıp kompoitor V.A.Motsart klarnettiń sestin adam dawısına júda uqsaslıǵın aytqan. Onıń ekspressivlik diapazonı júda úlken bolıp, onıń menen kóplegen is qılsa arızıdı. Máselen, Chaykovskiydiń baletinde ushırasatuǵın quwnaqlıq hám oyınshılıq saxnaların keltirsek boladı.

Klarnet saz ásbabı dúzilisi jaǵınan 6 bólshekke bólinedi, hár bir bólshektiń ózine tán atqaratuǵın wazıypaları bar. Tómede keltirilgen struktura arqalı tanısıp ótsek boladı. (1-súwret)

Klarnet saz ásbabınıń strukturalıq dúzilisi

(1-súwret)



1. Mundshtuk - bólegi
2. Trost – úplew bólegi
3. Bachonok bólegi
4. Joqarǵı buwın (koleno)
5. Tómengi buwın (koleno)
6. Rastrub bólegi



Bul klarnet ushın arawlı chemodan

Klarnet saz ásbabınıń túrli variantların ushıratıwımızǵa boladı. Klarnettiń rawajlanıw evolyutsiyasına názer salsaq, hár túrli 20 ǵa jaqın variant islep shıǵılǵan, biraq olardıń durıs qollanılmawına baylanıslı bizge shekem jetip kelmegen, al jetip kelgenleri búgingi kúnde simfoniyalıq orkestrlerde paydalanılıp kelinbekte. Klarnet saz ásbabın bunnan keyin de hár tárepleme rawajlandırıw maqsetinde tómendegi usınıslardı beriwdi jón kórdik:

Birinshiden, klarnet saz ásbabı boyınsha tiyisli tárıpte oqıw qollanba hám sabaqlıqlar shıǵarıp oqıw procesine engiziw;

Ekinshiden, Klarnet saz ásbabı boyınsha Ózbekstan Respublikası kóleminde ilimiy-ámeliy konferenciya ótkeriw;

Ushinshiden, klarnet saz ásbabı boyınsha kishi formadaǵı ilajlardı shólkemlestirip barıw;

Tórtinshiden, klarnet saz ásbabı boyınsha rayonlıq mádeniyat mákemelerinde prezentatsiyalar shólkemlestiriw arqalı jaslardı qızıqtırıw;

Joqarıdaǵı usınıslardı ámelge asırıw arqalı biz klarnet saz ásbabına qızıǵıwshılar sanın ele de arttırıwımız múmkin.

Juwmaqlastırıp aytqanda Mádeniyat ministrligi quramındaǵı hár bir kórkem óner hám muzıka mektepleri tárbiyalanıwshıların orkestr koncertlerine belsene qatnasıwın támiyinlew zárúr. Biz kóplegen úyrenilmegen muzıka ásbapların jaslar sana-sezimine síndiriwde bul jol áhmiyetli sanaladı. Muzıkanı jaqtırmaytuǵın insan bolmaydı, jaslarda jat illetlerge qarsı gúresiwde bul taraw jetekshiler qatarında turatuǵınlıǵı gápimizdiń ayqın mısalı.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://dzen.ru/a/ZMEN1KRIAn5ggSgk>
2. Lex.uz



**GULISTON SHAXAR SURATLAR GALEREYASI FAOLIYATI
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ГОРОДСКОЙ ГУЛИСТАНА ФОТОГАЛЕРЕЯ
ACTIVITY OF GULISTON CITY PHOTO GALLERY**

**Turgunova Fazilat
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
tayanch doktoranti**

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada, Sirdaryo viloyati suratlar galereyasining faoliyati, galereya fondidagi rangtasvir asarlarining yillar davomida boyib borgani va ko'rgazmalarining tashkil qilish jarayonlari bosqichma bosqich tahlil qilingan.*

***Аннотация:** В данной статье проанализирована деятельность галереи изображений Сырдарьинской области, постепенное обогащение фонда галереи картинами на протяжении многих лет, а также этапы организации выставок.*

***Annotation:** This article analyzes the activities of the Syrdarya Region Art Gallery, the gradual enrichment of the gallery's collection with paintings over the years, and the stages of organizing exhibitions.*

***Kalit so'zlar:** rangtasvir, ekspozitsiya, fond, ekskursiya, rang gammasi, kolleksiya, inventar, kirim kitobi.*

***Ключевые слова:** живопись, экспозиция, фонд, экскурсия, цветовая гамма, коллекция, инвентарь, книга поступлений.*

***Key words:** painting, exhibition, collection, guided tour, color palette, inventory, accession book.*

Mamlakatimiz o'zining boy badiiy merosi bilan jahon san'ati va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan qadimiy sivilizatsiya o'chog'i sifatida milliy badiiy an'analarning o'ziga xosligini saqlab kelayotgani dunyoning yetakchi san'at mutaxassislari tomonidan e'tirof etilgan.

Bugungi kunda zamonaviy o'zbek tasviriy san'atiga ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelayotgani, turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkorlar, xususan, rassom va haykaltaroshlar, xalq ustalari ijodida yangicha mazmun va shakl, jahon san'at maydonida munosib o'rin egallashga

intilish tendensiyalari ko'zga tashlanayotganini ijobiy baholash lozim.

Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtda tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar talab darajasida emasligi, sohaga doir normativ-huquqiy hamda moddiy-texnik bazaning mukammal emasligi, malakali kadrlar yetishmasligi bu boradagi ishlarning samarasiga salbiy ta'sir etmoqda.

Sirdaryo viloyatida ham bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Madaniyat sohalari qatorida tasviriy san'atning rivojiga katta hissa qo'shgan, nafaqat Sirdaryo rassomlarini, balki

O'zbekistondagi rassomlarni noyob durdonalari joy olgan Sirdaryo suratlar galereyasi rassomlarni bir joyga jamlagan maskan sifatida o'z faoliyatini olib borgan.

Suratlar galereyasi 1981-yil 392- P farmoni bilan "Yashil teatr binosida" tashkil etilgan Sirdaryo viloyati rasmlar galereyasi negizida Sirdaryo viloyati san'at galereyasi tashkil etilgan. 1996-yil galereyaga tashrifchilar soni 70 nafar bo'lib, galereya fondiga hech qanday suratlar sotib olinmagan. 5 ta ko'rgazma tashkil etilgan bo'lib, Respublika badiiy ko'rgazmalar direksiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Suratlar galereyasi uchun asosiy fondni I.D.Rubin, Kuznetsov, X.M.Pashkovskoy, K.Nabiyev, V.Kochetkova kabi bir qator rassomlarning ijod namunasi joy olgan bo'lib, fond asosini 58 ta kartina tashkil etgan. Bir yil davomida galereya 30 dan ortiq ko'rgazmalarni tashkil etgan bo'lib, ko'rgazmalar turli mavzularda bo'lgan. "Legenda vayni", "Butun dunyo ayollari", "Xalqaro muzeylar kuni", "Benkov ijodi", "E.E.Moisenkning 70 yillik yubileyi" kabi mavsumiy ko'rgazmalar tashkil etilgan shu bilan birga har yili muntazam ravishda "Slava trudna" deb nomlangan ko'rgazma fevral, may oylari uchun tashkil etilgan. Ko'rgazmada 20 dan ortiq dastgohli rangtasvir asarlari joy egallagan bo'lib, ikki mingdan ortiq tashrifchilar uchun 50 dan ortiq ekskursiyalar tashkil etilgan. "Rassom bolalar" nomli may va iyun oylari uchun mo'ljallangan ko'rgazma doirasida esa, 35 dan ortiq rangtasvir asarlari ekspozitsiyadan joy olgan. 100 mingdan ortiq tashrifchilar uchun ekskursiyalar tashkil etilgan.

"Человек земля веселенна" nomli ko'rgazma avgust oktabr oylarida tashkil etilgan bo'lib, 25 ta rangtasvir


asarlari galereyadan joy olgan hamda 120dan ortiq ekskursiyalar tashkil etilgan.

1986-yilning eng katta ko'rgazmalaridan biri bu xalqaro Toshkent rassomlari ijodi to'g'risida bo'lib, oktabr oyidan to 15 dekabrqa qadar tashkil etilgan. Ekspozitsiyadan 35 dan ortiq akvarel ishlari, 80 dan ortiq rangtasvir asarlari ekspozitsiyaga qo'yilgan. Ko'rgazmaga tashrifchilar soni 13235 tani tashkil etgan bo'lib, shundan bolalar soni 6505 tani tashkil etgan. Ular uchun 350 dan ortiq ekskursiya matni tashkil etilgan.

Suratlar galereyasining faoliyati to'g'risida bir necha marotaba "Sirdaryo haqiqati" gazetasida yoritib borilgan. Har yili muntazam ravishda turli mavzularga doir ko'rgazmalar tashkil qilingan bo'lib, xalqaro muzeylar kuni munosabati bilan "Слава трудна", "Изобразительное искусство", "Наш край" kabi nomlar bilan ko'rgazmalar o'tkazilgan. Har bir ko'rgazma uchun mahsus ekskursiya matni yoshga qarab tashkil etilgan. "Художники в барбе за мир" nomli ko'rgazmada 35 dan ortiq rangtasvir asarlari joy olgan bo'lib, ikki mingdan ortiq tashrifchilar uchun yuzdan ortiq ekskursiyalar tashkil etilgani ta'kidlab o'tilgan. 1987-yilda galereya rahbari T.Asilbekov bo'lgan.

"Tabiat va rassom" nomli ko'rgazma 40 dan ortiq asarlar, 100 dan ortiq ekskursiya matni. "Dunyo rassomlar nigohida" ko'rgazmasida, 50 dan ortiq rangtasvir asarlari joy olgan. Yil hisobi bilan 220 dan ortiq asarlar ko'rgazmaga qo'yilgan bo'lib, 10 mingdan ortiq tashrifchilar ko'rgazmaga tashrif buyurgan ulardan 7 mingtasi katta yoshlilar, 3 mingdan ortigi esa yosh bolalardan tashkil topgan. 340 ekskursiya matni tashkil etilgan.

2002-yilda mahalliy byudjetdan mablag' ajratilmaganligi sababli ashyolar



va rasmlar olinmagan. Galereyaning kirim daftarida 81 ta surta kiritilgan bo'lib, bu 1981- yildan boshlab to'plangan suratlar hisoblanadi.

Shu yili 20 ta ko'rgazma, ko'chma ko'rgazmalar soni 5 ta, ekskursiyalar soni 280 ta bo'lib, tanishuv 140 ta, mavzuviy ekskursiya 60 ta, o'quv ekskursiyalari 80 ta va ma'ruzalar 6 tani tashkil qilgan. Tashrif buyuruvchilar soni 2670 ta bo'lgan.

Suratlar galereyasi keying yillardagi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hisobotlar 2003-yilga kelib galereya binosi A.Navoiy nomidagi viloyat kutubxonasi "Ma'naviyat va Ma'rifat" viloyat markaziga ko'chirilganligi sababli faoliyati bir muncha vaqt to'xtatiladi.

2004-yilda Sirdaryo viloyati rasmlar galereyasi ko'rgazmalarida 155000 ming tomoshabinlar tashrif buyurgan bo'lib, Amerika, Buyuk Britaniya, Turkiya, Italiya, Rossiya, Moldaviya kabi shaxarlardan tashrifchilar kelgan. Hammasi bo'lib, 25 ta shartnomalar tuzilgan. Mustaqillikning 13 yilligiga bag'ishlab, kataloglar nashr qilingan.

I.A.Karimovning "O'zbekiston muzey va galereyalarni faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi hamda madaniyatimizga tegishli bir qancha farmonlari muzeylarga ma'naviy, badiiy o'tmish merosimizga e'tiborni yanada oshiradi. Sirdaryo viloyati Rasmlar galereyasi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari Vazirligining 1981-yilgi №2 392 P qarori asosida Guliston shaxar "Yashil teatr" binosida 1981-yilda tashkil topgan. 2003-yil 29 -mart kuni Viloyat rasmlar galereyasi yangi binoga ko'chiriladi. Ushbu bino A.Navoiy nomidagi viloyat kutubxonasi, "Ma'naviyat va ma'rifat" viloyat markazida joylashdilar. 2007-yilda galereyada O'zbekiston

rassomlaridan Zokir Inog'omov, Ilya Rubin, Ivan Yenin, A.Boybekov va R.Choriyevlarning 116 tadan ortiq asarlari saqlash bo'limida saqlangan. 2003-yilda akademik R.Choriyev galereyaga 24 ta asar sovg'a qilgan. 2005-yilda madaniyat va sport ishlari boshqarmasi rassom A.Boybekov kolleksiyasidan 4 ta asar sotib olingan. 2006- yil may oyida galereyaga Madaniyat vazirligi tomonidan 1 ta asar sovg'a tariqasida berilgan. 2006 -yilda Abduvali Nurtojiyev galereyaga 7 ta asar sovg'a qilgan. Galereyada noyob ashyo va asarlar mavjud emas. Ilmiy fond ishlari muzeyning kirish kitobiga (KK) hamda ilmiy inventor daftariga kiritilgan 116 ta rasm va jihozlar mavjud. 2007-yilda ilmiy hodimlar tomonidan 116 ta asar ilmiy tavsiflash kartochkalari tuzilgan.

2007-yil davomida galereya va galereyadan tashqarida jami 40 ta ko'rgazmalar tashkil etilgan bo'lib, 30 tasi fond, 5 tasi ko'chma. Yil davomida 800 ta ekskursiyalar 500 ta tanishuv 300 ta o'quv ekskursiyasi o'tkazilgan. Madaniyat va ma'rifat xonasida joylashgan binoning ko'rgazma qilinish uchun mo'ljallangan qismi 400 kv.metr, fond saqlov zali 100 kv.metrni tashkil etgan.

2009- yilga kelib galereyada deyarli o'zgarishlar sodir bo'lmagan. Jami 75 ta ko'rgazma, 50 tasi fondan 25 tasi bo'lsa ko'chma ko'rgazmani tashkil qilgan. Yil davomida 1600 ta ekskursiyalar, 1200 ta tanishuv, 400 ta o'quv ekskursiyasi tashkil etilgan.

2010-yildan to 2017-yilgacha bo'lgan davrlar oraliq'ida arxiv manbalarda uzilishlar yuzaga kelgan. 2017-yil O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 26 martdagi "Muzeylarni hatlovdan o'tkazish" to'g'risidagi №154 sonli buyrug'ining ijrosini ta'minlash maqsadida ishchi guruh tuziladi va 2017-yil 10 may kuni

Sirdaryo viloyatida yig'ilish o'tkaziladi. Hududda mavjud Sirdaryo viloyati o'lkashunoslik muzeyi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi ro'yxatidan o'tmagan muzylar: Oq oltin tarixi muzeyi, Mirzobod tumani 21-sonli umumta'lim maktabi qoshidagi muzey, Sirdaryo viloyati pedagogika universiteti qoshidagi muzey, Sirdaryo viloyati rasmlar galereyasi ish faoliyati va umumiy holati o'rganiladi va o'tkazilgan tekshirish natijalariga ko'ra nodavlat muzeylar yopiladi.

Shu bilan birga 2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini

takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar [1] dasturining tasdiqlanishiga ko'ra 2018- yil yopilishi ko'rsatilgan muzeylar orasida Sirdaryo rasmlar galereyasi ham mavjud.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sirdaryo viloyati suratlar galereyasi fondidagi tasviriy san'at durdonalari hozirgi kunda Sirdaryo viloyati madaniyati va tarixi muzeyining fondidan joy egallagan. Ammo ekspozitsiyaga qo'yilmagan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3219-son qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2017 yil 11 dekabrdagi 975 sonli qarori
3. MDA. Fond M-7. ro‘yxat 1. Yig‘ma jild 701. Sirdaryo viloyati suratlar galereyasi yillik hisoboti 1998 y. 19 bet
4. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi arxivi. yillik hisobot №1. 712 - yig‘ma jild. 2007 yil. 42 bet
5. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi arxivi. yillik hisobot №1. 1330 - yig‘ma jild. 2009 yil. 57 bet



MUSEUM PRACTICE ON THE HISTORICAL AND TYPOLOGICAL
DEVELOPMENT OF ARCHITECTURAL STYLES
МУЗЕЙНАЯ ПРАКТИКА ПО ИСТОРИКО-ТИПОЛОГИЧЕСКОМУ
РАЗВИТИЮ АРХИТЕКТУРНЫХ СТИЛЕЙ

Ziyayeva Rano

Employee of the State Museum
of the history of Uzbekistan

Annotation: The article analyzes the historical and cultural development of architectural styles and the significance of museums in their dissemination among the general public. It examines the role of museums in the preservation, study, and popularization of architectural heritage in various countries. In particular, the museums in Austria, France, and Italy play an important role in specialized fields focused on the study of architectural history. The studied museums are of great importance for analyzing the unique features of architecture, the process of its development, understanding the interconnections between different eras and styles, as well as determining their place in society.

Аннотация: В статье анализируется историческое и культурное развитие архитектурных стилей и значимость музеев в их распространении среди широкой общественности. Рассматривается роль музеев в сохранении, широкой общественности. Рассматривается роль музеев в сохранении, изучении и популяризации архитектурного наследия различных стран. В частности, музеи Австрии, Франции и Италии играют важную роль в специализированных направлениях на изучении истории архитектуры. Изучаемые музеи имеют большое значение для анализа уникальных особенностей архитектуры, процесса её развития, понимания взаимосвязи различных эпох и стилей, а так же для определения их места в обществе.


Key words: architectural styles, architectural models, design ideas, decoration samples, exhibitions, sketches, projects, education and upbringing, historical heritage.

Ключевые слова: архитектурные стили, архитектурные макеты, идеи дизайна, образцы декора, выставки, эскизы, проекты, образование и воспитание, историческое наследие.

The formation of museums dedicated to the history of architectural styles worldwide is primarily linked to the development of architecture and society's interest in it. Their formation has undergone several stages, and this process was carried out through an understanding

of the importance of preserving, promoting, and studying architecture during different historical periods.

The aim of the article is to examine the role of museums in preserving, studying, and disseminating the history of architectural styles to the public, the



impact of architecture on humans, and its role in expressing historical heritage and culture. The goal of these museums is to preserve, study and present historical and cultural heritage to the public.

In this regard, it is worth noting that the history of architectural styles and their development dates back to the ancient period. In ancient civilizations such as Egypt, Greece and Rome, architectural works held significant importance. However, during those times, there were no specialized museums dedicated to the history of architecture. Nevertheless, the architectural heritage of various civilizations has survived to the present day, and these works have been studied as archaeological findings. In the early 19th century, interest in studying the history of architecture grew stronger. The preservation of architectural monuments, their analysis, and the study of their historical value began. It was during this period that the first museums, which stored scientific research and collections of information related to architecture, started to emerge.

In Austria, France and Italy, a number of important collections and architecture museums have been established to study the historical development of architecture. These museums showcase the history, evolution, and cultural heritage of their respective nations' architecture. The Kunsthistorisches Museum Wien[11] (Museum of Art History) in Vienna, Austria, houses historical artifacts and models related to Austria's Baroque and other historical architectural styles. This museum highlights many changes in the Baroque and Rococo styles and showcases key moments in the lives of Austrians through art and architecture. The Wien Museum, located in Vienna, features numerous exhibits related to

Austria's historical architecture, with a focus on the city's structural changes and the history of rural and urban architecture. Schönbrunn Palace[13], a famous architectural masterpiece of Austria, is a vivid example of Baroque and Rococo styles. The museum displays the palace's architecture, its historical significance, and related elements. These museums and historical sites play an important role in preserving and promoting Austria's rich architectural and cultural heritage.

The Centre Pompidou[9] in Paris, France, is a museum of contemporary and modern art that helps explore the development of modern architecture in France[6]. The exhibitions in the museum showcase the works of French architects and large-scale architectural projects from around the world. The world-famous Louvre Museum[1] is not only a hub for art but also one of the most significant sites representing France's historical architecture. The museum houses excellent examples of architecture and architectural works from various historical periods. This museum serves not only as an art institution but also as a space for revitalizing France's historical architecture. It presents architectural examples from ancient times to the modern era. The Musée de l'Architecture[14] (Museum of Architecture) is a crucial resource for studying France's architectural history. It features exhibits of major architectural works from various historical periods in France, illustrating their correct development. These museums and centers play an essential role in preserving France's cultural heritage and conveying the development of both modern and historical architecture to a wide audience[8].

The Museo Nazionale Romano[10] (National Roman Museum)




in Rome, Italy, is one of the most important archaeology museums in Italy. The museum showcases works related to the architecture and historical heritage of the Roman Empire. It plays a crucial role in studying the rich aspects of Rome's historical heritage, architecture, and art. The Museo di Architettura di Venezia[12] (Venice Architecture Museum) focuses on exhibitions and historical artifacts related to Venice's historical and modern architecture. The museum displays items related to Venice's unique architecture and the history of its development. It provides an excellent opportunity to study the architectural history of Venice, its location on water, and the changes it has undergone. Palazzo Pitti[4] in Florence is an important museum dedicated to Baroque and Renaissance architecture in Italy. It displays historical materials related to the architecture and art of Florence. These museums are invaluable resources for understanding Italy's historical architecture, art, and cultural heritage[2]. Through their exhibits, they offer an opportunity to study Italy's rich cultural and architectural history.

These museums introduce the architecture of each country. In the early years of the 20th century, the connection between architecture and art grew increasingly stronger. As a result, architecture museums began to showcase not only architectural examples but also related works of art. For example, modern architectural designs, structures, models, design concepts, and other elements started to be preserved together. By the 1920s, the Bauhaus school and other modern movements had a significant influence on the formation of architectural styles. During this period, architecture museums began organizing exhibitions that showcased design and architecture together. By the end of the 20th century,

architecture museums were established not only in a few major cities but also in various countries. Specialized museums were also opened to study distinct architectural styles, such as Gothic, Baroque, Renaissance, Modernism, and Postmodernism. Today, architecture museums present not only traditional exhibitions but also virtual tours, interactive displays, and 3D models with the help of modern technologies, allowing for a more widespread and interactive study of architectural history. Now, architecture museums are no longer dedicated to a specific region or period. They offer a global perspective on architectural styles, their evolution, and how they developed over different periods. From the late 20th century, global cultural exchange, international cooperation in the fields of architecture and art, and the formation of architecture museums have been influenced by these developments. International organizations and exhibitions have also been established to study architectural history and styles on a global scale.

As mentioned above, the Bauhaus school played a significant role in the development of new architectural styles in modern museums. Its influence was felt not only in its time but also continued after the second half of the 20th century. For example, architects such as Le Corbusier and Ludwig Mies van der Rohe also applied functionalism and minimalism under the influence of Bauhaus. Moreover, museums like Tate Modern[3] (in London) and the Bauhaus-Archiv Museum of Design (in Berlin) were created based on the core principles of Bauhaus. These museums showcase simple and clean forms in their design, functional lighting, and open, modern interiors. Thus, the Bauhaus school influenced the architecture of museums,



enriching them with new functional and minimalist approaches.

Tate Modern is a modern art museum in London, opened in May 2000. It is part of the Tate Gallery and primarily showcases contemporary art created since 1900. Tate Modern is recognized as one of the world's largest and most prestigious art museums[5].



Tate Modern.

dramaturg bilan hamjihatlikda ishlash, ularning ijodiy salohiyatlaridan kelib chiqqan holda spektaklni buyurtma qilish kabi yo‘llar bilan repertuarlarida betakror sahna asarlari bilan boyitishmoqda. Bu jarayonda faqatgina ertaknamo asarlar va sodda ko‘rinishdagi hayvon obrazlari bilan cheklanmay, chuqur mushohadali, fikrlashga undovchi ekspressionistik, abstrakt sahnalarga boy spektakllar ham sahnalashtirilayotgani tahsinga sazovor. Respublikamiz qo‘g‘irchoq teatrlarida sahnalashtirilayotgan spektakllar mana shu omillarga bosh maqsad sifatida qarab ijodiy namunalarni yaratib kelishmoqda. Ushbu spektakllar mavzusi, g‘oya va sifatini nazorat qilish, muammoli masalalarga yechim izlash, yutuqlarni o‘rtoqlashish niyatida an‘anaviy ko‘rik-festivallar tashkil etilayotgani yetuk sahna asarlari yaratishdagi sa‘y-harakatdir.

O‘zbekiston Davlat san‘at va madaniyat instituti qo‘g‘irchoq teatri rejissyorligi yo‘nalishi talabalarini o‘qitishda yangi metodikalar qo‘llash, mutaxassislik darslarini auditoriyadan tashqari qo‘g‘irchoq teatrlari binosiga ko‘chirish, talabalarni katta sahnadagi jonli repetitsiyalarda qatnashishi uchun sharoit yaratish katta maktab bo‘lishini ta’kidlash joiz. Qo‘g‘irchoq teatrlaridagi sifatli, xalqchil spektakllar yaralishida birinchi navbatda yaxshi dramaturgiya asari, malakali rejissyor, rassom va aktyorlar jamoasi, qo‘g‘irchoq va butaforiya ustalarining bir g‘oya asosida birdam mehnat qilishlari muhimdir. Yosh rejissyorlarga kasbiy faoliyatning sir asrorlari o‘rgatilar ekan ijodiy jamoaning har bir a‘zosiga asar bosh g‘oyasini tushuntirish, bir asar ustida hamjihatlikda mehnat qila olish ko‘nikmalari o‘rgatilishi lozim. Bunday mahorat darslari nafaqat

institut talabalariga balki viloyat teatrlarida faoliyat olib borayotgan yosh rejissyorlarga ham o‘tilishi lozimdir. Mazkur eksperimentni Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, qo‘g‘irchoq teatri rassomi yo‘nalishi talabalari amaliyotida qo‘llash judayam yaxshi natijani bergan bo‘lar edi. Ayniqsa yosh rejissyorlar kasb sirlarini tengdosh rassomlar bilan hamkorlikda o‘rganishi kelgusi ijodiy hamkorlikni shakllanishiga xizmat qiladi.

Qo‘g‘irchoq teatri rejissyori birinchi navbatda sifatli asar tanlash mahoratiga o‘rganishi zarur. Dramaturgiya doim birinchi o‘rinda turadi, sababi dramaturgik kompozitsiyasi kuchli asar bilan ishlashda rejissyor qiyinchilikka uchramaydi, uning g‘oyalarini amalga oshirishda rassom, aktyor, rejissyordan iborat jamoaning ijodiy ishida samardorlikka erishiladi. Natijada sifatli spektakl yuzaga keladi. Bugungi kunda yosh ijodkorlarni teatrga mahalliy tomoshabinlarni iqtisodiy manfaat nuqtayi nazarida yig‘ish, qiziqtirish o‘lchovida emas, jahon talablaridagi asarlar yaratib san‘atimizni butun dunyoga tanitish rakursi bilan tarbiyalash lozim. Teatrlarda o‘tkaziladigan ko‘chma darslar mana shu fikrimizni tasdiqlaydi, chunki talaba teatr atmosferasi bilan tarbiyalanishi, asarlarni sahnalashtirish jarayonida qatnashishi mazkur natijaga sabab bo‘luvchi metod hisoblanadi. Bundan tashqari yosh ijodkorlar ushbu ko‘chma darslarda qo‘g‘irchoq yasash ustaxonalaridagi ishlab chiqarish, dekorator rassomning eskizlar bilan ishlash, aktyorlar repetitsiyalarida to‘g‘ridan to‘g‘ri qatnasha olish amaliyotni o‘zlashtirish ularda kerakli kasbiy mahoratlarni egallashga yordam

beradi. Ijodiy atmosfera yaralishiga olib keladi. Bunday yondashuv faqat talaba yoshlar uchun emas balki, viloyat qo'g'irchoq teatrlarida o'z faoliyatini olib borayotgan yosh rejissyor, rassom va aktyorlar uchun ham zarurdir.

Qo'g'irchoq teatrlaridagi sifatli, xalqchil spektakllar yaralishida birinchi navbatda yetuk dramaturgik asar, malakali rejissyor, rassom va aktyorlar jamoasi, qo'g'irchoq va butaforiya ustalarining bir g'oya asosida birdam mehnat qilishlari muhimdir. Sh.Yusupov rejissyor sifatida kasbiy faoliyatida chuqur falsafiy, xalqchil asarlar yaratib kelayotgan ijodkor hisoblanadi. Qo'g'irchoq teatri rejissurasi birinchi navbatda sifatli asar tanlash mahoratini bilishi zarur. Dramaturgiya doim birinchi o'rinda turadi, sababi dramaturgik kompozitsiyasi kuchli asar bilan ishlashda rejissyor g'oyalarini amalga oshirishda rassom, aktyor, umuman butun ijodiy jamoa ishida samardorlik, rejissyor tandemiga hamkorlik ruxi o'yg'onib natijada sifatli spektakl yuzaga keladi. Ana shunday mehnat mahsuli hisoblangan "Bahrom va Dilorom" spektaklida mahoratli aktyorlar, xoreograflar, musiqa, rassomlarning shakl va koloritlar yordamida asar ta'sirchanligini kuchaytirgan komponentlar tomoshabin va mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan asar yaralishiga sabab bo'ldi. Dramaturgik kompozitsiyasi kuchli asar bilan ishlashda rejissyor g'oyalarini amalga oshirishda rassom, aktyor, umuman butun ijodiy jamoa ishida samardorlik, rejissyor tandemiga hamkorlik ruhi uyg'onib natijada sifatli spektakl yuzaga keladi. Ana shunday mehnat mahsuli hisoblangan "Bahrom va Dilorom" spektaklida mahoratli rejissyor,

aktyor, xoreograf, musiqa va rassomlarning ijro, shakl va koloritlar yordamida asar ta'sirchanligini kuchaytirgan mehnat mahsuli tomoshabin va mutaxassislar tomonidan e'tirof etildi. O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri tomonidan namoyish etilgan "Bahrom va Dilorom" ("Hamsa" asarlari "Sab' ai sayyor" dostoni asosida To'ra Mirzo inssinirovkasi) rejissyor Shomurod Yusupov, rassomlar Viktor Apuxtin, Mo'tabar Ro'zmetovalar tomonidan sahnalashtirilgan asar O'zbekiston Respublikasi qo'g'irchoq teatrlarining an'anaviy XIII ko'rik-festivalining birinchi darajali diplomi bilan taqdirlandi.

"Bahrom va Dilorom" dostoniga ishlangan sahna bezaklari va obrazlari ustida V.Apuxtin asar eskizlarini yaratishda ko'p mehnat qiladi. Rassomning qiziqarli kompozitsiya topilmasi asarning chuqur falsafiy g'oyasini to'liq ochib berishda xizmat qiladi. Sahnadagi yaratayotgan obrazlari dostonda keltirilgan davr muhitini to'laqonli yoritishi maqsadida mazkur asarga ishlangan boshqa ijodiy namunalar bilan tanishib, davr to'g'risida ma'lumot to'plagach Bahrom, Dilorom va boshqa obrazlarni, doston timsollariga asoslangan liboslarini hamda sahna bezagini yaratadi. Bahromning nafi yo'lidagi xatosi, bunga Diloromning qat'iyatli munosabati, ayol timsolining kuchli inson ruhiyatda ifodalab berishda xizmat qilgan. Spektaklning badiiy yechimi asardagi davr muhitini to'liq aks ettirgan. Sahna yechimi sifatida saroylar ranglar yordamida ajratilib, xoreograflar nafis raqslari yordamida sahna bezaklarini almashtirib turishda xizmat qilgan. Voqea va vaqt birliklarini o'zgarish ifodasi sifatida pape-mashe, poliester, reykalari



yordamida yaratilgan rekvizit va butaforiyalarni almashtirib turishadi. Tanlangan musiqa va raqs sahnalari asarni ta'sirchanligini yanada kuchaytirgan. Rejissyor Sh.Yusupov ushbu asarga dostonidan farqli o'laroq qahramonlar uchun boshqa ko'rinishdagi fojiviy yechim beradi. A.Navoiy dostonida Diloromning taqdiri noma'lum bo'lsa, ushbu spektaklda Dilorom qaytib keladi, Bahrom Diloromni qanchalik sevmasin ovchilikdan voz kecholmasligini aytib ohuni ovlomoqchi bo'lganda Dilorom bunga qarshi chiqadi va o'qga ko'ksini tutib berib vafot etadi. Mazkur yechim asarni tomoshaviyligini yanada oshirib kuchli hissiy ta'sirchanlik uyg'otadi. Asarning tomoshabinlar uchun tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyati muhim. Yosh avlod doimiy ravishda yaxshilik va yomonlik, nafs va shukronalik, jon va tan tuyg'usini his qilishlari muhim. Ushbu asarda Diloromning ketishi, o'z qadriyatlarini himoya qilishi bugungi kun gender masalalariga bog'lanib, ayollik g'ururini ifodalaydi.

Mazkur "Bahrom va Dilorom" spektakli ijodkorlarning o'z kasbiga bo'lgan muhabbati sabab soha rivojida salmoqli mehnat mahsuli yaralishiga olib keldi. Shu sababli qo'g'irchoq teatr ijodkorlari sahnalashtirib kelayotgan asarlarining xalqchil, chuqur falsafiy asarlar bo'lishi uchun ijodiy hamfikrlik, ijodiy tandem bo'lishi juda ham muhimdir.

San'atning insoniyat hayotida tutgan o'rni beqiyosdir. Sababi san'atning qaysi turi bo'lmasin u avvalambor inson ongini va qalbini ezgulik va go'zallik bilan oziqlantirishi, qalblarda ko'tarinki kayfiyat o'yg'otish uchun xizmat qiladi. Qo'g'irchoq teatri asosan yosh tomoshabinlardan tashkil topganligi sababli bu san'at turi fidoyilarining zimmasiga ikki barobar mas'uliyat yuklaydi. Shu tufayli ularning sohalarida uchrayotgan kamchiliklarga befarq bo'lmasligimiz va yechim topishga ko'maklashishimiz lozim.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. М.Қодиров, С.Қодирова. Қўғирчоқ театри тарихи. Т., Талқин. 2006 .
2. Ҳ.Икромов. Қўғирчоқ театри режиссураси: изланишлар ва муаммолар //Театр.2004/1//.22-б.
3. Н.Генсицкая, Н.Клен. Основы кукольной скульптуры. 2009 г/-88 с.: ил- (Серия “История одной куклы”)
4. Nasrullayvna K. F. TRANSFORMATION IN SCENOGRAPHY OF PUPPET THEATER //European Journal of Arts. – 2023. – №. 2. – С. 34-37.
5. Kobilova F. History of the Uzbek National Puppet Theater.
6. Nasrullaevna K. F. HISTORY OF TRADITIONAL PERFORMANCE AND PUPPET THEATER OF UZBEKISTAN //International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – С. 167-171.
7. Қобилова Ф. Ўзбек миллий қўғирчоқ театри тарихи //Қамолитдин Бехзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти АХБОРОТНОМАСИ илмий-амалий журнали. – 2021. – Т. 5. – №. 01.
8. KOBILOVA F. MILLIY QO‘G‘IRCHOQ TEATRI STSENOGRAFIYA MAKTABI ASOSCHISI //Қамолитдин Бехзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти АХБОРОТНОМАСИ илмий-амалий журнали. – 2021. – Т. 5. – №. 04. – С. 121-126.



**SAMARQAND KASHTACHILIGI AN'ANALARINI DAVOM ETTIRISHDAGI
OMILLAR**
ФАКТОРЫ ПРОДОЛЖЕНИЯ САМАРКАНДСКИХ ТРАДИЦИЙ ВЫШИВКИ
**FACTORS IN CONTINUING THE TRADITIONS OF SAMARKAND
EMBROIDERY**

Maxkamova Gulnora
MRDI mustaqil izlanuvchisi

***Annotatsiya:** Mazkur maqola “XX-XXI asr Samarqand kashtachiligidagi badiiy jarayonlar” mavzusidagi tadqiqot ishi tarkibidan yozilgan. Unda bugungi kunda dunyo muzeylari va shaxsiy kolleksiyalardagi Samarqand kashtalari namoyishi va tadqiqot obyekti bo'lgan Samarqand Davlat muzey qo'riqxonasining etnografiya fondidagi kashta kolleksiyasi taqqoslangan.*

***Аннотация:** Данная статья написана на основе научно-исследовательской работы на тему «Художественные процессы в Самаркандской вышивке XX-XXI веков». Сравнивается экспозиция самаркандских вышивок в мировых музеях и частных коллекциях и коллекция вышивок этнографического фонда Самаркандского государственного музея-заповедника, являющаяся объектом исследования.*

***Annotation:** This article is part of a research project on the topic “Artistic Processes in Samarkand Embroidery of the 20th-21st Centuries.” It compares the current display of Samarkand embroidery in museums and private collections around the world with the embroidery collection in the ethnographic fund of the Samarkand State Museum-Reserve, which is the object of research.*

***Kalit so'zlar:** So'zana, nimso'zana, bolinpo'sh, joynamoz, bolinpo'sh, “chor chirog”, “ko'knor nusxa”, “rafida”, “teg'cha”, “kunda”, “resha, “chok do'zon”, “niyat karda” noranj.*

***Ключевые слова:** Созана, нимсосана, болинош, джойнамаз, болинош, «чор чирог», «маковая копия», «рафида», «тегча», «кунда», «реша», «чок дозон», «нят карда» оранжевый.*

***Key words:** So'zana, nipsozana, bolinpo'sh, place prayer, bolinpo'sh, “four lights”, “poppy copy”, “rafida”, “teg'cha”, kunda”, “resha, “chok do'zon”, “niyat karda” orange.*

O'zbek oilalarida qiz farzand ishlatiladigan buyumlaridan iborat tug'ilganda, unga atab juda bo'lgan. Samarqandda ham qizlarga atab, kichikligidayoq kelinlik sarposi juda yosh paytidan kashta buyumi sarpo tayyorlash urf bo'lgan. Bo'yi yetib, uzatayotganda uning sarpolari: liboslar va sifatida tikilib, tayyorlana boshlagan. “Ilk uyni bezash anjomlari, kundalaik hayotda kashta “yaxshi niyat” (niyat karda) qilgan

holda qiz farzandning 5 yoshli paytida tayyorlab qo'yilgan".[1, 40-b] Mazkur buyumlar rang-barang naqshli, tasvirlar bilan kashtalangan. Hatto "kashtado'zlik buyumlaridan dafn marosimlarida ham foydalanilgan- qizlar yoki yosh ayollarning tobuti ustiga kashtali buyumlar yopilgan".[2,32-b]

Samarqand kashtachiligi Samarqand kashtalari xorijlik kolleksiyonerlar va olimlarning e'tiborini ham tortgan. Bir qancha kashta buyumlar xorijiy mezey va shaxsiy kolleksiyalardan o'rin olgan. Ular Urgut, shaxar markaziga xos uslubi, Chelak kashtalaridir.

Shuni alohida qayd qilish mumkinki, Samarqandda XIX-asr oxiri XX-asr I-yarmida kashtachilik ravnaq topgan. Kelinlarning sarposida bir komplekt so'zana, bolinposh, ro'yjo va joynamozdan iborat bo'lgan. Kelinlar sepida bunday komplektlar to'rt juftdan olti juftgacha bo'lgan. Shu sabab Samarqandda ko'plab kashtalar tayyorlangan. Kashta tikishni har bir ayol, qizlar bilishi kerak bo'lgan. Turmushga chiqayotgan qizning to'yi arafasida "chok do'zon" tadbiri o'tkazilgani haqida O.A.Suxareva o'z tadqiqotlarida yozgan edi. To'ygacha o'z sarposidagi kashtalarni tikib ulgurmay qolgan qizlar bozordan ham sotib olgan.

Samarqand kashtalarining eng sara namunalari dunyo muzeylarida va shaxsiy kolleksiyalarida saqlanadi. Sharq Davlat muzeyidagi so'zana XIX asrning II yarmiga oid Samarqand so'zanasi diqqatga sazovordir.[3,367-427-b] Kashta kompozitsiyasi uch qismlig, markaziy, o'rta va chetki "oba" qismlari. Jami beshta yoqin qizil "lola", to'rtta "rapida naqshi" i bor. Markaziy maydonda lola va uni nozik to'q yashil bargli doira o'ragan, yuqori va pastdan yashil bargli "chor chiroq" naqshi bor. "Lolalar"ning asosiysi o'rta maydonda bo'lib, "rapida" naqshi bilan

takrorlangan. Lolalar markazida sariq yulduzchalar bor. Chetki "oba"da esa mayda shoxli barglar va mitti lolalar almashib kelgan. So'zana bir qarashda Nurota va Buxoro kashtalarini eslatadi, ammo lolalarni o'rab turgan bargli halqalar, ip ranglari Samarqand lokal maktabini aks ettiradi.



Moskvadagi Sharq Davlat muzeyidagi Samarqand kashtasi. "chor chiroq"naqshli so'zana №№7857 III

Sharq Davlat muzeyida o'zbek amaliy bezak san'ati namunalari bilan birgalikda Samarqandga oid kashtalarlar ham o'rin olgan.[4,I-tom] 2 72 ta kashtali buyumlar ichida Samarqand va uning atrofidagi hududlarga oid kashtalar ham bor.



Samarqand kashtasi.Rossiyadagi Sharq Davlat muzeyi ashyosi №1256.III



SDMQdagi Samarqand kashtasi-bolinpo'sh.№4195-2

Ular "teg'cha", "chor chiroq", "ko'knor nusxa", "rafida" naqshli kashtalardir.[5, 472-b] Misol uchun 179 x1 52 o'lchamli so'zana markazda bitta kichik doira va to'rt tomonida nisbatan yirikorq doiralar-rozetkalar bor.[6, 343-b]



Rozetkalarini unchalik qalin bo'lmagan yashil bargli halqalar o'rab turibdi. Bizni diqqatimizni tortgan hodisa bu- bargli halqalarning yashil rangliligida. Mazkur kashta XIX asr oxiri va XX asr boshiga oid. Aynan shunday so'zanalari Samarqand Davlat muzey qo'riqxonasida ham uchraydi, ammo ularda yuqoridagi namunaning yashil rangi o'rniga qora randadir. Chunki bu kashta XX asrga oid bo'lib, bu davrga kelib so'zanalarda yangi uslub- qora rangning ko'p qo'llangani, mato yuzasi naqshlar bilan zich yopilgani, buyum mahobatlilik kasb etganini ko'rish mumkin.

Rossiya etnografiya muzeyida ham Samarqandga oid kashtalar saqlanadi. Bu yirik kashtali buyum-so'zana bo'lib, u 1880 yilga oid. Sakkizta asosiy lolalardan va yettita sal kichikroq chetlari parrali rozetkalardan iborat. Lolalar markazi to'q qizil, pushti, jigarrang iplar bilan gulni eslatadi. Qora nozik barglar va shoxlar chirmashib keltgan holda, Nurota, Buxoro kashtalarini eslatsa-da, ular qora rangda. Buxoro va Nurota kastalarida esa ular sarg'ish, yashil, havorangdir. Rozetkalar yonidan qora karnaysimon katta barg ham bor. Chetki obasi qora to'lqinsimon yo'l va yon ko'rinishli to'q qizil loladan tuzilgan. Ashyoda yirik lolalar aks ettirgan. Samarqand Davlat muzey qo'riqxonasida bunday ko'rinishli kashtalar juda kam.



Rossiya etnografiya muzeyida Samarqand kashtasi-so'zana. XIX-asr oxiriga oid, №4489-22 raqamli ashyo

Kandadagi to'qimachilik muzeyi kolleksiyasi to'plamlari ichida Urgut kashtasi –nimso'zana bor.[7,248-b]

Urgut kashtasi deganda biz "choynak" motivli kashtalarni ko'z oldimizga keltiramiz. Buyum XX asrning 50-60 yillariga xos bo'lib, markazda jigarran yirik doira va uniqalin qora ilonga o'xshash naqsh o'rab olgan. Doira markazi yorqin qizil rangda. Chetki obada ham qora, jigarrang, sariq, yorqin qizil ranglar ishlatilgan. Aslida XX asr boshida Samarqand shaxar markazida bu uslubdagi –so'zana, bolipo'shlar urfga kirdi. Keyinchalik Urgutda ham ko'plab shu uslubdagi nimso'zanalari tikildi. Samarqandda xozir ham shu uslubdagi kashtalar juda ko'p tikiladi. Bu uslubni olimlarimiz "Samarqandning tashrif qog'oziga aylagan" deya e'tirof qilgan.



Kandadagi to'qimachilik muzeyi kolleksiyasida Urgut kashtasi –nimso'zana. 1950-1960 yillar



SDMQdagi Samarqand kashtasi. №1972-2

Chexiyada saqlanayotgan Samarqandga oid uchta kashta buyumlari ham e'tiborlidir. [9,446-b] Ulardan biri Samarqand bolinpo'shi ko'k ipak matoga

ipak iplar bilan tikilgan 160x124 sm. [10, 385-b]



XX asr II-yarmi Urgut kashtasi. S. Rahmatullayeva ijodi. So'zna fragmenti.

Samarqand muzeyida bunday ko'rinishli kashtalar Urgut markaziga xosligi xujjatlarda aks etgan. [11, kp №1616] Urgutlik kashtadoz' Bibirajab Rasulova ham kashtalar uchun eskizlarida choynak naqshili tasvirlardan foydalangan. [12, kp №3346] Umuman olganda XX asr Samarqand markazi va Urgut tumalari yirik kashtalarida naqshlar bir-birini takrorlaydi.

Kompozitsiyasi markazlashgan beshta yirik doyrali rozetkadan va ularning bittasi markazda, qolganlari tepa va pastda ikkitadan joylashtirilgan. Makaziy doiraning ikki chetida shoxsimon qayrilgan shox bor. Shoxlar uchida gul bor. Rozetkalar ichi zich emas, ichma-ich yana rang-barang xalqalari bor. Tashqi xalqa bargli, ichkilari parrakli gullidir. Maydonning har joyida mitti "teg'cha" motivi bor. Chetki "oba"si nozik bo'lsa-da, oliti qirrali yulduzchali mitti gullar g'ajakli barg bilan takororiy joylashtirilgan.

Urgut kashtalarida naqshlar ramziy bo'lib, ular "qalampir" va "choynak" naqshlaridir. Samarqand muzeyida bunday ko'rinishli kashtalar juda ko'p. Shuni aytish mumkinki, Urgut kashtalarida "choynak" naqshi buyum vazifasidan kelib chiqib tasvirlangan. Masalan joynamozda-ibodatda poklik, dasturxonda esa mehmondo'stlik,

so'zanada- hayot ramzidir. So'zanada esa ba'zan rozetkalar orasida, ba'zan ko'z ilg'amas bir chetida joylashtirilgan. Urgu kashtasida "choynak" motivi Nurota va Buxoro so'zanalarida jonzotlarning, qushlarning tasviri joylashtirilgani kabidir.

Chexiyaning Praga shaxridagi Naprstek nomidagi milliy muzeyda yana bir Samarqand kashtasi-ro'yjo saqlanadi [13,140-b] (ИHB №A18407).

Oq matoga sakkizta lola qatorli joylashgan. Lolalar atrofi ovalsimon bargli zanjirlar bilan o'ralgan. Chetki obada "qaychi" naqshi kichkina lolalar bilan takororlanib kelgan. Markaziy lolalar to'q qizil va markazlari esa yorqin qizil rangda. Mazkur uslubdagi kashtalar SDMQ da juda ko'p, ammo zanjirli barglar ko'rinishi juda kam.



SDMQ Samarqand kashtasi. № 1520



Chexiyadagi Napresk nomidagi milliy muzeyda Samarqand kashtasi-ro'yjo saqlanadi (ИHB №A18407)

O'zbekiston madaniyati durdonalarining Italiyadagi to'plamlari va muzeylarida saqlanayotgan buyumlardan Milan madaniyatlar muzeyida Samarqand kashtasi mavjud va u XIX asr oxiriga oid so'zanadir. [14,446-b] So'zana ko'k shoyi matoga ipak iplar bilan tuikilgan. Naqshlari qatorli "sandiq nusxa" naqshidir. SDMQ da ham bunday so'znalar bor, ammo asos matosi va ip ranglari o'chgan.

Avstralyaning Pauerhaus muzeyida ham Nurato markaziga oid kashtali buyum saqlanadi. [15] Sarg'ish asosga



to'q qizil, pushti va oq ranglarda yo'rma usulida tikilgan Nurota an'naviy kashtasi gullagan chamanni eslatadi. Iplari tabiiy bo'yoqlarda bo'yalgan, juda bejirim va mahoratli tikilgan. Samarqand shaxar so'zanalaridagi kabi markaziy kompozitsiyali, ammo yirik doirali rozetkalar o'rniga gullagan shoxlar tasvirlangan. Samarqand kashtalarida bunday shox ko'rinishdagi "kunda", "resha" naqshlari qatorli kompozitsiyada joylangan.

Moskvada Nurato kashtalari to'vuz nuxali kashta saqlanadi. Markaziy maydoni sayoz naqshlar va to'rt tomonida to'rtta to'vuzning naqshi –serfarzadlik va farovonlik ramzidir.[16] AQSh, Germaniya, Kanadalik Merlin va Marshall Wulflarning kolleksiyalarida, muzeylarida saqlanadi. Nurota kashtalarining mazkur nuxxalarini Samarqand Davlat muzeyida ham uchratish mumkin.[17,18,19]



SDMQ dagi Samarqand kashtasi №5503-2



Rossiyadagi Marjoniy fondidagi Samarqand kashtasi. №IIM/T-276

AQSh (Gavaya shtatida Ganaluluning Shangri La maskani)da Doris Dyukning "Musulmon xalqlari muzeyi" muzeyida ham 15 ta o'zbek so'zanasi saqlanadi va ularning eng qadimiysi XVII Samarqand markaziga oiddir. Samarqand kashtasi –so'zna sarg'ish matoga to'q qizil, pistoqi, havornag, oq ipak iplar bilan tukilgan, katta va kichik "lola"lardan iborat namunadir. [20] SDMQda bunday rangdagi kashta juda kam. Bundagi pistoqi bargli naqsh bugungi kunda

Jomboylik L.Bultakova, M.Hamdamova ijodida qora rangdadir. Samarqand kashtalaridagi qora bargli xalqalar qadimda qora, pistoqi rang bo'lgan.

Yana bir Nurota so'zanasi to'q qizil matoga siyrak naqsh- "yak moh-u chor shox" naqshi tushirilgan. Chetki obasi noziq qurlangan bo'ib, qur ichi markaziy maydondagi naqshlarga monand- shox va gullar tasvirlangan. SDMQsida shunga o'xshash kashtalar ham bor. Kolleksiyasidagi o'zbek kashtalarining aksariyati Hindistondan olinganligi ma'lum va ular boburiylar davrida olib ketilganligi aytiladi. Bu kolleksiya Ganalulu san'at muzeyida, Metropolitan muzeyida, Sharq-u Ga'rb muzeyida ham namoyish qilingan.

Rossiya davlatining "Marjoniy" fondida XX asr o'rtalariga oid Samarqand so'zanasi bor. [21, 355-b] Uning matosi yorqin sariq rangda bo'lib, o'n ikkita yirik lola va oltita kichik loladan iborat lolachlar, asosiy lolalarni nozik qora bargli xalqalar o'rgan. Chetki obasi ham nozik. Biz mana shu kabi so'zanalarni Pstdarg'om, Urgut va Chela kashtalarida ko'rgan edik.

Ermitaj muzeyida ham Samarqand kashtalaridan yirik so'zanalar namoiyish qilingan. [22] Ular asosan XX asr boshiga va II-yarmiga oiddir. Oq fonga 12 ta "oy" timsolli rozetka tartib bilan joylangan. Malina rangli rozetkalar qora bargli xalqa bilan o'ralgan. Chetki "oba" qismi o'rtacha qalinlikda, to'g'ri yol ichiga mayda lolalar va mitti bargli chirmovuqsimon naqsh takroriy tasvirlangan. Samarqand Davlat muzeyida bu kabi kashtalar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Ermitajda yana bir so'zana 6 "oy" tasvirli aynan yuqoridagi uslubli so'zana bor. Buyumning ikki chetining o'rtarg'ida choynik tasviri bor va bu Urgut markaziga xos. (Chunki Samarqand shaxri

so'zanalarida choynak obrazi yo'q) Choyakning qopqoq qismi tikilgan, qolgan joyi qoldirilgan. Buyum chinda hayol usulida tikilgan va biz Urgutning "G'os" qishlog'ida yashab o'tgan Sabohat Raxmatullayevaning xonadoniga tashkil qilgan ekspeditsiyamiz vaqtida ko'rgan so'zanaga bilan judayam o'xshash. Yana bir namuna XX asrning boshiga oid so'zana bo'lib, "chor chiroq", "teg'cha" naqshli va rang-barang gullari bor so'zanadir.

Mazkur tahlillardan shuni aytish mumkinki, Dunyo muzeylari va to'plamlarida Samarqand kashtasi bejirim tikilishi, naqshlari, ranglari bilan alohida ahamiyatga ega. Samarqand kashtalarining katta qismi bugun Samarqand Davlat muzey qo'riqxonasidada saqlanar ekan ularni nodir ashyolar qatoriga kiritish mumkin. XX asr namunalari SDMQ da saqlanar ekan XXI asrda Samarqand mahalliy maktabini davom ettirayotgan kashtado'zlar an'anani davom ettirayaptimi? Bugun "Hunarmandlar" uyushmasi Samarqand viloyati bo'limida jami 87 nafar hunarmand kashtado'zlik bilan shug'ullanib keladi. Ulardan sanoqliginasi an'anani davom ettirmoqda. Masalan Sh.G'aniyeva, M.Hamdama, K.To'xtayeva, L.Bultakovalardir. Shaxsiy tashrif paytidagi intervyularimizda ular qadimiy Samarqand kashtalari nusxalarini chuqur bilmasliklarini ta'kidlaydi. Qolaversa bugun jahon bozorida tabiiy ashyo (ipak ashyosi va tabiiy rang)ga bo'lgan talabdan ham kelib chiqib, ipak mato va iplarning qimmatligi muammosi mavjud. Shunga qaramasdan Samarqandlik kashtado'z hunarmandlar juda faol. Ular madaniy tadbirlarda, turli yarmarka va ko'rgazmalarda, festivallarda ishtirok etmoqda. Ularning faoliyatida yildan-yilga buyum turlari va sonini oshib bogan.

Samarqandlik dizaynerlardan L.Ladik ijodida ular birmuncha qadimiydir. Chunki L.Ladik o'z liboslari kolleksiyalarida qadimiy naqshli kashtalardan foydalanadi.

Urgutlik M Hamdamova 2010 yilda 8 turdagi 96 dona, 2011 yilda 10 turdagi 120 dona, 2012 yilda 13 turdagi 156 dona jami qariyb 47 million so'mlik mahsulot tayyorlagan va 14 millon sofa foyda olgan. [23] 2010, 2011, 2012 - yillarda Toshkent shaxrida "Bazar-Art" ko'rgazma-yarmarkasida; "Tashabbus" ko'rik tanlovi, Istiqlol tufayli e'zoz va e'tibor topgan hunarmandlar" ko'rgazmasida, "Mustaqil yurt hunarmandlari" ko'rgazma-savdosida ishtirok etgan.

Jomboylik L. Bultakova 13 yildan beri kashtado'zlik qiladi. U 12 turdagi kashta buyumlarni va milliy qo'g'irchoqlarni tikadi. 2016 - yildan beri "Tashabbus" ko'rik-tanlovida ishtirok etadi. L. Bo'ltakova har bir mahsulotini ishlab chiqarishda millat kelajagi, yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratadi. Ahamiyatlisi, ishbilalarmonlik an'anasiga hamisha sodiq. 2013- yildan buyon Samarqand viloyati hunarmandlar uyushmasi a'zosi. Respublika miqyosidagi ko'rgazmalarda qatnashib kelgan. Kashtado'zlik bilan birga milliy qo'g'irchoqlarni ham yasaydi.



2023-yil 21-23 sentyabr kunlari Qo'qonda bo'lib o'tagan II- Xalqaro hunarmandchilik festivalida kattaqo'rgonlik G.Saparova(14.06.1978), F.Saparova (14.07.2005) qo'shrabotlik O.Do'stova ishtirok etganlar. 2024 yil 24-yanvarda Xitoyda respublikasida O'zbekiston tasviri va amaliy san'at ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Unda 100 dan ortiq amaliy bezak san'ati asarlari namoyish qilindi. Ular orasidan Samarqand va Buxoro hunarmandlarning kashtachiligining bir necha asrlik an'analarga asoslangan zamonaviy nodir asarlari namoyish qilindi. [24]

2023-yil Qo'qonda II xalqaro festival tashkil qilangani, unda Samarqanddan 61 nafar hunarmandlar ishtirok etgani: kulollar, o'ymakor ustalar, zargarlar, sangtaroshlar, matoga gul bosuvchilar ishtirok etdi. Jami 700 nafar Respublikadan, 200 nafari Xorijiy hunarmandlar ishtirok etdilar. Shu festival boshida Rishtonda Xalqaro hunarmandchilik muzeyi ochildi. Samarqandlik kashtado'zlar M. Hamdamova, L. Bultakova, L. G'aniyeva (batik)lar ishtirok etdilar. Samarqanddagi tarixiy obidalarda-“Ochiq osmon ostidagi muzey”ining har birida hunarmandchilik rastalari bor. Yaqin yillarda “Boqiy shaxar” nomini olgan maskanda ham Samarqand san'atini, madaniyatini, tarixini ko'rsatuvchi ustaxona, do'konlar tashkil qilingan. Mazkur maskanga ko'plab xorijiy va mahalliy sayyohlar tashrif qilishadi.

2023-yilda Toshkent shahrining UzExpoCenter 3-pavilonida “CRAFT FAIR UZBEKISTAN 2023” II xalqaro hunarmandchilik mahsulotlari va texnologiyalari yarmarkasida ham L. Ganiyeva, M. Hamdamovalar ishtirok etdilar.



2023-yil 17-18 avgust kunlari Shaxrisabzda xaqlaro kashtachilik festivali bo'lib o'tdi. Festival shaxarning oqsaroyi maskani hovlisida tashkil qilingan bo'lib, Afg'oniston, Qozqiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, hamda O'zbekistonning Buxoro, Shaxrisabz, Jizzax kabi hududlardan kashtado'zlar o'z ijodiy ishlari bilan ishtirok etdilar. Samarqarddan Urgutlik Mavluda Hamdamova kichik o'lchamli nimso'zanasi, quroq va so'zanananing aralashigan ko'rinishli dasturxonini, kashtali libos-abaya kabi buyumlari bilan ishtirok etdi. Ijodida so'zana rang jihatidan uslubbiy o'zgarishlar kuzatish mumkin.

2022-yilda dizayner L. Ladik Rossiya Federatsiyasida o'tkazilgan “Уникальная Россия” ko'zgazma forumida o'zining “Ochiq osmon ostida” nomli ko'rgazmasini tashkil qildi. Ko'rgazma kolleksiyasida kashtali buyumlar “etno” yo'nalishida qo'llangan. Afrosiyob devoriy tasvirlariga oid mavzuli tasvirlar naboyka va kashtalardan iborat.[25] Ishtirokchilarda Samarqandga nisbatan katta qiziqish paydo bo'ldi.

Tahlillar va izlanishlardan Samarqand kashtalarida an'anani saqlash va davom ettirishni yuzasidan quyidagi takliflarni beramiz.

-Hunarmandlar uchun mahlliy maktabga xos naqshlar bilan tanishtirish yuzasidan seminar-tereniglar tashlik qilish;

-Ipakni tabiiy rang bilan bo'yash texnologiyasini o'rgatishda mahorat darslari tashkil qilish;

-Ipak xom ashyosining ishlab chiqarilishini ta'minlashdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Сухарева О.А. Сузани. Среднеазиатская декоративная вышивка.- Москва: Восточная литература. Серия основана в 1969 году, 2006. -С. 40 -225 ст
2. Исмаилова Ж ва бошқ. Ипакга битилган тарих//SAN’AT –Т,2020./2.
3. Абдухликов Ф.Ф в.б. Ўзбекистон маданий мероси. .Т: 2020. I-том; - В.343, –№1104 III, 367-472 б, №7857 -III б, II-том.-В.248, ashyo raqami №4489-22, IV-том .-В.89-480 б, XVI-том, -466 б, -В.385.-488 б., XXXII-том, IX-том.-В.355, ashyo raqami ИМ/Т№276
4. SDMҚ ilmiy passporti №1616
5. SDMҚ arxivi.Chizmakashlar eskichi.КР №3346
6. Абдухликов Ф.Ф в.б. Чехия Республикаси тўпламлари.Т:Silk road mediya.2020 XVI-том. -В.140-400 б
7. Абдухликов Ф.Ф в.б. О’zbekiston madaniy merosi jahon to’plamlarida.Т: 2020.
8. Премьера: Эрмитаж - Старая Деревня. Восточный зал.
9. Samarqand viloyati “Hunarmandlar” uyushmasi ma’lumoti. 2023 yil 27 iyul
10. Махкамova, G. A. (2024). О ‘ZBEKISTON MADANIYATI TARIXI DAVLAT MUZEYIDAGI KASHTA KOLLEKTSIYASINI YARATILISHI VA ILMIIY-BADIIY AHAMIYATI. Oriental Art and Culture, 5(3), 285-295.

НАРОДНЫЕ ИГРЫ — СОКРОВИЩНИЦА НАШЕГО КУЛЬТУРНОГО
БОГАТСТВА

FOLK GAMES ARE A TREASURE OF OUR CULTURAL WEALTH

Хомидова Нигора
Навоийский государственный
горно-технологический университет
Доктор философии (PhD) по филологическим наукам,
исполняющая обязанности доцента кафедры
«Узбекский и иностранные языки»

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы развития национальной духовной культуры при изучении истории узбекских народных игр, использование связанных с ними названий, а также нормы применения свойственных им правил. Узбекские народные игры отражают традиции, восходящие к этнической истории, социальным и политическим отношениям, определенным элементам идеологии и верований, свойственным каждому историческому периоду, моральным и эстетическим нормам, правилам игры, нормам именованию, которые отличают их друг от друга.

Annotation: This article examines the stages of development of national spiritual culture in the study of the history of Uzbek folk games, the use of names associated with them, as well as the norms for applying the rules inherent in them. Uzbek folk games reflect traditions that go back to ethnic history, social and political relations, certain elements of ideology and beliefs inherent in each historical period, moral and aesthetic norms, rules of the game, and naming norms that distinguish them from each other.

Ключевые слова: узбекские народные игры, именованье, переименование, национальность, культура, классификация, развитие, система образования, идеология, события.

Key words: Uzbek folk games, naming, renaming, nationality, culture, classification, development, education system, ideology, events.

Одним из средств формирования духовности, ценностей, традиций, чести и культуры народа являются его национальные игры. У каждой нации есть культурное наследие, доставшееся ей от прошлых поколений, и в сокровищницу ее культурного богатства входят народные игры. Причина в том, что историческое развитие человечества свидетельствует о том, что сами представители народа

мыслили и создавали их, исходя из социальных условий, требований внешней и внутренней среды. Потому что обучение детей посредством народных игр и воспитание их всесторонне развитыми личностями на самом деле является одним из «...счастливых шагов к счастливой жизни» [1].

Народные игры не являются необычным явлением по своему



возникновению, развитию и наименованию, а скорее деятельностью, которая образно, в определенной степени точно, правдоподобно и действенно отражает жизнь народа, выражая в то же время гармонию с законами общественного развития.

Поэтому народные игры — это уникальный жанр народного творчества, имеющий многовековую историю. Они наглядно отражают общественные события на том или ином этапе развития общества. Известно, что и другие виды труда и деятельности, в том числе и народные игры, отражающие национальность, также имеют общественный характер. Они возникли на историческом этапе, заложившем основу для возникновения и развития культуры человеческого труда. Игры являются продуктом общественного развития на уровне искусства, сформированным человеческим разумом. Доказательство этого следующее: В фильме «Мафтунингман» парикмахер по имени Алиджон пел песню «Kaminaning nomlari...» и исполнял танец, который привлекал людей в его парикмахерскую [2].

Следует также учитывать, что узбекские народные игры и по сей день рассматриваются с разных точек зрения и научно-теоретических концепций, как комплекс истории и традиций, спортивных игр, физического воспитания и физической культуры, один из факторов воспитания подрастающего поколения [3].

Целесообразно классифицировать народные национальные игры по их содержанию и сущности следующим образом:

- 1) игры, связанные с повседневной жизнью;
- 2) игры, связанные с физическим воспитанием;
- 3) игры, связанные с интеллектуальным развитием;
- 4) игры, связанные с праздничным настроением;
- 5) игры, связанные с празднованиями;
- 6) игры, связанные с церемониями;
- 7) специальные танцевальные игры;
- 8) игры в виде площадных представлений;
- 9) игры в форме соревнования;
- 10) игры, связанные с временами года.

Каждый исторический период в жизни народа вносил свой вклад в художественное освоение окружающего мира и его отражение в форме и содержании национальных игр народа. Искусство стремится наиболее полно и наглядно отразить многогранные явления общественной жизни с точки зрения конкретного исторического периода, в котором оно существует, и определенным образом обобщает достижения науки, культуры, политики, этики, экономики. Для того чтобы увидеть, как в играх отражаются подобные достижения, необходимо провести специальную классификацию узбекских народных игр на определенных научных основаниях. Их можно классифицировать в зависимости от возраста и пола исполнителей следующим образом:

1. Игры, в которых участвуют мужчины старшего возраста.
2. Игры в исполнении пожилых женщин.
3. Игры, в которых участвуют мужчины среднего возраста.



4. Игры, исполняемые женщинами среднего возраста.

5. Игры, в которых участвуют мужчины в возрасте от 18 до 30 лет.

6. Игры, в которых участвуют женщины в возрасте от 18 до 30 лет.

7. Игры, в которые играют мальчики и подростки в возрасте от 12 до 18 лет.

8. Игры, в которых участвуют девочки в возрасте от 12 до 18 лет.

9. Игры в исполнении мальчиков 7-12 лет.

10. Игры в исполнении девочек 7-12 лет.

11. Игры, в которые играют мальчики в возрасте от 3 до 7 лет.

12. Игры в исполнении девочек 3-7 лет.

Из этой классификации видно, что количество и названия узбекских национальных игр, естественно, разнообразны. На ранних этапах развития человеческого общества люди использовали народные игры в образовательных целях и занимались производительным трудом.

Содержание, сущность и характер народных игр вытекают из социально-экономических условий реальной и горькой жизни, языковых и психологических особенностей развивающихся народов. Содержание и суть таких игр, то есть их правила и названия, формировались в соответствии с целями и задачами образовательной системы на момент их создания, а также на эту ситуацию влияли направленность общественной жизни данного народа, его идеология, индивидуальная неповторимость его образа жизни.

Мы знаем, что в процессе исторического развития при рассмотрении ряда вопросов, связанных с постепенным развитием

узбекских народных национальных игр и использованием их в воспитательных целях, необходимо учитывать их специфические особенности. А теперь давайте поговорим о шахматах — одной из народных игр. Считается одной из ментальных, психологических игр, созданных в основном на Востоке, точнее, в Индии. Обратите внимание, Амир Темура играл в шахматы с лучшим шахматистом каждый раз, когда его войска вступали в бой. А также суть и смысл этой игры, созданной у нас, то есть на Востоке, в Европе не понимали, поэтому наши солдаты, попавшие в плен к немцам, на допросах и пытках могли играть в воображаемые шахматы, обосновывая свой вывод о своей невинности. В результате немецкие офицеры вынуждены были освободить нескольких заключенных. Конечно, образовательное воздействие этой игры на людей как национальной игры и ее воздействие на обыденную реальность — это две разные вещи.

Не следует забывать, что народные игры были созданы народом и образно отражают события и происшествия повседневной жизни людей. Они воплощали свои жизненные впечатления, наблюдения, переживания и чувства в содержании игр, включающих в себя как речевые, так и музыкальные и танцевальные формы, и стали средством обучения и воспитания в комплексном плане. Например, характерной чертой воспитания детей в первобытнообщинном строе было знакомство их с обычаями, традициями, историей племени, а также с народным устным творчеством: легендами, песнями, танцами.



Вот почему в первобытном обществе были широко распространены празднично-религиозные обряды, называвшиеся посвящением юношей в ряды взрослых. Они представляли собой своеобразные игры и состязания, содержание которых основывалось на трудовой деятельности, родовых обычаях, традициях, жанрах устного народного творчества. В таких играх и состязаниях юноши должны были продемонстрировать свое умение искусно владеть оружием, соблюдать религиозные обычаи в благоприятных ситуациях и знать священные традиции своих племен. В комплекс народных национальных игр входят также праздники, торжества и традиционные обряды. Во время таких игр и церемоний также исполнялись танцы, в которых первобытные люди выражали события своей жизни, свои успехи и неудачи, свои радости и печали. Вот почему тот факт, что верблюжьей бега арабов, которыми руководят люди, для нас являются обычным событием, а для арабов — это и игра, и праздник, который показывает важность и влияние народных игр.

Естественно, что в древние времена охота первобытных людей на диких животных и их попытки приручить их создали у них потребность в создании и творческом изображении сцен охоты.

Вот почему известный ученый-педагог Д.Ю. Эльконин, изучая истоки игр и искусства, пришел к выводу, что «первобытные люди выражали в играх события охоты, войны и других серьезных занятий». Был сделан вывод, что разыгрывание неудач на охоте в игровой форме помогло им в некоторой степени выявить ошибки,

которые они допустили во время охоты, и причины своих неудач.

С развитием общества, непрерывным развитием его производительных сил и совершенствованием орудий труда произошло то, что на последних стадиях первобытно-коллективного строя дети уже не могли пользоваться этими орудиями в обычной жизни и производительном труде, как прежде, поэтому стали создаваться новые средства игры. Поэтому начало изготовления орудий труда, напоминающих детские игрушки, в какой-то мере является одним из процессов, свойственных тому историческому периоду.

Возможность того, что игрушки, как средство детской игры, могли возникнуть именно таким образом, подтверждается созданием тюрками камней Каюр. По мнению Е. А. Аркина, они являются «вечными игрушками» для народа, воспитательным и образовательным продуктом исторического развития. Также различные орудия человеческого труда и предметы культа в священных местах в определенной степени являются выражением исторического развития в формах игр, игр-ритуалов и игр-празднеств. Поэтому закономерно, что развитие игр, объединяющих в себе духовность и просвещенность народа и воплощающих национальную идеологию, а также их специфическое наименование и правила, со времен первобытного коллективного строя было не только «религиозной экстравагантностью», но и стремлением понять и осмыслить происходящие вокруг события, закрепить навыки, умения и знания о них, научиться «творить по образу

существующей действительности и по подражанию природе». Чтобы понять это, необходимо знать национальность народа.

Все это свидетельствует о том, что у каждого народа есть свои национальные игры, которые сложились на основе народных традиций, культуры и особенностей быта народов. Народные игры являются одним из проявлений духовной культуры.

В играх в принципах отражены также традиции, восходящие к этнической истории, социальным и политическим отношениям, определенные элементы идеологии и верований, характерные для каждого исторического периода, моральные и эстетические нормы, правила игры, а также условности наименования, отличающие их друг от

друга. Народные игры отражают этнические, эстетические и национально-культурные особенности народов нашей страны, характер и традиции взрослых, усвоенные в жизненных уроках, трудовых процессах, географических условиях региона проживания. Соответственно, содержание, сущность и названия узбекских народных игр следует рассматривать как один из источников изучения нравственно-эстетической истории, культуры и взаимоотношений народа с другими народами. Вот почему при изучении истории узбекских народных игр, использования их названий, а также норм применения свойственных им правил большое значение имеет освещение этапов развития духовной культуры народа.



ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Зиёвуддин Раҳим. Бахтли ҳаёт сари. Т., Шарқ, 2018. 218-222-бетлар.
2. Исомиддинов З. «Каминанинг номлари...» // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2012 йил 29 июнь. 26(4165)-сон. 3-бет.
3. Усмонхўжаев Т.С, Хўжаев.Ф. Ҳаракатли ўйинлар. Тошкент, Ўқитувчи, 1992. 10-24-бетлар.
4. Насриддинов Ф.Н. Ўзбек халқ миллий ўйинлари. Тошкент. 1993. 3-27-бетлар.
5. Нигманов Б.Б, Хўжаев Ф., Раҳимкулов К.Д. Спорт ўйинлари ва уни ўқитиш методикаси. Тошкент, Илм-Зиё, 2011. 3-8-бетлар.
6. Эназаров Т.Ж. Ном қўйиш ҳам санъат // Нутқ маданияти масалалари. Илмий тўплам. Т., 1993. 227-228-бетлар.
7. Эназаров Т.Ж. “Номшунослик масалалари”. Т., 2010. 3-39-бетлар.
8. Эназаров Т.Ж. Номни тўғри қўллаш – бу одоб одоблилик рамзи // География: тарих, назария, методлар, амалиёт. Т., 2010. 94-96-бетлар.
9. Эназаров Т.Ж. ва бошқалар. “Ўзбек номшунослиги” (монография ҳамкорликда). Тошкент, Наврўз, 2015. 3-73-бетлар.



MILLIY OHANGLAR VA YOSHLAR TARBIYASI НАЦИОНАЛЬНАЯ МЕЛОДИЯ И ОБРАЗОВАНИЕ МОЛОДЕЖИ NATIONAL MELODY AND YOUTH EDUCATION

Arzibayeva Zuxra

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

San'atshunoslik va madaniyatshunoslik

kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Milliy ohanglar, har bir xalqning madaniyati va an'alarini ifodalaydigan muhim unsurlardir. Ular nafaqat musiqa asarlari, balki bir xalqning ruhiyatini, tarixini va qadriyatlarini aks ettiruvchi vositalardir. Yoshlar tarbiyasida milliy ohanglarning o'rni beqiyosdir. Ular orqali yosh avlod o'z xalqining madaniy merosi bilan tanishib, o'zligini anglaydilar. Milliy musiqalar, raqslar va qo'shiqlar, yoshlarni tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada milliy ohanglar va ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: Национальные мелодии являются важными элементами, выражающими культуру и традиции каждого народа. Это не только музыкальные произведения, но и инструменты, отражающие дух, историю и ценности нации. Роль национальных мелодий в воспитании молодежи бесподобна. Через них молодое поколение знакомится с культурным наследием своего народа и осознает свою самобытность. Национальная музыка, танцы и песни служат важным средством воспитания молодежи. В данной статье представлена информация о национальных мелодиях, их роли и значении в воспитании молодежи.

Annotation: National melodies are important elements that express the culture and traditions of every nation. They are not only musical works, but also tools that reflect the spirit, history and values of a nation. The role of national melodies in youth education is incomparable. Through them, the young generation gets acquainted with the cultural heritage of their people and realizes their identity. National music, dances and songs serve as an important tool in educating young people. This article provides information about national melodies and their role and importance in youth education.

Kalit so'zlar: milliy ohanglar, yoshlar, madaniyat, musiqa, urf-odatlar, an'alar, estetik tafakkur, raqslar, qo'shiqlar.

Ключевые слова: национальные мелодии, молодежь, культура, музыка, обычаи, традиции, эстетическое мышление, танцы, песни.

Key words: national melodies, youth, culture, music, customs, traditions, aesthetic thinking, dances, songs.

Milliy ohanglar bu, xalqning bir millatning o'ziga xos musiqiy madaniy merosi, urf-odatlari va tarixini an'analari, uslublari va ifoda vositalari aks ettiruvchi muhim san'at shaklidir. Har mavjud bo'lib, ular o'z xalqining ruhini,



his-tuyg'ularini va qadriyatlarini ifodalaydi. Milliy ohanglar, nafaqat musiqiy asar sifatida, balki ijtimoiy va madaniy hayotning ajralmas qismi sifatida ham ahamiyatga ega. Milliy ohanglar, avvalo, xalqning tarixiy tajribasini aks ettiradi. Ular asrlar davomida avloddan avlodga o'tib, xalqning qiyofasini, urf-odatlarini va qadriyatlarini saqlab keladi. Musiqa orqali xalq o'zining dardini, quvonchini, sevgisini va umidini ifodalaydi. Bu ohanglar, odatda, xalqning hayotida muhim voqealar, marosimlar va bayramlar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, to'y marosimlarida, tug'ilish va o'limda, bahor bayramlarida milliy ohanglar ijro etiladi, bu esa ularning ahamiyatini yanada oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yoshlar tarbiyasida milliy ohanglarning ahamiyati bir necha jihatdan ko'rinadi. Milliy musiqalar orqali yoshlar o'z xalqining madaniyati bilan tanishadilar. Bu esa ularni o'z millatiga nisbatan g'ururlanish hissini uyg'otadi. Milliy musiqalar, o'z ichiga xalqning urf-odatlarini, an'analarini va tarixiy voqealarini oladi. Yoshlar bu musiqalarni tinglaganlarida, o'z xalqining boy tarixi va madaniyatini his qiladilar. Milliy musiqalar, shuningdek, yoshlarni o'z his-tuyg'ularini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lishlariga yordam beradi. Musiqa, insonning ichki dunyosini yorituvchi kuchdir va u orqali yoshlar o'zlarini ifoda etishning yangi yo'llarini topadilar. Milliy ohanglar yoshlarning estetik tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa, san'atning bir turi sifatida, insonning estetik idrokini shakllantiradi. Yoshlar milliy musiqalarni

tinglaganlarida, ular nafaqat quvonch va zavq hosil qiladilar, balki o'z his-tuyg'ularini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Yoshlar o'z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun milliy musiqalarni o'rganishlari, ularni ijro etishlari va o'z ijodiy asarlarini yaratishlari zarur. Milliy musiqalar, shuningdek, yoshlarni ijodkorlikka undaydi va ularning tasavvurlarini kengaytiradi [1, 12-b.].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Milliy ohanglar yoshlarni birlashtiruvchi kuchdir. Musiqa, har qanday millatning birligini ta'minlaydi. Yoshlar birgalikda milliy qo'shiqlarni kuylash, raqsga tushish yoki musiqiy tadbirlarda ishtirok etish orqali bir-birlariga yaqinlashadilar. Bu esa ularning o'zaro munosabatlarini mustahkamlaydi va do'stlik, hamjihatlik kabi qadriyatlarni rivojlantiradi. Musiqa orqali yoshlar o'zaro muloqot qilish, bir-birlarini tushunish va birgalikda vaqt o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Milliy musiqalar, shuningdek, yoshlarni birlashtiruvchi tadbirlar, festivallar va konsertlar o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, milliy ohanglar orqali yoshlar tarbiyasida axloqiy qadriyatlarni ham shakllantirish mumkin. Ko'plab milliy qo'shiqlarda sevgi, vatanparvarlik, do'stlik, halollik kabi axloqiy tushunchalar aks etadi. Yoshlar bu musiqalarni tinglaganlarida, ularning ichki dunyosida axloqiy me'yorlar va qadriyatlar shakllanadi. Bu esa ularning shaxs sifatida yetuk bo'lishiga yordam beradi. Milliy musiqalar, yoshlarning axloqiy tarbiyasida muhim rol o'ynaydi va ularni yaxshi inson bo'lishga undaydi. Bundan

tashqari, milliy ohanglar yoshlarning sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda ham muhimdir. Musiqa va raqs, jismoniy faoliyatni ragʻbatlantiradi, yoshlarni faol hayot kechirishga undaydi. Milliy raqslar, oʻz navbatida, jismoniy tarbiya va sogʻliqni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Yoshlar raqsga tushish orqali nafaqat jismoniy holatini yaxshilaydi, balki ruhiy holatini ham koʻtaradi. Musiqa va raqs, yoshlarni sogʻlom turmush tarziga undaydi va ularning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlashda yordam beradi [2, 20-b.].

Yoshlar tarbiyasida milliy ohanglarning ahamiyatini yanada oshirish uchun, madaniyat va sanʼat sohasida turli tadbirlar oʻtkazish zarur. Milliy musiqalar, raqslar va sanʼat asarlarini targʻib qilish, yoshlarni ularni oʻrganishga va ularda ishtirok etishga undaydi. Bu esa ularning madaniy bilimlarini oshirishga va oʻz xalqining merosini qadrlashga yordam beradi. Madaniy tadbirlar, festivallar va konsertlar orqali yoshlar milliy musiqalarni oʻrganish va ularda ishtirok etish imkoniyatiga ega boʻlishadi [3, 30-b.].

Shuningdek, taʼlim muassasalarida milliy musiqalar va sanʼatni oʻqitish dasturlarini kengaytirish lozim. Yoshlar uchun milliy musiqalar darslari, sanʼat studiyalari va ijodiy toʻgaraklar tashkil etish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu orqali yoshlar oʻzlarining isteʼdodlarini namoyish etish imkoniyatiga ega boʻlishadi va oʻz xalqining madaniyatiga hissa qoʻshishadi. Taʼlim muassasalarida milliy musiqalarni oʻqitish, yoshlar uchun oʻz xalqining madaniyatini oʻrganish va uni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi [4, 45-b.].

Milliy ohanglar va yoshlar tarbiyasi oʻrtasidagi bogʻliqlikni yanada kuchaytirish uchun, ota-onalar va jamiyat ham muhim rol oʻynaydi. Ota-onalar, bolalariga milliy musiqalarni tinglashni va oʻrganishni ragʻbatlantirishlari kerak. Jamiyat esa, milliy tadbirlar va festivallarni oʻtkazish orqali yoshlarni milliy madaniyatga jalb etishi zarur. Bu orqali yoshlar oʻz xalqining madaniyatiga nisbatan yanada mehribon boʻlishadi va uni saqlashga intilishadi. Milliy musiqalar va yoshlarni tarbiyalash jarayonida, yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga eʼtibor qaratish zarur. Yoshlar oʻz ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli musiqiy asboblarni oʻrganishlari, qoʻshiqlar yozishlari va ijro etishlari mumkin. Milliy musiqalar, yoshlarni ijodkorlikka undaydi va ularning tasavvurlarini kengaytiradi. Yoshlar oʻz ijodiy asarlarini yaratish orqali, oʻz xalqining madaniyatiga hissa qoʻshishlari mumkin [5, 10-b.]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, milliy ohanglar yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Ular orqali yoshlar oʻz xalqining madaniyatini oʻrganadilar, estetik tafakkurlarini rivojlantiradilar, birlari bilan yaqinlashadilar va axloqiy qadriyatlarni shakllantiradilar. Milliy ohanglar, shuningdek, yoshlarni sogʻlom turmush tarziga undaydi va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuning uchun, milliy musiqalarni targʻib qilish va yoshlarni ularni oʻrganishga jalb etish, har birimizning burchimizdir. Bu orqali biz kelajak avlodni oʻz xalqining madaniyati va qadriyatlariga hurmat bilan yetkazishimiz mumkin. Milliy musiqalar va yoshlar tarbiyasining ahamiyatini tushunish, bizni oʻz xalqimizning



madaniyatini saqlashga va rivojlantirishga undaydi. Yoshlar, o'z xalqining madaniy merosini o'rganish orqali, kelajakda bu merosni saqlab qolish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydilar. Milliy ohanglar, barchamizni birlashtiruvchi kuch bo'lib, bizni o'z xalqimizga, uning tarixiga va madaniyatiga bog'laydi. Shuning uchun, milliy musiqalar va yoshlar tarbiyasi

o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirish, bizning kelajagimiz uchun muhimdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayev O. "Milliy musiqaning tarbiyaviy ahamiyati" // O‘zbekiston madaniyati. – 2020. – №. 5. – B. 12-15.
2. Qodirov M. "Yoshlar tarbiyasida milliy an’analar" // Yoshlar va jamiyat. – 2021. – №. 3. – B. 20-24.
3. Xudoyberdiyev A. "Musiqqa san’ati va yosh avlod tarbiyasi" // O‘zbekiston san’ati. – 2022. – №. 7. – B. 30-34.
4. Tursunov S. "Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" // Tarbiya va ta’lim. – 2019. – №. 8. – B. 45-48.
5. Mirzaeva D. "Milliy musiqaning yoshlar tarbiyasidagi roli" // Yoshlar va madaniyat. – 2023. – №. 2. – B. 10-14.
6. Karimov R. "O‘zbek musiqasi va uning tarbiyaviy imkoniyatlari" // Madaniyat va jamiyat. – 2020. – №. 6. – B. 22-26.
7. Rahmonov E. "Milliy musiqaning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni" // O‘zbekiston ta’limi. – 2021. – №. 4. – B. 18-21.
8. Sulstonov U. "Musiqqa va yoshlar: tarbiyaning yangi yo‘nalishlari" // O‘zbek musiqasi. – 2022. – №. 9. – B. 15-19.

**STUDENTTIN DAP SAZ ASBABINDA DORETIWSHILIK QABILETIN
RAWAJLANDIRIWDA BASLANGISH SHINIGIWLAR HAM NOTALASTIRIW
SISTEMASI**

Gulmanov Ibadulla

O'zbekstan mamleketlik konservatoriyasi

Nokis filialini ag' o'qituvshisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada doira cholg'u asbobida talabalarni o'qitishning boshlang'ich xatti-harakatlari bo'yicha yozilgan bo'lib, bugungi kunda tahsil olayotgan talabalar uchun dars mashg'ulotlarida ham nazariy, ham amaliy ko'nikmalar hosil qilishida qo'l kelishi mumkin.*

Аннотация: *В этой статье описаны основные этапы обучения студентов игре на доира инструменте, и ее можно использовать для развития как теоретических, так и практических навыков на уроках у студентов, обучающихся сегодня.*

Annotation: *This article is written on the basic steps of teaching students to play a doira instrument, and it can be used to develop both theoretical and practical skills in the classroom for students studying today.*

Kalit so'zlar: *Madaniyat, musiqa, san'at, cholg'u asbobi, orkestr, qardosh xalqlar, konsert, xalq cholg'ulari, milliy cholg'u asboblari.*

Ключевые слова: *Культура, музыка, искусство, музыкальный инструмент, оркестр, братские народы, концерт, народные инструменты, национальные музыкальные инструменты.*

Key words: *Culture, music, art, musical instrument, orchestra, sister nations, concert, folk instruments, national musical instruments.*

Kirisiw. Búgingi kúnde dáp usilların qunt penen úyreniw, ózlestiriw dáp kórkem ónerin joqarı dárejede rawajlandırıwdıń áhmiyetli tiykarı esaplanadı. Sebebi usıllar bolajaq jas artistler - dáp ásbabı atqarıwshıların teoriyalıq, ámeliy hám qaniygelik tárepten qurallandıraw faktori bolıp tabıladı. Bizge belgili, dáp hám barlıq urma saz ásbaplar atqarıwshılıǵı payda bolıwı hám gúlleniwi processinde Oraylıq Aziya kóleminde hár bir oaziste ayrıqsha jergilikli atqarıwshılıq usılları qalıplesken. Bul usıllarda hár bir oazistiń

ayrıqsha qásiyetleri, áhmiyet kásip etiwshi tárepleri eli óz mánisin joǵaltǵan emes. Biraq barlıq maǵlıwmatlarda dáp jeke atqarıwshılıǵı haqqında birdey ayılmaǵan. Biraq dáp ásbabınıń barlıq atqarıwshılıq qásiyetleri jeke atqarıwshılıqta, oyınǵa xor bolıw processinde kórinedi.

Tiykargı bólim. Oqıwshılardıń dápte atqarıwshılıq sheberligin bir qalıpte jaqsı rawajlandıraw ushın oqıtıwshı olardıń múmkinshiliklerine qaray, kerekli tapsırmalar berip barıwı kerek. Bul tapsırmalardıń orınlanıwın oqıtıwshı hár

bir sabaq shınıǵıwları dawamında qadaǵalap turıwı maqsetke muwapıq.

Oqıwshılardıń atqarıwshılıq qábileti dárejeleri hár túrli bolǵanlıǵı sebepli, olardıń hár birine ayrıqsha joba dúzilgeni maqul. Baslanǵısh klass ushın jeke joba pútin, yarım, shereklik nota hám pauzalardan, ápiwayı ólshemlerde jaratılǵan shınıǵıwlardan hám ápiwayı etyudlardan dúziliwi maqul. Joqarı klasslarǵa ótken sayın, oqıwshılardıń qábiletine qaray, aste-aqırın quramalı ólshemlerge tán shınıǵıwlar, etyudlar usınıs etiledi. Bul dóretpeler kóbirek yarım sherek, on altılıq, otız ekilik notalar sozılıwı hám pauzalardan quralǵan bolıwı kerek. Sebebi, ápiwayıdan quramalıǵa umtılwı dáp atqarıwshılıǵın tolıq ózlestiriwge keń múmkinshilik jaratıp beredi.

Oqıwshı hár bir sabaqqa kirisiwden aldın 30-40 minut waqıt dawamında ortasha qızdırılǵan dápte hár túrli etyudlar hám usıllardı erkin halda aste-aqırın orınlap, qolların iykemlestiriwi kerek. Soń dápti jaqsılap qızdırıp, tiykarǵı sabaqtı baslawı múmkin. Sonı este tutıw tiyis, qollar jaqsı háreketke kelmegen halda qızdırılǵan dápti shertiw barmaqlardıń awırırına alıp keledi.


Oqıtıwshı óz shákirtine durıs hám anıq sabaq beriw processinde hám olardı ásbapta tınıq, tegis, jańlaǵan dawıs shıǵarıwǵa úyretiwde tómendegilerge itibar beriw talap etiledi:

a) eki qol hám barmaqlar qaǵısları birdey kúsh penen urılıwı;

b) ansambl bolıp atqarıwǵa úyretiw; koncertmeysterlikte hár bir dápshi usılǵa qashırım beriwge umtıladı. Bul bolsa saz ásbap sheberligin asırıp, erkinlikke iytermeleydi;

d) qısqı, jazǵı imtixanlarda, koncertlerde ózbek kompozitorlarınıń dáp hám fortepiano ushın maslastırılǵan dóretpelerinen atqarıw oqıwshılardıń muzikalıq qábileti, atqarıwshılıq dárejesin rawajlandıradı. Koncertmeysterlikte solistlikte O.Komilov, T. Inog‘omov, G‘. Azimov, Q. Dadayev sıyaqlı ustaz dápshiler notalastırǵan dáp usılları toplamların úyretiwge shaqırıw zárúr.

Dáp ásbap atqarıwshılıǵı kónlikpesin qalıplestiriwde muzikalıq qábilette rawajlandırıp barıw áhmiyeli bolıp tabıladı. Bunda ásirese dáp sabaqlıqları hám oqıw qollanbalarda berilgen dóretpeler, olardı atqarıw jolları, eki qol ushın shınıǵıwlar hám basqıshpa-basqısh atqarıw sheberligin rawajlandırıp barıw sıyaqlı máselelerge itibar beriw kerek. Bul orında A. Petrosyans tárepinen 1952 jılı tiykarlap berilgen hám muzika tálim sistemasında ayrıqsha áhmiyetke iye bolǵan dáp ásbap atqarıwshılıǵınıń nota sistemasına itibar qaratsaq maqsetke muwapıq boladı. Dáp nota jolı 4 parallel sızıqtan ibarat bolıp, 1, 2, tómengi sızıqlar oń qol ushın, 1, 2 joqarıdaǵı sızıqlardan shep qol ushın paydalanıladı:



shep qol
on qol


Tómende eki sızıqqa oń qol, joqarıdaǵı eki sızıqqa shep qol qaǵısları túsiriledi:



Oń qol



Úlken bum Kishi bum Úlken
bak



Kishi bak Urıp shertiw

(noxun)


Úlken bum Kishi bum Úlken
bak Kishi bak Urıp shertiw (noxun)
Shep qol

Sońǵı jıllarda Y. Haqulovtıń dáp shertiwdi úyreniw ushın baspadan shıǵarılǵan «Doyra uchun pyesalar», O.Kamolxójaev, A. Liviyevtıń «Doyra darsligi», T. Ashrafxo‘jaye, A. Ismatullayevtıń «Doyra sinfi bo‘yicha xrestomatiya» sıyaqlı oqıw qollanbaları áne usı nota jazıwına tiykarlangan bolıp, atqarıwshılıqta keń qollanımaqta. A.I.Petrosyans qollaǵan dáp ushın nota jazıwı quramında hár túrli qaǵıslar tiykarında qalıplesken dáp usılların notalastırıwda oń qol hám shep qol ushın arnawlı bir jup eki jollı nota sızıǵınan paydalanadı. Nota belgileriniń sozılıwına ámel etken halda, hár qıylı qaǵıs dawısları oń qol ushın da, shep qol ushın da bul sızıqlarda birdey belgiler menen kórsetiledi. Hár túrli usıllardı jazıwda bes sızıqlı nota jolınan da paydalanıw múmkin, bunda ortadaǵı úshinshi sızıq isletilmeydi. Bunday jaǵdaylarda oń qol ushın tómengi 1 hám 2-sızıqlar, shep qol ushın joqarǵı 4 hám 5-sızıqlar isletiledi [1:10].


“Shıńǵırlawıq”. Dáp qaǵısları astındaǵı halqalardıń bir-birine urılıwı nátiyjesinde payda bolatuǵın dawıs “shıńǵırlawıq” dep ataladı hám ámeliyatta (x) belgisi menen bildiriledi. “Shıńǵırlawıq” tájriybede tiykarınan eki kóriniste ushıraydı. Birinshisi, jeke, ekinshisi, xor menen birgelikte. Ekinshi

kóriniste bul usıl hár túrli usıllar menen birgelikte qollanııp, hár bir urılǵan nuqralarǵa bezew beredi.

“Shıńǵırlawıq” tıń erkin qollanıwı:



“Shıńǵırlawıq” tıń hár túrli usıllar menen birgelikte qollanıwı:



“Shıńǵırlawıq” atqarıw usılınan sheber paydalanıw dápshiniń zeyini hám sheberligine baylanıslı.

Dáp atqarıwınıń jetik bolıwı ushın bir neshe shártli belgiler qabıl etilgen.

+ × ! * ^

PLYUS (+)

1. “Plyus” belgisi eki qoldıń tórtinshi barmaǵına «Noxun» dı taǵıp atqarıwdı bildiredi. Bul belgi shıǵarmanıń basında qoyladı.

KÓBEYTIW (×)

2. “Kóbeytiw” belgisi dáp halqaların silkip atqarıwdı bildiredi.

NOQAT ()

3. “Noqat” belgisi dáptiń ortası yamasa shetine tırnaq penen shertip atqarıwdı bildiredi.

PONA (.)



4. “Pona” belgisi dáp gardishiniń eń shetine kishkene barmaqı tórtinshi barmaq ústinen sırganatıp shertiwdi bildiredi.

ÚNDEW (!)

5. “Úndew” belgisi bas barmaqıan tórtinshi barmaqı sırganatıp, dápti shertiwdi bildiredi.

JILAN IZI

6. “Jılan izi” yamasa tolqınlı sızıq belgisi bas barmaqıń ushı menen dáp gardishiniń terisine tutasqan shetinen ózine qaray sırganatıp dirildetip atqarıwdı ańlatadı. Bunday atqarıw usılınan dápshi koncertmeysterlikte, eki-úsh dáp koncertmeysterliginde paydalanıladı. Biraq, bul atqarıw barısında bas barmaq tırnaqlarına abaylı bolıw talap etiledi.

JULDIZSHA (*)

7. “Juldızsha” belgisi oń qoldıń “kishi bumı” hám “kishi baki” ústinde qoyıladı. Bul waqıtta shertiwshi qolın teriden úzbeydi hám dawıs dárriw sónedi.

STRELKA

8. “Strelka” belgisi Shıǵıs klassikalıq namalarında paydalanılıp, dápti dize arasına alıp atqarıwdı bildiredi. Bul belgi de shıǵarma basına qoyıladı.

ILMEK ^

9. “Ilmek” belgisi de kóbinese Shıǵıs namalarında paydalanılıp, shappattı atqarıwdı bildiredi.

NOXUN

Burınnan áyyemgi dápshiler ulıwma xalıqlıq seyillerde, hár túrli bayramlarda gernay, sırnay, dáp áspabları

menen birgelikte namalardı atqarıw waqtında dáp qaǵıs usıllarınıń kúshli taralıwı ushın eki qoldıń tórtinshi barmaqına noxun kiygizip atqarǵan. Sońǵı jıllarda dáp atqarıwshılıq ámeliyatında noxundı kiyip shertiw jas sázendelerdiń dáp atqarıw sırların tolıq ózlestiriliwine kesent etkenligin kórsetti, sebebi, noxun kiyip shertiwge úyrengen dápshi noxunsız shertiw usılların joǵaltadı. Noxun dawıstı jasalma etip, sap, tábiyyı jańlawına tosqınlıq etedi. Házirde noxun kiyip dáp shertiw jaǵdayları júdá kem ushıraspaqta.

Itibar berip qarasaq, bul nota sisteması hám dáp ásbap atqarıwshılıǵı belgilerin ózlestiriw atqarıw kónlikpesin hám mamanlıǵın kutilgen dárejede rawajlandırıp barıw imkánıyatın beredi. Ásirese, bunda oqıwshılar menen jeke tártipte shuǵıllanıw, olardı kóbirek shınıqtırıw, jas hám fizikalıq qásiyetlerine uyqas túrde dáp dóretpeleri menen tanıstırıp barıw maqsetke muwapıq boladı. Bunıń ushın oqıwshılardı arnawlı bir tártipke úyretiw, olardıń ózi ústinde islew kónlikpesin payda etiw hám de dóretiwshilik qılıw tiykarları menen keń tanıstırıp barıw zárúr esaplanadı.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ikromov I. Doyra darsligi. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, Toshkent-1997, 78-bet.



**BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARIDA MUSIQIY-RITMIK
KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISH
РАЗВИТИЕ КОНЦЕПЦИИ МУЗЫКАЛЬНО-РИТМИЧЕСКОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ
DEVELOPMENT OF THE CONCEPT OF MUSICAL-RHYTHMIC
COMPETENCE IN FUTURE MUSIC TEACHERS**

Ibragimova Xonzoda
Nordik xalqaro universiteti
Musiq ta’limi kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo‘lajak musiq o‘qituvchilarida musiqiy-ritmik kompetensiya tushunchasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Musiqiy-ritmik kompetensiya musiq ta’limida asosiy komponentlardan biri sifatida o‘qituvchi faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotda musiqiy-ritmik kompetensiyaning mazmuni, uning rivojlantirish bosqichlari va pedagogik mexanizmlari o‘rganilgan. Shuningdek, musiqiy-ritmik mashqlar, texnologik yondashuvlar va interaktiv metodlar orqali mazkur kompetensiyani shakllantirish usullari taklif qilingan. Tadqiqot natijalari musiqiy ta’lim jarayonida nazariy va amaliy bilimlarni integratsiya qilishga xizmat qiladi.*

***Аннотация:** В статье анализируются теоретические и практические аспекты формирования музыкально-ритмической компетентности будущих учителей музыки. Музыкально-ритмическая грамотность, как один из основных компонентов музыкального образования, играет важную роль в повышении эффективности труда учителя. В ходе исследования были рассмотрены содержание музыкально-ритмической компетентности, этапы ее развития и педагогические механизмы. Предложены также методы развития данной компетенции посредством музыкально-ритмических упражнений, технологических подходов и интерактивных методов. Результаты исследования служат интеграции теоретических и практических знаний в процесс музыкального образования.*

***Annotation:** This article analyzes the theoretical and practical aspects of developing the concept of musical-rhythmic competence in future music teachers. Musical-rhythmic competence, as one of the main components in music education, plays an important role in increasing the effectiveness of teacher activity. The study studied the content of musical-rhythmic competence, its stages of development and pedagogical mechanisms. Also, methods for forming this competence through musical-rhythmic exercises, technological approaches and interactive methods are proposed. The results of the study serve to integrate theoretical and practical knowledge in the process of music education.*

Kalit soʻzlar: Musiqiy-ritmik kompetensiya, musiqa taʼlimi, boʻlajak musiqa oʻqituvchilari, pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, kompetensiyani rivojlantirish.

Ключевые слова: Музыкально-ритмическая компетентность, музыкальное образование, будущие учителя музыки, педагогические технологии, интерактивные методы, развитие компетентности.

Key words: Musical-rhythmic competence, music education, future music teachers, pedagogical technologies, interactive methods, competence development.

Zamonaviy musiqa ijrochilik pedagogikasi gʻoyalariga koʻra, uning musiqa hodisasini birgalikda yaratish va idrok etish kabi tomoni mavjud. Buning sababi shundaki, musiqiy asar allaqachon muallifning kognitiv-baholash faoliyati tajribasini oʻz ichiga oladi. Bastakorning hissiy kechinmalari tinglovchi va ijrochining hissiy kechinmalari bilan uygʻun boʻlgandagina birgalikda ijod qilish mumkin boʻladi. Shuning uchun, shaxsiy munosabatlardan tashqari, musiqiy tasvirlarni ijodiy tushunish mumkin emas.

Musiqa oʻqituvchisining musiqani ijodiy takrorlash jarayoni nafaqat uning idrokining chuqurligi va nozikligini, balki oʻziga xos ijrochilik qobiliyatini ham talab qiladi. Ijodiy ijro konsepsiyasi faqat mohir ijrodagina ahamiyat kasb etadi. Birgalikda ijod qilish musiqiy asarni badiiy talqin qilish masalalarini hal qilish jarayonida, ijrochi ijodiy niyat muammosini shakllantirishi va uni hal qilishi kerak boʻlganda amalga oshiriladi. Ijodiy ijro talqini kompozitor asarini ijtimoiy hodisa sifatida yaratadi, uni jamiyatning musiqiy ongi bilan bogʻlaydi. Shu sababli, zamonaviy asarlar va oʻtmishdagi asarlar faoliyatining dolzarbligi ijrochiga bogʻliq.

Mamlakatimizda musiqa oʻqituvchilarining musiqiy-ritmik kompetensiyasini rivojlantirish, musiqa oʻqitish metodikasi boʻyicha koʻplab ilmiy tadqiqotlar oʻtkazilgan. Jumladan, M.X.Xoʻjaevaning “Umumtaʼlim maktablari musiqa oʻqitish metodikasi” nomli oʻquv qoʻllanmasida umumtaʼlim maktablarda musiqa oʻqitish metodikasining nazariy asoslari va uslubi amaliyoti masalalarini yoritishga qaratilgan [3]. B.Shermuhhammadov, D.Namozovalar tomonidan boʻlajak musiqa oʻqituvchisini kreativ kompetentligini takomillashtirish modeli ishlab chiqilgan. Ushbu modelda boʻlajak musiqa oʻqituvchisining oʻz ustida ishlashi va oʻz-oʻzini baholab, kasbiy bilimlarini takomillashtirib borishi koʻzda tutilgan [4].

Boʻlajak musiqa oʻqituvchilarida musiqiy-ritmik kompetensiya tushunchasini rivojlantirish, tematik boyitish va yangi talqin yechimlarida badiiy va ifodali vositalarning oʻsishi, agar ular hayotning standart variantlarida yaxshiroq takrorlanishiga va sanʼatning ijtimoiy rolini amalga oshirishga yordam bersa, progressiv boʻladi.

Musiqa oʻqituvchisining ijrochilik faoliyati nafaqat oʻziga ishonch, balki

umumiy madaniyat, an'ana va maktabning to'liq ahamiyatini tushunishga asoslanishi kerak. Ijrochining musiqiy-estetik madaniyatining yuksakligi, uning musiqa san'atida namoyon bo'lishining yengilligi va yorqinligini, obrazlari va assotsiatsiyalarining ahamiyati va ko'p qirraliligini, uslubining ishonarliligini belgilaydi.

O'qituvchining musiqiy-pedagogik faoliyatida ijodkorlik-improvizatsiya umumiy pedagogik va musiqiy-ijroiylilik jihatlarda namoyon bo'ladi. Birinchi holda, improvizatsiya o'qituvchining rejasini haqiqiy o'quv va ta'lim jarayoniga loyihalashtirishga, rejaning bajarilishini ta'minlashga va talabalarning harakatlariga ham, pedagogik o'zaro ta'sirning yaxlit jarayoniga tezkor tuzatish kiritishga imkon beradigan o'ziga xos tartibga soluvchiga aylanadi. Musiqiy ijro improvizatsiyasi o'qituvchi-musiqachining o'qish notalarini ko'rish, ko'chirish, quloq bilan tanlash, aslida improvizatsiya va turli xil ijro variantlarini yaratish qobiliyatiga ega ekanligini nazarda tutadi.

Musiqqa darslarida ustunlik qilishga mo'ljallangan musiqa san'ati o'qituvchidan mukammal ijrochilik texnikasini, badiiy va ijrochilik mahoratini talab qiladi, bu esa ularni tinimsiz rivojlantirishni, mohirlikka yetkazishni talab qiladi. Musiqqa o'qituvchisining ijro mahorati ham yangi maxsus qoidalar, texnika va harakat usullarini egallashga, ham musiqa san'ati sohasidagi turli ilmiy qoidalarni doimiy ravishda egallashga asoslanadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida musiqiy-ritmik kompetensiyasining yetakchi tarkibiy qismi bu musiqa o'qituvchisining musiqiy-ijro etuvchi bilimlari, qobiliyatlari va malakalari tizimi bo'lib, u musiqiy-pedagogik faoliyatda kompleks ta'lim sifatida namoyon bo'lib, u nazariy ma'lumotlar va ko'nikmalar, musiqiy material ustida ishlashning badiiy va ijrochilik madaniyati, o'quv va maktab repertuarini ijro etish kabi umumiy musiqa majmuasini qamrab oladi. O'qituvchining badiiy va ijrochilik madaniyati ko'p jihatdan musiqiy va pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydi, ular tarkibiy qismlar sifatida musiqiy materialni sharhlovchi (tarjima - izohlash, tushuntirish) tushunchaning badiiy va texnik timsoli, hamrohlik va ijodiy musiqa yaratishni o'z ichiga oladi.

Axborot, semantik kontekstda musiqiy ijro texnikasi musiqachining musiqiy til munosabatlarining butun boyligiga ko'p qirrali muvofiqligi, musiqiy matnni to'g'ri o'qish, ma'lum bir uslubning irsiy xususiyatlarini, janrning an'anaviy xususiyatlarini yetkazish qobiliyatidir. Musiqiy ijrochilik faoliyatining har xil turlaridan kelib chiqqan holda va musiqa o'qituvchisining kasbiy grafigi asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarida musiqiy-ritmik kompetensiya tushunchasini rivojlantirishda quyidagi bilim, qobiliyat va ko'nikmalar zarur:

1. Musiqiy asarning nazariy tahlili musiqa o'qituvchisining quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini nazarda tutadi:



Bilim:

- ishning tahliliy bosqichini o'tkazish texnologiyalari; uslub namunalari, janr va ularning xususiyatlari; badiiy harakatlarning tarixiy davriyligi; muallif stilistikasining o'ziga xosligi, asosiy tamoyillari shakllanishi.

Ko'nikmalar va qobiliyatlar:

- fanlararo aloqalarni amalga oshirish; musiqa tilining elementlarini farqlay oladi; musiqiy ifoda vositalarining ahamiyatini anglab yetish; qismlarda va butun musiqiy tuzilmada alohida kulminatsiyalar.

2. Interpretativ konsepsiyaning ijro timsoli musiqa o'qituvchisining quyidagi axborot va operativ komponentlardan foydalanishiga asoslanadi:

Bilim:

- asarni bosqichma-bosqich o'rganish texnologiyalari; tovush chiqarish texnikasi va usullari; asosiy barmoq tamoyillari va ketma-ketliklari; musiqiy materialning badiiy tabiati.

Ko'nikmalar va qobiliyatlar:

- badiiy va texnik vazifalar o'rtasidagi munosabatlarda muvozanatni saqlash; texnik qiyinchiliklarni yengish; qurilmaning ovozi va erkinligiga e'tibor qaratish; doimiy eshitish, o'zini o'zi nazorat qilish.

3. Ansamblda o'ynash va hamrohlik qilish musiqa o'qituvchisining quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishiga asoslanadi:

Bilim:

- turli asboblardan va ovoz diapazonlarining akustik xususiyatlari; yakkaxon va jo'r bo'lgan qismlarni ijro

etish qonuniyatlari; har xil turdagi hamrohliklarning semantik yuklari.

Ko'nikmalar va qobiliyatlar:

- solistni tinglash, uning badiiy niyatlarini tushunish; tembr-dinamik ranglarning mos palitrasini topish; vokal va xor asarlarining turli teksturalarida harakat qilish; badiiy va texnik maqsadlardan kelib chiqqan holda hamrohlik qismiga tegishli o'zgartirishlar kiritish.

4. Musiqa o'qituvchisi tomonidan ko'rib o'qish, ko'chirish, quloq orqali tanlash kabi faoliyatni o'z ichiga olgan ijodiy musiqa yaratish quyidagi bilim, ko'nikma va malakalardan foydalangan holda amalga oshiriladi:

Bilim:

- ko'rish, transpozitsiya, quloq orqali tanlash, improvizatsiya texnologiyalari; haddan tashqari yuklangan garmonik tovushlar va teksturalarni qisqartirish va yengillashtirish usullari; musiqiy va eshitish tasvirlarini shakllantirish mantiq'i, ko'nikma va qobiliyatlar:

- eshitish vosita ko'rinishlari bilan ishlash; tekstura va musiqiy ifoda vositalarining rivojlanishidagi o'zgarishlarni tezda boshqarish; musiqiy tafakkurning rivojlanish mantiqini bashorat qilish; materialni kichik elementlardan soddalashtirish; barmoq formulalarini barcha tugmachalarda qo'llash.

O'qituvchining badiiy va ijrochilik repertuari umumta'lim maktabi bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun u o'quv yo'nalishidagi ishlar bilan bir qatorda (musiqa o'qituvchisining badiiy va ijrochilik madaniyatini oshirish uchun

zarur) maktab musiqa o'quv dasturidan ko'p sonli turli davrlar, uslublar va janrlardagi, maqsadli yoshi va ta'limiy asarlarini o'z ichiga olishi kerak. O'qituvchining musiqiy va ijrochilik madaniyatining o'ziga xos xususiyati - bu bolalar auditoriyasiga badiiy va ijro variantlarini va ularga og'zaki tushuntirishlarni jonli, hissiy va ekspressiv tarzda taqdim etish qobiliyatidir.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida musiqiy-ritmik kompetensiya tushunchasini rivojlantirish, o'qituvchining ijro etuvchi bilimlari, qobiliyatlari va ko'nikmalari faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan musiqiy materialni ijro etishning o'ziga xosligi, mobilizatsiya va dam olishning aqliy jarayonlarini tartibga solish qobiliyatida namoyon bo'ladigan badiiy mahoratiga bog'liq. Badiiy-musiqiy ijrochilik san'ati – asarning badiiy qiyofasini etkazishning ifodaliligi va badiiyligidir. Ekspressiv o'yin ijrochining ongi va hissiy-emotsional sohasi orqali har bir tovushning jonlanishi bilan tavsiflanadi. Aynan o'qituvchining shaxsiy intonatsiyasi darajasida o'quvchilar musiqiy obrazlarning go'zal ma'naviy olamiga maftun bo'ladilar, badiiy davrga tegadi, muallif davri bilan muloqot qilish lahzalarini boshdan kechiradi.

O'qituvchining badiiy mahorati musiqiy kompozitsiyaga xolis yondashishdan tug'iladi, bu esa o'qituvchiga ham, o'quvchilarga ham musiqaning chuqur qatlamlariga kirib borish, uning obrazli doirasini egallash imkonini beradi. O'qituvchining bir xil

ishning turli xil talqinlarini amalga oshirish qobiliyati bunga yordam berishi mumkin. O'qituvchining musiqiy va pedagogik san'ati uning talaba konsepsiyasida ishlashga intilishida namoyon bo'ladi va shu bilan uni boyitadi. Ushbu pozitsiyadan kelib chiqib, aytish mumkinki, musiqa o'qituvchisining badiiy mahorati uning musiqiy va estetik tamoyillarni me'yor pozitsiyasidan emas, balki talabaning boshdan kechirish tarixi nuqtai nazaridan asoslab, berilgan musiqiy kompozitsiyani o'quvchilarga etkazish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, bo'lajak musiqa o'qituvchilarida musiqiy-ritmik kompetensiya tushunchasini rivojlantirish musiqiy ijro mahoratining yuqori darajasida quyidagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi:

- o'qituvchining musiqa va sahna san'ati sohasidagi yuqori kasbiy bilimi keng, chuqur, tizimli yaxlitlikni ifodalaydi va nafaqat tipik sharoitlarda, balki noan'anaviy vaziyatlarda ham qaror qabul qilishda yuqori samaradorlik bilan foydalaniladi;

- o'qituvchining yuqori professional cholg'u-ijrochilik mahorati va qobiliyatlari reproduktiv va ijodiy xarakterdagi harakatlarni bajarishda mohirona uyg'unlik bilan tavsiflanadi, bu esa yuqori ijrochilik natijalariga erishish imkonini beradi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida musiqiy-ritmik kompetensiyasi axborot va operatsion asosini tashkil etuvchi musiqiy-nazariy, dirijyorlik-xor va vokal-xor, musiqiy-ijrochilik va uslubiy bilim,



ko'nikma va malakalar tizimini o'z ichiga oladi va axloqiy-pedagogik yo'nalishga ega. Aynan ularning mavjudligi (umumiy madaniy, psixologik va pedagogik bilim va ko'nikmalar, qadriyat va ijodiy yo'nalishlar, pedagogik va musiqiy qobiliyatlar, kasbiy ahamiyatga ega fazilatlar bilan birgalikda) zamonaviy musiqaning samarali musiqiy va ma'rifiy faoliyatining eng muhim sharti va zaruriy shartidir.

Musiqqa pedagogikasining vazifalari o'quvchilarni musiqiy ijrochilik san'atiga o'rgatish va shaxsni har tomonlama kamol toptirish bilan bog'liq. Musiqqa pedagogikasi umumiy pedagogikaning bir qismi sifatida o'quvchilarni musiqiy tarbiyalash, rivojlantirish, tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan pedagogik, ijrochilik, ilmiy va ijtimoiy faoliyat bilan bog'liq. Talabalar shaxsini ma'naviy kamol toptirish bugungi kunda oliy ta'limning pedagogik nazariyasi va amaliyotida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Universitetda o'qish davomida talabalar o'zlarining dunyoqarashi va axloqiy e'tiqodlarini jadal rivojlantiradilar, bu hamkorlikni tashkil etishda eng katta samaraga erishadi.

Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarida musiqiy-ritmik kompetensiya tushunchasini rivojlantirishda ta'lim berish doirasida o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatida quyidagi rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalarni qo'yishi mumkin: musiqiy dunyoqarashni kengaytirish, har bir talabaga musiqiy tarbiya va ta'limning eng samarali usullarini faol ravishda izlash, individual usullarni izlash musiqiy

qobiliyatlarni shakllantirish va takomillashtirishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga asoslangan kasbiy tayyorgarlik; badiiy tafakkurni tarbiyalash; nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni uzatish, balki o'quvchining har tomonlama rivojlanishi, uning individual ijodiy shaxsini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish. Shu bilan birga, o'qituvchi musiqiy-ritmik kompetensiya uchun to'g'ri taktika va strategiyani, o'quvchilarning musiqiy-ritmik kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'sir qilish usullarini tanlashi kerak.

O'quvchilarda ritm tuyg'usini shakllantirish musiqqa pedagogikasining eng muhim vazifalaridan biri va shu bilan birga eng qiyin vazifalardan biridir [2]. Musiqiy ritm hissi murakkab qobiliyat bo'lib, u idrok etish, tushunish, ijro etish va musiqiy tasvirlarning ritmik tomonini yaratishni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarida musiqiy-ritmik kompetensiya tushunchasini rivojlantirish tamoyillari quyidagilardan iborat:

- o'quvchini o'quv jarayoniga musiqqa materialini o'z ijrosidagi takrorlash orqali kiritish;
- qo'shiq kuylash;
- dirijyorlik;
- musiqqa ijro etish;
- ichki hissiy tajribalarni ta'minlash;
- individual ijodiy shaxsni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarida musiqiy-ritmik kompetensiyalar umuman olganda o'qituvchilar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi va ko'p jihatdan o'quvchining individual fazilatlariga



bog‘liq. Shu bilan birga, musiqani cholg‘u asboblarda mustaqil ijro etish o‘quvchilarda musiqiy va ritmik qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Musiqiy-ritmik ta’limda o‘quvchida musiqaning ritmik uslubi tuyg‘usini rivojlantirish muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida musiqiy-ritmik kompetensiyani rivojlantirish musiqa ta’limining zamonaviy talablari asosida amalga oshirilishi zarur. Tadqiqotda musiqiy-ritmik kompetensiyaning o‘qituvchi kasbiy faoliyatidagi ahamiyati, uni rivojlantirishning samarali usullari va pedagogik texnologiyalar tavsiflandi. Musiqiy-ritmik kompetensiya nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni ham o‘z

ichiga oladi. Shu boisdan, musiqiy-ritmik mashqlar, interaktiv yondashuvlar va ijodiy faoliyatlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bu kompetensiyani rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rsatildi. Mazkur ilmiy asoslar kelajakda musiqa o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, bosqichma-bosqich, o‘quv va maktabdan tashqari ishlar doirasida, oliy o‘quv yurtida pedagogika mutaxassisligi talabalari o‘rtasida musiqiy va ritmik kompetensiyalarni shakllantirish sodir bo‘ladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Галущенко И.Г. Значение сотворчества в научной и педагогической деятельности музыковеда // Горизонты и риски развития образования в условиях системных изменений и сифровизации: Сборник научных трудов XIII международной научно-практической конференции. 25 января 2020 года. С. 403-407.
2. Ибрагимова Х.С. Совершенствования механизмов подготовке будущих учителей музыки к педагогической деятельности на основе ритмики // yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi // in-academy.uz/index.php/yo
3. Хо‘jaeva M.X. Umumta’lim maktablarida musiqa o‘qitish metodikasi. 2-nashri. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi. 2008 y.
4. Shermuhammadov B., Namozova D. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini kreativ kompetentligini takomillashtirish modeli. Farg‘ona Davlat Universiteti, 29(1), 2023 y.
5. The Importance of Music. A National plan for Music education.
6. Ibragimova, K. (2023). Improving the mechanisms for preparing future music teachers for pedagogical activities on the basis of rhythm. International Journal of Pedagogics, 3(04), 100-102.
7. Khonzoda, I. (2024, February). Methods of oriental scientists in forming music-rhythmic competencies in future music teachers. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 18-22).
8. Ибрагимова, Х. (2024). Совершенствования механизмов подготовке будущих учителей музыки к педагогической деятельности на основе ритмики. Молодые ученые, 2(3), 4-6.
9. Ibragimova X. S. (2024). Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini ritmikaga asoslangan pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish. Eurasian Journal of Academic Research, 4(1-2), 39-42.
10. Ibragimova K. S. (2022). Development of musical rhythmic competences in the students of higher education institutions. Science and innovation, 1(B3), 708-714.
11. Ибрагимова, Х. С. (2021). Обучение ритмике студентов педагогических вузов. In Наука. Культура. Искусство: актуальные проблемы теории и практики (pp. 321-323).
12. Ибрагимова, Х. С. К. (2020). Музыкальная деятельность с незрячими детьми. Наука и образование сегодня, (12 (59)), 50-51.
13. Ibragimova, X. S. (2020). The importance of musical aesthetics in the formation of musical culture. Экономика и социум, (10 (77)), 80-83.
14. Ибрагимова, Х. С. (2024). Бўлажак музика ўқитувчиларида музикаий-ритмик компетенцияларни шакллантиришда ғарб мутафаккирлари қарашлари. Oriental Art and Culture, 5(6), 666-671.

15. Ibragimova, X. (2024). Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida musiqiy-ritmik kompetensiyalarni takomillashtirishda g'arb amaliyotchi olimlari qarashlari. Nordic_Press, 5(0005)

16. Ibragimova, X. S. (2024). Musiqa o'qituvchilarida musiqiy-ritmik mexanizmlashtirish turlari. Inter education & global study, (10), 493-501.

Ibragimova X. S., & Ismailov T. X. (2024). Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida musiqiy-ritmik kompetensiyalarni shakllantirishda g'arb mutafakkirlari qarashlari. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 2(6), 59-62.



**O‘ZBEKISTONDA ORGAN MUSIQASI RIVOJLANISHINING TARIXIY VA
IJROCHILIK JIHATLARI
ИСТОРИКО-ИСПОЛНИТЕЛЬСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ОРГАННОЙ
МУЗЫКИ В УЗБЕКИСТАНЕ
HISTORICAL AND PERFORMANCE ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF
ORGAN MUSIC IN UZBEKISTAN**

Aminova Munira

*Toshkent davlat Konservatoriyasining Maxsus
fortepiano (Arg'unon) kafedrasi mudiri, dotsent*

Аннотация: O‘zbek milliy musiqqa madaniyati kontekstida organ san’atini o‘rganish, milliy va jahon musiqqa an‘analari tizimida muhim va dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi. Bu tadqiqotning ahamiyati ushbu musiqqa asbobining o‘ziga xos mavqei bilan belgilanadi. Organ, g‘arbiy Yevropa musiqqa madaniyatining ramzi sifatida, XX asrning o‘rtalarida O‘zbekiston madaniy muhitiga mustahkam kirib keldi va an‘anaviy musiqqa shakllari bilan muloqotga kirishdi. Mazkur o‘zaro ta’sir Yevropa akademik musiqasi va milliy an‘anaviy musiqqa san’ati sintezini aks ettiruvchi yangi madaniy qatlamning shakllanishi uchun asos bo‘ldi. Ushbu maqolada mualliflar tomonidan O‘zbekistonda organ musiqasi rivojlanishida muhim o‘rin tutgan jihatlari va bu yo‘nalishning asoschilaridan bo‘lgan ijrochilar o‘rni taxlil qilingan.

Аннотация: Изучение органного искусства в контексте узбекской национальной музыкальной культуры является одним из важных и актуальных направлений исследований в системе национальных и мировых музыкальных традиций. Актуальность данного исследования определяется уникальным положением этого музыкального инструмента. Орган, как символ западноевропейской музыкальной культуры, прочно вошел в культурную среду Узбекистана в середине XX века и вступил в диалог с традиционными музыкальными формами. Это взаимодействие стало основой формирования нового культурного пласта, отражающего синтез европейской академической музыки и национального традиционного музыкального искусства. В данной статье авторы анализируют важные аспекты развития органной музыки в Узбекистане и роль исполнителей, стоявших у истоков этого направления.

Annotation: The study of organ art in the context of Uzbek national musical culture is one of the important and relevant research areas in the system of national and world musical traditions. The significance of this research is determined by the unique position of this musical instrument. The organ, as a symbol of Western European musical culture, firmly entered the cultural environment of Uzbekistan in the middle of the 20th century and entered into dialogue with traditional musical forms. This interaction became the basis for the formation of a new cultural layer reflecting the synthesis of European academic music and national traditional musical art. In this article, the authors analyze

the aspects that played an important role in the development of organ music in Uzbekistan and the role of performers who were among the founders of this direction.

Kalit soʻzlar: musiqa, organ, opera, simfoniya, musiqa madaniyati, akustika, konservatoriya.

Ключевые слова: музыка, орган, опера, симфония, музыкальная культура, акустика, консерватория.

Key words: music, organ, opera, symphony, music culture, acoustics, conservatory.

Oʻzbek milliy musiqa madaniyatida organ sanʼatini oʻrganish muhim tadqiqot yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu musiqa asbobi Gʻarbiy Yevropa madaniyatining ramzi boʻlib, XX asr oʻrtalarida Oʻzbekistonga kirib keldi va milliy musiqa shakllari bilan sintezlandi. Natijada, Yevropa akademik musiqasi va milliy musiqa sanʼati oʻzaro uygʻunlashib, yangi madaniy qatlam shakllandi.

1930-yillardan boshlab Markaziy Osiyo, xususan Oʻzbekiston, yangi madaniy muhit shakllanishiga zamin yaratdi. Sovet davrida musiqa sohasida sezilarli oʻzgarishlar yuz berdi, yangi taʼlim paradigmalari shakllandi va musiqa sanʼati ekstremal ijtimoiy-siyosiy sharoitlarga moslashdi. Ikkinchi jahon urushi davrida musiqa muassasalari qayta tashkil etilib, iqtidorli musiqachilar Markaziy Osiyoga evakuatsiya qilindi. Bu jarayon yangi musiqa markazlari shakllanishiga, ijodiy muhit rivojiga hamda taʼlim tizimining mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Toshkent Markaziy Osiyoning eng yirik madaniy markazlaridan biri sifatida turli mintaqalardan kelgan musiqachilar uchun uchrashuv joyiga aylandi. Bu jarayon madaniyat va uslublarning sintezlanishiga, professional instrumental maktablarning shakllanishiga hamda oʻzbek musiqa identifikatsiyasining

rivojlanishiga xizmat qildi. Yosh isteʼdodlarni tayyorlash jarayoni ham muhim bosqichga kirdi. Mashhur pedagoglarning ijodiy faoliyati oʻzbek musiqa madaniyati tarixida katta iz qoldirdi. Shu davrda birinchi milliy opera, simfoniya va balet sahnalashtirilib, milliy sanʼatning global madaniy jarayonlarga integratsiya boʻlish salohiyati namoyon boʻldi. Toshkentda katta organning oʻrnatilishi organ sanʼati rivojlanishining muhim bosqichi boʻldi. Bu asbob milliy musiqa makonining mustaqil qismiga aylanishiga, madaniyatlararo aloqalar va globallashtirish jarayonlarini aks ettirishga xizmat qildi. XX asrning oʻrtalarida organning paydo boʻlishi ijrochilik va kompozitorlik amaliyotlari rivojiga turtki berdi, xalqaro eʼtiborni Oʻzbekistonning boy musiqa merosiga jalb etdi. Toshkentda oʻtkazilgan xalqaro festivallar va konsertlar oʻzbek musiqa madaniyatining global maydondagi mavqeiini mustahkamladi.

Markaziy Osiyo asrlar davomida Sharq va Gʻarbni bogʻlovchi Buyuk Ipak yoʻlining ajralmas qismi boʻlib, bu yoʻl nafaqat savdo, balki madaniy va musiqa anʼanalarining tarqalishida ham muhim rol oʻynagan. Markaziy Osiyoda organning paydo boʻlishi ham ana shu tarixiy almashuv jarayoni bilan bogʻliq. Sharq olimlari, jumladan, Abu Ali Ibn Sino va Abdulqodir al-Marogʻiy, musiqa



asboblarning madaniy rivojlanishi va ularning turli hududlarga moslashuvini o'z asarlarida yoritgan. Ibn Sino musiqaning inson ruhiyatiga ta'sirini chuqur o'rganib, "Shifo kitobi"da musiqa va akustika qonuniyatlarini tahlil qilgan. U turli musiqa asboblari, jumladan, torli va nafasli asboblarning o'ziga xos jihatlarini ilmiy asosda bayon etgan. Ibn Sino torli asboblarga bag'ishlangan bo'limda ularning turli tovush chiqarish usullarini tahlil qiladi. Plektorli asboblar orasida barbat, tanbur va shohrud, torli-smoyqli asbob sifatida esa rabob ko'rsatilgan. U har bir asbobning akustik xususiyatlari va musiqa madaniyatidagi ahamiyatini alohida ta'riflaydi.

Nafasli asboblar qatorida fleyta va surnay tilga olinib, ular Sharq musiqa an'analariga xos ekani ta'kidlangan. Ibn Sino, shuningdek, "vizantiya organuni" deb nomlangan asbob haqida ham yozadi. Organun, organing ilk shakllaridan biri sifatida, murakkab tuzilishga ega bo'lib, bir necha ovoz va akkordlarni birlashtirish qobiliyati bilan e'tiborini tortgan. Bu asbobga qiziqishi Ibn Sinoning nafaqat mahalliy musiqa madaniyatini, balki Vizantiya musiqa merosini ham o'rganishga intilganini ko'rsatadi. Uning "Shifo kitobi" musiqa bilimlarini tizimlashtirish bilan birga, musiqa asboblari madaniy artefaktlar sifatida o'rganish muhimligini ham yoritadi. Bu asboblar sivilizatsiyalar o'rtasida madaniy hamkorlik vositasi bo'lib xizmat qilgan, natijada, musiqa amaliyotlari turli hududlarda tarqalib, o'zgarishga uchragan.

Abdulqodir al-Marog'iy o'zining «Maqosid al-alhon» traktatida musiqa asboblarning organologik jihatlariga va ularning madaniy tizimdagi o'rniga

alohida e'tibor qaratgan. Uning asarlari musiqa san'atining tamoyillarini chuqur tushunishini aks ettiradi. Traktatda organing konstruktiv xususiyatlari haqida noyob ma'lumotlar keltirilib, bu al-Marog'iyning G'arb musiqa asboblari bo'yicha chuqur bilimga egaligini tasdiqlaydi. U organni yuqori san'at namunasi va nafislik ramzi sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, organ qadimdan Yevropadan Markaziy Osiyoga nodir suvenir sifatida olib kelingan. Al-Marog'iy Xiva kabi shaharlarda kichik organlar jamiyatning yuqori qatlamlarida ommalashganini yozadi. Bu asboblar nafaqat kuy yaratish vositasi, balki Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy almashinuvning ramzi sifatida qadrlangan.

Markaziy Osiyo musiqa asboblari, jumladan organni rivojlantirish va takomillashtirish uchun muhim markaz bo'lganini tasdiqlaydi. Organ nafaqat tovush manbai, balki sivilizatsiyalar o'rtasidagi madaniy birlik va bilim almashinuvi ramzi sifatida qabul qilingan. Qadimgi traktatlar va tarixiy manbalar Buyuk Ipak yo'lining musiqa madaniyatiga ta'sirini yoritib, musiqa asboblarning almashinuv jarayoni Markaziy Osiyo musiqa merosini boyitganini ko'rsatadi. Shunga qaramay, organ mintaqada uzoq vaqt davomida keng tarqalish imkoniyatiga ega bo'lmagan. Bu, asosan, Markaziy Osiyo musiqa madaniyatining monodiyaga yo'naltirilgani bilan bog'liq. Mintaqada vokal va instrumental ijrochilik yakkaxon unison melodik bayonga asoslangan bo'lib, organing polifonik ovozlanishi va murakkab texnikasi an'anaviy musiqaga mos kelmagan.

Organ madaniyatining Markaziy Osiyodagi rivojlanishi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, dastlab ekzotik suvenirilar shaklida tarqalgan bo'lsa, keyinchalik ta'lim muassasalarida faol o'zlashtirila boshlandi. Bu jarayon madaniy moslashuvning murakkabligini ko'rsatadi. Respublikada organ madaniyati Ikkinchi jahon urushi yillarida Leningrad, Kiyev va Odessadan evakuatsiya qilingan musiqachilar va pedagoglar sa'y-harakatlari bilan shakllandi. Yevropa organ ijrochiligi va kompozitsiya maktablari vakillari O'zbekistonning musiqa infratuzilmasi va madaniy rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu mutaxassislar polifoniya an'analarini kiritib, yangi organ musiqasi maktabini yaratdi. Leningrad konservatoriyasi pedagoglari organ san'atini targ'ib etib, ijrochilik va kompozitsiya bo'yicha maxsus kurslar joriy qildi. Bu chora-tadbirlar mintqa musiqa madaniyatining uzoq muddatli rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.


1947-yilda Toshkent konservatoriyasiga Arseniy Kotlyarevskiy (1910–1995) taklif etildi. U musiqa nazariyasi, amaliyoti va gumanitar fanlar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lib, konservatoriyaning ta'lim jarayoni va ilmiy tadqiqot faoliyatini tubdan o'zgartirdi. U O'zbekiston musiqa madaniyatining taraqqiyotida muhim rol o'ynab, organ san'ati rivojlanishining asosiy poydevorini yaratdi.

A. Kotlyarevskiyning Toshkentdagi faoliyati konservatoriyaning rivojlanishida tub burilish bosqichini belgiladi. U mutaxassislar tayyorlash yo'nalishlarini kengaytirib, ilmiy-tadqiqot ishlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu o'zgarishlar O'zbekistonda

musiqa pedagogikasi va ijrochilik san'atining rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratdi. Uning leksiyalari nafaqat musiqashunoslik, balki keng madaniy kontekstni ham qamrab olib, talabalar uchun ilhom manbaiga aylandi. Bu mintaqada polifoniya va organ san'atiga qiziqishni oshirishga xizmat qildi. Kotlyarevskiyning faoliyati iste'dodli musiqachilar va tadqiqotchilar avlodining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning shogirdlari keyinchalik o'zbek musiqa sahnasining yetakchi vakillariga aylanib, ijrochilik va kompozitorlik maktablarini shakllantirdilar. U ta'lim dasturlarini boyitib, o'zbek musiqa merosini jahon madaniy jarayoni kontekstida chuqur o'rganishga yordam berdi. Uning sa'y-harakatlari Toshkent konservatoriyasining musiqa ta'limi bo'yicha muhim markaz sifatida mavqegini mustahkamladi, bu esa yangi avlod musiqa mutaxassislarini tayyorlash va O'zbekistonda musiqa madaniyatining barqaror rivojlanishiga mustahkam poydevor yaratdi.

1948-yilda O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashining "Respublikada san'atni rivojlantirish to'g'risida"gi qarori doirasida Toshkent konservatoriyasi A.N. Kotlyarevskiyning faol ko'magi bilan musiqa ta'limi va madaniy rivojlanish darajasini oshirishga qaratilgan qator muhim resurslarni qo'lga kiritdi. Xususan, Kotlyarevskiy tashabbusi bilan konservatoriyaga organ, klavesin, sakkiz royal, shuningdek, notalar va kitoblarning katta to'plami sotib olindi. Bu o'sha davr uchun noyob moddiy baza bo'lib, talabalar ta'limini yangi bosqichga olib chiqdi.

1947-yil oxiri va 1948-yil boshlarida Toshkent konservatoriyasida



ilk organ o'rnatilishi tarixiy voqea bo'ldi. Bu Markaziy Osiyodagi birinchi organ bo'lib, musiqa madaniyatining rivojlanishida muhim qadam hisoblanadi. Ushbu organ polifoniya asosidagi organ san'atini ommalashtirish va O'zbekistonda rivojlantirish uchun muhim zamin yaratdi. Uni Toshkentga olib kelish, yangi sharoitlarga moslashtirish va tegishli metodik bazani shakllantirish uchun katta sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Bu tashabbus musiqa ta'limi tizimining poydevorini mustahkamlashda muhim rol o'ynadi.

1947-yilda Ukraina hukumati qaroriga ko'ra, Lvovdagi arman cherkovida joylashgan organ Toshkent konservatoriyasiga taqdim etildi. Uning demontaji, tashilishi va o'rnatilishi A.N. Kotlyarevskiy rahbarligida amalga oshirildi. Organ yangi prospektini rassom Gunin tomonidan yaratilgan bo'lib, kichik hajmdagi asbob konservatoriyaning birinchi qavatidagi katta zal sahnasiga joylashtirildi. Ushbu zal Moskva konservatoriyasining Katta zaliga o'xshatib bezatilgan edi. Organ ikki manual va 27 registrga ega bo'lgan, ammo uning dispozitsiyasi saqlanmagan. 1961-yil yozida yong'in natijasida organ butunlay yonib ketdi. Shunga qaramay, u qisqa faoliyati davomida Markaziy Osiyoda G'arbiy Yevropa musiqa an'alarining integratsiyasi yo'lida muhim qadam bo'lib, mintaqadagi organ madaniyatining poydevorlaridan biri sifatida tarixga kirdi.

Organ o'rnatilishi bilan. unda kim ijro etishi masalasi dolzarb bo'ldi. A.N. Kotlyarevskiy organda ijroni o'rgatadigan mutaxassisni taklif qilish hamda talabalarni G'arbiy Yevropa polifonik musiqa asoslari bilan tanishtiradigan

o'quv dasturini ishlab chiqishga kirishdi. Bu vazifa iste'dodli pedagog va tajribali musiqachi Vera Bakeevaga yuklatildi. U mashhur leningradlik organchi Isayya Aleksandrovich Braudo shogirdi bo'lib, o'quv jarayoniga akademik asos berdi va G'arbiy Yevropa organ san'ati an'alarining izchilligini ta'minladi. V.N. Bakeeva Toshkent konservatoriyasida organ ijrochilik madaniyatining asosini yaratib, Markaziy Osiyodagi birinchi tayanch tizimni shakllantirdi. Uning asosiy maqsadi sovet organ musiqasini faol targ'ib qilish bo'lib, o'z konsertlari va ma'ruzalari orqali o'zbek tinglovchilariga sovet kompozitorlari yutuqlarini yetkazdi, yangi musiqa estetikasini tushuntirdi va keng tarqatdi.

V.N. Bakeeva rahbarligi ostida o'zbek kompozitorlari organ uchun asarlar yaratishni boshladilar. U kompozitorlarga organning ovoz xususiyatlarini chuqurroq tushunish va milliy koloritga moslashtirish bo'yicha maslahatlar berib, faol yordam ko'rsatdi. Uning rahbarligida organ ijrosini o'rganish jarayoni tizimli va maqsadli yo'nalishga ega bo'lib, G'arbiy Yevropa va sovet repertuarini chuqur o'zlashtirish hamda yosh musiqachilarni polifonik ijrochilik an'alariga jalb qilishga qaratildi. Bu yondashuv nafaqat organ ijrosi texnikalarini o'rganishni, balki musiqa madaniy va tarixiy kontekstiga kirib borishni ham nazarda tutardi.

Dastlabki organ shogirdlari orasida fortepiano fakulteti talabalari ajralib turdi. R. Karimova, D. Qori-Niyozova, Ye. Petrosyans kabi yoshlar organ ijrosini texnik va madaniy jihatdan chuqur o'zlashtirdilar. Ko'plab fortepiano talabalari organ ijrosini fakultativ tarzda

o'rgandi, bu esa asbobga bo'lgan qiziqishning ortishi va musiqa ta'limida organning o'rini mustahkamlashga yordam berdi. Jarayon nafaqat ijrochilik mahoratini oshirish, balki talabalarning musiqa estetikasi, kompozitsiyasi va yangi yo'nalishlarga qiziqishini rivojlantirishga xizmat qildi. V.N. Bakeeva rahbarligidagi organ o'rganish tizimi G'arbiy Yevropa polifoniyasi an'analarini joriy qilish, shuningdek, mintaqaviy musiqa ta'limida yangi ta'limiy mezonlarni shakllantirishga yordam berdi.


Natijada o'zbek mavzusiga asoslangan ilk organ asarlari paydo bo'ldi, bu esa milliy organ maktabining shakllanishi va rivojlanishiga turtki berdi. Toshkent konservatoriyasida birinchi organning o'rnatilishi, professional ta'lim tashkil etilishi, konsertlar va ma'ruzalar o'tkazilishi musiqa ta'limi tizimini rivojlantirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Bu jarayon milliy musiqa madaniyatining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shib, talabalar uchun jahon musiqa merosiga keng yo'l ochdi. V.N. Bakeeva shogirdlari orasida Roza Shakirovna Karimova alohida ajralib turdi. Bakeeva Toshkentni tark etgandan so'ng, u organ bo'yicha maxsus kursda ta'limini Vera Samuilovna Alzetskaya rahbarligida davom ettirdi. Karimova nafaqat o'quv dasturlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirdi, balki ijrochilik faoliyati orqali O'zbekistonda organ san'atining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Uning ishi milliy madaniyatni xalqaro darajaga olib chiqishga xizmat qildi.

V.S. Alzetskaya organ o'qitish bo'yicha Toshkent konservatoriyasida markaziy o'rinni egalladi. Uning pedagogik faoliyati milliy

organchilarning ilk avlodini shakllantirishga yordam berdi, bu esa O'zbekiston musiqa madaniyatining muhim yutug'i bo'ldi. Alzetskaya nafaqat pedagog, balki sezgir musiqachi va innovator sifatida ham tanildi. U talabalarning ijrochilik salohiyatini rivojlantirish, texnik ko'nikmalarini oshirish va organ ijrosining ifoda vositalariga e'tibor qaratishda faol ishladi va talabalarini polifoniya an'analarini chuqur tushunishga ilhomlantirdi, bu esa monodiyaga asoslangan o'zbek an'anaviy musiqasi uchun dolzarb va zamonaviy yondashuv bo'ldi.

1961-yilda Toshkent konservatoriyasidagi yong'in natijasida organ yo'q qilindi, bu esa yangi asbob xarid qilish zaruratini keltirib chiqardi. 1964-yilda Chexoslovakiyaning «Rieger-Kloss» organsozlik firmasiga buyurtma qilingan organ Toshkentdagi Sverdlov nomidagi konsert zalida o'rnatildi. Asbob 25 registr, 2 manual va elektrik trakturaga ega bo'lib, Iogann Raynberger tomonidan ishlab chiqilgan dispozitsiyaga ega edi. Bu organ nafaqat ta'lim, balki organ san'atining mintaqada qayta tiklanishiga xizmat qildi. Talabalarga jahon organ san'atining boy merosi bilan tanishish imkonini yaratdi va milliy musiqa madaniyatiga integratsiya qilishga yordam berdi.

1964-yildan Roza Shakirovna Karimova Toshkent konservatoriyasida organ sinfini boshqara boshladi. U pedagogik faoliyati bilan bir qatorda konsert va ma'ruzalar tashkil etib, organ san'atini faol targ'ib qildi. 1966-yilda sodir bo'lgan zilzila organning shikastlanishiga sabab bo'ldi, natijada asbob qismlarga ajratilib, boshqa joyga saqlash uchun ko'chirildi.



1969-yilda organ qayta o'rnatilib, 20-dekabr kuni "Bahor" zalida Sergey Dijur tomonidan ilk konsert o'tkazildi. Bu voqea organ san'atining barqaror rivojlanishi yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. 1960-1970-yillarda organ musiqasi keng ommalashdi, ayniqsa "Bahor" konsert zalida o'tkazilgan konsertlar orqali. Mashhur organ ijrochilari ishtirok etgan konsertlar Toshkentning madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi. Ular orasida Oleg Yanchenko, Xugo Lepnurm, Yevgeniya Lisitsina, Sergey Dijur, Iogann Ernst Keller, Vatslav Rabas, Ferdinand Klinda, Irji Raynberg va Robert Kebler kabi taniqli san'atkorlar bor edi.

Ushbu konsertlar musiqasi merosini saqlash va organ san'atini yanada ommalashtirishga xizmat qildi. Sovet va xalqaro ijrochilarning ishtiroki organ ijrosining turli uslublari va an'alarini tinglovchilarga yetkazib, milliy musiqasi madaniyatiga yangi estetik mezonlarni kiritdi. "Bahor" konsert zalidagi organ sharoitga mos emas edi, elektr trakturaning ekspluatatsiya muammolari va zalning noqulay mikroklimate sababli organing havo taqsimlash tizimi shikastlandi. Organing texnik holati sezilarli darajada yomonlashdi: Havo bosimining o'zgarishi organ havo kanallari ishlashining buzilishiga olib keldi. Asbobning ovoz chiqarish sifati keskin pasaydi, natijada organ "nafas olishi" muammolariga duch keldi va ekspluatatsiya uchun yaroqsiz bo'lib qoldi. 1970-yillarning o'rtalariga kelib, organ to'liq ishdan chiqdi, foydalanish imkonsiz holga keldi. 1997-yilda organ demontaj qilindi va hozirda Reyngold Glier nomidagi musiqasi maktabining omborxonasida saqlanmoqda. Bu voqea

organ san'atini saqlashning texnik va ekologik qiyinchiliklarini ko'rsatdi. Asbobning saqlanishi uchun maxsus mikroklimat va muntazam texnik nazorat talab etilishi aniqlandi.

Kelajakda ushbu organni tiklash va musiqasi madaniyatiga qaytarish bo'yicha katta sa'y-harakatlar zarur. Bu jarayon nafaqat organ ijrosini, balki umumiy musiqasi madaniyatining rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlashi mumkin. 1974-yilda Germaniyaning «Hermann Oule» kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan organ Toshkent konservatoriyasining Kichkina zaliga o'rnatildi. Yangi organ ikki manual, 26 registr, mexanik traktura va elektr registrlar trakturasiga ega edi. Dastlab bu asbob Konservatoriyaning Katta zaliga o'rnatilishi rejalashtirilgan edi, biroq binoning konstruksiyaviy zaifligi sababli mutaxassislarning tavsiyasiga ko'ra, Kichkina zalga joylashtirildi.

Roza Shakirovna Karimova organ musiqasini ommalashtirishga alohida e'tibor qaratdi. Ushbu asbobning boy ovoz qirralari va tarixiy-madaniy qiymatini keng auditoriyaga yetkazish uning asosiy maqsadlaridan biri bo'ldi. Media orqali targ'ibot:u televideniye va radio orqali muntazam chiqishlar ilib, organ san'atining madaniy ahamiyatini tushuntirdi. Bu musiqasi ta'limi va madaniy almashinuvga katta ta'sir ko'rsatdi. Organ musiqasining ommaviy qabul qilinishida R.Sh. Karimovanning roli katta bo'ldi. U asbobning ijrochilik imkoniyatlari va san'atdagi o'rnini shakllantirishga hissa qo'shdi. Organ san'ati nafaqat professional musiqachilar, balki keng jamoatchilik tomonidan ham madaniy fenomen sifatida qabul qilindi.

Mazkur organning Toshkent konservatoriyasidagi mavjudligi yosh avlod musiqachilarining yuqori darajada tayyorlanishiga xizmat qildi. R.Sh. Karimovanning faoliyati natijasida organ san'ati mintaqa madaniyatining ajralmas qismiga aylandi. R.Sh. Karimovanning konsert faoliyati organ musiqasiga bo'lgan qiziqishni oshirdi. Bu jarayon natijasida o'zbek kompozitorlari organ uchun yangi asarlar yaratib, milliy musiqa repertuarini boyitishga hissa qo'shdilar. Uning ijodiy faoliyati organ san'atini nafaqat saqlash, balki milliy musiqa madaniyati bilan uyg'unlashtirishga xizmat qildi. Shu tariqa, O'zbekistonda organ musiqasi rivoji yangi bosqichga ko'tarildi. R.Sh. Karimova organ ijrochiligini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. U o'zbek mualliflarining olti asarini organ uchun moslashtirdi, bu esa milliy musiqa madaniyati va organ san'ati o'rtasidagi uyg'unlashuvga xizmat qildi. Uning ijodiy yondashuvi milliy musiqa an'analarini organ bilan uyg'unlashtirishga imkon berdi. Bu esa organ musiqasining estetik va ijrochilik imkoniyatlarini yanada kengaytirdi hamda uni O'zbekiston madaniy makoniga moslashtirishga yordam berdi. R.Sh. Karimovanning faoliyati organ musiqasiga xalqaro miqyosda ham e'tibor qaratdi. Uning ijodi o'zbek madaniyatining o'ziga xosligini va boyligini namoyon qilib, milliy san'atning xalqaro sahnadagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qildi.

1977-yildan boshlab yosh organchi Tatyana Anatolevna Levina organ san'atida muhim o'rin egalladi. Uning konsertlari keng jamoatchilik va musiqa mutaxassislari e'tiborini tortib, qisqa vaqt ichida respublikada organ san'atining

rivojlanishida markaziy shaxslardan biriga aylandi. 1980-yildan boshlab T.A. Levina "Qadimgi musiqa" ansambli tarkibida klavesin va organ partiyalarini ijro etdi, bu esa barokko janriga bo'lgan qiziqishni qayta tiklashga xizmat qildi. U yakkaxon va ansambl tarkibidagi konsertlarda faol ishtirok etib, "Bahor" konsert zali va konservatoriya Kichkina zalida organ musiqasini targ'ib qilishga hissa qo'shdi. Uning asosiy missiyasi organ musiqasini O'zbekistonda tashqarida targ'ib qilish bo'ldi. Irkutsk, Odessa, Alma-Ato, Minsk va Chelyabinskda o'zbek kompozitorlarining asarlarini ijro etib, xalqaro madaniy almashinuvni mustahkamladi. Uning ijodi o'zbek organ musiqasining xalqaro maydondagi mavqegini mustahkamlashga xizmat qildi, milliy musiqa merosini jahon madaniyatiga uyg'unlashtirdi. T.A. Levina organ san'atini O'zbekistonda rivojlantirish va xalqaro maydonga olib chiqishda muhim rol o'ynadi. 1995-yilda u Fransiyaning Grenobl va Bonnda yakkaxon konsertlar berib, xalqaro konsert faoliyatining cho'qqisiga chiqdi va Bonnda organchi sifatida faoliyatini davom ettirdi. U Toshkent konservatoriyasidagi organni restavratsiya qilishda faol ishtirok etdi. 1995-yilda Germaniya elchixonasi ko'magida ta'mirlash ishlari yakunlanib, xalqaro organ musiqasi festivali tashkil etildi. Levina ilmiy va tahrirchilik faoliyati bilan ham shug'ullandi. 1988-yilda u o'zbek kompozitorlarining organ asarlari to'plamini nashr etdi, 1989-yilda esa Kiyevda "Zamonaviy organ musiqasi" nomli disk yozib, o'zbek va fransuz kompozitorlari asarlarini targ'ib qildi. Uning ijodi milliy organ san'atini xalqaro



darajada tanitdi. Faoliyati natijasida organ musiqasi O'zbekistonda keng ommalashib, milliy musiqa madaniyatining jahon sahnasida o'rnini mustahkamladi. 2000-yilda Toshkentdagi Rim-katolik kostyolida "Siegfried Merten" firmasining organi o'rnatildi. Ushbu asbobning mukammal akustikasi uni yangi konsert makonining markaziga aylantirdi.

Kostyol tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lib, 1981-yilda O'zbekistonning meros ro'yxatiga kiritildi. 1990-yillarda Polsha restavratorlari bilan hamkorlikda binoni tiklash ishlari boshlandi. Organ o'rnatilgach, kostyolda xalqaro konsertlar yo'lga qo'yildi. Tatyana Levina, Edgar Dezarbr, Kristian Shmitt? Munira Aminova kabi mashhur organchilar bu makonni madaniy markazga aylantirdi. Bu tashabbus O'zbekistonda organ san'atini rivojlantirish va xalqaro madaniy integratsiyani kuchaytirishda muhim rol o'ynadi. Kostyolda o'tkazilgan konsertlar Toshkent madaniy hayotida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu tadbirlar xalqaro muloqotni mustahkamlab, O'zbekistonning organ san'ati bo'yicha mavqeini oshirdi. Organning o'rnatilishi va kostyolning tiklanishi uning tarixiy va madaniy ahamiyatini mustahkamladi. Bu maskan sakral yodgorlik bo'lish bilan birga, jahon madaniyatining muhim qismiga aylandi.

2005-yilda O'zbekiston davlat konservatoriyasini yangi binosiga organ qurilishi bo'yicha tender e'lon kilindi, va shu tenderda "Wolfgang Eisenbarth" kompaniyasi g'olib bo'ldi. Ushbu firma Passau shahridagi dunyodagi cherkovdagi eng katta organni saqlash va xizmat ko'rsatish tajribasiga ega. Yangi

konservatoriya binosi va organ zalining qurilishi muhim tashabbus bo'ldi. Bu loyiha milliy musiqa madaniyatining xalqaro sahnaga uyg'un integratsiyasini ta'minlash uchun qadam tashladi. Zal akustikasini yaxshilash bo'yicha murakkab ishlar olib borildi. Organning dispozitsiyasini ishlab chiqishda (W. Eisenbarth va M. Aminova) barokko va fransuz organ musiqasi ijrochiligi uchun mos registrlar tanlandi. Toshkentdagi organ konsertlari milliy madaniyatni xalqaro sahnaga olib chiqdi. Ular turli an'analar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, madaniy almashinuvga xizmat qildi.

2002-yilda yangi konservatoriya binosi ochilishi bilan musiqa ta'limi uchun yangi imkoniyatlar yaratildi. Konservatoriyada organ uchun maxsus zal qurilishi rejalashtirilib, madaniy rivojlanishga muhim hissa qo'shildi. 2006-yilda Toshkent konservatoriyasida yangi organ o'rnatildi. Bir oy davomida uning qo'ng'irlari (trubalar) intonatsiyasi va sozlash ishlari amalga oshirildi. 11-noyabr kuni organning tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda mashhur organchilar L. Rukdeshel va M. Aminova ishtirok etdi. Bu organ Toshkent konservatoriyasidagi eng yirik asbobga aylandi. U 3 manual, 42 registr, mexanik traktura, elektr registr trakturasi va 4000 kombinatsiyali zetser tizimiga ega. Organning akustik sifati jahon miqyosidagi ijrochilar va tanqidchilar tomonidan yuqori baholandi. Ervan Lya Prado, Olive Latri, Ruben Abdullin, Yevgeniya Lisitsina va Martin Zander kabi organchilar uning ovoz imkoniyatlarini yuqori baholashdi. Yangi organ nafaqat ta'lim uchun, balki konsert va xalqaro madaniy tadbirlarni tashkil

etish uchun markazga aylandi. Uning imkoniyatlari o'zbek musiqa madaniyatining xalqaro miqyosga chiqishiga xizmat qildi.

Toshkent konservatoriyasida organ o'rnatilishi milliy madaniyatni boyitib, xalqaro darajada tanitdi. Bu tashabbus xalqaro madaniy muloqotni mustahkamlash va milliy musiqa merosini rivojlantirishda muhim bosqich bo'ldi. So'nggi 20 yil ichida organ atrofida keng qamrovli tadbirlar tashkil etildi. Yakkaxon va ansambl konsertlari, master-klasslar, xalqaro forumlar, diplomatik tadbirlar va maktablar uchun ma'ruzali konsertlar o'tkazildi. Organ musiqasi minglab tinglovchilar uchun yangi madaniy tajriba yaratdi. Uning noyob ovozi va ijrochilik imkoniyatlari turli auditoriyaga tanishtirildi.

O'zbekistonda organ G'arbiy Yevropa an'analaridan farqli o'laroq, milliy madaniyatga moslashtirilib, integratsiya qilinmoqda. Bu jarayon madaniy o'zaro ta'sirning yorqin namunasi bo'lib, organ musiqasining yangi kontekstda rivojlanishini ta'minlamoqda. Organ san'atining O'zbekistondagi rivoji xalqaro madaniy almashinuv va sintez jarayonining yorqin namunasidir. Bu asbob nafaqat G'arb musiqa an'analarini saqlash, balki ularni milliy madaniy muhit bilan uyg'unlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Toshkentda tashkil etilgan organ tadbirlari milliy musiqa ta'limini boyitib, xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamladi. Har bir konsert va tadbir madaniyatlararo muloqotga xizmat qilib, O'zbekistonning jahon madaniy sahnasidagi o'rnini mustahkamladi.

An'anaviy o'zbek musiqasi – Shashmaqom, baxshilar san'ati va xalq qo'shiqlari – monodiyaga asoslangan bo'lsa, organ musiqasi polifonik tuzilishi bilan madaniy ko'prik vazifasini o'taydi. U milliy san'atni yangi shakllar bilan boyitib, Sharq va G'arb o'rtasida musiqiy uyg'unlik yaratadi. Organ ovozi inson ruhiyatiga chuqur ta'sir o'tkazib, yuksaklik va muqaddaslik hissini uyg'otadi. O'zbekistonning ko'p millatli va konfessiyali muhitida u universal til sifatida turli e'tiqod vakillarini birlashtiruvchi estetik va emotsional muloqot vositasiga aylandi. Organ musiqasining O'zbekiston madaniy hayotiga integratsiyasi milliy san'at chegaralarini kengaytirib, uni global madaniy jarayonlarga qo'shilishiga turtki berdi. Ushbu asbob nafaqat estetik san'at vositasi, balki madaniy uyg'unlik va birdamlikni mustahkamlovchi omil sifatida ham namoyon bo'ldi. Organ musiqa ta'limiga ham katta ta'sir ko'rsatib, konservatoriyada konsertlar va master-klasslar orqali G'arb klassik an'analarini targ'ib qilmoqda. tafakkurini rivojlantirib, talabalarni jahon merosi bilan tanishtiradi.

Bundan tashqari, organ musiqasi madaniy turizm va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish vositasi sifatida ham e'tiborga molik. Festival va konsertlar O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada, organ san'ati milliy madaniyatni boyitib, madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlash va O'zbekistonning jahon madaniy merosidagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.




FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Галущенко И.Г. Значение сотворчества в научной и педагогической деятельности музыковеда // Горизонты и риски развития образования в условиях системных изменений и сифровизации: Сборник научных трудов XIII международной научно-практической конференции. 25 января 2020 года. С. 403-407.
2. Ибрагимова Х.С. Совершенствования механизмов подготовке будущих учителей музыки к педагогической деятельности на основе ритмики // yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi // in-academy.uz/index.php/yo
3. Хо‘jaeva M.X. Umumta’lim maktablarida musiqa o‘qitish metodikasi. 2-nashri. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi. 2008 y.
4. Shermuhammadov B., Namozova D. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini kreativ kompetentligini takomillashtirish modeli. Farg‘ona Davlat Universiteti, 29(1), 2023 y.
5. The Importance of Music. A National plan for Music education.
6. Ibragimova, K. (2023). Improving the mechanisms for preparing future music teachers for pedagogical activities on the basis of rhythm. International Journal of Pedagogics, 3(04), 100-102.
7. Khonzoda, I. (2024, February). Methods of oriental scientists in forming music-rhythmic competencies in future music teachers. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 18-22).
8. Ибрагимова, Х. (2024). Совершенствования механизмов подготовке будущих учителей музыки к педагогической деятельности на основе ритмики. Молодые ученые, 2(3), 4-6.
9. Ibragimova X. S. (2024). Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini ritmikaga asoslangan pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish. Eurasian Journal of Academic Research, 4(1-2), 39-42.
10. Ibragimova K. S. (2022). Development of musical rhythmic competences in the students of higher education institutions. Science and innovation, 1(B3), 708-714.
11. Ибрагимова, Х. С. (2021). Обучение ритмике студентов педагогических вузов. In Наука. Культура. Искусство: актуальные проблемы теории и практики (pp. 321-323).
12. Ибрагимова, Х. С. К. (2020). Музыкальная деятельность с незрячими детьми. Наука и образование сегодня, (12 (59)), 50-51.
13. Ibragimova, X. S. (2020). The importance of musical aesthetics in the formation of musical culture. Экономика и социум, (10 (77)), 80-83.
14. Ибрагимова, Х. С. (2024). Бўлажак мусиқа ўқитувчиларида мусиқий-ритмик компетенцияларни шакллантиришда ғарб мутафаккирлари қарашлари. Oriental Art and Culture, 5(6), 666-671.

15. Ibragimova, X. (2024). Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida musiqiy-ritmik kompetensiyalarni takomillashtirishda g'arb amaliyotchi olimlari qarashlari. Nordic_Press, 5(0005)

16. Ibragimova, X. S. (2024). Musiqa o'qituvchilarida musiqiy-ritmik mexanizmlashtirish turlari. Inter education & global study, (10), 493-501.

17. Ibragimova X. S., & Ismailov T. X. (2024). Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida musiqiy-ritmik kompetensiyalarni shakllantirishda g'arb mutafakkirlari qarashlari. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 2(6), 59-62.



**QARAQALPAQSTANDA DIRIJYORLIQ KÓRKEM ÓNERINIŃ
QÁLIPLESIWİ**

**СТАНОВЛЕНИЕ ДИРИЖЕРСКОГО ИСКУССТВА В КАРАКАЛПАКСТАНЕ
FORMATION OF THE ART OF CONDUCTING IN KARAKALPAKSTAN**

Zuxurov Maxmud
Ózbekstan mámleketlik

konservatoriyasın Nókis Filialınıń w.w.a. dotsenti

Annotatsiya: *Bul maqalada Qaraqalpaqstanda dirijyorliq kórkem óneriniń qáliplesiwı hám usı taraw wákilleriniń jetilisip shıǵıwı haqqında sóz boladı. Jáne de dúnya júzi, ózbek hám qaraqalpaq dirijyorları menen salıstırw, olardıń taktikalıq hám ámeliy bilimlerinен paydalanıwǵa háreket etildi.*

Аннотация: *В данной статье говорится о становлении школы дирижёрского искусства в Каракалпакстане и развитии представителей этой сферы. А также попробуйте сравниться с другими мировыми, узбекскими и каракалпакскими дирижерами, использовать их тактические и практические знания.*

Annotation: *This article talks about the formation of the school of conducting art in Karakalpakstan and the development of representatives of this field. Also, try to compare with other world, Uzbek and Karakalpak dirijors, use their tactical and practical knowledge.*

Gilt sózler: *Dirijyor, skripka gıltı, largo, vals, temp, skripka, sazlar, muzıka.*

Ключевые слова: *дирижёр, скрипичный ключ, ларго, валс, темп, скрипка, инструменты, музыка.*

Key words: *conductor, treble clef, largo, waltz, tempo, violin, instrumental music, music*

Kirisiw. Dirijyorlıq texnikası, bir tárepten, atqarıwshını muzıkalıq qábiletine, onı dóretiwshilik sezimine, ekinshi tárepten bolsa joqarı tayarlıǵına hám muzıkalıq sawatlılıǵı menen tuwrıdan-tuwrı baylanıslı. Házirge shekem dirijyorlıq texnikası máselelerine arnalǵan kóplegen qollanbalar baspadan shıqqan. Olardan dirijyorlıq kásibi qásiyetlerin ózlestiriw procesine tayarlıq jumıslarında paydalanıw múmkin, sonday-aq, jumıstı áwmetli hám nátiyjeli bolıwına járdem beredi. Dirijyorlıq sırların ózlestiriw procesi, onı quramalı

bóleklerinen kelip shıqqan halda shártli ráwishte úsh tiykarǵı basqıshqa bóliw múmkin:

I basqısh – dirijyorlıq formalarını. barlıq túrlerin ózlestiriw jolları menen tanısıw; qollardı tiklew, shınıǵıwlar;

II basqısh – dirijyorlıq formalarınıń barlıq túrlerin bekkemlew; shtrixlar, muzıkalıq materialdı ózlestiriw baslanǵısh bólimi;

III basqısh – oqıw materialın ózlestiriw barısında dirijyorlıq texnikasını bekkem ózlestiriw; muzıkalıq shıǵarmalardı joqarı professional dárejede

atqarıw; partitura menen islewde erkin kónlikpeler payda etiw hám notadan oqıwdı orta dárejede ózlestiriwden ibarat.

Tiykargı bólim: Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevtıń Qaraqalpaqstanǵa ámeliy saparı dawamında Ózbekstan mámleketlik konservatoriyasınıń Nókis Filialınıń shólkemlestiriw haqqındaǵı tapsırmasına tiykar, Ministrler Kabinetiniń 2021-jıl 5-apreldegi 186-sanlı qararına muwapıq Ózbekstan mámleketlik konservatoriyasınıń Nókis Filialı shólkemlestirildi [1]. Usı filialda dirijyorlıq kórkem óneri qánigeligi iskerlik kórsetip kelmekte.

Jurtbassımızdıń uzaqtı oylap ámelge asırǵan bul qararı kóplegen Qaraqalpaqstanlı jaslardıń arzu-tileklerin, ármanlarınıń orınlanıwına sebepshi boldı.

Dirijyordıń gewdesi, bası, qolı, ayaqları dirijyor apparatı túsiniǵın ańlatadı. Bul apparatıń nátiyjeli islewi ushın dene bólegi, bas, qol, iyin hám ayaqlarǵa salıstırǵanda tuwrı jaǵdaydı iyelewi kerek. Dirijyorlıq apparatınıń barlıq bólimleri óz ara baylanıslı hám málim dárejede birbirin toltıradı.

Dirijyorlıq etiw waqtında dene tik, erkin hám sonıń menen birge háreketke tayar jaǵdayda kókirek qápesi sál kóterilgen, iyin bolsa tik turıwı kerek. Iyindi júdá kóterip jiberiw múmkin emes – bul bel bulshıq etleri háreketsiz jaǵdayda bolıwına, shıǵanaqlar eki tárepke «tarbaqaylap» ketiwine hám ulıwma pútkil deneniń qolaysız jaǵdayǵa keliwine sebepshi boladı. Hádden tıs iyiliw hám búgiliw nadurıs. Bunday jaǵdayda háreketler tómen hám isenimsiz bolıp qaladı. Deneniń hádden zıyat jıldamlıǵı, atqarıwshılıq waqtında tez-tez burılıw, iyiliw basqa da artıqsha jaǵda 8

da hawlıqpalıq sıyaqlı háreketler kórinedi. Ádette bunday jaǵdayda dirijyordıń texnikalıq kónlikpeleri jaqsı emesligin kórsetedi.

Ulıwma, dirijyordıń pútkil sırtqı kórinisi estetikaǵa tiykarlanıwı kerek: dene tábiyyıy jaǵdayda, kókirek qápesi kerilgen, iyinler tuwrılangan bolıwı kerek. Sonıń menen birge dirijyor heshqashan qáddin búgip turmawı kerek. Deneniń jaǵdayı dirijyordıń dem alıwına da tásir etedi. Jelke hám pútkil dene sonday jaǵdayda bolıwı kerek, dirijyordı erkin dem alıwına irkinish jasamawı kerek. Dirijyordıń dem alıwı usınıń nátiyjeleri tábiyyıy bolıwı kerek, ol pútkil muzıka hám onıń bólimlerin nápesi menen baylanıstıradı. Sol sebepli de «Dirijyor muzıka menen birge nápes aladı» degen ájayıp sóz bar.

Dirijyordıń dem alıwı qosıqshılar hám sazandeler nápesi menen de tábiyyıy baylanıladı. Dirijyordıń pútkil gewdesi mudamı orkestrdiń hárbir aǵzası hám qalaberse, tınlawshılardıń dıqqat orayında bolıwın inabatqa alǵan halda ol ózin báhama qadaǵalap turıwı, artıqsha háreketler etpewi kerek. Dirijyordıń pútkil dıqqat-itibarı orkestrge qaratılıp, onıń háreketleri anıq, isenimli hám usı waqıtta sol qarsısındaǵı orkestrge kómeklesiwge baǵdarlangan bolıwı shárt.

Dirijyorlıq apparatın «ornatıw» qol, iyin, moyın, bas bulshıq etlerin bosastırıw, erkin tutıwdan baslanadı. Dirijyorlıqtı úyretiwshi pedagogtıń wazıypası áwele hárbir student ushın dene, bas, qol hám ayaqlardıń eń qolaylı hám tábiyyıy jaǵdayın tabıwdan ibarat. Bunıń menen studentti qáddi-qáwmetin tuwrı tutıw, tiykargı dirijyorlıq jaǵdayın anıqlawǵa úyretiw kerek. Sonı esten shıǵarmaw kerek, qáddi-qáwmetti tuwrı tutıw tek



ğana estetikalıq kózqarastan zárúrli bolıp qalmastan, al ámeliyat ushın da zárúr. Sonı aytıwımız kerek, háreketlerdi ózlestiriw qábileti hár dirijyorda hár túrli keshedi. Geyparalarda ańsat ğana háreket islese, basqalarda saldamlı qunt hám sabırlılıqtı talap etedi.

Dirijyorlıq apparatın tiklew procesine kirisiwde dirijyordıń qolı muzikalıq shıǵarmanı sáwlelendiriw quralı ekenligin umıtpawımız zárúr. Bunda qollar atqarıwshıǵa kesent bermesten, al atqarıwshılıq wazıypalardı anıq hám mánili orınlawǵa járdem beriwı lazım. Dirijyorlıq texnikasın professional atqarıwshılıq kózqarasınan mazmun hám mánisine tiykarlanıp eki túrge ajratıw múmkin:

a) dirijyorlıq texnikasınıń tegis túri, yaǵnıy anıq islengen texnikalıq jolları. Bunda úyrenilip atırǵan shıǵarmanıń anıq sızılması, túrli texnikalıq qollanbalar-taktlestiriw, temp, pauza, ritmikalıq qosdawıslıq hám úzilislerdi kórsetiwshi háreketler járdeminde sáwlelenedi. Dirijyorlıq texnikasınıń bul túri shıǵarmanı úyreniwdiń dáslepki bóliminde, yaǵnıy shıǵarma menen ulıwma tanısıw barısında hám de partitura «betlerinen oqıw» kelbetin islep shıǵıw ushın qollanıladı.

b) dirijyorlıq texnikasınıń kólemli túri muzikalıq shıǵarmanı ózlestiriw hám atqarıwdıń joqarıraq basqışında qollanıladı. Bul kólemli túr 9 dirijyorlıqtıń texnikalıq qollanbaların atqarıwda jáne de tereńlesiw hám náziklikti talap etedi hám bunda olar túrli shtrixlar, dinamika, háreketlerdiń xarakterliligi menen bayıtıladı. Dirijyorlıq texnikasınıń kólemli túri ápiwayı taktlestiriwdi, berilgen shıǵarmanı ishki pulsine say bolǵan, jańa tábiyiy dem menen toltradı

hám quramalastıradı. Dirijyorlıq apparatınıń ornatılıwı quramalı process esaplanadı. Ayırım jaǵdaylarda oqıwshınıń tábiyatı iykemlesiwshi erkin hám jeńil bolıwı ushirap turadı hám bul jaǵday ózlestiriw procesiniń birqansha jeńil ótiwin támiyinleydi. Biraq, bunday jaǵdaylar kem ushiraydı.

Dirijyorlıq apparatın ornatiwdıń dáslepki basqıştı gewdeden baslanadı: ayaqlardı iyin keńliginde, bir ayaqtı aldırǵa umılǵan halda (teń salmaqlılıqtı saqlaw ushın) tutıw lazım. Hárbir adam ózine qolaylı bolǵan dirijyorlıq jaǵdayın tutıwı múmkin. Bunda shıǵanaqlar, iyin, buwınlar, bas hám gewde erkin, jeńil turıwı kerek. Ol yaki bul háreket dawamında gewde biraz alǵa umtılıp, qollar háreketine járdem beredi. Áhmiyetlisi, atqarıwshı shınıǵıwlar járdeminde qollar hám pútkil deneniń tolıq erkin bolıwına erisiwi lazım. Házirgi waqıtta bul jaǵday dene hám qollardıń «salbırıp» yaki «asılıp» turıwın ańlatpaydı.

Tolıq erkinlikti sezingen halda barmaqlardıń ushı menen anıq bir noqat, yaǵnıy hárbir úlestiń «awırlıq noqatı»n seziwge erisiw zárúr. «Awırlıq noqatı» sezilmese, dirijyorlıq júzeki hám mánissiz bolıp, professional dárejege shıǵa almaydı. Kóp jaǵdaylarda, ol yaki bul úlesti kórsetiwde, baslanǵısh basqış atqarıwshılar háreketi de úleske qaytarıwshı silteme (qol arqaǵa, baǵdarda sekirip ketedi) kórsetiledi. Bul jaǵday dirijyorlıq apparatınıń ele tolıq azat etilmegenliginen derek beredi hám nátiyjede atqarıwshı úlesin «qısılǵan» qol menen kórsetedi.

Iyin, shıǵanaq hám bilek sıyaqlı aǵzaları da atqarıw funkciyasın orınlaydı, yaǵnıy olardıń háreketi derlik sezilmes

dárejede bolsa da, atqarıwshılıq jumısında kerekli wazıyanı atqaradı. Qolay hám durıs dirijyorlıq jaǵdayın iyelegennen keyin, atqarıwshı shıǵanaqlardı kókirek dárejesinde búkken halda, qol buwınların kóteredi. Bunda atqarıwshınıń alaqları barlıq jaǵdaylarda, báhama tómenge qaratılǵan boladı. Shıǵanaqlar gewdeden 5-10 cm aralıqta jambas tárepke jılıǵan bolıwı kerek.

Soń shıǵanaqlarda búgilgen qollardı kókirek dárejesinde biraz aldınǵa jılıtıw kerek. Alaqlar óz ara iyin keńligi aralıǵında bolıp, atqarıw waqtında bir-birine bir barmaq uzınlıǵına shekem jaqınlasadı. Sonı ayırıqsha aytıw kerek, qollardıń bir neshe sol qatardan júdá alǵa jılıǵan (shıǵanaqlar iyin biyikligi dárejesinde) kórinistegi dirijyorlıq saxnaları bar. Bul ornalıw jolı kelte boylı atqarıwshılardıǵa tán bolıp, házirgi waqıtta atqarıwda birqansha qolaysızlıqlar tuwdıradı. Bunda qollar báhama «asılıp» turadı hám tez sharshaydı. Atqarıwshı kerekli tayarlıq poziciyasın iyelegennen soń, qol háreketleri baslanadı [2].

Tayarlıq poziciyası júdá áhmiyetli bolıp, atqarıwdıń baslanıwında qollanıladı. Sebebi, bunda da dirijyordıń hám jámáát aǵzalarınıń barlıq dıqqat-itibarı bir orınǵa jámlenedi.

Dirijyorlıqta úsh tiykarǵı poziciya bar:

1-poziciya. Biyik tembr registri ádette bel dárejesinde, yaǵnıy birinshi poziciyada qol menen kórsetiledi. Dirijyordıǵa jaqın jerde, ádette eń joqarı registrdegi ásbaplar jaylasadı;

2-poziciya. Kókirek dárejesinde tutıladı. Bunda orta registrdegi ásbaplarǵa yamasa pútkil jámáát, yaǵnıy orkestrge belgi kórsetiledi;

3-poziciya. Eń tómen registrli hám de urıp shertiletuǵın ásbaplar toparına belgi kórsetiwde qollanıladı.

Dirijyorlar atqarıwda, ádette ekinshi poziciyadan paydalanadı. Sebebi, bul poziciyada hár bir ásbap toparına belgi kórsetiw maqsetinde qollardı qıspay turıp keńirek orın iyelew múmkin. Dirijyorlıqta poziciyalar túrli tembrdegi ásbaplarǵa belgi kórsetiw ushın qollanıladı. Ayırıqsha itibar beriw kerek, ayırım dirijyorlar bul poziciyalardı (ásirese, úshinshi) qollanıw dawamında tap atqarıwshılardıǵa tiyiwge umılǵan qollardı aldınǵa birqansha sozıp jiberedi. Bul jaǵday úlken qáte esaplanadı. Sebebi, hár bir dirijyor ol yaki bul poziciyanı ornalıǵan úlgileri boyınsha buzbastan paydalanıwları shárt.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Lex.uz
2. Zuxurov M. Dirijyorlik. Oqıw qollanba. Qaraqalpaqstan baspası. 2024-jıl, 8-bet.



**O'QUVCHILARDA KREATIV YONDASHUV VOSITASIDA ESTETIK
DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION
TEKNOLOGIYALARI
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО
МИРОВОЗГРАЖДЕНИЯ У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ТВОРЧЕСКИЙ ПОДХОД
INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING AESTHETIC
WORLDVIEW IN STUDENTS THROUGH A CREATIVE APPROACH**

Aslanova Nargiza
Buxoro davlat universiteti
tayanch doktoranti

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada tasviriy san'at orqali o'quvchilarda kreativ yondashuv vositasida estetik dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar tahlil qilingan. Ushbu yondashuv san'at ta'limining zamonaviy talablariga mos holda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, o'quvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish, hamda ularning estetik va madaniy qadriyatlarini mustahkamlashni nazarda tutadi. Maqolada o'qitish jarayoniga interfaol texnologiyalar, raqamli vositalar, hamda integratsiyalashgan yondashuvlarni joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot o'quvchilarning tasviriy san'atni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning ijodiy salohiyatini namoyon etishga zamin yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratadi.*

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются инновационные технологии, применяемые для формирования и развития эстетического мировоззрения у учащихся через творческий подход в изобразительном искусстве. Акцент сделан на развитие творческих способностей, формирование критического мышления, а также укрепление эстетических и культурных ценностей в соответствии с современными требованиями художественного образования. В статье представлены практические рекомендации по внедрению интерактивных технологий, цифровых инструментов и интегрированных подходов в процесс обучения. Исследование уделяет особое внимание повышению интереса учащихся к изучению изобразительного искусства и созданию условий для раскрытия их творческого потенциала.*

***Annotation:** This article explores innovative technologies employed to develop and enhance students' aesthetic worldview through a creative approach to visual arts. The approach focuses on fostering creative abilities, developing critical thinking, and strengthening aesthetic and cultural values in alignment with modern demands in art education. The study provides practical recommendations for integrating interactive technologies, digital tools, and interdisciplinary approaches into the teaching process. Special attention is given to increasing students' interest in visual arts and creating opportunities for them to showcase their creative potential.*



Kalit soʻzlar: *tasviriy sanʼat, kreativ yondashuv, estetik dunyoqarash, innovatsion texnologiyalar, ijodiy fikrlash, estetik did.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, творческий подход, эстетическое мировоззрение, инновационные технологии, творческое мышление, эстетический вкус.*

Key words: *visual arts, creative approach, aesthetic worldview, innovative technologies, creative thinking, aesthetic taste.*

KIRISH. Oʻzbekiston Respublikasi taʼlim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida oʻquvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning estetik dunyoqarashini shakllantirish va milliy hamda jahon madaniyatiga qiziqishini oshirish masalalari muhim oʻrin tutmoqda. Ushbu yoʻnalishdagi islohotlar Prezidentimizning 2018-yil 14-avgustdagi “Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5544-sonli Farmoni va 2020-yil 6-noyabrdagi “Yoshlarni maʼnaviy va madaniy rivojlantirish, ular oʻrtasida kitobxonlikni targʻib qilish toʻgʻrisida”gi PQ-6099-sonli Qarori bilan huquqiy asosga ega boʻldi. Bu hujjatlarda zamonaviy texnologiyalarni taʼlim jarayoniga keng joriy etish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish va yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash masalalari belgilangan.

Tasviriy sanʼat taʼlimi bu borada alohida ahamiyatga ega boʻlib, u oʻquvchilarda atrof-muhitga nisbatan estetik yondashuvni shakllantirish, ularning badiiy idroki va didini rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Bugungi kunda oʻquvchilarning tasviriy sanʼatni oʻzlashtirish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qoʻllash nafaqat oʻquv jarayonini jonlantirish, balki ularning

ijodiy qobiliyatlarini roʻyobga chiqarishda ham muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi “Taʼlim va tarbiya sifatini oshirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-81-sonli Qarorida taʼlimda raqamli texnologiyalar va zamonaviy metodlarni joriy etish boʻyicha muhim koʻrsatmalar berilgan. Shuningdek, milliy qadriyatlarimizni xalqaro maydonga olib chiqishda sanʼatning tutgan oʻrni qayd etilgan. Ushbu hujjatlar asosida tasviriy sanʼat taʼlimida kreativ yondashuvlarni keng qoʻllash, oʻquvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga undash masalalari tadqiqotning asosiy dolzarbligini belgilaydi.

Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo boʻylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, sanʼat va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy gʻoyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga baʼzan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real koʻnikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, oʻz navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Kreativ fikrlash taʼsiri butun jamiyatga

sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Tasviriy san'at orqali o'quvchilarda estetik dunyoqarashni rivojlantirish mavzusida adabiyotlarni nomlari bilan keltirilgan holda tahliliy fikrlar quyidagicha: "Tasviriy san'at maktablarda o'quvchilarga dars mashg'ulotlarini tashkil etishda innovatsion usullardan foydalanish". Mazkur maqolada tasviriy san'at darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari yoritilgan. Mualliflar innovatsion pedagogik metodlar yordamida o'quvchilarning estetik dunyoqarashini rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatib, interaktiv yondashuvlarning samaradorligini isbotlaydi.

N. Xoliqova, M. Qobilovlarning "Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar kreativligini oshirish" nomli maqolasida tasviriy san'at fanida kreativ yondashuvlarni qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Mualliflarning fikriga ko'ra, kreativ metodlar orqali o'quvchilarda ijodiy fikrlash va badiiy qiziqishni oshirish mumkin. G.Yo'ldoshevaning "Musiq va san'at maktablarida o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashning nazariy tamoyillari" nomli tadqiqotida san'at ta'limida axloqiy va estetik tarbiyaning o'rni keng yoritilgan. Tasviriy san'at o'quvchilarning madaniy va ma'naviy qiyofasini shakllantirishda asosiy vosita sifatida tavsiflanadi. Muallifning

ta'kidlashicha, tasviriy san'at orqali estetik idrokni kuchaytirish va ma'naviy qadriyatlarni singdirish mumkin.

I. Karimova, S. Tursunovanning esa "Tasviriy san'at darslarining integrativligi va o'quvchilarda estetik dunyoqarashni shakllantirish" nomli maqolasida tasviriy san'atning boshqa fanlar bilan integratsiyasi orqali o'quvchilarda estetik dunyoqarashni shakllantirishning samaradorligi ko'rsatilgan. Shuningdek, integratsion yondashuvlar yordamida o'quvchilarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishini oshirish yo'llari taklif etilgan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at ta'limi o'quvchilarning estetik didini rivojlantirish va kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda kuchli vosita hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonida samarali qo'llansa, bu o'quvchilarning san'atga bo'lgan qiziqishini kuchaytirib, ularni ijodiy tafakkurga yo'naltirish imkonini beradi.

Mustaqil hamdo'stlik davlatlari olimlaridan L.Vigotskiy, A.Leontev, D.Elkonin, O.Vasilchenko, E.Melkumova, V.Miretskaya, M.Suxomlinova, E.Emmanuel kabilarining ilmiy ishlarida shaxs ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari o'rganilgan. E.P.Torrance, N. Rogers, J.Purnell, P.Roberts, A.M.Galligan, Sh.Tatsuno kabi xorijiy olimlarning ishlarida shaxsning individual qobiliyatlari, ijodiy salohiyatini namoyon etish masalalari ochib berilgan.

Darhaqiqat, ta'lim sohasidagi mutaxassislar va psixologlarning fikriga ko'ra, ijodiy faoliyat bilan bog'liq fikrlash jarayonlarida mashg'ul bo'lish deb



tushunilgan kreativ fikrlash bir qator boshqa shaxsiy ko'nikmalarning ham rivojlanishiga olib keladi. Shular jumlasiga metakognitiv qobiliyat, insonlar bilan muomala qilish va shaxsning o'zini yaxshiroq anglash ko'nikmalari, muammoni hal etish ko'nikmalari kiradi. Shu bilan birga, shaxs kamoloti, ta'lim olishdagi muvaffaqiyati, kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati va jamoatchilik orasidagi obro'si ham insonning kreativ fikrlash ko'nikmasiga bog'liq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Tasviriy san'at orqali o'quvchilarda estetik dunyoqarashni rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'limning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalarning ta'lim jarayoniga joriy etilishi, ayniqsa, kreativ yondashuvlarni qo'llash, o'quvchilarning san'atni idrok etish qobiliyatini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida quyidagilar aniqlandi:

San'at ta'limi orqali o'quvchilarda nafaqat estetik idrok, balki ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Buning uchun o'quv jarayonida interfaol usullar, masalan, vizual materiallar, raqamli vositalar va amaliy mashg'ulotlardan keng foydalanish muhim.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, STEAM metodologiyasi, multimedia vositalari va o'yinli ta'lim usullari o'quvchilarni o'quv jarayoniga qiziqishini oshirish va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tasviriy san'at darslarida badiiy loyihalarni amalga oshirish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi rag'batlantiriladi.

O'quvchilar san'at orqali tabiat, insoniyat va jamiyatni estetik idrok etishni o'rganadilar. Bu jarayon o'quvchilarning madaniy qadriyatlarni anglashiga, milliy va xalqaro san'atga hurmat bilan qarashiga ko'maklashadi.

Kreativ fikrlashda ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikma bo'lib, bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko'nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarida ishlashi, yangi muammolarni yangi ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Maktab yoshlar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, shu jumladan ijodiy iste'dodlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kreativ fikrlash o'quvchilarning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab quvvatlaydi.

O'quvchining qiziquvchanligi ta'lim jarayonida qo'l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta'lim maqsadlari kontekstida ham bu samara beradi. Maktabda o'quvchining motivatsiyasi va qiziqishini



oshirish uchun, barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur. Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o'quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o'z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi.

Boshqa ko'nikmalar kabi, kreativ fikrlash ham amaliy va yo'naltirilgan yondashuv orqali rivojlantirilishi mumkin. Ba'zi o'qituvchilarga o'quvchining kreativ fikrlashini rivojlantirish o'quv dasturidagi boshqa fanlar evaziga bo'layotgandek ko'rinadi. Aslida, o'quvchilar barcha fanlarda kreativ fikrlashi mumkin. Kreativ fikrlash bilim berishga qaratilgan dars mobaynida ko'r-ko'rona yodlash o'rniga tadqiqot va ixtironi qo'llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantirilishi bilan alohida ahamiyatga ega.

O'qituvchilar kreativ fikrlashni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shart-sharoitlarni bilishlari va o'zlari ham o'quvchilarga fikrlashda ko'proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak. Kreativ fikrlash qay tariqa vujudga kelishi borasidagi puxtaroq tasavvur, o'z navbatida, o'qituvchilarga ta'lim jarayonida o'quvchilarda ijodiy g'oyalar bo'lishi uchun muayyan vaqt talab etiladi. Kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholash isbotga tayangan dalillar asosida shakllantirilib, o'quvchilar kompyuter platformasida qilayotgan, o'qiyotgan va yaratayotgan narsalarni ko'p jihatli malakalar bilan bog'laydi.

Kreativlikni baholash - o'quvchining qobiliyatlari haqidagi muayyan da'volarni dalilga asoslangan

fikrlash jarayonida tahlil etishdir. Umuman olganda, o'quvchining baholashdagi vazifalarga javobi ushbu fikrlash jarayonida dalilla r bilan ta'minlaydi, psixometrik tahlil esa har bir da'voni tahlil qilish uchun isbotning yetarli ekanligini belgilaydi.

Kreativ fikrlash testlarining birinchi avlodi domenning umumiyliigi, ya'ni har qanday sohadagi ijodkorlikning umumiy xususiyatlari mavjudligi haqidagi g'oyaga asoslangani kabi tadqiqotchilar ijodkorlikni baholaydigan sinovlarda shaxsning natijalari umumiyashtirilishi mumkinligini, bir sohadagi kreativlik ikkinchi sohaga ham o'tkazilishi mumkinligini taxmin qilganlar. Ushbu tadqiqotlar yo ijodkorlik uchun zarur bo'lgan qobiliyat va ko'nikmalar domenga bog'liq bo'lib, domendan domenga ajralib turishini ta'kidlamogda, yoki ikki yondashuvning qisman jamlagan ijodkorlik modellarini taqdim etmogda. "Domen" deganda "san'at, adabiyot, tarix yoki astronomiya kabi ilmning har qanday muayyan sohasi" yoki "muayyan ilm sohasi asosida yotadigan va uni qo'llab-quvvatlaydigan reprezentatsiyalar turkumi" tushuniladi.

Tadqiqotchilar tomonidan kreativ yondashuvning quyidagi domenlari sanab o'tilgan: kundalik, ta'limga oid, harakatga oid, ilm-fanga oid va san'atga oid sohalar. Ijodiy faoliyat "san'atkorlik" va "ilmiy" sohalariga ajratilgan. Ijodiy faoliyat uch umumiy sohaga bo'linishi mumkin: verbal, san'atkorlik va muammoni hal qilish. Kreativlik sohalarini o'rgangan amaliy tadqiqotlarning batafsil tahliliga ko'ra, matematika ilmiy sohasi doimo boshqa ijodkorlik sohalardan yaqqol ajralib turadi. Har qanday shaxsning ijodiy faolligi uchun to'rt zaruriy qismi



sanab o‘tiladi: sohaga bog‘liq qobiliyatlar; kreativlikka bog‘liq jarayonlar; vazifa borasidagi ishtiyiq (motivatsiya); mos, qulay sharoit.

Ushbu tadqiqot tasviriy san‘at orqali o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini rivojlantirishda quyidagi natijalarga olib keldi:

Tasviriy san‘at darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu, o‘z navbatida, ularni mustaqil ravishda san‘at asarlarini tahlil qilish va ijodiy mahsulotlar yaratishga undaydi.

Dars jarayonida o‘quvchilar san‘atning go‘zallik va estetik jihatlarini anglash imkoniga ega bo‘lib, ularning madaniy va ma‘naviy rivojlanishiga katta hissa qo‘shiladi.

Interfaol va amaliy usullarni qo‘llash o‘quvchilarning ta‘lim jarayoniga faol jalb qilinishini ta‘minlab, ularning bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi.

Tasviriy san‘at darslarida raqamli texnologiyalar va kreativ yondashuvlarni qo‘llash o‘quvchilarning san‘atga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, ular orasida ijodiy faoliyatga intilishni rag‘batlantiradi.

Ushbu tadqiqot natijalari tasviriy san‘atni ta‘lim jarayoniga integratsiya qilishning ahamiyatini tasdiqlaydi. Ta‘lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali nafaqat ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, balki o‘quvchilarning umumiy madaniy va ma‘naviy kamolotiga erishish mumkin.

XULOSA. Tasviriy san‘at orqali o‘quvchilarda estetik dunyoqarashni rivojlantirish ta‘lim jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ushbu tadqiqot davomida

quyidagi asosiy xulosalarga kelindi: Tasviriy san‘at o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, ularda estetik idrok, tanqidiy tafakkur va madaniy qadriyatlarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalarni tasviriy san‘at ta‘limiga joriy etish orqali darslar samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning san‘atga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish mumkin. O‘quvchilarda san‘at asarlariga nisbatan ijodiy va analitik yondashuvni rivojlantirish estetik dunyoqarashni mustahkamlashga yordam beradi. Bu jarayon ularning umumiy madaniy saviyasini oshirish va ijodiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Tasviriy san‘at orqali o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish faqat ta‘lim doirasida cheklanib qolmasdan, ularning hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishda ham katta o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, milliy madaniyatni qadrlash va jahon san‘ati bilan tanishish imkonini beradi.

Yuqoridagi xulosalarga asoslanib, tasviriy san‘at ta‘limida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kengroq joriy etish, darslarni interfaol va ijodiy shakllarda tashkil qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish zarur. Bu nafaqat o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yuriev, A. (2015). Tasviriy san’at va uning pedagogik maqsadlari. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Mamedova, Z. (2020). “Innovatsion texnologiyalarni tasviriy san’atda qo‘llashning ahamiyati.” O‘zbekiston pedagogika jurnali, 1(3), 34-40.
3. Rasulov, T. (2019). “Kreativ yondashuvni o‘quvchilarda rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar.” Pedagogika va innovatsiyalar, 2(7), 21-30.
4. Rahimov, A. (2021). Tasviriy san’atda kreativ yondashuvni rivojlantirish metodikasi. PhD dissertatsiyasi, Toshkent davlat pedagogika universiteti.
5. Xudoyberganova, N. (2022). “Estetika dunyoqarashni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar.” O‘quvchi va san’at,



TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA GENDER YONDASHUVINING DOLZARB
MUAMMOLARI
CURRENT PROBLEMS OF GENDER APPROACH IN THE EDUCATIONAL
PROCESS

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Sharifzoda Sardorbek
Ma'mun universiteti rektor v.b.,
Pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori(PhD), dotsent

Аннотация: Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida gender yondashuvining dolzarb muammolari tahlil etilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida gender tengligi masalasi nafaqat huquqiy, balki pedagogik va psixologik jihatdan ham o'rganilishi lozimligi ta'kidlangan. Shuningdek, gender yondashuvning ta'lim jarayonidagi samaradorligi, uning ijtimoiy va madaniy jihatlari hamda o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Maqolada xorijiy va milliy tajribalar asosida gender yondashuvni ta'lim jarayoniga tatbiq etish usullari, mavjud muammolar va ularning yechimlari bo'yicha ilmiy-tahliliy fikrlar keltirilgan.

Аннотация: В статье анализируются современные проблемы гендерного подхода в образовательном процессе. Подчеркивается, что проблема гендерного равенства в современной системе образования должна изучаться не только с правовой, но и с педагогической и психологической точки зрения. Также была проанализирована эффективность гендерного подхода в образовательном процессе, его социальные и культурные аспекты, а также его влияние на личностное развитие студентов. В статье представлены научно-аналитические взгляды на методы реализации гендерного подхода в образовательном процессе, существующие проблемы и пути их решения, основанные на зарубежном и отечественном опыте.

Annotation: This article analyzes the current problems of the gender approach in the educational process. It is emphasized that the issue of gender equality in the modern education system should be studied not only from a legal, but also from a pedagogical and psychological perspective. It also analyzes the effectiveness of the gender approach in the educational process, its social and cultural aspects, and its impact on the personal development of students. The article presents scientific and analytical views on the methods of implementing the gender approach in the educational process, existing problems and their solutions based on foreign and national experience.

Kalit so'zlar: Gender tengligi, pedagogik jarayon, ijtimoiy tenglik, shaxsiy rivojlanish, gender stereotiplari, ta'lim strategiyalari, inklyuziv ta'lim, gender siyosati.

Ключевые слова: Гендерное равенство, педагогический процесс, социальное равенство, развитие личности, гендерные стереотипы, образовательные стратегии, инклюзивное образование, гендерная политика.

Key words: Gender equality, pedagogical process, social equality, personal development, gender stereotypes, educational strategies, inclusive education, gender policy.

Kirish.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri – ta’lim-tarbiya jarayonining inklyuzivligi va gender tengligiga asoslanganligi hisoblanadi. O‘zbekiston bugungi kunda gender tengligini ta’minlash, ta’lim tizimini yanada isloh qilish va har bir fuqaroga sifatli bilim olish imkoniyatini yaratish yo‘lida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirmoqda. **“O‘zbekiston 2030”**[2] strategiyasi doirasida inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta’limni yanada rivojlantirish va gender tengligi tamoyillarini ta’lim tizimiga joriy etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Gender yondashuvining dolzarbligi shundaki, u ta’lim jarayonida faqat ayol-qizlarning huquqlarini kengaytirish bilan cheklanmay, balki jamiyatdagi barcha insonlarning qobiliyatlarini to‘liq namoyon qilishga ko‘maklashadi. Bu jarayonda gender tengligini ta’minlash orqali bilim olish imkoniyatlari kengayadi, yoshlarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan yangi ta’lim modellarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekistonda gender yondashuv asosida ta’lim berishning istiqbollari mamlakatning barqaror taraqqiyot strategiyasi bilan uzviy

bog‘liq. **“Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans”**[3] g‘oyasi zamirida ham aynan inson omili, bilim va ma’rifat asosiy poydevor sifatida ko‘riladi.

Shunday ekan, ta’lim-tarbiya jarayonida gender yondashuvining ahamiyati shundaki, u o‘quvchilarning ijodiy va intellektual salohiyatini to‘laqonli rivojlantirishga xizmat qiladi. Barcha bolalar, ular qaysi jinsga mansub bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z salohiyatini namoyon etishi uchun teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi lozim. Shu maqsadda maktab va oliy ta’lim tizimida gender stereotiplarini bartaraf etish, inklyuziv ta’lim tamoyillarini keng joriy qilish, o‘qituvchilarning gender savodxonligini oshirish kabi vazifalar dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Nazariy asos:

Ta’lim-tarbiya jarayonida gender yondashuvining ilmiy-nazariy asoslari zamonaviy pedagogika va sotsiologiya fanlari doirasida keng tadqiq etilmoqda. **Gender yondashuvi** - bu nafaqat ayollar va erkaklar o‘rtasidagi huquqiy tenglikni ta’minlash masalasi, balki ta’lim tizimida shaxsning ijtimoiy, psixologik va madaniy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan ilmiy yondashuvdir. Dunyo miqyosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gender tengligi ta’minlangan mamlakatlarda ta’lim sifati va jamiyat



taraqqiyoti sezilarli darajada yuqori bo'ladi.

Gender yondashuvining ta'limdagi ahamiyati: XXI asrda gender yondashuvi ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri ham ta'limda gender tengligini ta'minlash bo'lib, bu nafaqat o'g'il va qiz bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish, balki ta'lim jarayonini shaxsiy qobiliyat va ehtiyojlarga moslashtirishni ham nazarda tutadi.

Tadqiqotlarga ko'ra, an'anaviy ta'lim tizimida gender stereotiplari o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy tanloviga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'g'il bolalar texnika va muhandislik sohalariga yo'naltirilsa, qizlar ijtimoiy va pedagogik kasblarga ko'proq jalb etiladi (UNESCO, 2021)[9]. Bunday yondashuv esa gender tengligini cheklovchi omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy gender pedagogikasi esa bu stereotiplardan voz kechib, ta'lim jarayonida har bir bolaning individual qobiliyatlarini rivojlantirishni maqsad qilib qo'yadi.

Pedagogik va psixologik jihatlar:

Gender yondashuvi ta'limning pedagogik va psixologik jihatlariga ham bevosita bog'liqdir. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida individual yondashuv qo'llanilganda, o'quvchilarning faolligi oshadi, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlari shakllanadi. Gender pedagogikasi esa bu jarayonda har bir o'quvchining qobiliyat va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya

metodikasini ishlab chiqishni tavsiya qiladi.

Psixologik jihatdan qaralganda, gender tengligi ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Agar o'quv jarayonida o'g'il va qiz bolalar bir xil sharoitda ta'lim olsalar, ularning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasi va ijtimoiy faolligi oshishi kuzatiladi (Bandura, 1986). Shu bois, maktab va oliy ta'lim tizimida genderga oid stereotiplardan voz kechib, har bir shaxsning individual imkoniyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro va milliy tajriba.

Xalqaro tajribada gender yondashuvi ta'lim jarayonida samarali qo'llanilmoqda. Masalan, Skandinaviya mamlakatlari, xususan, Shvetsiya va Norvegiya ta'lim tizimida gender tengligi tamoyillari ta'lim dasturlariga chuqur integratsiya qilingan. Ushbu mamlakatlarda gender jihatidan neytral o'quv materiallari ishlab chiqilib, o'quvchilarning kasbiy rivojlanishida jinsiy kamsitishlarning oldini olish choralari ko'rilmoqda (Nordic Council)[5].

Ta'lim-tarbiya jarayonida gender yondashuvi nafaqat inson huquqlarini himoya qilish vositasi, balki ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim tamoyili sifatida ham qaralishi lozim. Zamonaviy gender pedagogikasi o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlab, ularning mustaqil fikrlashi va kasbiy tanlovlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, O'zbekistonda gender yondashuvini

ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha xalqaro tajribadan foydalangan holda samarali tizim yaratish zarur. Yangi O'zbekiston g'oyasining asosiy maqsadlaridan biri ham aynan gender tengligini ta'minlagan holda ta'lim sifatini oshirish bo'lib, bu jarayonda pedagoglar, o'quvchilar va jamiyatning barcha a'zolari ishtirok etishi lozim.

Adabiyotlar sharhi:

Ta'lim-tarbiya jarayonida gender yondashuvining dolzarb muammolarini tadqiq etishda bir qator ilmiy manbalar va xalqaro tashkilotlarning hisoboti hamda tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy maqolalar va hisobotlarning qisqacha tahlili keltiriladi.

UNESCO ning "Gender tengligi va ta'limi" (Gender Equality in Education) hisobotida ta'limda gender tengligini ta'minlashning dolzarb masalalari yoritilgan. Hisobotga ko'ra, dunyo miqyosida hali ham qizlar va ayollarning ta'lim olish imkoniyatlari cheklangan. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda qizlarning ilmiy va texnik sohalarga jalb qilinish darajasi past ekani ta'kidlangan. UNESCO ta'lim jarayonida gender yondashuvining strategik ahamiyatini qayd etib, quyidagi choralarni tavsiya etadi[9]:

maktablarda gender neytral o'quv dasturlarini yaratish;

o'qituvchilarning gender pedagogikasi bo'yicha malakasini oshirish;

gender stereotiplarini yo'qotish bo'yicha ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2030-yilgacha bo'lgan O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida gender tengligini ta'minlash, ayniqsa, ayollar va qizlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. Xususan, hujjatda quyidagi maqsadlar ilgari suriladi:

ayollarning oliy ta'limga qamrovini oshirish;

gender tafovutlarini kamaytirish uchun maxsus davlat dasturlarini amalga oshirish;

ta'lim sohasida gender stereotiplarini bartaraf etish uchun pedagogik yondashuvlarni rivojlantirish;

Bu strategiya milliy ta'lim tizimida gender tengligi tamoyillarini keng joriy etish bo'yicha muhim hujjatlardan biri hisoblanadi.

Xorij tadqiqotchilarining mavzuga doir ishlarini tahlil qilish jarayonida psixolog Albert Banduraning sotsial kognitiv nazariyasida insonning o'quv va rivojlanish jarayoniga jamiyatning ta'sirini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, gender yondashuvini ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bandura gender stereotiplari va ta'limdagi roli haqida shunday deydi: "Jamiyatdagi gender stereotiplari insonning ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasiga va kelajak kasbiy tanloviga ta'sir qiladi"[4]. Bu fikr zamonaviy gender pedagogikasining nazariy asoslaridan biri bo'lib, ta'lim tizimida gender yondashuvining ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.



Tahlil qilingan adabiyotlar va manbalar shuni ko'rsatadiki, gender yondashuvi zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, uning samarali qo'llanilishi ta'lim sifati va o'quvchilarning individual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, pedagogik tadqiqotlar va psixologik nazariyalar ta'lim tizimida gender yondashuvining naqadar muhimligini isbotlaydi. O'zbekistonning gender tengligi bo'yicha olib borayotgan islohotlari xalqaro tajribalar bilan hamohang bo'lib, ta'lim tizimida gender yondashuvining keng qo'llanilishiga zamin yaratmoqda.

Muhokama.

Gender yondashuvi va ta'lim tizimining real holati: Zamonaviy ta'lim tizimida gender yondashuvi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilg'or ta'lim tizimiga ega davlatlar ushbu yondashuvni nafaqat teng huquqlilikni ta'minlash vositasi, balki ta'lim samaradorligini oshirishning strategik usuli sifatida qabul qilmoqda. Biroq, real statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, hali ham dunyo bo'ylab ta'limda gender tafovutlari mavjud va ularni bartaraf etish uchun tizimli islohotlar zarur.

Gender tafovutlari bo'yicha global statistika. UNESCO (2022) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab boshlang'ich va o'rta ta'limga qamrov deyarli teng bo'lsa-da, oliy ta'lim va STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) sohalarida gender tafovuti sezilarli darajada saqlanib qolmoqda.


Dunyo miqyosida qizlarning 90% ga yaqini boshlang'ich ta'limga qamrab

olingan bo'lsa-da, faqat 58% qizlar oliy ta'limda tahsil oladi.

STEM sohalarida qizlarning ulushi global miqyosda 35% ni tashkil etadi, ya'ni ushbu sohalarida asosan erkaklar yetakchilik qilmoqda.

Ayollarning oliy ta'limga jalb qilinish darajasi Yevropa mamlakatlarida 60% atrofida bo'lsa, ba'zi Afrika va Osiyo mamlakatlarida bu ko'rsatkich atigi 30% ni tashkil etadi[8].

Shunday qilib, gender yondashuvini ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarning qobiliyatini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish zaruriyatini yana bir bor tasdiqlaydi.




1-rasm. UNESCO ning gender tafovuti: ta'lim darajalari bo'yicha qizlarning ishtiroki, 2022 yil tahlili.

O'zbekistonda gender yondashuvi va ta'lim statistikasi. O'zbekistonda ham o'g'il, ham qiz bolalar uchun ta'lim olishga imkoniyat teng yaratib berilgan. Biroq, O'zbekistonda tug'ilgan bola ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi kamchiliklar tufayli o'zining potensial unumdorligining atigi 62 foiziga erisha oladi. Bu tafovut qizlar va o'g'il bolalar o'rtasidagi nomutanosiblik bilan emas, balki ta'limning umumiy sifati bilan bog'liqdir. O'zbekiston Konstitutsiyasining 41-moddasi va 2020-

yilda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi qonun barcha maktab yoshidagi bolalar uchun boshlang’ich va o’rta ta’lim bepul va majburiy bo’lgan holda ta’lim olishdan umumiy foydalanish imkoniyatini kafolatlaydi. Maktabda kutilayotgan ta’lim olish yillari soni hozirda 11 yilni tashkil etadi, va ularning ta’lim sifatiga moslashtirilganidan so’ng, bu ko’rsatkich qizlar uchun atigi 9,1 yil va o’g’il bolalar uchun 9,2 yilga mos keladi[1].

O’zbekiston ham ta’lim tizimida gender tengligini ta’minlash bo’yicha bir qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Davlat statistika qo’mitasi va O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yilgi hisobotlariga ko’ra: O’zbekiston oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan ayollar ulushi 48% ni tashkil qiladi, maktablarda o’quvchilarning gender nisbati teng bo’lsa-da, texnik va muhandislik sohalarda tahsil olayotgan ayollar ulushi 26% dan oshmaydi, pedagogika sohasida o’qiyotgan talabalarning 72% ini ayollar tashkil qiladi, bu esa an’anaviy gender stereotiplarining saqlanib qolayotganligini anglatadi. Bu ko’rsatkichlar shuni ko’rsatadiki, gender yondashuvini chuqurroq tatbiq etish va ayollarni texnologik va ilmiy sohalarga jalb qilish uchun qo’shimcha dasturlar zarur.




2-rasm. O’zbekiston ta’lim tizimida gender tengligi statistikasi (2023).

Shuningdek, ayollarning ish jarayonidagi sohalar bo’yicha ulushining statistik ko’rsatkichlari quyidagicha:

- tibbiyotda – 77 foiz;
- ta’lim sohasida – 74 foiz;
- iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida 46 foiz;

boshqaruv sohasidagi ulushi 33 foiz; partiyalar safidagi ulushi 47 foizga yetganligi e’tirof etildi[6].



3-rasm. Ayollarning ish jarayonidagi ulushi (2023).

Ta’limda gender yondashuvining afzalliklari va natijalari.


Tadqiqotlarga ko’ra, gender tengligi ta’lim tizimining sifatini oshirishda bevosita ta’sir ko’rsatadi. Masalan, OECD (2022) ma’lumotlariga ko’ra, gender tengligini ta’minlagan davlatlarda ta’lim natijalari yuqoriroq bo’ladi.



Gender tengligi yuqori bo'lgan mamlakatlarda o'quvchilarning akademik natijalari 10-15% yaxshiroq bo'ladi.

Gender tengligi targ'ib qilingan maktablarda qizlarning ishonchi oshib, ularning ijtimoiy faolligi 20% ga ko'tariladi[8].

O'zbekiston ta'lim tizimi ham aynan shu tamoyilga amal qilishi lozim. O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi doirasida qizlarni ilm-fan va texnologiyaga jalb qilish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda.



4-rasm. Gender tengligining ta'lim natijalariga ta'siri.

Mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.

Gender yondashuvi asosida ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lidagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

gender stereotiplari – bugungi kunga qadar qizlar odatda an'anaviy kasblarga yo'naltiriladi;

o'qituvchilarning gender pedagogikasi bo'yicha tayyorgarligi yetarli emas – aksariyat pedagoglar genderni oid maxsus o'quv dasturlaridan xabardor emaslar;

ayollarni STEM sohasiga jalb qilish yetarli darajada emas – qizlarning

ilmiy va texnologik ta'lim olishga bo'lgan qiziqishi kam.

Ushbu muammolarni hal etish uchun:

gender pedagogikasi bo'yicha maxsus kurslarni o'qituvchilarga joriy etish;

qizlarni ilmiy va texnologik sohalarga jalb qilish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish;

gender neytral o'quv materiallarini yaratish va joriy etish kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama qilingan statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, gender yondashuvi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va o'quvchilarning qobiliyatlarini to'liq namoyon qilishga xizmat qiladi. O'zbekistonning ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro standartlarga mos keladi, biroq gender stereotiplarini bartaraf etish va ayollarni ilmiy hamda texnologik sohalarga jalb qilish bo'yicha hali ko'plab ishlar amalga oshirilishi kerak. Gender tengligini ta'minlash nafaqat adolat tamoyilidir, balki O'zbekistonning barqaror rivojlanishi va ilm-fan sohasida ilg'or mamlakatlar qatoriga kirishi uchun ham muhim omildir. Shu sababli, gender yondashuvi ta'lim jarayoniga yanada chuqurroq integratsiya qilinishi lozim.

Xulosa

Ta'lim-tarbiya jarayonida gender yondashuvining dolzarb muammolarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu yondashuv nafaqat ijtimoiy tenglikni ta'minlash vositasi, balki ta'lim

samaradorligini oshirishning strategik usuli hamdir. Dunyo tajribasi shuni tasdiqlaydi: gender tengligi ta'minlangan ta'lim tizimlari jamiyatning iqtisodiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. UNESCO va OECD ma'lumotlariga ko'ra, gender tafovutlarini kamaytirish natijasida mamlakatlarda ta'lim sifati oshib, yoshlarning kasbiy tanlovlari kengayib boradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida gender yondashuvi bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hali ham ayrim muammolar mavjud. Xususan, texnika va ilm-fan sohalarida qizlarning ishtiroki pastligicha qolmoqda, gender stereotiplari esa kasb tanlash jarayoniga ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi doirasida gender tengligi bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilib, qizlarni ilm-fan va texnologiya sohalariga jalb qilish choralari ko'rilmogda.

Ushbu tadqiqotda gender yondashuvining ta'lim jarayonidagi ahamiyati, uning nazariy va statistik asoslari hamda xalqaro va milliy tajribalarga asoslangan holda dolzarb muammolari ko'rib chiqildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki:

gender tengligi ta'lim sifati va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

gender pedagogikasi bo'yicha maxsus metodikalar o'qituvchilarga keng joriy etilishi zarur;

qizlarni STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) sohalariga jalb qilish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim;

gender stereotiplarini bartaraf etish uchun oilaviy va jamiyatdagi ta'lim tizimi ham o'zgarishi kerak.

Shunday qilib, ta'lim-tarbiya jarayonida gender yondashuvi nafaqat pedagogik innovatsiya, balki kelajak avlod uchun yangi imkoniyatlar yaratadigan dolzarb strategiya hamdir. "O'zbekiston 2030" strategiyasi doirasida ushbu yondashuvni chuqur joriy etish orqali mamlakatimizda zamonaviy, inklyuziv va adolatli ta'lim tizimini shakllantirish mumkin. Gender yondashuvi asosida ta'lim sifati oshsa, jamiyatda teng imkoniyatlar va ijtimoiy adolat tamoyillari mustahkamlanib, O'zbekistonning barqaror rivojlanishiga zamin yaratiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
4. Bandura, A. (1986). Social foundations of thought and action: A social cognitive theory. Prentice-Hall.
5. Nordic Council. (2020). Gender equality in education: Policies and best practices in Nordic countries. Nordic Council of Ministers.
6. O‘zbekistonda gender tengligi bo‘yicha Barqaror rivojlanish maqsadlari muloqoti. Toshkent. 4-oktyabr. 2023.
7. OECD. (2022). Bridging the gender gap in education: Policies for equity and inclusion. Organization for Economic Co-operation and Development.
8. UNESCO. (2022). Global Education Monitoring Report: Gender and Education.
9. UNESCO. (2021). Gender equality in education: Challenges and opportunities. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.

**ЖАСЛАРДЫ ҰАТАНСҮЙІҰШИЛИК РУҰХЫНДА ТӘРБИЯЛАҰДА
МИЛЛИЙ САЗ ӘСБАПЛАРЫНЫҢ ҚАХАРМАНЛЫҚ ДӘСТАНЛАРДА
СӘҰЛЕЛЕНИҰИНИҢ ӘХМИЙЕТИ
ЗНАЧЕНИЕ ОТРАЖЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ МУЗЫКАЛЬНЫХ
ИНСТРУМЕНТОВ В ГЕРОИЧЕСКИХ ДАСТАНАХ В ВОСПИТАНИИ
МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА
THE SIGNIFICANCE OF REFLECTING NATIONAL MUSICAL
INSTRUMENTS IN HEROIC DASTANS IN THE UPBRINGING OF YOUNG
PEOPLE IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM**

Ережепов Артықбай
*Нөкис қаласы Есжан бақсы атындағы
1-санлы балалар музыка хәм көркем өнер
мектеби педагогика пәнлери бойынша
(PhD) доктор, доцент*

***Annotatsiya:** Дәстанларда миллий фольклорлық халық саз әспапларының сәўлелениўи оқыўшы жасларды халқымыздың тарийхы хәм әдебият этнографиясы тийкарында тәрбиялаўдағы орны.*

***Аннотация:** Роль отражения в дастанах национальных фольклорных народных музыкальных инструментов в воспитании учащейся молодежи на основе истории и литературной этнографии нашего народа.*

***Annotation:** The role of reflecting national folk musical instruments in the epics in educating students based on the history and literary ethnography of our people.*

***Kalit so'zlar:** Дәстан, фольклор, этнография, тарийх, миллий саз әспаб, тәлим тәрбия.*

***Ключевые слова:** Дәстан, фольклор, этнография, история, национальный музыкальный инструмент, образование и воспитание.*

***Key words:** Dastan, folklore, ethnography, history, national musical instrument, education and upbringing.*

Қарақалпақ фольклоры басқа туўысқан түркий тиллес халықлары сыяқлы ерте заманлардан қалиплесип, онда көплеген дәстанлар, халық қосықлары, аңызлар, әпсаналар, батырлық хәм мухаббат жырлары орын алған. Уысндай аўзеки әдебият үлгилерине тийкарланып дәретилген халық намалары да бар болып халық дәстанларын қолланылып келинбекте.

Қарақалпақ халқының көп томлық фольклорында қахарманлық дәстанларда, урып қағылып шертилетуғын музыкалық, саз әспаплар дереклерин ушрартамыз. Мәселен: Курбанбай жыраў Тәжибаевтың атқарған 9-13 томда «Қырық қыз» дәстанды 1938 жылы А.Бегимов, Ш.Хожаниязов, С.Мәўленовлар тәрәпинен жазып



алынған. Бул дәстанда дәстан қәхарманы Гүлайымды жақсы көрип қалған Журын кәл Гүлайым жатқан отауға келип қарап тұрғанда, сол уақыттары түрлі саз әспаблардың саз шертилиуін атап өтеди.

Гүлайым қыз сол күни,
Кеуилерин дым хошлап,
Уллы тойды хәм баслап,
Бедеу аттай бой таслап,
Түрлі сазлар шертирип,
Қырық қызын қасына ертирип,
Ақ отауда жатқан екен.

«Қырық қыз» дәстанда «Дабыл» саз әспабы аталып өтиледі мәселен: Аллаяр бай Журын кәлге Гүлайымды бермекши болып, Аллаяр келини Бегзадаға Гүлайымды алып кел деп айтады. Бул уақытта Гүлайым қалмақтың ханы Суртайшадан өшин алыу ушын, қыран тауда аңылып жатырған еді. Жеңгеси менен Гүлайым хошласып атланарда:

Маңлайы айдай жарқырап,
Алдындағы (Дабылы) жерге
тийди шықырлап,

Сол уақлары қырық қызы, минип
бәри атына,

Гүлайымдай батырдың, келип
турды артына [1].

Қарақалпақ фольклор көп томлық VII томында «Алпамыс» дәстан, Хожамберген Нияз улы-Өгиз жырауға тийисли болып, дәстаның бул нұсқасын фольклорист Қ.Айымбетов тәрәпинен 1934-жылы Өгиз жыраудан жазып алып, 1937-жылы москвада өз алдына кітап етип бастырып шығарды. «Алпамыс» дәстаны 1981 жылы «Қарақалпақстан» баспасынан таярланған.

Бул дәстанда урып қағылып шертилетуғын саз әспаблар дәреклері:

Үсти-үстине дабыл қақты,
Мәрт болып дабыл қағайын,
Қара атқа тумар тағайын,
Алты ай он күн толғанша,
Ақшам болып шындауыл [2],

Бул дәстанда «Дабыл» хәмде «Шындауыл» урып қағылып шертилетуғын саз әспаблар атамалары қолланылған.

Дәстанда Алпамыс Баршынды тойда жеңип, Қаражан менен хошласып, Неше күн, неше ай жол жүрип, Баршын жанды келин қылып, узатып Байсын елге әкелди, ели-халқын жыйдырды, мал семизин сойдырды алтын қабақ аттырды:

Нақыра, Сырнай тарттырып,
Тойда дабыл қақтырып,

Ал бул жерде той баслауда елди халықты жыйнауда «Нақыра», «Сырнай тарттырып», саз әспаблар аталып өтилген [2].

Алпамыс Зинданда алты жыл жатқанында, шопан Әшим кәл Алпамысты қой менен бағады, соңынан қойлары таусылып Әшим дийуана болып қалмақлар елинен нан тасып Алпамысты бағады, буны еситип патша дийуана қалаға кириуін қадаған етеди. Сонда Әшимге сениң және өлместей илажыңды етип беремен,- дейди Алпамыс. Қалмақтың базарына бар, бир кескир пәреңи пышақ алып кел,-дейди.-Әжеп болар, жора -деп, Әшим жууырып жортып, қалмақтың базарына барды. Бир шершиден бир пәреңи пышақ әкелип Алпамысқа берди. Алпамыс бир қолы епли, өнерли жигит еди. Баяғы семиз қойлардың жуқа қабырға сүйеклеринен қызлар шертелетуғын «Шынқобыз» дүзетти. Зинданда жатып

шертсе, қыз тўёе Әшимге де жағып қалды.

Бул жерде биз дәстанда «Шынқобыз» саз әспабы ушаратамыз, әййем заманлары «Сүйек шынқобыз» болған, хәзирги ўақытта полат темирден исленеди.

Халқымызда хаял-қызлар тәрәпинен аўыз ерни арқалы хаўа тербелиси менен үплеп шертип атқарып келинбекте [2].

Қарақалпақ фольклоры көп томлық IX том «Ер Зийуар» дәстаны халық арасына кеңнен таралған қарақалпақ қахарманлық дәстанларының үлгили нускаларының бири болып табылады. Өзбекстан Илимлер Академиясының Қарақалпақстан филиалының қолжазбалар фондында «Ер Зийўар» дәстаның хәр қыйлы жыллары жазып алынған төрт қолжазбасы сақлаўлы. 448-бетлик араб шрифтинде нускасы, 462-бетлик усы нөмердеги С.Бекназаров, Г.Есемуратов, тәрәпинен 1941-1953 жыллары еки қол жазба бар.

Дәстанда Хәсен хан менен Тақполлатың арасындағы урыста, Ер Зийуар менен ер Жанай атасы Хәсен ханнан урысқа руўхсат алып жаўға атланған уақытында:

Тулпарды жолға салады,
Зийуар менен ер Жанай,
тулпарға қамшы урады.
Тақполат булардың,
Айбатынан сескенип,
Жүреги суўлап барады.
Еки жаққа бөлинди,
Гәўирлердин қорықаны,
Батырға анық билинди,
«Тилладан Дабыл қағылды» [3].

«Тилла Дабыл» саз әспабында – урыстың басланыўда урып қағылып

белги берилгенлиги атап өтеди. Дабыл-атқарыўшысын даўылпаз деп аталған бул урып шертетуғын әсбап тилладан, мыстан, ылайдан, ағаштан иши ойылған болып үсти тери менен қапланып соғылады, буны таяқша менен урып қағып шертеди.

Соның менен дәстанда Хәсен хан елине жүрис қылғанда, урып шертилетуғын «Нақыра» саз әспабы хаққында атап өтиледи қараңыз:

Хәсен хан раўан болады,
Сазенде менен гоянде,
Барлығы нақыра шалады [3].

«Ер зийўар» дәстанында Ақжүрим деген қаланың Хәсен ханның балалары Зийўар менен ер Жанай, қалмақ елинің патшасы Тақтаполатты жеңип патша мулайып қапа болып шатырында отырғанда, Ақтамақ қызы үш жүз алпыс қызлары менен келеди. Ақтамақ пенен атасы, ақ шатырда жылады, тирисең бе қарағым, Айбаты болған елимнің, деди де хан зарлады да толғады:

Тақтаполат қайсар дейди атымды,
Жаўды жеңип көтеринлер даңқымды,
Сол ўақытта таң да атты,
Саўаштың ўақты болды деп,
Ноғайлар дабыл қақты.
Тилла дабыллар кейнинен,
Зийўар, Жанай атқа минди,
Сырнай, Гернайдың даўысы,
Таўды, тасты жаңлатты.
Дабылдың даўысын еситип,
Ақтамақтай арыўдың,
Жуўлап бети қызарды,
Ырғып турып орнынан,
Байлаўлы турған тулпардың,
Шылбырын шешип алады,
Секрип минип тулпарға,



Жаўға атланады. Дәстанда бул жерде урыста жаўдың басланарда әскерлерге руўхый күш беретугын, яки душпанды сескиндириўде қолланылатугын музыкалық саз әспаптар атамаларын яки көп сесли үш әспаптан қуралған саз әспаптар берилгенин дәрек берип тур: - «Сырнай» бул үплеп шертилетуғын саз әспаб ағаштан соғылған хәзирги уақытларыда халық сазлар оркестиринде қолланылып келинбекте. Дәстанда қалмақларды жеңген Хәсен патша Абақанды патша тахтына отырғызып, баласы Жанайды ўәзир қылып қалмақ халқын жыйнап уллы байрам той береді, бул жерде «Сырнай саз әспабы» шертилиўи ҳаққында аталып өтиледі:

Сырнай жатыр шертилип,
Масқарапазлар ойнап жүр,
Сазенде менен гоянде,
Бәршеси бар бул тойда.

Ер Зийуар дәстанда мәселен: Хәсен патша баласы Жанайды ўәзир етип, Абақанды қалмақ елине патша қылып.

Қайтыў ушын Хәсен хан,
Тарттырды сырнай-гернайды,
Алтын қабақ аттырып [3].

Ал «Гернай» булда үплеп шертилетуғын саз әспаптар топарына киреди, «Мүйиз гернай» деген атамаларда болған негизинен бул мал шақлардан соғылған, хәзирги уақытта қолланылатуғын атамасы-«Карнай», мыстан соғылып усы күнге шекем қолланып атқарылып келинбекте узын болып келген. «Ер Зийуар» дәстанында мәселен Хәсен хан қалмақ елине барып келгенен соң өз елинде той береді, бул жерде биз «Сыбызғы» саз әспабы ҳаққында дереклерди қараңыз:

Зерли жыға басында,
Қырық жигити қасында,
Сыбызғы, сырнай шерттирип,
«Сыбызғы» бул үплеп
шертилетуғын қамыстан исленген саз
әспаб қатарына киреди [3].

«Ер Зийуар» дәстанында Зийуар перини излеп жол атланады, жолда бир қалаға киреди, соңынан сол қалада бир кемпир Зийуарға қарап сөйледи кемпир бәт урып:

Дабыл қағып, шертип гернай,
Баламан,

Топ сүйретип ләшкер айдап
аламан [3].

Дәстанда «Баламан» саз әспабы ҳаққында дәрек бар екенлиги аталып өтилген. Қарақалпақ фольлоры көптомлық X томда «Мәспатша» Қыяс жыраў Қайратдиновтан жазып алған Артық Каримов тәрәпинен 1958 жыллары жазып алынған. Дәстанды XVI-XVIII әсирдин тарийхый дереклерде қарақалпақ халқының басым бөлеги Сырдарьяның орта хәм төменги жағалаўларындағы жасаған болса, бир бөлими Бухара ханлығының қол астында жасаған. Бул дәстанда Мәспатша түсинде көрген Айпарша ярын излеп таўып пәтиясын алып ярына қосылып жол жүрип қайтып китырғанда, Айпаршаның елине алдын айтырып барған қалмақ елинің патшасына Айпаршаның әскеси бермейди. Бунан соң Мәспатшаның Айпаршаны алып китырғанын еситкен қалмақ елинің патшасы дәрбент жолда күтип жатып Мәспатша менен Айпаршаны қалмақ елинің патшасы әскерлери менен урысып Мәспатшаны оқжайда жети оқ атып Маспатшаны жарадар етип, Айпаршаны қалмақ елинің патшасы Бабахан елине әкелип

некелеп той берерде Бабахан патша: -
Ға, Айпарша ярым, сенсең сабырыў
қарарым, шын кеўлимнен қардарым,
тақ үстине отырсам да сенде болсын
ықтыярым.

Тойда гүрес, ойын, масқарапаз,
сазенделер, гөйенделер,
«Баламаншы»-түрли ойын қурылып
атыр. Деп атап өтеди бул дәстанда,
«Үплеп шертилетуғын Баламан» саз
эспабы хаққында дәреклер аталып
өтилген.

«Баламан»-саз эспабы
халқымызда хәзирги ўақытлары
бақсылардың қасында қосылып
шертилетуғын саз эспап, тут ағашынан
соғылады, узынлығы 300 мм, баламан
саз эспабында жоқарғы тәрәпинде 7-
тесикше, төменги тәрәпинде 1-тесикше
жайласқан улыўма эспабтың атқарыў
мүмкиншилиги сес аралығы 3-октава
болады.

Дәстанда қалмақ қаласынан
Мәспатшаның әкеси Әбдикәрим еки
ақылығын келини Айпаршаны алып:
Әй таңның алдында қалмақлар хабар
тапты:

Оразалы патшасы,
Сескинип жайдан турады,
Тум-тусқа сүрен салады,
Таң атқанша қаладан,
Саң мың әскер жыйнатты,
Қара тауўын көтерип,
Қос сырнайын тарттырды.

Бул жерде дәстанда «Қос
сырнайын» бул еки қамыстан исленген
саз эспаб болып [4], хәзирги атамасы
«Қош най» деп аталып келинген.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Қарақалпақ фольклоры көп томлық «Қырық қыз» дәстаны 9-13 том Ташкент «Манавият» 2009 й. 18-51-б.
2. Қарақалпақ фольклор көп томлық «Алпамыс» VII том.Қарақалпақстан баспасы 1981ж. 50-51-б.
3. Қарақалпақ фольклоры көп томлық «Ер Зийуар» дәстаны IX-том. Қарақалпақстан баспасы «Нөкис» 1981 ж. 28-392-б.
4. Қарақалпақ фольклоры көп томлық «Мәспатша» XV- том Нукус «Қарақалпақстан» 1982 ж. 124-201-б.



INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM ORQALI MUAMMOLARNI HAL QILISH
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
DEVELOPING PROBLEM-SOLVING COMPETENCE THROUGH
INTEGRATED EDUCATION
РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМ ЧЕРЕЗ
ИНТЕГРИРОВАННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Allamov Shavkat
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada integratsiyalashgan ta'limning o'quvchilarda muammolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida fanlararo integratsiya orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, analitik tafakkurini shakllantirish va muammolarga innovatsion yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Tadqiqotda integratsiyalashgan yondashuvning pedagogik asoslari, metodlari va ta'lim samaradorligiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi. Maqolada, shuningdek, turli pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar orqali o'quvchilarda muammolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirishning afzalliklari yoritiladi.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение интегрированного образования в развитии у обучающихся компетенции решения проблем. В современной системе образования эффективная организация учебного процесса через междисциплинарную интеграцию играет важную роль в формировании самостоятельного мышления, аналитического разума и навыков поиска инновационных решений. В исследовании теоретически и научно обоснованы педагогические основы, методы и влияние интегрированного подхода на эффективность обучения. В статье также рассматриваются преимущества развития компетенции решения проблем с использованием различных педагогических технологий и интерактивных методов.

Annotation: This article analyzes the role and significance of integrated education in developing students' problem-solving competence. In the modern education system, organizing the learning process effectively through interdisciplinary integration is crucial for fostering independent thinking, analytical reasoning, and innovative problem-solving skills among students. The study theoretically and scientifically substantiates the pedagogical foundations, methods, and impact of the integrated approach on educational effectiveness. Additionally, the article highlights the advantages of developing problem-solving competence through various pedagogical technologies and interactive methods.

Kalit so'zlar: Integratsiyalashgan ta'lim, fanlararo yondashuv, muammolarni hal



qilish kompetensiyasi, innovatsion pedagogika, ta'lim samaradorligi, analitik tafakkur, interaktiv metodlar, kreativ fikrlash.

Ключевые слова: *Интегрированное образование, междисциплинарный подход, компетенция решения проблем, инновационная педагогика, эффективность обучения, аналитическое мышление, интерактивные методы, креативное мышление.*

Key words: *Integrated education, interdisciplinary approach, problem-solving competence, innovative pedagogy, educational effectiveness, analytical reasoning, interactive methods, creative thinking.*

Zamonaviy ta'lim jarayoni shunchaki bilim berishdan iborat bo'lmay, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammolarga yechim topish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilishi lozim. Bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan murakkab ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik muammolar ta'lim tizimidan yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Bu esa integratsiyalashgan ta'lim konsepsiyasining dolzarbligini oshiradi. Hayotimizda duch kelayotgan muammolarni hal qilish uchun bilimlarni faqat o'z sohasida qo'llash yetarli emas. Aksincha, turli fanlarni uyg'unlashtirish, ularning o'zaro bog'liqligini anglash va integratsiyalashgan yondashuv orqali yangi bilimlar yaratish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, matematik bilimlarni real hayotiy muammolarga tatbiq etish yoki san'at va texnologiyani uyg'unlashtirib kreativ yondashuvlarni shakllantirish o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Shunday ekan, ta'lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuv nafaqat muammolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirishga, balki yoshlarni innovatsion tafakkurga ega bo'lishiga ham yordam beradi. Chunki fanlararo bog'liqlikni anglash va uni

amaliyotga tatbiq etish o'quvchilarda chuqur tahliliy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va kreativlikni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Mazkur maqolada integratsiyalashgan ta'limning nazariy asoslari, uning o'quvchilarda muammolarni hal qilish kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni va afzalliklari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, interaktiv metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida bu jarayonni qanday yanada samarali tashkil etish mumkinligi yuzasidan ilmiy yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Metodologiya: Zamonaviy ta'lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuvni samarali joriy etish uchun ilmiy asoslangan metodologiya zarur. Ta'lim mazmuni turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradigan tarzda shakllantirilsa, o'quvchilar muammolarga ko'p qirrali yondasha olishadi va kreativ fikrlashga o'rganishadi. Shuning uchun bu tadqiqotda fanlararo integratsiyalashgan ta'lim usullarining samaradorligini o'rganish metodologiyasi ishlab chiqildi.

Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil usullari uyg'unlashtirildi. Birinchidan, o'quvchilar bilan intervyular va

kuzatishlar orqali integratsiyalashgan ta'lim modelining ularning muammolarni hal qilish kompetensiyasiga ta'siri o'rganildi. Ikkinchidan, eksperimental sinflarda yangi pedagogik metodlar qo'llanilib, natijalari statistik jihatdan tahlil qilindi. Bu yondashuv integratsiyalashgan ta'limning real amaliy ta'sirini aniqlash va uning samaradorligini baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, pedagogik tajriba usuli asosida integratsiyalashgan ta'limning o'quv jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganildi. Ushbu jarayonda loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, kooperativ ta'lim hamda STEAM[7] yondashuvi singari ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanildi. Xususan, loyiha metodini qo'llash orqali o'quvchilar o'z bilimlarini turli fanlar doirasida sintez qilishga o'rganishdi.

Tadqiqot davomida, shuningdek, xorijiy va mahalliy tajribalar tahlil qilindi. Jahon ta'lim tizimida integratsiyalashgan yondashuvning qanday usullari qo'llanilishi va ularning natijalari o'rganildi. Bu esa milliy ta'lim tizimimiz uchun moslashuvchan model ishlab chiqishga imkon yaratdi.

Metodologik yondashuvning asosiy maqsadi – o'quvchilarda mustaqil fikrlash, innovatsion yondashuv va muammolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali ta'lim modelini ishlab chiqishdir. Shuning uchun bu tadqiqot o'qitish jarayonida integratsiyalashgan yondashuvning nafaqat nazariy, balki amaliy asoslarini ham yoritib berishga qaratildi.

Adabiyotlar tahlili:

Integratsiyalashgan ta'lim orqali muammolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar

ko'plab pedagogik va psixologik manbalar asosida olib borilgan. Ushbu bo'limda mavzu doirasida mavjud nazariy va amaliy tadqiqotlar, xorijiy va mahalliy adabiyotlar, ilg'or ta'lim tajribalari tahlil qilinadi.

Integratsiyalashgan ta'limning nazariy asoslari J. Dyuning konstruktivizm ta'lim nazariyasida yoritilgan bo'lib, unda bilim o'quvchilarning real hayotiy tajribalar bilan bog'liq holda o'zlashtirilishi lozimligi ta'kidlangan[1; 87]. Ushbu yondashuv hozirgi kunda STEAM[7] (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta'lim modeli orqali rivojlanib bormoqda. Xorijiy adabiyotlarda integratsiyalashgan ta'lim bo'yicha K. Drake va R. Burns[2; 519] kabi tadqiqotchilar fanlararo bog'liqlikni ta'lim samaradorligini oshirish vositasi sifatida baholaydilar. Ularning tadqiqotlarida integratsiyalashgan ta'lim modeli orqali o'quvchilarda muammolarni hal qilish kompetensiyasi, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash rivojlanishi ko'rsatib berilgan.

O'zbekistonlik olimlardan A. Abduqodirov[3; 19] va Sh. M. Mirzayev[4; 146]larning ishlarida integratsiyalashgan ta'limning pedagogik jarayondagi o'rni yoritilgan. Ularga ko'ra, ta'limning mazmunini hayotiy muammolar bilan bog'lash va fanlararo yondashuv asosida o'qitish orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkuri shakllantiriladi.

Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan ta'lim modeli joriy qilingan maktab va universitetlarda o'quvchilarning akademik natijalari va mustaqil fikrlash darajasi an'anaviy usullarga qaraganda



sezilarli darajada oshgan. Xususan, Finlandiya ta'lim tizimida fanlararo yondashuvning qo'llanilishi o'quvchilarning kreativ va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda katta natijalar bergan.

Rossiya pedagogik tadqiqotlarida esa, ayniqsa, muammoli ta'lim metodikasining integratsiyalashgan yondashuv bilan uyg'unligi ko'rsatilgan. Bu usul o'quvchilarga real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va turli fanga oid bilimlarni qo'llab, mustaqil yechim topish imkonini beradi. Adabiyotlar va manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan ta'lim nafaqat bilim berishning yangi shakli, balki o'quvchilarning muammolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usuli hamdir. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar tanqidiy va ijodiy fikrlash, tahlil qilish hamda amaliyotga yo'naltirilgan bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu boisdan, integratsiyalashgan ta'lim konsepsiyasini ta'lim tizimiga keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy jamiyatda o'quvchilarning faqatgina bilim olish bilan cheklanib qolmay, balki o'rganilgan ma'lumotlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Integratsiyalashgan ta'lim esa aynan shu ehtiyojni qondirishga xizmat qiluvchi samarali yondashuvlardan biri bo'lib, o'quvchilarda muammolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, fanlararo bog'liqlik va innovatsion ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning tahliliy fikrlash, ijodiy yondashish hamda

mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, integratsiyalashgan yondashuv asosida ta'lim olgan o'quvchilar muammolarni hal qilish jarayonida an'anaviy usulda ta'lim olganlarga qaraganda faolroq va kreativ yondashuvga ega bo'lishadi. Ular o'z bilimlarini turli sohalar bilan bog'lab, real hayotiy masalalar yuzasidan innovatsion yechimlarni taklif qilishga moyillik bildirishadi. Ayniqsa, loyiha asosida o'qitish metodidan foydalanish o'quvchilarning jamoaviy ishlash va kompleks masalalarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, integratsiyalashgan ta'lim jarayoni nafaqat o'quvchilarning akademik natijalarini yaxshilash, balki ularning muloqot, ijtimoiy mas'uliyat va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglash orqali dunyoqarashlarini kengaytirishadi va an'anaviy ta'lim shakliga nisbatan ko'proq qiziqish bilan o'qishadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish o'quvchilarning muammolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirish uchun samarali usul bo'lib, uni keng joriy etish ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, kelgusida ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyani yanada chuqurlashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa kelajak avlodni mustaqil fikrlovchi, kreativ va innovatsion tafakkurga ega bo'lgan

shaxslar sifatida tarbiyalashga yordam beradi.

Xulosa

Bugungi dunyo tez o'zgarayotgan, murakkab muammolar oldida yangicha yondashuvlarni talab qiladigan muhitga aylandi. Shunday bir davrda ta'lim tizimi ham shunchaki bilim berishdan ko'ra, o'quvchilarga real hayotda duch keladigan vaziyatlarni hal qilishga o'rgatishi kerak. Integratsiyalashgan ta'lim esa aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida ushbu yondashuvning o'quvchilarda muammolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Integratsiyalashgan ta'lim orqali o'quvchilar an'anaviy ta'limga qaraganda kengroq fikrlashga, turli fanlarni bog'lashga va dolzarb muammolarga kreativ echim topishga o'rganadilar. Bunday yondashuv nafaqat ularning akademik natijalarini oshiradi, balki hayotiy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. O'quvchilar axborotni tahlil qilish, uni qayta ishlash va yangi yechimlarni yaratish jarayonida o'zlarini yanada ishonchli his qilishadi.

Shuningdek, integratsiyalashgan ta'lim o'qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O'quvchilar o'zaro hamkorlikda ishlash orqali jamoaviy fikrlashni rivojlantirishadi, real loyihalar ustida ishlash natijasida esa o'z bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga yaxshiroq tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, integratsiyalashgan ta'lim nafaqat zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi, balki o'quvchilarni hayotga tayyorlashning samarali usuli hamdir. Bu yondashuv yosh avlodning mustaqil fikrlovchi, innovatsion va kreativ shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, kelgusida ta'lim tizimida integratsiyalashgan yondashuvni yanada rivojlantirish va keng joriy etish ta'lim sifatini oshirish hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim qadamlardan biri bo'lib qoladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Давыдов, В. В. (1996). *Teoriya razvivayushchego obucheniya*. Moskva: Intor.
2. Drake, S. M., & Burns, R. C. (2004). *Meeting Standards Through Integrated Curriculum*. Alexandria, VA: ASCD.
3. Abduqodirov, A. (2020). *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
4. Mirzayev, Sh. M. (2018). *Integratsiyalashgan ta'lim va uning pedagogik asoslari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
5. OECD. (2018). *The Future of Education and Skills: Education 2030*. Paris: OECD Publishing.
6. Finlandiya ta'lim tizimi bo'yicha xalqaro tadqiqotlar. (2021). *Innovatsion pedagogika va ta'lim samaradorligi*. Helsinki Universiteti nashriyoti.
7. STEAM ta'lim konsepsiyasi bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami. (2022). *Interdisciplinary Learning and Competence Development*. London: Springer.
8. Khudoynazarov, E. (2023). Boshlang'ich ta'limda mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati. *Молодые ученые*, 1(13), 32-37.

IJODIY TOPSHIRIQLAR VA TADQIQOT ASOSIDA TANQIDIY TAFAKKURNI
RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ТВОРЧЕСКИЕ
ЗАДАЧИ И ИССЛЕДОВАНИЯ

DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING THROUGH CREATIVE TASKS
AND RESEARCH

Sobirova Aziza
Urganch davlat pedagogika
instituti stajor o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijodiy topshiriqlar va tadqiqot faoliyati orqali talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Tanqidiy tafakkurning o'quv jarayonidagi o'rni, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar doirasida uni rivojlantirish usullari yoritilgan. Tadqiqot natijalari ijodiy topshiriqlar orqali mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va innovatsion yechimlar topish ko'nikmalarining oshishini ko'rsatadi. Maqolada zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning izlanish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bo'yicha samarali yondashuvlar tavsiya etiladi.

Аннотация: В статье анализируются вопросы развития критического мышления учащихся посредством творческих заданий и исследовательской деятельности. Освещены роль критического мышления в образовательном процессе, факторы, влияющие на его формирование, и методы его развития в рамках современных педагогических технологий. Результаты исследований показывают, что творческие задания развивают самостоятельность мышления, аналитическое мышление и навыки поиска инновационных решений. В статье рекомендуются эффективные подходы к развитию у студентов навыков исследовательской деятельности и самостоятельного мышления в современной системе образования.

Annotation: This article analyzes the issues of developing students' critical thinking through creative tasks and research activities. The role of critical thinking in the educational process, factors influencing its formation, and methods of its development within the framework of modern pedagogical technologies are highlighted. The results of the study show that creative tasks increase the skills of independent thinking, analytical approach, and finding innovative solutions. The article recommends effective approaches to the formation of students' research and independent thinking skills in the modern education system.

Kalit so'zlar: Tanqidiy tafakkur, ijodiy topshiriqlar, tadqiqot faoliyati, innovatsion ta'lim, mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv, interfaol metodlar, ijodiy fikrlash.



Ключевые слова: Критическое мышление, творческие задачи, исследовательская деятельность, инновационное образование, самостоятельное мышление, аналитический подход, интерактивные методы, творческое мышление.

Key words: Critical thinking, creative tasks, research activities, innovative education, independent thinking, analytical approach, interactive methods, creative thinking.

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ta'lim jarayonida interfaol yondashuvlar va innovatsion usullarning joriy etilishi zamirida nafaqat bilim berish, balki talabalarning mustaqil tahlil qilish va ijodiy yondashish ko'nikmalarini shakllantirish ham ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Tanqidiy tafakkur – bu insonning mavjud ma'lumotlarga asoslangan holda ob'ektiv va mantiqiy xulosalar chiqarish, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash va muammolarga ijodiy yondashish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyatni shakllantirish uchun ta'lim jarayonida ijodiy topshiriqlar va tadqiqot faoliyatidan samarali foydalanish lozim. Ijodiy topshiriqlar talabalarni o'ylashga, mavjud bilimlarni amaliyotda qo'llashga va yangi g'oyalar yaratishga undaydi, tadqiqot faoliyati esa ularning mustaqil izlanish olib borish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Mazkur ishda ijodiy topshiriqlar va tadqiqot faoliyati orqali tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan

samarali pedagogik usullar, metodlar va texnologiyalar tahlil etiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida faqatgina bilim berish emas, balki talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish ham muhim vazifa sanaladi. Jamiyatning intellektual taraqqiyoti shaxsning mustaqil fikrlash, mavjud axborotni tahlil qilish va muammolarga ijodiy yondashish qobiliyatiga bog'liq. Shu boisdan ta'lim muhitida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar, xususan, ijodiy topshiriqlar va tadqiqot faoliyatiga asoslangan yondashuvlar dolzarb masalalar qatorida turadi.

Tanqidiy tafakkur – bu insonning berilgan ma'lumotlarni faqat qabul qilish emas, balki ularni sintez qilish, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish va mustaqil xulosalar chiqarish jarayonidir. Bu jarayon insonning faqatgina bilim olish darajasini emas, balki uni qanday qo'llashi, qanday tahlil qilishi va qanday yangilik yaratishi bilan ham belgilanadi. Ko'pincha an'anaviy ta'lim metodlari talabalarni tayyor ma'lumotlarni yodlashga undaydi, biroq bu yondashuv tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uchun yetarli emas. Shuning uchun ham zamonaviy ta'limda ijodiy topshiriqlar va tadqiqot faoliyati keng joriy etilishi zarur.

Ijodiy topshiriqlar – bu talabalarning mustaqil fikrlash,

innovatsion g'oyalar yaratish va muammolarga o'ziga xos yechim topishiga yordam beradigan pedagogik usuldir. Masalan, muayyan muammoga doir esse yozish, bahsli vaziyatlarni tahlil qilish yoki mustaqil loyiha tayyorlash kabi topshiriqlar talabalarning tahliliy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday mashg'ulotlar natijasida talabalar nafaqat o'z bilimlarini mustahkamlash, balki ularni real hayotga tadbiiq etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.


Bundan tashqari, tadqiqot faoliyati ham tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Tadqiqot olib borish jarayonida talabalar o'zlari duch kelgan ma'lumotlarni tahlil qilish, mavjud nazariyalarni o'rganish, faktlarni taqqoslash va mustaqil ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon ularning mantiqiy tafakkurini, kuzatuvchanligini va analitik yondashuvini shakllantirishga yordam beradi. Tadqiqot asosida talaba nafaqat mavjud bilimlarni o'zlashtiradi, balki o'zi yangi g'oya yoki nazariyani ilgari surish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida ijodiy topshiriqlar va tadqiqot faoliyatini uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu ikki yondashuv bir-birini to'ldiradi va talabalarni tanqidiy tafakkurga yo'naltiradi. Misol uchun, pedagogik amaliyotda loyiha usulidan foydalanish talabalar uchun nafaqat ijodiy jarayon, balki tadqiqot ishlarini ham o'z ichiga oladigan samarali metod sifatida namoyon bo'ladi. Talaba ma'lum bir mavzu bo'yicha mustaqil izlanish olib borib, o'z xulosalarini aniq dalillar bilan asoslab berishga harakat qiladi. Bu esa ularning mustaqil o'rganish va izlanish

ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish nafaqat nazariy bilimlarni yetkazish, balki talabalarga mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish orqali ham amalga oshirilishi lozim. Ijodiy topshiriqlar va tadqiqot faoliyati bu jarayonda eng samarali vositalardan hisoblanadi. Shu sababli, o'qituvchilar zamonaviy ta'lim metodlarini qo'llash, talabalarning tanqidiy tafakkurini shakllantirish va ularni mustaqil fikrlovchi shaxslar sifatida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Zero, kelajakda muvaffaqiyatga erishish, jamiyat rivojiga hissa qo'shish va yangi innovatsiyalar yaratish aynan tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega insonlar qo'lida bo'ladi.

Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar zamonaviy pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari nuqtai nazaridan chuqur o'rganilgan. Xususan, tanqidiy fikrlash tushunchasi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati R. Paul[5; 76], D. Halpern[3; 455], J. Di Bono[2] kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida tanqidiy tafakkur insonning muammolarga ratsional va mantiqiy yondashish, dalillar asosida xulosa chiqarish, analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida tasvirlanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda ijodiy topshiriqlar va tadqiqot faoliyatining o'rni muhimligi ko'plab ta'lim mutaxassislari tomonidan tasdiqlangan. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy topshiriqlar va tadqiqot faoliyati tanqidiy



tafakkurni shakllantirishda muhim vositalardan biridir. Masalan, S. Brookfield[1; 164] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tanqidiy tafakkurga o'rgatish jarayonida talabalarni faol fikrlashga jalb qilish uchun muhokamalar, loyihalar, essey yozish va muammolarni hal qilish strategiyalaridan foydalanish samaradorligi yoritilgan.

Ta'lim jarayonida ijodiy topshiriqlardan foydalanish bo'yicha R. Sternberg[7; 89] tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuvlar, masalan, muammoli ta'lim va loyihaviy metodlar, talabalarning nafaqat ijodiy fikrlashini, balki ularning tahliliy tafakkurini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday topshiriqlar talabalarning o'z-o'zini baholash va refleksiya qilish qobiliyatlarini kuchaytiradi. Tadqiqot faoliyatining tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga ta'siri haqida M. Lipman[4; 59] o'z ishlarida ta'kidlab o'tgan. Uning fikricha, ta'lim jarayonida ilmiy izlanish olib borish, talabalarni tadqiqotga yo'naltirish ularning muammolarni chuqur tahlil qilish va o'z nazariyalarini ilgari surish qobiliyatini shakllantiradi.

Milliy va xalqaro miqyosdagi pedagogik tajribalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish samarali natijalar beradi. Xususan, O'zbekiston ta'lim tizimida ham tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan yangicha yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Sh. Qosimova va B. Axmedov[8; 95] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim va loyihaviy usullarni qo'llash tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini

rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, tanqidiy tafakkurni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ijodiy topshiriqlar va tadqiqot faoliyati bu jarayonda asosiy vositalardan biri bo'lib, ular orqali talabalar nafaqat mavjud bilimlarni o'zlashtiradi, balki mustaqil fikrlash, analitik tahlil qilish va ijodiy yondashuv qobiliyatlarini shakllantiradilar. Bu esa ularning kelajakdagi ilmiy va kasbiy faoliyatida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama:

Zamonaviy jamiyatda shaxsning tanqidiy tafakkur qilish qobiliyati uning muvaffaqiyatli ta'lim olishi va kasbiy faoliyatida o'zini namoyon etishi uchun muhim omil sanaladi. Tanqidiy tafakkur – bu axborotni tahlil qilish, xulosa chiqarish va asosli qaror qabul qilish jarayoni bo'lib, uni rivojlantirish uchun ijodiy topshiriqlar va tadqiqot faoliyati eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu usullar nafaqat bilimni o'zlashtirishga, balki mustaqil fikrlash va innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ta'lim tizimida interfaol metodlarning tanqidiy tafakkurga ta'sirini o'rganish bo'yicha turli natijalarni ko'rsatmoqda. Masalan, 2022-yilda AQShning Harvard universiteti tadqiqotchilari tomonidan o'tkazilgan tajriba natijalariga ko'ra, talabalarning 78% ijodiy topshiriqlar va muammoli ta'lim orqali mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlanganini bildirgan. Boshqa bir tadqiqot – Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining 2023-yilgi ta'lim

hisobotida esa, ijodiy yondashuv asosida o'qitilgan talabalar odatiy ma'ruzalar asosida o'qitilganlarga nisbatan 65% ko'proq analitik tafakkur qilish qobiliyatiga ega ekani aniqlangan[9].

Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uchun ijodiy topshiriqlar keng qo'llaniladi. Bu topshiriqlar turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: esse yozish, bahsli muammolarni muhokama qilish, loyiha yaratish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va simulyatsion tadqiqotlar o'tkazish. Masalan, Buyuk Britaniya ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida, talabalar uchun muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar berilganida, ularning tanqidiy tafakkur ko'rsatkichlari 47% ga oshgani aniqlangan. Bu shuni ko'rsatadiki, ijodiy faoliyat orqali o'quvchilar nafaqat mavzuni chuqur o'zlashtiradilar, balki muammoni turli nuqtai nazarlardan ko'rib chiqishga ham o'rganadilar.

Bundan tashqari, tadqiqot faoliyatining tanqidiy tafakkurga ijobiy ta'siri ham ilmiy jihatdan isbotlangan. Masalan, Germaniyaning Max Plank instituti tomonidan 2021-yilda olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatdiki, ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullangan talabalar o'rtasida tahliliy tafakkur ko'rsatkichlari 55% ga oshgan[9]. Tadqiqot jarayonida talabalar mavjud nazariyalarni o'rganib chiqib, ularni yangi sharoitlarda sinovdan o'tkazgan hamda natijalarga asoslanib o'z xulosalarini ilgari surganlar. Bu jarayon ularning muammolarga turli yondashuvlar orqali yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirgan.

O'zbekistonda ham tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan

pedagogik tajribalar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limga yo'naltirilgan usullar, interfaol dars mashg'ulotlari va ijodiy topshiriqlar ko'paymoqda. Xususan, 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o'tkazilgan tajribaviy loyiha natijalariga ko'ra, ijodiy topshiriqlardan foydalangan guruhlarda tanqidiy tafakkur ko'nikmalari 42% ga yaxshilangan. Ayniqsa, loyiha va tadqiqot asosida ta'lim berilgan talabalar nafaqat aniq fanlarda, balki ijtimoiy-gumanitar fanlarda ham o'z fikrlarini mustaqil asoslab bera olish qobiliyatiga ega bo'lganlar.

Tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning yana bir muhim jihati bu texnologiyalar bilan bog'liq. Raqamli ta'lim vositalari, masalan, interaktiv platformalar, sun'iy intellekt asosidagi tahliliy dasturlar va onlayn ta'lim resurslari tanqidiy fikrlashni shakllantirishda samarali natijalar bermoqda. Dunyo miqyosida raqamli o'qitish metodlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalar qo'llanilgan ta'lim muhitida talabalar tanqidiy tafakkurga oid ko'nikmalarini 33% tezroq rivojlantiradi.

Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uchun ijodiy topshiriqlar va tadqiqot faoliyatidan foydalanish ta'lim jarayonining muhim yo'nalishidir. Global tadqiqotlar va statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy bilim berish usullari bilan solishtirilganda, ijodiy va tadqiqotga asoslangan ta'lim usullari talabalarni mustaqil fikrlashga va muammolarni kompleks hal qilishga undaydi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham ushbu yondashuvlarni kengroq qo'llash



orqali talabalarni zamonaviy jamiyat talablariga mos keluvchi fikrlovchi mutaxassislariga aylantirish mumkin. Shu boisdan, kelajakda ta'lim tizimida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan yangi texnologiyalar, interfaol metodlar va tadqiqot faoliyatini kengaytirish bo'yicha yanada chuqurroq ilmiy izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Zero, bugungi kunda innovatsiyalar va intellektual rivojlanish tanqidiy fikrlovchi yosh avlodga tayanadi.

Xulosa:

Bugungi globallashuv va axborot asrida insondan nafaqat bilimlarni yod olish, balki ularni tahlil qilish, tahliliy yondashish va mustaqil xulosa chiqarish talab qilinadi. Bu esa tanqidiy tafakkurni rivojlantirish muhimligiga yana bir bor urg'u beradi. Ta'lim tizimi endilikda faqat an'anaviy bilim berish bilan cheklanmay, balki talabalar fikrlash qobiliyatini oshirish, muammolarni mustaqil hal qilish va ijodiy yondashuvni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Tanqidiy tafakkur inson hayotining barcha jabhalarida muhim rol o'ynaydi. U insonni manipulyatsiya va noto'g'ri ma'lumotlardan himoya qilish, ishonchli manbalar bilan ishlash va xulosalarini dalillarga asoslash imkonini beradi. Biroq, bu qobiliyat o'z-o'zidan rivojlanmaydi – u maxsus pedagogik strategiyalar, innovatsion metodlar va izchil ta'lim jarayoni orqali shakllantiriladi.

Ushbu maqolada muhokama qilinganidek, ijodiy topshiriqlar va tadqiqot faoliyati tanqidiy tafakkurni shakllantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ijodiy topshiriqlar talabalarga yangicha fikrlash, muammolarga turli nuqtai nazarlardan

qarash va o'z yechimlarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Tadqiqot faoliyati esa ularning ilmiy va tahliliy tafakkurni rivojlantirib, chuqur o'rganish va dalillarga asoslangan fikr yuritish qobiliyatlarini oshiradi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol yondashuvlar, loyiha metodi va muammoli ta'lim kabi innovatsion usullar qo'llangan guruhlarda talabalarning tanqidiy tafakkur darajasi an'anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Xalqaro va milliy statistik tahlillar ham shuni tasdiqlaydi: ijodiy va tadqiqot asosidagi ta'lim usullari orqali o'qitilgan talabalar nafaqat akademik natijalarda, balki real hayotdagi muammolarni hal qilishda ham yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga e'tibor kuchaymoqda. Interfaol o'qitish metodlari, mustaqil ta'lim va loyiha asosida o'qitish joriy etilishi natijasida talabalar o'z fikrlarini mustaqil asoslash, tanqidiy mulohaza yuritish va ijodiy yondashish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Biroq, bu boradagi islohotlar yanada keng ko'lamda davom ettirilishi kerak. O'qituvchilar uchun tanqidiy tafakkur metodologiyasiga oid maxsus treninglar tashkil etish, ta'lim dasturlariga innovatsion yondashuvlarni keng tatbiq etish va talabalarni tadqiqot faoliyatiga faol jalb qilish dolzarb vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy tafakkur – bu shunchaki bilim olish emas, balki ularni qanday qo'llashni bilish san'ati. Kelajakni quruvchi, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi, innovatsion va mustaqil fikrlovchi avlod



yetishtirish uchun ta'lim tizimida ijodiy va tadqiqot asosidagi yondashuvlarni keng joriy etish lozim. Chunki tanqidiy fikrlovchi shaxs – bu nafaqat bilimli, balki tafakkur orqali jamiyatni o'zgartira oluvchi insondir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Brookfield, S. D. (2012). *Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques to Help Students Question Their Assumptions*. Jossey-Bass.
2. De Bono, E. (1985). *Six Thinking Hats*. Little, Brown and Company.
3. Halpern, D. F. (1998). Teaching Critical Thinking for Transfer Across Domains: Dispositions, Skills, Structure Training, and Metacognitive Monitoring. *American Psychologist*, 53(4), 449-455.
4. Lipman, M. (2003). *Thinking in Education*. Cambridge University Press.
5. Paul, R., & Elder, L. (2014). *Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Professional and Personal Life*. Pearson Education.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (2023). *Ta’lim jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash samaradorligi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
7. Sternberg, R. J. (2003). *Wisdom, Intelligence, and Creativity Synthesized*. Cambridge University Press.
8. Qosimova, Sh., & Axmedov, B. (2020). O‘zbekistonda Mustaqil Ta’limni Takomillashtirishning Pedagogik Asoslari. *O‘zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali*, 45(2), 87-95.
9. World Economic Forum (2020). *Future Skills and the Importance of Critical Thinking in the 21st Century Workforce*. Global Education Report.
10. Maxmudova, D., Khudoynazarov, E., Pazilova, M., Alyaminov, K., Abilova, G., Sherimbetova, Z., & Korabayev, S. (2024). Improving Media Literacy Among Higher Education Students Through Vitagenic Information. *Qubahan Academic Journal*, 4(4), 411-442.
11. Jumanazarov, D., Atamurotov, F., Xudoynazarov, E., Matyokubov, K., Saparbaev, R., Abdikarimov, X., & Olsen, U. L. (2025). Method for the correction of spectral distortions in x-ray photon-counting detectors. *IEEE Transactions on Instrumentation and Measurement*.

РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ УЗБЕКИСТАНА НА ПРИНЯТИЕ
УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ
THE ROLE OF UZBEKISTAN'S PEDAGOGICAL HERITAGE IN
MANAGERIAL DECISION-MAKING

Косимов Дилшод
Магистрант 1-го курса филиала
Московского государственного университета
имени М.В. Ломоносова в городе Ташкенте

Аннотация: В данной статье рассматривается роль педагогического наследия Узбекистана в процессе принятия управленческих решений в сфере образования. Анализируются труды выдающихся узбекских мыслителей, таких как Алишер Навоий, Абдурахмон Жомий и Ахмад Дониш, чьи идеи оказали значительное влияние на развитие образовательного менеджмента. Определены ключевые концепции, оказывающие воздействие на современное управление образовательными учреждениями. Исследование подчеркивает актуальность интеграции педагогических традиций с современными подходами к управлению образованием. В результате предложены рекомендации по использованию педагогического наследия для повышения эффективности системы образования в Узбекистане.

Annotation: This article examines the role of Uzbekistan's pedagogical heritage in the decision-making process in the field of education management. The works of prominent Uzbek thinkers such as Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, and Ahmad Donish, whose ideas have significantly influenced the development of educational management, are analyzed. Key concepts impacting modern educational institution management are identified. The study highlights the relevance of integrating pedagogical traditions with contemporary educational management approaches. As a result, recommendations are proposed for utilizing pedagogical heritage to enhance the effectiveness of the education system in Uzbekistan.

Ключевые слова: педагогическое наследие, управленческие решения, образование, узбекские мыслители, образовательный менеджмент, традиции, инновации.

Key words: pedagogical heritage, managerial decisions, education, Uzbek thinkers, educational management, traditions, innovations.

В условиях глобализации и управленческих решений. модернизации системы образования Педагогическое наследие Узбекистана, одной из актуальных задач является основанное на трудах великих изучение педагогического наследия как мыслителей, таких основы для принятия эффективных



как Алишер Навоий, Абдурахмон Жомий, Ахмад Дониш и других, оказывает значительное влияние на формирование современных подходов к управлению образованием. Актуальность данной темы обусловлена необходимостью сочетания традиционных ценностей с инновационными подходами

для повышения эффективности образовательных систем.

В современном обществе важность сохранения и переосмысления педагогического наследия возрастает в связи с необходимостью построения качественной системы образования. Опыт предшествующих поколений позволяет разработать новые стратегии управления образовательными учреждениями, адаптированные к современным условиям. Педагогическое наследие Узбекистана играет ключевую роль в формировании ценностных ориентиров, методологических основ и принципов образовательного менеджмента. Оно способствует укреплению морально-этических основ, развитию интеллектуального потенциала и формированию национального самосознания.

Педагогическое наследие Узбекистана богато идеями, которые актуальны и в современном образовательном процессе. Труды выдающегося узбекского поэта, философа и мыслителя Алишера Навоий (1441-1501 гг.) подчеркивают важность нравственного воспитания и уважения к личности обучающегося, что может стать основой для разработки современных

образовательных программ. Навоий уделял особое внимание гармоничному развитию личности, что находит отражение в концепциях современного гуманистического образования. В своём труде «Махбуб ул-кулуб» («Возлюбленный сердце») затронул важные вопросы нравственного воспитания, уважения к личности и роли образования в жизни общества.

Он акцентирует внимание на таких качествах, как:

- честность,
- справедливость,
- доброта,
- уважение к людям,
- терпимость.

Выдающийся поэт, философ, суфий и мыслитель Абдурахмон Жомий (1414-1492 гг.) в своём труде «Тарихи Куллият» (в переводе — «История сборника») подчёркивает, что учитель играет ключевую роль в формировании личности ученика. Основные качества, которыми должен обладать наставник, по мнению Жомия:

- высокие нравственные принципы,
- терпение,
- сострадание,
- умение находить подход к каждому ученику,
- глубокие знания.

Его идеи о роли наставника как духовного и интеллектуального лидера остаются актуальными при организации образовательного процесса.

Ахмад Дониш (1827–1897) — узбекский просветитель, учёный, философ и писатель, оставивший значительное наследие в области

образования, культуры и социальной мысли. Одним из его ключевых трудов является «Наводир ул-вакойи» («Редкие события»), в котором он поднимает вопросы реформирования системы образования, сочетания теоретических знаний

с практическими навыками и роли образования в общественном развитии,

что сегодня актуально при разработке образовательных стандартов

и программ профессиональной подготовки. Его подходы могут быть применены в разработке дуальной системы образования, способствующей более глубокому освоению практических навыков.

Ахмад Дониш подчёркивал, что образование должно не только передавать теоретические знания, но и формировать у учащихся практические навыки, необходимые для жизни. Основные мысли:

- знания без практики бесполезны;
- образование должно готовить учащихся к реальной жизни;
- практическая деятельность способствует лучшему усвоению теории.

Примером такой интеграции Дониш считал изучение ремёсел, сельского хозяйства, медицины и других прикладных наук наряду с религиозными

и философскими дисциплинами.

Кроме того, в педагогическом наследии Узбекистана можно выделить

идеи о важности толерантности, межкультурного диалога и уважения к традициям, что особенно значимо в условиях многонационального общества.

Педагогическое наследие Узбекистана играет важную роль

в формировании современных подходов к принятию управленческих решений в сфере образования. Изучение и использование идей узбекских мыслителей позволяет создать эффективные модели управления, ориентированные на развитие личности, повышение качества образовательного процесса

и сохранение культурных ценностей. Сохранение и развитие педагогического наследия способствует не только модернизации системы образования, но и укреплению культурных традиций общества.

Таким образом, интеграция педагогических принципов прошлого с современными управленческими подходами является важным фактором

в создании гармоничной и конкурентоспособной образовательной системы. Разработка образовательных программ, основанных на традициях

и современных технологиях, позволит создать основу для устойчивого развития системы образования Узбекистана в будущем.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдуманнатов А. Роль духовного наследия Алишера Навои в воспитании молодежи // Педагогическое образование и исследования. – Ташкент: PA Research Journal, 2024.
2. Маматова М.Т., Кодирова М.И., Журабоева Р.Т. Педагогические и нравственные взгляды поэта и мыслителя узбекского народа Алишера Навои // Достижения науки и образования. – 2020.
3. Ахмедов Р. Ахмад Дониш – реформатор системы образования Бухарского эмирата // Вопросы истории и философии. – Ташкент: Фан, 2022.
4. Хакимов А.А. Вклад Абдурахмона Жомия в развитие педагогической мысли Средней Азии // Наука и образование в XXI веке. – Самарканд: СамГУ, 2023.

МАКТАBLARDA TASVIRIY SAN'AT VA BIOLOGIYANING FANLARARO
ALOQADORLIGI
МЕЖПРЕДМЕТНЫЕ СВЯЗИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА И
БИОЛОГИИ В ШКОЛЕ
INTERDISCIPLINARY CONNECTIONS BETWEEN FINE ARTS AND
BIOLOGY AT SCHOOL

Ro'zmatova Sharofatxon
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Biologiya kafedراسi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada, umumta'lim maktablarida biologiya va Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda o'zaro aloqadorligi haqidagi masala yoritilgan. Tasviriy san'at va tabiatshunoslik fanlarini uyg'unlikda o'qitishi samaradorligi biologiya o'qitish metodikasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. O'quvchilar biologiya fani mavzularini o'qitishda tasviriy san'atning ta'siri katta ekanligi ilmiy tahlil qilingan. O'quvchilar mavzularni o'zlashtirishda kreativlikni shakllanishi, rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy xulosalar qilingan.*

Аннотация: *В статье освещен вопрос взаимосвязи преподавания биологии и изобразительного искусства в общеобразовательной школе. Эффективность совместного преподавания изобразительного искусства и естественных наук оказала влияние и на методiku преподавания биологии. Научно проанализировано, что изобразительное искусство оказывает большое влияние на преподавание предметов биологии. Сделаны научные выводы по вопросам формирования и развития творческих способностей студентов при освоении предметов.*

Annotation: *The article discusses the issue of the interrelationship of biology and fine arts in secondary schools. The effectiveness of teaching fine arts and natural science in harmony has also had an impact on the methodology of teaching biology. The scientific analysis of the great influence of fine arts on teaching biology subjects to students has been carried out. Scientific conclusions have been drawn on the formation and development of creativity in students' mastery of subjects.*

Kalit so'zlar: *maktab, tasviriy san'at, biologiya, metodika, rasm, tabiat, kreativlik, tahlil, xulosa.*

Ключевые слова: *школа, изобразительное искусство, биология, методика, живопись, природа, творчество, анализ, вывод.*

Key words: *school, visual arts, biology, methodology, painting, nature, creativity, analysis, conclusion.*

Ma'lumki, biologiya fani Biroq, tabiat bilan bog'liq tushunchalar
maktablarda 5 sinfdan boshlab o'qitiladi. bog'cha va boshlang'ich ta'limdayoq



bolalar ongida tasavvur paydo qiladi. Nafaqat tasavvur qiladi, balki tabiatni tasvirlashga harakat qiladi. Bolalar 1 va 2 yoshligidan boshlab ranglarni ajrata boshlaydi. Aynan biologiya fani o'qitila boshlagan vaqtda o'quvchilar ongida tabiatga estetik qarashlari paydo bo'ladi. Xususan, tasviriy san'at darslarida birinchidan, tasdiqlangan yillik ish reja va direktor yoki o'quv ishlari bo'limining mudiri tomonidan tasdiqlangan dars reja va konspekti asosida dars olib borishga erishilgan bo'lsa, ikkinchidan, darslarning ko'rgazmalilik asosida o'tkazilishiga alohida e'tibor berila boshlandi, ba'zi bir o'qituvchilarimizni mavzu asosida rasm chizish darslarida («Baxor»,«Kuz» mavzulariga oid) bolalarni tabiat manzaralarini kuzatish uchun ekskursiyaga olib chikadigan bo'ldilar. Mavzu asosida rasm chizish jarayonida o'qituvchilarimizning yana bir narsaga o'z e'tiborlarini kuchaytirishdi. U ham bo'lsa, darsda bolalar tomonidan chizilgan rasmlarning tahlilini uyushtirishdir. Darsda chizilgan rasmlarni tez-tez tahlil kilib turish, birinchidan, bolalarning badiiy didini o'stiradi, ikkinchidan, ularning aktivligini oshiradi, uchinchidan, rasmlardagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi[2].

“Bilimlarni mustahkamlashda rasmlar katta ahamiyatga ega bo'ladi. O'quvchilar faqat og'zaki javob berib qolmay, balki ayrim gullarning, xayvonlarning va ularning organlarining tuzilishini, sxematik chizishni ham bilishlari kerak. Shuningdek, ular kon aylanish, nafas olish, ovqat hazm kilish, moddalar almashinuvini sxemasini chizishni xam bilishlari zarur[3]. Demak biologiya fanini o'qitishda har bir mavzu o'tilayotgan vaqtda mavzu bo'yicha

rasmlar chiziladi. Ko'pincha o'qituvchilar bu ishni mustaqil bajarishlari uchun uyga vazifa sifatida berilishi kuzatiladi. Haqiqatan ham o'quvchilarning mavzu bo'yicha rasmlar chizish mustaqil ish hisoblanadi.

Uslubshunos olimlardan Ye.V.Shoroxov «Mavzu asosida rasm chizish mashg'ulotlarning tarbiyaviy vazifalariga quyidagilarni kiritadi:

- Badiiy didni tarbiyalash;
- Tasviriy san'atni, hayotni kuzatishga qiziqish va ularga nisbatan muhabbat uyg'otish; qobiliyatni o'stirish;
- Tasavvurlarni ijodiy qayta ishlash malakalarini o'stirish;

Shuningdek, boshlang'ich sinflar tasviriy san'at dasturlarida mavzuli rasm chizishning bir qator formalari belgilangan bo'lib, ular bevosita estetik tarbiya bilan bog'liqdir[4]. Mavzu asosida rasm ishlash jarayonida rasmni qog'oz betida to'g'ri joylashtirish, surat kompozitsiyasini aniqlash, suratdagi obrazlarni ifodalash kabi barcha ishlar haqida ham xuddi shu gapni aytish mumkin.

Biologiya fanidagi laboratoriya ishlari rasmlar yordamida ifodalanadi. Shuning uchun rasmlarni chizishga o'quvchilar alohida e'tibor berishi lozim. Bunda rasm chizishdan maqsad quyidagidan iborat bo'ladi:

- Bajarilgan ishlarni hujjati sifatida taqdimot qilish;
- Oddiy kuzatuvlarni rasmlar yordamida boyitish va o'rganilayotgan ob'ektni yana-da aniqroq va to'liq tasavvur qilish;
- Chizmalarni eslab qolishga yordam berish[1].

Biologik tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish biologik

ta'lim va tarbiyaning harakatlantiruvchi kuchi, o'quv materialini mazmunining asosiy birligi sanaladi. O'quvchilarda tushunchalarni shakllantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: o'quv materialini sezgi organlari orqali qabul qilish, idrok etish, tasavvur qilish, yodda saqlash, amalda qo'llash, natijalarni tekshirish, axborotlarni umumlashtirish va xulosa yasash. O'qituvchi tomonidan tushunchalarni shakllantirish bosqichlariga amal qilinishi o'quvchilarning tushunchalarni qabul qilishiga, tushunishiga imkon yaratadi. Shu sababli, o'qituvchi har bir o'quv fani mazmunidagi tushunchalarni belgilab olishi, o'quvchilarda shu tushunchalarni shakllantirishga diqqat markazini qaratishi lozim.

Biologiya fanida mavzu bo'yicha rasm chizish qoidalari quyidagilardan iborat:

- o'rganilayotgan darslarni rasmlar yordamida ifodalash;

- Rasm chizadigan daftar, tegishli qalinlikka ega bo'lgan va sifatli qog'ozdan tayyorlangan maxsus daftar bo'lishi lozim. qalamda chizilgan chiziqlar osonlik bilan o'chiriladigan bo'lishi kerak.

- Foydalaniladigan qalamlar qattiqligi HB-belgili, o'tkir uchli rangsiz bo'lishi shart.

O'quvchilar biologiya darslarida chiziladigan rasmlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Chizilayotgan ob'ektni juda chiroyli qilib bezash talab qilinmaydi. Biroq, barcha chizmalar haqqoniy va toza bo'lishi lozim;

- Chizmalarni haqqoniylik deganda kuzatilayotgan ob'ektni

imkoniyat darajasida aniq ko'rsatishga harakat qilishi kerak;

- Chizilayotgan ob'ektni elementlari qancha ko'p bo'lsa, rasm shuncha katta bo'lishi kerak;

- Rasm sodda qilib chizilishi va elementlarni joylanishi va bog'liqligini aniq ko'rsatib berish kerak;

- Agar ob'ektda bir nechta o'xshash qismlar bo'lsa, ularni mayda elementlarini ham aniq ko'rsatib berishga harakat qilish kerak;

- Rasmdagi har bir chiziqni oldindan o'ylab, qalamni qog'ozdan ajratmagan holda chizish kerak. Rasmni bo'yash yoki shtrixlar bilan bezash bezash mumkin emas;

- Rasm atrofida detallarni nomlarini yozish uchun joy qoldirish zarur. Yozuvlari to'liq va aniq bo'lishi kerak;

- Mikroskop orqali ko'rib turgan narsalarni rasimga tushirish kerak. Kitobdan qarab nusxa chizish mumkin emas;

- Har bir rasm o'z nomiga ega bo'lishi kerak, necha marta kattalashtirilganligi ko'rsatilishi zarur va tushuntirish yozuvi bo'lishi kerak.

Tasviriy san'at va biologiya o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha olib borilgan eksperimental va ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra maktablarning tasviriy san'at o'qituvchilariga quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

1. Fanlararo aloqadorlik tamoyilini tizimli va izchil amalga oshirish.

2. Fanlararo aloqadorlik masalalari bo'yicha jurnal va gazetalarda chop etilgan uslubiy adabiyotlar, qo'llanmalar va maqolalarni tizimli o'rganish va tahlil qilish, o'z pedagogik faoliyatida tavsiyalardan ijodiy foydalanish.



3. Botanika, zoologiya, anatomiya va inson fiziologiyasi bo'yicha maktab darsliklarining dasturlari va zarur bo'limlarini, shuningdek, boshqa ilmiy va ma'lumotnomalarni tizimli o'rganish va tahlil qilish.

4. O'rganilishi biologiya mavzulari bilan bog'liq bo'lishi shart bo'lgan faningiz bo'limlari va mavzularini oldindan belgilab oling va shu tizimdan foydalanib, barcha mavzular bo'yicha tematik bog'lanish kartalarini tuzing.

5. Dasturiy materialni rejalashtirishda faningiz mavzulari bilan biologiya mavzulari o'rtasidagi tematik bog'lanishni aniqlang va kalendar rejalarida o'zaro izchillikni o'rnatish.

6. To'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatish va biologiya darslarida o'quvchilar

qanday bilim olishlarini bilish maqsadida biologiya darslarida qatnashish.

7. Darsga tayyorgarlik ko'rayotganda o'zaro bog'liqlik masalalariga alohida e'tibor berib va tayyorlangan va to'plangan materiallar nima uchun har ikkala o'quv fanlari uchun zarur ekanligini hisobga oling, uni o'quv, tasviriy va didaktik materiallar, tasviriy san'atning biologiya bilan fanlararo aloqadorligini aks ettiruvchi o'quv, tasviriy va didaktik materiallar bilan ta'minlang.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Зиқиряев А., Мирхамидова П., Норбобоева Т., Файзуллаев С. Биологиядан амалий машғулотлар. – Тошкент., 2008. – Б. 7.
2. Kadirova N.A. O‘rta maktablarda tasviriy san‘at darslarida mavzu asosida rasm chizish jarayonida estetik tarbiyaning o‘rni // Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar. 2024-yil № 5. – В. 62.
3. Толипова Ж., Гофуров Т. Биология ўқитиш методикаси. – Т. 2007. – Б. 147.
Шорохов Е.В. Композиция: Учеб. Для студентов худож-граф. Фак. Пед. Ин-тов. – Москва: Просвеёние, 1986. – С. 56.



**TALABALARNI MUSTAQIL TA'LIMGGA TAYYORLASHDA ZAMONAVIY
PEDAGOGIK YONDASHUVLAR
СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В ПОДГОТОВКЕ
СТУДЕНТОВ К САМОСТОЯТЕЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ
MODERN PEDAGOGICAL APPROACHES IN PREPARING STUDENTS FOR
INDEPENDENT LEARNING**

Saidnazarov Ulug'bek

*Ma'mun universiteti Yoshlar masalalari,
ma'naviy va ma'rifat ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada talabalarning mustaqil ta'limga tayyorlanish jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tahlil etiladi. Mustaqil ta'lim bugungi kun oliy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, talabalarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning bilim olishda faol ishtirok etishlari hamda o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini tashkil qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Maqolada mustaqil ta'limni samarali tashkil etish uchun interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar va raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning ahamiyati yoritiladi. Shu bilan birga, talabalarni mustaqil ta'limga jalb etishning metodik asoslari, pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va baholash tizimlari tahlil qilinadi.*

***Аннотация:** В статье анализируется процесс подготовки студентов к самостоятельному обучению на основе современных педагогических подходов. Самостоятельное обучение является неотъемлемой частью современной системы высшего образования, и одной из важных задач является развитие критического и творческого мышления студентов, их активного участия в обучении, организация процесса саморазвития. В статье подчеркивается важность использования интерактивных методов, инновационных технологий и цифровых образовательных платформ для эффективной организации самостоятельного обучения. При этом анализируются методические основы привлечения студентов к самостоятельному обучению, механизмы педагогической поддержки и системы оценки.*

***Annotation:** This article analyzes the process of preparing students for independent learning based on modern pedagogical approaches. Independent learning is an integral part of today's higher education system, and one of the important tasks is to develop students' critical and creative thinking, their active participation in learning, and the organization of the process of self-development. The article highlights the importance of using interactive methods, innovative technologies, and digital educational platforms for the effective organization of independent learning. At the same time, the methodological*

foundations of involving students in independent learning, pedagogical support mechanisms and assessment systems are analyzed.

Kalit soʻzlar: *Mustaqil taʼlim, oliy taʼlim, interfaol oʻqitish, innovatsion texnologiyalar, raqamli taʼlim, tanqidiy tafakkur, ijodiy tafakkur.*

Ключевые слова: *Самостоятельное обучение, высшее образование, интерактивное обучение, инновационные технологии, цифровое обучение, критическое мышление, творческое мышление.*

Key words: *Independent learning, higher education, interactive learning, innovative technologies, digital learning, critical thinking, creative thinking.*

XXI asr – bilim va innovatsiyalar asri. Bugungi kunda taʼlim tizimi nafaqat tayyor bilimlarni yetkazib berish, balki talabalarning mustaqil oʻrganish qobiliyatini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan. Har qanday kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun inson doimiy oʻrganish jarayonida boʻlishi, yangi bilimlarni izlash va ularni amaliyotga tatbiq eta olishi lozim. Mustaqil taʼlim esa aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

Talabalarning mustaqil taʼlim olish qobiliyati ularning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatda oʻz oʻrnini topishi uchun muhim omillardan biridir. Bugungi globallashuv sharoitida axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi natijasida maʼlumot olish manbalari ortib bormoqda. Internet, elektron kutubxonalar, ochiq taʼlim resurslari – bularning barchasi talabalarga mustaqil taʼlim olish imkoniyatini taqdim etadi. Ammo savol tugʻiladi: bu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun talabalar qanday yondashuvlarga ega boʻlishi kerak?

Zamonaviy pedagogika talabalarning mustaqil taʼlimga tayyorlanish jarayonida yangi metodlarni taklif etmoqda. Interfaol oʻqitish texnologiyalari, muammoli taʼlim, loyiha

usuli, raqamli taʼlim platformalaridan foydalanish – bularning barchasi talabalarni mustaqil bilim olishga oʻrgatishning samarali yoʻllaridan hisoblanadi. Oliy taʼlimda esa bu jarayon nafaqat professor-oʻqituvchilarning, balki talabalarning ham faol ishtirokini talab qiladi.

Demak, bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri – talabalarni mustaqil taʼlimga yoʻnaltirish va ularga oʻz-oʻzini rivojlantirish koʻnikmalarini shakllantirishdir. Ushbu maqolada talabalarning mustaqil taʼlimga tayyorlanishida zamonaviy pedagogik yondashuvlarning oʻrni, ularning samaradorligi va taʼlim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Metodologiya:

Mustaqil taʼlimga tayyorlash – bu oddiy bilim berish jarayoni emas, balki talabalarning izlanish qobiliyatini rivojlantirish, ularda oʻzini anglash va oʻz bilimini mustaqil oshirish istagini uygʻotish jarayonidir. Shu sababli, zamonaviy taʼlim jarayonida qoʻllaniladigan metodologiya anʼanaviy yondashuvlardan farq qilishi va talabaning markaziy oʻrinda boʻlishiga yoʻnaltirilishi kerak.

Tadqiqotimizda zamonaviy pedagogik metodlar asosida mustaqil



ta'limni shakllantirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Avvalo, konstruktivistik yondashuv asos sifatida olinadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, talabalar bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki uni faol ravishda o'zlashtiruvchi va yaratishga harakat qiluvchi shaxslar bo'lishlari lozim. Ya'ni, ular o'zining ilgari olgan bilimlari asosida yangi bilimlarni quradi, tajriba va amaliy mashg'ulotlar orqali o'z tushunchalarini boyitadi.

Bundan tashqari, muammoli ta'lim metodlari mustaqil o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarni mustaqil izlanishga undash uchun ularga ochiq savollar qo'yish, hayotiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan vazifalar berish samarali bo'lishi mumkin. Ushbu yondashuv orqali talabalar nafaqat yangi bilim oladi, balki tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Interfaol o'qitish metodlari, xususan, jamoaviy muhokamalar, loyiha ishlari va kollaborativ o'qitish talabalarni mustaqil o'rganishga jalb qilishda samarali bo'ladi. Bugungi raqamli davrda esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni ortib bormoqda. Talabalarga turli ochiq ta'lim platformalaridan foydalanish, elektron kutubxonalariga kirish imkoniyatini berish ularning mustaqil ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Metodologik jihatdan yondashganimizda, mustaqil ta'limni rivojlantirish uchun metakognitiv yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv talabalarni o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga undaydi. Ya'ni, talabalar o'z bilimlarini qanday o'rganganliklarini

anglash va kelajakdagi ta'lim jarayonlarini yaxshilash bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shunday qilib, talabalarni mustaqil ta'limga tayyorlashning samarali metodlari bir-biri bilan uzviy bog'liq va ular zamonaviy pedagogikaning interfaol, muammoli va raqamli o'qitish usullari bilan uyg'unlashgan holda qo'llanilishi kerak. Ushbu metodlarning muvaffaqiyatli tatbiqi esa nafaqat talabalar bilim olish jarayonini samarali qiladi, balki ularning kasbiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili:

Talabalarni mustaqil ta'limga tayyorlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar bugungi kunda pedagogikaning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida keng o'rganilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim faqatgina individual o'qish jarayoni emas, balki talabaning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks pedagogik jarayondir.

G'arb olimlari (Knowles[1]; Brookfield[2]) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa yetuk o'quvchi (andragogika) tamoyillari asosida mustaqil ta'limga tayyorlash metodlari ishlab chiqilgan. Knowlesning[1; 45] fikricha, talabalar o'z bilimlarini o'zlari boshqarishlari va o'quv jarayonini o'z ehtiyojlariga moslashtirishlari zarur. Bu yondashuv oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

O'zbek va rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham mustaqil ta'limning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Masalan, E. F.

Sabzi[6] mustaqil ta'limni shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni haqida tadqiqot olib borgan va raqamli ta'lim platformalarining ahamiyatini ta'kidlagan. A. N. Leontyev[7] esa faoliyat yondashuvi asosida talabalarning mustaqil bilim olish qobiliyatini rivojlantirishning psixologik jihatlarini tahlil qilgan.

So'nggi yillarda raqamli ta'lim texnologiyalarining ta'siri bo'yicha ham keng tadqiqotlar olib borilmoqda. Siemens[5; 10] va Downes[9; 267] tomonidan ilgari surilgan konnektivizm nazariyasi bugungi onlayn va mustaqil o'qitish jarayoniga mos keluvchi model sifatida e'tirof etiladi. Unga ko'ra, ta'lim jarayoni turli raqamli resurslar, ochiq ta'lim platformalari va interaktiv muhitlar orqali amalga oshirilishi lozim.

Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida aniqlanishicha, mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish uchun quyidagi metodlar eng dolzarb hisoblanadi:

- Muammoli ta'lim (Problem-Based Learning – PBL) – talabalarga o'zlari muammoni hal qilish imkoniyatini berish orqali bilim olish jarayonini faollashtirish (Barrows[4; 486]).

- Metakognitiv yondashuv – talabalarning o'z ta'lim jarayonlarini tahlil qilishi va nazorat qilishini o'rgatish (Flavell[3; 911]).

- Raqamli ta'lim muhitlari – ochiq onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar va elektron kutubxonalaridan foydalanish (Siemens[5; 10]).

Shunday qilib, ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy edagogic yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va interfaol ta'lim usullari

mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish uchun zarur omillar hisoblanadi. Mustaqil ta'limni muvaffaqiyatli tashkil qilish uchun talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish, refleksiya qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish edagogic jarayonning markaziy maqsadi bo'lishi lozim.

Muhokama:

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'limga tayyorlanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy edagogic yondashuvlar, xususan, raqamli texnologiyalar va masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish, bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Raqamli texnologiyalar talabalarga interaktiv va moslashuvchan o'quv sharoitlarini yaratib, ularning mustaqil ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, masofaviy va gibrid ta'lim modellarining qo'llanilishi talabalarga o'z vaqtlarini samarali boshqarish va mustaqil ravishda bilim olish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu borada ilmiy darajaga ega pedagog xodimlar sonining oshishi, professor-o'qituvchilarning xorijiy stajirovkalari va xalqaro hamkorlik doirasida talabalarining ta'lim olishi kabi ko'rsatkichlar mustaqil ta'limning ahamiyatini ko'rsatadi. Quyidagi jadvalda O'zbekistonda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan ba'zi islohotlar va ularning natijalari keltirilgan:

1-jadval. oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan ba'zi islohotlar[8].



Ko'rsatkichlar	2017-yil	2020-yil
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar soni	48 ta	84 ta
Ilmiy darajaga ega pedagog xodimlar soni	-	9 636 nafar
Xorijiy stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilar soni	-	1 611 nafar
Xalqaro hamkorlik doirasida xorijda ta'lim olgan magistrlar	-	112 nafar
Xalqaro hamkorlik doirasida xorijda ta'lim olgan doktorantlar	-	51 nafar
"El-yurt umidi" jamg'armasi orqali stajirovka o'taganlar	-	46 nafar

Ko'rsatkichlar 2017-yil
2020-yil

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar soni 48 ta 84 ta

Ilmiy darajaga ega pedagog xodimlar soni - 9 636 nafar

Xorijiy stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilar soni - 1 611 nafar

Xalqaro hamkorlik doirasida xorijda ta'lim olgan magistrlar - 112 nafar

Xalqaro hamkorlik doirasida xorijda ta'lim olgan doktorantlar - 51 nafar

"El-yurt umidi" jamg'armasi orqali stajirovka o'taganlar - 46 nafar

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda talabalarning

mustaqil ta'limga tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Raqamli texnologiyalar va masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari rivojlantirilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Bugungi global ta'lim makonida talabalarni mustaqil ta'limga tayyorlash oliy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar bu jarayonni yanada samarali tashkil etishga yordam bermoqda. Mustaqil ta'lim talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, ularni o'z bilimini doimiy ravishda mustaqil oshirishga o'rgatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni rivojlantirish bo'yicha muhim islohotlar olib borilmoqda. Ilmiy darajaga ega pedagoglar sonining ortishi, xalqaro hamkorlik dasturlarining kengayishi va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari buni tasdiqlaydi. Biroq, mustaqil ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

innovatsion pedagogik metodlarni keng joriy etish – muammoli ta'lim, loyiha usuli va interfaol yondashuvlar talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi.

raqamli ta'lim platformalaridan samarali foydalanish – masofaviy va onlayn ta'lim imkoniyatlaridan to'g'ri

foydalanish talabalar mustaqilligini kuchaytiradi.

o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish – pedagoglarning zamonaviy texnologiyalarni va yangi ta'lim metodlarini o'zlashtirishi talabalar mustaqil ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

talabalar motivatsiyasini oshirish – mustaqil o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish uchun rag'batlantiruvchi tizimlarni joriy qilish muhim.

Shunday qilib, mustaqil ta'lim talabalarni faqatgina aniq bilimlarga emas, balki hayot davomida o'z-o'zini rivojlantirishga o'rgatadigan kuchli vosita

sifatida qaralishi lozim. Oliy ta'lim muassasalari bu jarayonda talabalarni qo'llab-quvvatlashi, ularga tegishli metodik yordam ko'rsatishi va zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishi zarur. Faqat shundagina, kelajak mutaxassislari jahon ta'lim maydonida raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishi mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Knowles, M. S. (1984). *The Adult Learner: A Neglected Species*. Houston: Gulf Publishing.
2. Brookfield, S. D. (1995). *Becoming a Critically Reflective Teacher*. Jossey-Bass.
3. Flavell, J. H. (1979). *Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive Developmental Inquiry*. *American Psychologist*, 34(10), 906–911.
4. Barrows, H. S. (1986). *A Taxonomy of Problem-Based Learning Methods*. *Medical Education*, 20(6), 481–486.
5. Siemens, G. (2017). *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age*. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, 2(1), 3-10.
6. Sabzi, E. F. (2018). *Mustaqil ta’limni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning roli*. *Pedagogik innovatsiyalar jurnali*, 3(2), 45-50.
7. Leontyev, A. N. (1996). *Deiatel'nost'. Soznanie. Lichnost' (Activity. Consciousness. Personality)*. Moscow: Nauka.
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (2019). Lex.uz – <https://lex.uz/mact/-4545884>.
9. Downes, S. (2005). *E-Learning 2.0*. ACM eLearn Magazine.
10. Саидназаров, У. А. (2021). Техника и методика обучения броскам в баскетболе. *Academic research in educational sciences*, 2(1), 728-736.
11. Saidnazarov, U. A. (2025). TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. *Inter education & global study*, (2), 312-319.
12. Saidnazarov Ulug‘bek Akhmedjanovich. (2025). The importance of pedagogical psychology in higher education. *International Journal of Pedagogics*, 5(02), 158–160. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume05Issue02-42>

KREATIV KOMPETENTLIK TUSHUNCHASI VA UNI PEDAGOGIK
TADQIQOTLARDA O'RGANILISHI
ПОНЯТИЕ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И ЕЕ ИЗУЧЕНИЕ В
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ
THE CONCEPT OF CREATIVE COMPETENCE AND ITS STUDY IN
PEDAGOGICAL RESEARCH

Amonov Xolmuxammad

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi
huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada
san'ati instituti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi
boshlig'i pedagogika fanlari doktori (DSc)*

Annotatsiya: maqolada kreativ kompetentlik tushunchasi va uni pedagogik tadqiqotlarda o'rganilishi bayon qilingan. Unda asosiy urg'u kreativlik, kreativ xususiyatlar, ta'limni kreativ tashkil etish, uning mazmun-mohiyati, kompetensiya va kreativ kompetensiyaning pedagogik-psixologik, ijtimoiy-falsafiy jihatdan xorijiy hamda respublikamiz tadqiqotchi-olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlari bayon qilingan.

Аннотация: В статье рассматривается понятие творческой компетентности и ее изучение в педагогических исследованиях. В ней основное внимание уделено креативности, творческим характеристикам, креативной организации образования, его содержанию, компетентности и творческой компетентности в педагогических, психологических, социально-философских аспектах, научным исследованиям, проводимым зарубежными и отечественными исследователями и учеными.

Annotation: The article describes the concept of creative competence and its study in pedagogical research. The main emphasis is on creativity, creative features, creative organization of education, its content and essence, scientific research conducted by foreign and domestic researchers and scientists on the pedagogical-psychological, socio-philosophical aspects of competence and creative competence.

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativ kompetentlik, kreativ xususiyatlar, ta'limni kreativ tashkil etish, kompetensiya, kreativ kompetensiya.

Ключевые слова: креативность, творческая компетентность, творческие характеристики, творческая организация образования, компетентность, творческая компетентность.

Key words: creativity, creative competence, creative characteristics, creative organization of education, competence, creative competence.



Mamlakatimizda soʻngi yillarda taʼlim sohasida amalga oshirilayotgan 3-Renessans talablari asosidagi oʻzgarishlar, taʼlim-tarbiya jarayonining samaradorligi va sifat koʻrsatkichlarini orttirish, kadrlar tarkibini sifat jihatdan yangilash, yuksak malakali, yetuk va raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashning meʼyoriy asoslari yaratilmoqda. “Xalq taʼlimi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, umumtaʼlim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilgʻor xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli taʼlim olish imkoniyatlarini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qoʻllagan holda yangi avlod darslik va oʻquv-uslubiy adabiyotlarini tayyorlash va chop etishni tashkillashtirish” ustuvor vazifa hisoblanadi. Natijada boʻlajak oʻqituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Buning natijasida kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, oʻquv jarayoniga xalqaro taʼlim standartlariga asoslangan ilgʻor pedagogik texnologiyalar va oʻquv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol usullardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Shundan kelib chiqqan holda taʼlim sohasida faoliyat yuritayotgan taʼlim ishtirokchilarining

yuksak mahoratli va kreativligi dolzarb hisoblanmoqda. Zamonaviy taʼlim jarayonida oliy taʼlim tizimining ahamiyati muhim sanaladi. Bunda albatta fan va tadqiqotlar bilan bir qatorda oliy pedagogik taʼlimda pedagog va talabalarning kreativ kompetensiyaga egaligi muhim rolni bajaradi.

Taʼlimning dinamik manzarasida zamonaviy pedagogik yondashuvlar jiddiy ilmiy izlanishlar mavzusi boʻlib, ushbu ilmiy izlanishlar uchun boy va qulay zamin yaratadi. Uning asosiy vazifasi talabalarni yangi bilimlarni oʻzlashtirishda tashabbuskorlik va mustaqillik koʻrsatishga undash, bu bilimlarni turli muammoli vazifalarni hal qilishda qoʻllash maqsadida izlash va topish yoʻllarini koʻrsatishdan iborat.

Kasbiy kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui boʻlib, u muayyan kasb doirasida samarali ishlash uchun oʻzaro munosabat, maʼlum sohadagi bilim, koʻnikma va tajribani mujassamlashtirishi hamda xulq-atvorni oʻz ichiga oladi.

Boʻlajak oʻqituvchilarni tayyorlash tizimini Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida modernizatsiyalash, pedagogik faoliyat samaradorligini taʼminlashning muhim shartlaridan biri ularning kreativ kompetensiyani rivojlantirishdir. Kreativ kompetensiyaga ega boʻlajak oʻqituvchilarni tayyorlash jamiyat taʼlim tizimining asosiy vazifalaridan sanaladi.

Soʻnggi yillarda kreativ kompetentlik muammosining mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq qilinishiga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatmoqdaki, kreativlik barcha sohalarning ajralmas



qismi, yoʻnalishi va strategik ahamiyatga ega jihati sifatida qaraladi. Shu maʼnoda oliy pedagogik taʼlim tizimida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida oʻquv jarayoni va бы жараёни talaba shaxsiga yoʻnaltirish nazarda tutiladi.

Tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan ilmiy adabiyotlar tahlili bugungi kunda boy tasavvurga, ijodkorona gʻoyalarga, keng maʼnoda kreativ sifatlarga ega boʻlmay turib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda yuqori natijalarga erishib boʻlmaydi.

Kreativlik, kreativ xususiyatlar, taʼlimni kreativ tashkil etish va uning mazmun-mohiyati, pedagogik-psixologik, ijtimoiy-falsafiy jihatdan xorijiy hamda respublikamiz tadqiqotchilimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Talabalarning innovatsion faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiya. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini toʻlaqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining maʼnoni tushunib olish talab etiladi. “Kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi gʻoyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Kreativlik termini angliya –amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo boʻldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi koʻnikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

Amerikalik olim J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni koʻrsatadi: - fikrining ravonligi; - fikrni maqsadga muvofiq yoʻllay olishi; - oʻziga xoslik (originallik); - qiziquvchanlik; - farazlar yaratish qobiliyati; - xayol qila olish, fantastlik (fantaziya) .

A.X.Maslou kreativlikni 2 turga boʻladi: isteʼdodning kreativligi va shaxsning oʻz - oʻzini aktuallashtirish kreativligi. Shaxsning oʻz - oʻzini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bogʻlanganligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy faoliyatning koʻp sohalarida duch kelishimiz mumkin.

A.X.Maslou kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida koʻradi, yaʼni barcha insonlardagi tugʻma qobiliyat, lekin hayoti davomida maʼlum ijtimoiy toʻsiqlar natijasida yoʻqolib ketadi deb hisoblaydi. Interfaol oʻqitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari quyidagilardan iborat.

Amerikalik psixolog E.P. Torrensning fikriga koʻra, kreativlik – individning nostandart, kreativ fikrlash qobiliyati, «muammo echimini topishda bilim va amaliy harakatlarning oʻzaro qarama-qarshiligiga nisbatan taʼsirchanlik, yangi farazlarni ilgari surish asosida muammolarning echimini izlash va topish, farazlarni aniqlash, tekshirish va oʻzgartirish, qaror natijalarini shakllantirish qobiliyatidir. [4].

Shuningdek kreativlikni mezonlari Dj.P.Gilford, E.P.Torrans tomonidan belgilangan : ravonlik: maʼlum bir vaqt oraligʻida koʻplab fikrlarni ishlab chiqarish qobiliyati; oʻziga xosligi: aniq, taniqli, umum eʼtirof etilgan, oddiy yoki qatʼiy belgilanganidan farq qiluvchi

g'ayrioddiy, nostandart g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati; sezuvchanlik: g'ayrioddiy detallarga sezgirlik, qarama-qarshilik va turli xil noaniqliklar, tezda bir fikrdan ikkinchisiga o'tishga tayyorlik; mo'tadillik: g'ayritabiiy kontekstda ishlashga tayyor bo'lish, ramziy, birlashtiruvchi fikrlashga moyillik, oddiy va murakkab sharoitda ko'rish qobiliyati; rivojlanish: paydo bo'lgan g'oyalarni batafsil ishlab chiqish, ularni sath va quyi tizimlarga aylantirish qobiliyati; to'xtashga qarshilik: bir xillikka qarshilik ko'rsatish, ya'ni muammoni yechish jarayonida kelib tushayotgan turli informatsiyalar andozalariga qarshilik ko'rsatish. noaniqlik: stimuldan mustaqil mantiqiy reaksiyagacha bo'lgan qobiliyat; "nomlash"ning mavhumligi: shaxsning muammo mohiyatini tushunish qobiliyati, aslida ahamiyatga ega bo'lgan nomni tushunish va aksini aks ettirish qobiliyati ("nomlash" jarayoni mufassal shaklni muammoning mohiyatini ko'rish qobiliyatini og'zaki shaklga aylantirish qobiliyatini aks ettiradi); ko'p vazifalilik: Bir vaqtning o'zida bir nechta loyihalarda ishlash qobiliyati; samaradorligi: mahsulotning yaroqliligi, ularning foydasi, mahsulotning maqsadli auditoriyasi tomonidan yangi, noyob, original bo'lishi haqidagi idrok; mamnuniyat: kreativlikning natijasi [5].

Kreativlik tushunchasini pedagogik jihatdan tahlil etib, kreativlikni yuzaga chiqarish va rivojlantirishga e'tibor qaratgan holda "pedagog kadrlarning kreativligini faoliyatli, samarali, shaxsiy, muhitga doir, muammoli aspektlarda ko'rib chiqish lozimligini" A.Aripdjanova o'z tadqiqotlarida aniqlagan [6].

Sh.Pozilova esa tadqiqot ishida "kreativlik deganda shaxsning nostandart

fikrlashi natijasida yangi, original g'oyalarni yaratishga qaratilgan faoliyati" degan xulosani beradi [7].

Kreativlik tushunchasi nafaqat pedagogikada, balki psixologiya va falsafa sohalarida ham yuqori qiziqish bilan o'rganiladi. Falsafa ensiklopediya lug'atida kreativlik (lotincha "creo" -ijod etmoq, yaratmoq) berilgan jarayon va muammolarni noodatiy ko'rinishda echimini topishga yo'naltirilgan ijodiy o'zgarishlarga bo'lgan qobiliyat sifatida tavsiflanadi.

Kreativlikka psixologik nuqtai nazardan "insonning ijodiy imkoniyatlarini namoyon bo'lishi (fikrlash, xis-tuyg'ular, muloqot, shaxsiy faoliyat) sifatida qaraladi va umumiy holda uning alohida jihatlarini, faoliyat mahsulotlarini, ularni yaratish jarayonini tavsiflaydi" deya ta'rif beriladi.

Kreativlik atamasini o'rganish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilgan va bu izlanishlar nazariy-amaliy jihatdan ma'lum natijalarga olib kelgan bo'lsa-da, kreativlikning yagona va izchil nazariyasi hali ham mavjud emas, ya'ni ko'p tadqiqotchi-olimlar tomonidan turli xil ta'riflar va qarashlar mavjud.

Z.T.Nishanova o'zining doktorlik dissertatsiyasida kreativlikning ko'plab ta'riflarini tahlil qilib, ijodiy fikrlashning modelini yaratadi. U "ijodiy fikrlashni tushuncha, tasavvur, bilim, ko'nikma, fikr, motivatsiya va e'tiqodga asoslangan holda yaratish lozimligini ta'kidlaydi"[8]. Uning ijodiy fikrlash negiziga tasavvurni belgilashi ham bejiz emas, negaki fikr, g'oya, amalga oshirilayotgan bir ish-harakat, voqelik, avvalo, shaxs tasavvurida paydo bo'lib, tushunchalarni anglash, bilim, ko'nikmalarni egallash va



vaziyatga nisbatan motivatsiyaning uygʻonishi natijasida, Z.T.Nishanova tahliliga koʻra, insonda ijodiy fikrlash jarayoni yuzaga keladi [8].

Biz tomonimizdan oʻrganilgan adabiyotlar, tahlil etilgan tadqiqot ishlari shuni koʻrsatdiki, yuqori darajadagi kreativ shaxslar namunali intellektga ega boʻlishi mumkin, ammo yuqori intellekt egalari har doim ham kreativ boʻlolmaydi.

Shaxs kreativlik darajasiga koʻtarilish uchun boshqalardan farqli holatda qoʻshimcha mustaqil izlanishi, tasavvur va qobiyatlarini rivojlantirishga intilishi, tarixiy va zamonaviy adabiyotlarni ijodiy, ilmiy jihatdan erkin tahlil etishi, dunyo oʻzgarishlaridan xabardor boʻlishi, buning uchun ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlaridan unumli foydalanishi, oʻquv jarayonida erkin fikrlar yuritishi, yangi bilimlarni qiziqish hamda ishtiyoq bilan oʻzlashtirishi, oʻz-oʻzini nazorat qilib borishi lozim.

Maʼlumki, har qanday shaxs oʻz kasbiy bilimlarining oʻsishi natijasida muayyan faoliyat tajribasini egallaydi. Shuning uchun shaxs oʻzining kreativligi bilan oʻz kasbiy faoliyat tajribasini yaratishi, takomillashtirishi lozim. Bunday tajribalarni talabalar oliy taʼlim muassasalarida taʼlim-tarbiya olish natijasida oʻzlashtirib, butun hayoti davomida boyitib boradi. Shunday ekan, talabalar taʼlim jarayonida nafaqat nazariy bilim asoslarini oʻzlashtirishi, balki sohaga yoʻnaltirilgan kasbiy kompetensiyalarni egallash, kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga ham alohida eʼtibor qaratishi maqsadga muvofiq.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda va rivojlangan davlatlar qonunchiligida

taʼlim natijalari nafaqat bilim, koʻnikma va malakalar orqali, balki shaxsning taʼlim jarayonida egallagan kompetensiyalari orqali aniqlanishi taʼkidlanadi. Kompetensiya - bu oliy kasbiy taʼlim mazmuni uchun ayniqsa muhim boʻlgan, oʻquv jarayonining rejalashtirilgan maqsadi, u mutaxassis uchun kasbiy faoliyat talablari va uning malakasi asosida shakllanadi.

“Kompetensiya” lotincha soʻz boʻlib, erishaman, toʻgʻri kelaman degan maʼnolarni bildiradi”

“Kompetensiya” atamasi tilshunoslikda ilk bor XX asrning 50-60-yillarida qoʻllangan va insonning biror faoliyatini amalga oshirish layoqatini anglatgan. A.Xutorskoy va A.Zimnyaya tomonidan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalariga berilgan taʼriflarda kompetensiya muayyan faoliyatda talab etiladigan xulq-atvor, oʻzini tutish, kompetentlik esa mana shu talabga moslik darajasi, kompetensiyani namoyon qilishning natijasi deb talqin etilgan.

V.Serikov “kompetensiyani shaxsiy oʻzini oʻzi anglashga hissa qoʻshadigan bilim, koʻnikma, taʼlimning mavjudligi” sifatida belgilaydi va “kompetentlikni esa hayot davomida mohirona bajarilgan harakat” deb izohlaydi

E.F.Zeepning taʼrifiga koʻra, kompetensiya deganda, “faoliyatning adekvat meʼyoriga aylanadigan, bilim, koʻnikma, malaka va faoliyat qobiliyatlari va qadriyatli motivatsion komponentlarini oʻz ichiga olgan interaktiv konstruksiyalar” tushuniladi.

Kompetensiyalar shaxsning mustaqilligiga, oʻquv va amaliy

faoliyatda ko‘zlangan muvaffaqiyatiga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

V.D.Shadpikovning so‘zlariga ko‘ra, kompetensiyalar shaxsning biror kasbiy tayyorgarlik jarayonida shakllanadi va yuzaga kelgan funksional vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon yaratadigan bilim, ko‘nikma, qobiliyat va shaxsiy xususiyatlarining tizimli namoyon bo‘lishini nazarda tutadigan faoliyat sub‘ektining yangi bir turi hisoblanadi.

Kompetensiya – sub‘ektning maqsadni qo‘yish va unga erishish uchun tashqi va ichki imkoniyatlarni samarali birga tashkil qila olishga tayyorgarligi, sub‘ektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir. N.M.Muslimovning ta‘kidlashicha inglizcha “competence” tushunchasining lug‘aviy ma‘nosi “qobiliyat” demakdir, biroq “kompetensiya atamasi bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatini ifoda etishga xizmat qiladi” [9].

B.X.Xodjaev “kompetensiya” tushunchasiga berilgan aksariyat ta‘riflar kasbiy ta‘lim, kasbiy faoliyat bilan bog‘liqligini bayon etib, ushbu tushunchani umumiy o‘rta ta‘lim bilan bog‘lagan holda ta‘rif beradi. U kompetensiyani “ma‘lum bir sohada samarali produktiv faoliyat uchun zarur bo‘lgan, o‘quvchining avvaldan belgilangan ta‘limiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar (me‘yorlar)dan ham o‘zib ketishidir” deb ta‘kidlaydi [10].

Bugungi kunda ta‘lim jarayonida faol foydalanilib, ijobiy natija berayotgan kompetensiya tushunchasini imkon qadar tahlil qilib va umumlashtirgan holda ushbu tushunchani oliy ta‘lim talabasi

shaxsiga qarata quyidagicha izohlash mumkin: “Kompetensiya” – bu talabaning ma‘lum yo‘nalishda bilimlarni o‘rganish va egallagan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini tizimlashtira olish, amaliy faoliyatida samarali, muvaffaqiyatga etaklovchi tarzda qo‘llay bilishga yo‘naltirilgan tayyorgarligidir. Izlanishlar davomida olimlar va tadqiqotchilar asosli tarzda turli kompetensiya tasniflarini taklif etganliklarini ko‘rdik va tahlillar natijasida “kompetensiya” tushunchasining yagona tasnifi va umum tan olgan mohiyati mavjud emasligi aniqlandi.

Fikrimizcha, kreativ kompetensiya talabalarda individual holatda o‘z vazifasiga ijodiy yondashish, muammoli vaziyatlar yuzaga kelganda ijobiy yechim topa olish, o‘zini-o‘zi to‘ldirish, mustaqil qarorlar qabul qilish malakalari, qobiliyatlari va o‘z-o‘zini rivojlantirishini belgilaydigan talaba shaxsining sifatlariga qo‘yilgan talablar bo‘lib, u bo‘ljak o‘qituvchilarining kelgusi kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda ahamiyatli sanaladi.

Talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish uning jamiyatda o‘z imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishiga ta‘sir qilib, talabalik davriga qadar shakllangan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilganini alohida hisobga olish lozim. Chunki talabada oliy ta‘lim muassasasiga kelgunga qadar ma‘lum kompetensiyalar shakllangan bo‘ladi. Tanlangan metodika ularni rivojlantirishga qaratilishi lozim. Talabalarning o‘zini o‘zi shakllantirishi, rivojlantirishi va o‘zini o‘zi namoyon eta olishi, kreativ kompetensiyalarini takomillashtirishi bevosita pedagogga ham bog‘liq jarayon



hisoblanadi. Pedagoglarning pedagogik kompetentlikni egallashi, kreativlik qobiliyatlarini namoyon etishi, pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga erishishi, ilmiy-tadqiqot ishlaridagi faolligi, ilmiy loyihalarni amalga oshirishga tayyorligi va talaba shaxsi bilan o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari, ularda kreativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim mazmunini nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy jarayon bilan bog‘lash, real hayot bilan tasniflash: ta’lim jarayonini tashkil etishda nazariy bilim bilan uzviylikda amaliy faoliyatni ham yo‘lga qo‘yish, talabaning bilimlarini mustahkamlanishiga, o‘z qobiliyatlarini amalda bevosita qo‘llay olishga, o‘rganilayotgan voqelikni jonli kuzatish va real hayotga mor ishonchli g‘oyalar yaratishga yordam beradi; talabaning o‘quv faoliyatigina emas, balki mustaqil ta’lim jarayonidagi faoliyatini samarali va ijodiy yo‘naltirish: talabada kreativ kompetensiyani rivojlantirishga erishish uchun uning ta’limdan tashqari faoliyat jarayonini ham e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi.

Talabalarni reja asosida ishlashga o‘rgatish kerakki, ular mustaqil ta’limni tashkil etishda ham o‘z ustida ishlashi, noodatiylik yaratishga o‘rgatish ko‘pincha kichik va oddiy yangiliklar katta kashfiyotlar qilishga zamin bo‘ladi;

-ta’lim jarayonida muammoli ta’limdan foydalanish, muammoli vaziyatlarni qo‘llash, kreativ o‘qitishga oid metodlarni tatbiq etish:

Muammoli ta’limdan foydalanish va muammoli vaziyat yaratish – talabaning faolligini oshirish, mustaqil, ijodiy, ilmiy izlanish, o‘zi uchun yangi

bilim, ko‘nikma va malakalarni kashf etishga yo‘naltirishdan iboratdir.

Talabalarda, xususan, bo‘lajak pedagoglarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish ta’limga qo‘yilgan maqsadlarga tezroq, samaraliroq erishishga, nafaqat mavzuni, balki amaliy jarayon natijalarini tahlil etishga, shuningdek, ularni mashg‘ulotlardan mamnun bo‘lishiga imkon beradi. Imkon qadar ta’lim jarayonida har bir fan doirasida talabaning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga ahamiyat qaratish, ularda keyingi kasbiy kompetensiyalarni samarali tarzda shakllanishiga va takomillashuviga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, rivojlantirish jarayonida ta’lim mazmunini qayta ko‘rib chiqish va zamon talablari asosida yangilash muhim sanaladi. Ta’lim muhitini yangilash degani, albatta, o‘tmishning ijobiy g‘oyalaridan, tajribalaridan voz kechish degani emas, balki o‘tgan davr davomidagi ilmiy salohiyatga tayanish, milliy va umumbashariy, ma’naviy merosni amaliyotga tatbiq etish hamda xorijiy tajribalarning ijtimoiy-ma’daniy, foydali va samarali jihatlarini o‘zimizga moslagan holda ijtimoiy hayotga olib kirish lozim.

Insoniyat dunyosi hamisha yangilikka intiladi, yangi g‘oya va yangicha faoliyat nafaqat kundalik hayotimiz, avvalo, ta’lim-tarbiya tizimi uchun muhim sanaladi. Ta’limda, ilm-fan sohasida yangilik yaratish oson masala emas, bu ko‘p mashaqqat, mehnat va tinimsiz izlanishni, atrofdagi insonlardan ko‘ra kengroq fikr-mulohaza yuritishni, kreativlikni talab etadi. Hozirda rivojlanayotgan dunyo, bugungi real



hayotning har sohasi uchun kreativ shaxs va uning g'oyalari zarur desak, mubolag'a bo'lmas.

Xulosa qilganda, uchinchi Renessansni qurishda, albatta, kreativ kompetensiyaga ega yoshlar va ularning amaliy faoliyati zarur. Shu nuqtai nazardan bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik jihatdan zarurat ekanligi ayni haqiqat. Shu ma'noda ta'limning strategik vazifalarini hal qilishning samarali yondashuvlarini izlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu ta'lim siyosati va amaliyotini yanada rivojlantirishga

qaratilgan bo'lib, sifatni ta'minlash mexanizmlarini o'z ichiga olishi kerak. Bu sa'y-harakatlar birgalikda bo'lajak o'qituvchilarini o'qituvchi sifatidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan malaka, ko'nikma va bilimlar bilan qurollantirish, talabalarda fanni chuqurroq anglash va qadrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni <https://lex.uz>
2. Guilford, J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 454.
3. Maslow, A. The Farther Reaches of Human Nature NY: Viking, 1971. Harmondworth, Eng: Penguin Books, 1973. Contents.
4. Torrance E.P. The nature of creativity as manifest in the testing // R.Sternberg, T.Tardif (eds). The nature of creativity. Cambridge: Cambr. Press. –1988. – P. 43-75.
5. Guilford J.P. Creativity // American Psychologist. – 1950. – Vol. 5, Issue 9, – P. 445.
6. Aripdjanova A. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish: ped. fanl. bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... dis. avtoref. – T.: 2017. – 129 b.
7. Pozilova Sh.X. Oliy ta’lim muassasalari tinglovchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida kreativ o‘qitish metodikasi: ped. yo‘na. bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. – T.: 2019. – 160 b.
8. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni pivojlantirishning psixologik asoslari: psix. fan. doktopi ...diss. T.: 2005. – B. 98.
9. Muslimov N.A., Uchmonboeva M.H., Cayfupov D.M., To‘paev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / – T.: Sano standapt, 2015.
10. Xodjayev B.X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish: ped. fanl. doktori ...diss. –T.: 2016. – B.76-77.

Axborot

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi hamda Ozarbayjon davlat tasviriy san’at akademiyasi o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolangan. Ushbu hamkorlik doirasida O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tizimidagi ixtisoslashtirilgan san’at maktablarining bir guruh o‘qituvchilari Ozarbayjon davlat tasviriy san’at akademiyasida stajirovkada bo‘lib qaytishdi. Tashrifning dastlabki kunida o‘qituvchilarimiz akademiya xodimlari bilan birgalikda Ozarbayjon milliy tasviriy san’at muzeyiga tashrif buyurdilar. Shuningdek, akademiya faoliyati va dars jarayonlari bilan yaqindan tanishdilar. Talabalar uchun mahorat darslari ham tashkil etildi.



Shu kabi hamkorliklar badiiy ta’lim tizimini rivojlantirish hamda mutaxassislarning o‘zaro tajriba almashishlari uchun xizmat qilmoqda.

Joriy yilning 19-mart kuni A.L. Shtiglits nomidagi Sankt-Peterburg davlat san’at va sanoat akademiyasi bilan O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi hamkorligida Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari uchun Rangtasvir moduli doirasida ma’ruza mashg‘uloti o‘tkazildi. Ma’ruzada, san’at ta’limi yo‘nalishida pedagog va mutaxassis kadrlarning malakasini oshirish, zamonaviy metodikalar va xalqaro tajriba almashish masalalari muhokama qilindi. Mashg‘ulot davomida, tinglovchilar yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ldilar hamda o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar. Ma’ruza mashg‘ulotini rassomlik kafedrasida katta o‘qituvchisi Leuxin Anton Aleksandrovich, olib bordi.



**JURNAL O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI HUZURIDAGI
BADIY TA'LIM YO'NALISHLARIDA PEDAGOG VA
MUTAXASSIS KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH HAMDA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZINING
RASMIY WEB-SAYTIDA E'LON QILINGAN**



www.uzbamarkaz.uz